


SUHROB BO'RONOV

O'ZBEKISTON

GEOSIYOSATI

O'QUV QO'LLANMA



TOSHKENT 2021

5-99
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA-MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK
UNIVERSITETI

Suhrob BO'RONOV

O'ZBEKISTON GEOSIYOSATI

5120700 – Jahon siyosati bakalavriat
ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun
o'quv qo'llanma



Toshkent
«EFFECT-D» – 2021

U'OK: 327(575.1)

KBK: 66.4ya73

B 99

Taqrizchilar:

R.Z. Jumayev – siyosiy fanlar doktori, professor;

M.M. Muhammadsidiqov – siyosiy fanlar doktori, professor;

D.B. Sayfullayev – tarix fanlari doktori, dotsent.

B 99

O'zbekiston geosiyosati. O'quv qo'llanma. S.Bo'ronov;
– T.: "EFFECT-D", 2021. – 220 b.

Mazkur o'quv qo'llanma O'zbekistonning Markaziy Osiyo va Afg'oniston yo'nalishidagi geosiyosatiga bag'ishlangan. Unda geosiyosatning klassik va zamonaviy paradigmalari, O'zbekiston geosiyosatining nazariy asoslari, Markaziy Osiyo mintaqasida yirik va mintaqaviy kuchlarning geosiyosiy raqobati hamda mintaqadagi O'zbekiston geosiyosati, shuningdek, afg'on muammosini hal etish jarayonlarida O'zbekiston geosiyosiy yondashuvlari masalalari o'z aksini topgan.

O'quv qo'llanma jahon siyosati va xalqaro munosabatlar yo'nalishlarida tahsil olayotgan talabalar uchun mo'ljallangan bo'lib, namunaviy dastur asosida tuzilgan.

O'quv qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta-maxsus ta'lim vazirligining 2021-yil 18-avgustdagi 356-sonli buyrug'i bilan nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9943-7430-5-2

© Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, 2021

© "EFFECT-D", 2021

MUNDARIJA

KIRISH	5
---------------------	----------

GEOSIYOSAT VA ZAMONAVIY PARADIGMALAR.....	7
Geosiyosat tushunchasi va uning mazmun-mohiyati	9
Geosiyosatning klassik nazariyalari.....	10
Geosiyosatning zamonaviy paradigmalari	16

O‘ZBEKISTON GEOSIYOSATINING NAZARIY ASOSLARI	22
O‘zbekiston geosiyosati ustuvor yo‘nalishlari	24
Geografik determenizm.....	26
Demografik ustunlik	29
Harbiy qudrat va mintaqaviy xavfsizlik omili.....	31
Savdo-iqtisodiy imkoniyatlar va tabiiy-xomashyo resurslari.....	35
Intellectual, madaniy-ma’rifiy salohiyat va milliy-mintaqaviy g‘oyalar	37

XALQARO KUCH MARKAZLARINING MARKAZIY OSIYODAGI GEOSIYOSIY MANFAATLARI.....	40
AQShning Markaziy Osiyodagi geosiyosiy manfaatlari	42
Rossianing Markaziy Osiyodagi geosiyosiy manfaatlari.....	53
Xitoyning Markaziy Osiyodagi geosiyosiy manfaatlari	61

MINTAQAVIY KUCH MARKAZLARINING MARKAZIY OSIYO MINTAQASIDAGI GEOSIYOSIY MANFAATLARI.....	64
Turkiyaning Markaziy Osiyodagi geosiyosiy manfaatlari.....	66
Hindistonning Markaziy Osiyodagi geosiyosiy manfaatlari	69
Pokistonning Markaziy Osiyodagi geosiyosiy manfaatlari	76
Eronning Markaziy Osiyodagi geosiyosiy manfaatlari	79

MARKAZIY OSIYO MINTAQASIDA O‘ZBEKISTON GEOSIYOSATI	82
Markaziy Osiyo mintaqasining tarixiy va geosiyosiy talqini	84
Katta Markaziy Osiyo konsepsiyasi	89
O‘zbekiston geosiyosatida Markaziy Osiyo	94
O‘zbekistonning Shanxay Hamkorlik Tashkilotidagi nufuzi.....	104
O‘zbekistonning Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashidagi roli ...	111
O‘zbekistonning Yevroosiyo Iqtisodiy Ittifoqi bilan hamkorlik jarayonlarining geosiyosiy jihatlari	118

O'ZBEKISTON GEOSIYOSATIDA TRANSAG'ON

LOYIHALARI	122
Transag'on koridorining geosiyosiy jihatlarini	124
"Mozori Sharif-Hirot" temir yo'li loyihasi	145
"Mozori Sharif-Kobul-Peshovar" temir yo'li loyihasi	156
"Surxon-Puli Xumri" elektr energiyasi loyihasi	165

O'ZBEKISTON GEOSIYOSATIDA AG'ON MUAMMOSI.....172

1992-2017-yillarda O'zbekiston tashqi siyosatida ag'on muammosi	175
2017-yildan hozirgi vaqtgacha O'zbekistonning ag'on muammosini hal etishdagi geosiyosiy yondashuvlari	178
Afg'onlararo darajadagi diplomatiya	182
Mintaqaviy darajada diplomatiya	186
Global darajada diplomatiya	192

XULOSA

GLOSSARIY.....

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

KIRISH

Bugungi kunda O'zbekiston nafaqat mintaqada, balki jahon miqyosida pragmatik va konstruktiv tashqi siyosati orqali ijobiy imijni shakllantirmoqda. O'zbekiston tashqi siyosatining ustuvor yo'nalishi Markaziy Osiyo mintaqasi va Afg'oniston bo'lib, mamlakatimizning mintaqadagi siyosiy yondashuvlari Markaziy Osiyoni xavfsiz, barqaror va taraqqiy etgan makonga aylantirishdan iborat. O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'biri bilan aytganda, "O'zbekiston bugungi kunda o'zining tashqi siyosatida Markaziy Osiyo mintaqasiga ustuvor ahamiyat qaratmoqda. Bu — har tomonlama chuqur o'ylab tanlangan yo'ldir. Markaziy Osiyoning qoq markazida joylashgan O'zbekiston ushbu mintaqa barqarorlik, izchil taraqqiyot va yaxshi qo'shnichilik hududiga aylanishidan manfaatdordir". Bunday siyosatni amalga oshirish uchun esa geosiyosat nazariyalarida ko'zda tutilgan salohiyat vositalariga ega bo'lish va undan samarali foydalanish imkoniyatlarini ko'rib chiqish zarur bo'ladi.

Afg'onistondagi beqaror va notinch vaziyat jahon siyosatiga ta'sir ko'rsatuvchi global muammolardan biri hisoblanadi. Afg'on zaminida davom etayotgan qurolli nizolar, mojaroga yangi kuchlarning jalb etilishi va manfaatdor tashqi kuchlar siyosatida yangi geosiyosiy tendensiyalar kuzatilmogda. Natijada mazkur mojar o'z keskinligi va jiddiyligini saqlab qolmogda. Shundan kelib chiqib, Afg'onistonda tinchlikka erishish bo'yicha ko'p qirrali va murakkab masalalar mintaqaviy va xalqaro miqyosda dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Afg'oniston zaminida tinchlikni ta'minlash va uzoq yillik urushni bartaraf etish bo'yicha turli ko'rinishdagi yangicha qarashlar vujudga kelmogda. Xorijiy harbiy kuchlarning Afg'oniston hududini tark etishi va bu bilan hamohang ravishda "Tolibon" hokimiyati o'rnatilishi, o'z navbatida ushbu mamlakatdagi ichki ziddiyatlar va barqaror iqtisodiy rivojlanish masalalari ilmiy jihatdan alohida qiziqish uyg'otmogda. Shu bois tadqiqotlarda asosiy diqqat-e'tibor

tashqi kuchlarning Afg'oniston ichki ishlariga ta'siri bilan bog'liq geosiyosiy jihatlariga qaratilmoqda. Bu o'rinda Afg'onistonga global tinchlik va xavfsizlikka tahdid manbayi sifatida emas, balki jahon va mintaqa taraqqiyotining strategik imkoniyatlar omili sifatida qarash yondashuvi tadqiqotlarning asosiy obyektiga aylanib, muammoni hal etishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish muhimligini tobora ustuvor yo'nalishga aylantirmoqda.

O'zbekiston mustaqillikning ilk yillaridan Afg'onistondagi notinch vaziyatga jahon hamjamiyatini keng jalb etib, muammoni faqatgina siyosiy yo'l bilan hal qilish lozimligini birinchilardan bo'lib ma'lum qilgan edi va hozirda ham bu borada bir qator aniq qadamlarni amalga oshirmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Afg'oniston xavfsizligi — bu O'zbekiston xavfsizligi, butun bepoyon Markaziy va Janubiy Osiyo mintaqasi barqarorligi hamda taraqqiyotining garovidir... Hech shubhasiz, oxir-oqibatda afg'on zaminida tinchlik o'rnatilishi bepoyon Yevroosiyo qit'asidagi barcha davlatlar uchun yangi imkoniyatlar ochadi va real naf keltiradi". Shu nuqtayi nazardan Afg'onistonda vaziyatni barqarorlashtirishning geosiyosiy va geoiqtisodiy jihatlarini, O'zbekistonning Afg'oniston hududida transport, energetika va boshqa infratuzilmaviy loyihalarni amalga oshirish siyosatida erishgan tajribasi Markaziy Osiyo mintaqasini Afg'oniston orqali Janubiy Osiyo va Fors ko'rfazi mintaqalari bilan bog'lashda Respublikamizning mintaqaviy va xalqaro diplomatiyasi yo'nalishlarida yangi adabiyotlarni yaratish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'quv qo'llanmada keltirilgan ma'lumotlar, turli atamalar, xaritalar, jadvallar va mulohazalar geosiyosatga qiziquvchilar uchun foydali bo'lishiga umid bildiramiz.

Reja:

1. Geosiyosat tushunchasi va uning mazmun-mohiyati
2. Geosiyosatning klassik nazariyalari
3. Geosiyosatning zamonaviy paradigmalari

O'quv mashg'ulotining maqsadi: Geosiyosat tushunchasi va unga doir klassik va zamonaviy paradigmalar mohiyati haqida ma'lumotlar berish.

Tayanch so'z va iboralar

Geosiyosat, geografik organizm, siyosiy geografiya, Heartland (Yerning yuragi), Rimland (qirg'oqbo'yi hududlar), mondializm, Yagona dunyo (One World), paradigma, tellurokratiya, talassokratiya, aerokratiya, efirokratiya, airland, geoiqtisod, geostrategiya, geomafkura, geosivilizatsiya, geoaxborot, geodiplomatiya.

Geosiyosat tushunchasi va uning mazmun-mohiyati

Jahon siyosiy xaritasining tubdan o'zgarish jarayonlari ma'lum mintaqalardagi o'zaro kurash va raqobatning hosilasi o'laroq shakllangan. Uzoq yillar davomida makon va hududlarni harbiy yo'l bilan egallash, uni mustamlakaga aylantirish va doimiy nazorat o'rnatish klassik geosiyosiy nazariya va qarashlarning amaliy ifodasi sifatida namoyon bo'ldi. Vaqt o'tgan sari geosiyosiy nazariyalar va uning amaliyoti o'zgarib bordi, yangi ilmiy qarashlar, qonuniyatlar va konsepsiyalar paydo bo'ldi. Garchi imperialistik mexanizmlar barham topib, kurash va raqobatning shakl va usullari bugungi kunda o'zgargan bo'lsa-da, strategik ahamiyatga molik hududlar va mintaqalarda o'z ta'sirini saqlab qolish jarayonlari tabiiy ravishda davom etib kelmoqda. Buni juda ko'plab siyosatchilar hamda siyosiy fan olimlari "geosiyosat" iborasi bilan ifodalashadi.

Xalqaro munosabatlarda "geosiyosat" iborasining paydo bo'lishi XIX asr oxiri va XX asr boshlariga to'g'ri keladi. Geosiyosat keyingi yillarda nafaqat alohida fan tarmog'i sifatida shakllandi, balki dunyoda ro'y berayotgan siyosiy jarayonlarni izchil anglash vositasi va ehtiyoji sifatida rivojlanib bordi. Ushbu ibora ilk bor 1899-yilda shved olimi Rudolf Chellen tomonidan ilmiy doirada qo'llanilgan va shu boisdan uni ba'zi manbalarda "geosiyosat otasi" deb atashadi. R.Chellen geosiyosatni davlatga nisbatan "geografik organizm yoki fazoviy fenomen sifatida qaraydigan ta'limot", deya ma'lum qiladi¹. Olimning geosiyosat borasidagi g'oyalarini metodologiyaning sistemali yondashuv usuli bilan baholash mumkin. Boshqacha aytganda, R.Chellen hududlardagi mavjud siyosiy voqeliklarni tizimlashtirgan holda "geosiyosat" iborasi orqali ilmiy shaklga keltirdi. Biroq mazkur iboraning keng ommalashuvida nemis olimi Fridrex Ratselning 1897-yilda chop etilgan "Siyosiy geografiya" asari turtki bo'lgani

¹ Rudolf Kjellen and the origin of geopolitics.

<https://geopoliticsresearch.wordpress.com/2015/04/21/rudolf-kjellen-and-the-origin-of-geopolitics/>

ko'pchilikka ma'lum. F.Ratsel o'z asarida "davlat biologik qoidalar asosida harakatlanadigan tirik organizm hisoblanadi"¹ degan tezisni ilgari surdi. Uning qarashlariga ko'ra davlat xuddi daraxt singari yerda ildiz otadigan jonli organizm mahsuli bo'lganligi sababli uning mavjud xususiyati aynan hududi va joylashuvi, taraqqiyoti esa atrof-muhitga qanchalik muvaffaqiyatli moslashishi bilan belgilanadi. R.Chellen va F.Ratselning geosiyosat borasidagi dastlabki qarashlarini Markaziy Yevropaning jahon maydonidagi o'rni va ta'sirini belgilashga qaratilganligi bilan izohlashimiz mumkin.

Jahon siyosiy xaritasi o'zgarishi va imperialistik siyosatning bir qator ko'rinishlarini amaliyotga tatbiq etish uchun yangi geosiyosiy nazariyalar va konsepsiyalarga ehtiyoj tobora ortib bordi. Natijada jahon geosiyosiy makonida bir qator paradigmatlar birin-ketin paydo bo'ldi.

Geosiyosatning klassik nazariyalari

Klassik geosiyosatning markaziy nazariyalari yaratilishida H.Makkinder, A.Mehen, N.Spaykmen, K.Xausxofer va boshqa bir qator nazariyotchilarning salmoqli hissasi mavjud. 1904-yilda ingliz olimi H.Makkinder "Tarixning geografik o'qi" nomli ma'ruzasini "Geografiya jurnali"da chop etdi va bu fan tarixidagi eng yorqin geosiyosiy matnga aylandi. H.Makkinder davlat uchun eng qulay geografik joylashuv bu uning markazidir, deb hisoblaydi. Uning qayd etishicha, butun jahon nuqtayi nazaridan yerning markazida Yevroosiyo qit'asi, uning markazida esa "Heartland" (Yerning yuragi) joylashgan. Shundan kelib chiqib, H.Makkinder quyidagi konsepsiyasini ilgari surdi: "Kim Sharqiy Yevropada hukmronlik qilsa, u "Heartland" ustidan hukmronlik qiladi, kim "Heartland" ustidan hukmronlik qilsa, dunyo orollarini boshqaradi, dunyo orollarini boshqargan, butun dunyoni boshqaradi"². Alohida qayd etish joizki, H.Makkinderning geosiyosiy qarashlari bir

¹ Гаджиев К.С. Геополитика. Учебник / 4-е изд. — М.: Юрайт, 2011. — С. 15.

² Mackinder H. J. Democratic Ideals and Reality: a Study in the Politics of Reconstruction. New York: Henry Holt, 1919. — P. 186.

qator tadqiqotchilarning qiziqishlariga sabab bo'ldi. Bunday qiziqishlarning asosiy sababi Yevroosiyoda sodir bo'layotgan geosiyosiy tendensiyalar bilan bevosita bog'liq ravishda ro'y berdi. Ayniqsa, AQSh Prezidentining milliy xavfsizlik bo'yicha sobiq maslahatchisi, geostrateg Z.Bjezinskiy "Buyuk shaxmat doskasi" asarida Yevroosiyoning geosiyosiy ahamiyatiga urg'u berib, shunday yozadi: "Yevroosiyoyo yer sharidagi eng katta qit'a sanaladi va geosiyosiy munosabatda markaziy o'rinni egallaydi. Yevroosiyoni boshqargan davlat rivojlangan va dunyo iqtisodiy ishlab chiqarish hududlarining uchdan ikki qismini nazorat qiladi. Yevroosiyoyo nazorati o'z-o'zidan, deyarli dunyo markaziy qit'asining geosiyosiy pereferiyasi¹da joylashgan Okeaniya va G'arbiy yarimshar hamda Afrikani o'ziga bo'ysundirish demakdir. Yevroosiyoda dunyo aholisining 75 foizi istiqomat qiladi, dunyo tabiiy boyliklarining katta qismi shu yerda va uning ostida joylashgan. Shu tariqa Yevroosiyoyo o'zida global boshqaruv uchun kurashga chorlaydigan shaxmat doskasini namoyon etadi"².

Jahon geosiyosiy boshqaruvida Amerikaning qudratini belgilovchi qarashlardan biri amerikalik admiral A.Mehenga ham tegishli. A.Mehen "Dengiz qudratining tarix uzra ta'siri (1660-1783)" deb nomlangan kitobida dengiz qudratiga (Sea Power) ega bo'lish jahon hukmronligining asosiy omili hisoblanishini yozadi³. Uning fikriga ko'ra davlatning dengiz qudratiga ta'sir etuvchi asosiy shart-sharoitlari quyidagi tushunchalarda o'z aksini topadi:

- *Geografik joylashuv*. Bunday joylashuv faqat dengiz kuchlarini markazlashtirish bilan emas, balki ehtimoliy dushmanlarga qarshi amaliyotlarni amalga oshiruvchi mustahkam baza sifatida ko'rinishi zarur.

¹ Pereferiya – strategik markazlardan ajralib qolgan, mustaqil geosiyosiy yo'nalishga ega bo'lmagan yer yoki makon.

² Бжезинский З. Великая шахматная доска. [пер. с англ. О. Уральской]. – Москва: Издательство АСТ, 2019. – С. 59-63.

³ Mahan A.T. The influence of Sea Power upon history (1660-1783). – Boston, 1890. – P. 29-58.

- *Jismoniy tuzilish*. Agar davlat ulkan kema bo'lsa-da, uning qirg'oqlari bo'lmasa, u holda bunday davlatning na o'z dengiz savdosi, na ov qilishi va na dengiz floti mavjud bo'ladi.

- *Hudud qamrovi*. Dengiz qudratining rivojlantiruvchi omili uning hududiy doirasi dengiz qirg'og'igacha cho'zili-shidir.

- *Aholisi soni*. Aholi miqdorining ko'p ekanligi ulkan dengiz floti demakdir.

- *Milliy xususiyat*. Millatlarning savdo-sotiq bilan shug'ullanishida ularning milliy xususiyatini hisobga olish lozim.

- *Hukumat siyosati va uning o'ziga xos tabiati*. Dengiz bilan bog'liq barcha ishlarda hukumatning asosiy vazifasi ijtimoiy adolat va fuqarolarning xavfsizligini ta'minlashga qaratilishi zarur. Ta'kidlash kerakki, A.Mehenning "Sea Power" nazariyasi uzoq yillar davomida Amerika va Yevropa davlatlari geosiyosatiga o'z ta'sirini ko'rsatdi va imperialistik siyosatning tarkibiy qismiga aylandi.


Amerikaning o'z davridagi kelgusi geosiyosiy dasturlarini ishlab chiqishida kelib chiqishi gollandiyalik N.Spaykmenning ta'limotlari ham turtki bo'ldi. Uning yozishicha, "geografiya davlat tashqi siyosatining eng fundamental omili hisoblanadi, chunki bu omil doim mavjud"¹. N.Spaykmen dunyo kuchlarining uchta keng markazi — Shimoliy Amerikaning Atlantika sohili, Yevropa sohili va Yevroosiyoning Uzoq Sharq sohillarini alohida ajratib, Amerika bular orasida o'z geosiyosatini ko'proq Yevropa sohiliga qaratishi maqsadga muvofiq, deya ta'kidlaydi. H.Makkinder modelidan farqli ravishda N.Spaykmen geosiyosiy sxema bo'yicha o'z variantini taklif qiladi. Uning g'oyasiga ko'ra jahon hukmronligiga yo'l Heartland emas, Rimland (qirg'oqbo'yi hududlar) hisoblanadi. Shu boisdan, N.Spaykmen H.Makkinder formulasiga quyidagicha o'zgartirish kiritadi: "Kim Rimland ustidan hukmron bo'lsa, Yevroosiy o ustidan hukmron bo'ladi, kim Yevroosiyoni boshqarsa, u dunyo taqdirini o'z qo'liga oladi"². Tabiiyki, N.Spaykmenning geosiyosiy g'oyalari A.Mehen

¹ Spykman N. America's strategy in world politics. New York.: 1942. — P. 41.

² Дугин А. Основы геополитики. <http://ratnikjournal.narod.ru/zip/Dugin.Geopolitika.pdf>. — С. 35.

tomonidan ishlab chiqilgan konsepsiya bilan o'xshash bo'lib, uning mantiqiy davomi, deyish mumkin.

Yevropa gesiyosatining ko'zga ko'ringan nazariyotchilaridan yana biri nemis professori K.Xausxofer hisoblanadi. Professor K.Xausxofer geosiyosiy nazariyalarida asosiy e'tiborini Uzoq Sharqqa qaratadi. U shuningdek, jahon siyosiy tizimida tartib o'rnatishda Germaniyaning rolini e'tirof etib, pang'oyalar formulasini taklif etadi. Keyinchalik bu formulani K.Xausxofer panamerika, panosiyo, panrus, panisлом va panyevropa kabi nomlar bilan ataydi. 1941-yilda K.Xausxofer mazkur sxemani qayta ko'rib chiqib, uchta mintaqani asosiy o'rinda qoldiradi: AQSh boshchiligidagi panamerika, Yaponiya boshchiligidagi Buyuk Sharqiy Osiyo va Germaniya boshchiligidagi panyevropa¹.



Heartland va Rimland hududlari xaritasi

¹ Гаджиев К.С. Геополитика. Учебник / 4-е изд. – М.: Юрайт, 2011. – С. 20-21.

K.Xausxofer konsepsiyasi aynan o'sha davrda jahonda yuz berayotgan tub geosiyosiy o'zgarishlarni aks ettirgani bilan xarakterlanadi. Ushbu geosiyosiy g'oyaning e'tiborga molik jihati va ilgari mavjud qarashlardan farqi shundaki, uning tub negizida qudratli davlatlar o'z geosiyosatini yakka tartibdagi mexanizmlardan tashqari ittifoqlar va birlashmalar tuzish orqali amalga oshirishi mumkinligi ko'rsatib o'tiladi. Shu jihatdan ham K.Xausxofer o'zining qarashlarini H.Makkinderning geosiyosiy g'oyalariga moslashtirdi, boshqacha aytganda u Germaniyaning Yevroosiyo ustidan nazorat o'rnatishi lozimligiga asosiy e'tiborini qaratdi.

Geosiyosiy nazariyalar ichida "mondializm" nazariyasi alohida diqqatga sazovor va ilmiy qiziqishlarga chorlaydi. Ushbu nazariya "Yagona dunyo" (One World) utopik g'oyasiga asoslanadi. Uning tarafdorlari yagona jahon hukumati tuzilishi va umumjahon integratsiyasi loyihagini qo'llab-quvvatlaydi. Shuningdek, ular bu loyiha utopiya emasligini Millatlar Ligasi, keyinchalik Birlashgan Millatlar Tashkiloti misolida isbotlashga harakat qilishadi. Jumladan, XX asr o'rtalarida Garri Devisning "Jahon konfederatsiyasi uchun umumiy harakat", Genri Asbornning "Federal Ittifoq" va "Jahon hukumati uchun salib yurishi" singari mondialistik qarashlari vujudga keldi. Mondializm konsepsiyasining zaif jihati shundaki, "jahon hukumatini kim boshqaradi", degan savolga mondialistlar tomonidan "G'arb va AQSh jahon hukumatining asosiy shtabi", degan javob berilganidir¹. O'z navbatida, mondialistlarning atlantizm² shafeligi ostida yaratgan "One World" loyihasi jahon geosiyosiy muvozanatining buzilishi va boshqa qudratli kuch markazlarini to'g'ridan-to'g'ri inkor etishga olib keladi.

XX asrning 90-yillari avvalida ikki qutbli tizimning inqirozga yuz tutishi va ko'p qutbli dunyo tartibotini o'rnatish jarayonlari geosiyosat sohasida ham muayyan o'zgarishlarni

¹ Дугин А. Основы геополитики. <http://ratnikjournal.narod.ru/zip/Dugin.Geopolitika.pdf>. — С. 70.

² Atlantizm — jahon maydonining geosiyosiy kuch markazi sifatida AQSh va G'arb rahbarlik qiladigan strategik ittifoqni anglatuvchi tushuncha.

vujudga keltirdi. Bu xususan, fransuz generali P.Galluaning “Geosiyosat qudrat manbalari” (1990) asarida o‘z aksini topdi. Unda dastavval, geografik determinizm siyosiy geografiya bilan aynan emasligiga e’tibor qaratilgan bo‘lib, davlatning imkoniyatlari (kuch-qudrati) hududi, aholisi, geografik vaziyati, chegaralarining davomiyligi va konfiguratsiyasi, xaziralarining ahvoliga va h.k. (shu jumladan, eng yangi ommaviy qirg‘in qurollari mavjudligi ham) bog‘liqligi e’tirof etiladi¹.

Dunyoning zamonaviy geosiyosiy manzarasi va geosiyosat vositalarini chuqurroq o‘rganish uchun ilmiy doiralar tomonidan ishlab chiqilgan paradigmalarga murojaat etish lozim bo‘ladi. Paradigma (grek. – namuna, andoza) – u yoki bu davrda ilmiy hamjamiyat tomonidan tan olingan va yangi ilmiy tadqiqot uchun namuna va asos bo‘lib xizmat qiladigan ilmiy yutuqlar majmuyidir. Mazkur tushunchani ilmiy muomalaga keng yoyilishida amerikalik tarixchi T.Kunning “Ilmiy inqiloblar strukturasi”² asari asosiy o‘rinni egallaydi. Kun fikricha, paradigma ilmiy jamoatchilik birligini ta’minlaydi. Ilmiy namunani, universal qonunlarni konkret hodisalarga tatbiq etish asosida fan rivojlanadi³. Umuman olganda, paradigmani ilmiy tan olingan va qaysidir davrda ilmiy tadqiqot uchun yo‘naltirilgan bir yoki bir nechta fundamental nazariyalar yig‘indisi, deb ta’riflash mumkin. Shu boisdan ham paradigma vositasida ilmiy muammolar o‘rtaga tashlanadi va uni yechish modeli namoyon bo‘ladi. Geosiyosiy paradigma esa tan olingan geosiyosiy nazariyalar orqali dunyoning geosiyosiy manzarasini ilmiy jihatdan aniqlash modelidir. Yuqorida zikr etilgan klassik nazariy yondashuvlarni umumiy bog‘lab turuvchi geosiyosiy paradigma *“Quruqlik” (tellurokratiya) va “Dengiz” (talassokratiya) dualizmi paradigmasi*, deb nomlanadi.

¹ Фалсафа: комусий луғат. (Тузувчи ва масъул муҳаррир Қ. Назаров). – Т.: Шарқ, 2004. – Б.87.

² Философия. Энциклопедический словарь. – М.: Гардарики. Под редакцией А.А. Ивина. 2004. [https:// dic/academic.ru/dic.nsf/enc-philosophy/902/парадигма](https://dic.academic.ru/dic.nsf/enc-philosophy/902/парадигма).

³ Фалсафа: комусий луғат. (Тузувчи ва масъул муҳаррир Қ. Назаров). – Т.: Шарқ, 2004. – Б.321.

Geosiyosatning zamonaviy paradigmalari

XXI asr xalqaro siyosiy jarayonlarida yuz bergan hodisalar, ayniqsa mintaqalardagi siyosiy vaziyatning o'zgarishi geosiyosatni yangicha talqinda idrok etish va unga nisbatan zamonaviy paradigmalarni joriy etish zaruriyatini keltirib chiqardi. Bunday qarashning asosiy sababi shuki, geosiyosiy ta'sir vositalarining turlari va ko'rinishlari kengayib borgani sayin geosiyosatning zamon voqeliklariga moslashgan yangi nazariyalari tadqiq etila boshlandi. Ayniqsa, hozirgi davr geoyosati va uning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganishda ozarbayjonlik olim A.Hasanovning "Geosiyosat" kitobi muhim ahamiyatga ega. Unda yozilishicha, bugungi geosiyosatchilarning ko'pchiligi jahonning hozirgi geosiyosiy xaritasi va tuzilmasiga klassik geosiyosatda qo'llanadigan paradigmalari (o'lcham va baholash qoliplari)ni tatbiq etishni maqbul ko'rmaydilar. Hozirgi vaqtda siyosatshunoslar jahon geosiyosiy tuzilmasini quyidagicha tasavvur etishadi:

1. Kanada va Meksika bilan birgalikda AQSh hamda uning ittifoqchilari – Yevropa Ittifoqi mamlakatlari.

2. Xitoy, Yaponiya, Hindiston va Janubi-Sharqiy Osiyo-ni boshqa rivojlangan mamlakatlari.

3. Rossiya va sovetlardan keyingi makonda uning ta'sir doirasiga kiruvchi mamlakatlar va pravoslav-slavyan dunyosi mamlakatlari.

4. Islom dunyosi va uning Turkiya, Eron, Saudiya Arabis-toni, Pokiston kabi mintaqaviy rahnamolari va boshqa mamlakatlar.

5. Afrika qit'asi mamlakatlari va ularning uyushmalari.

6. Lotin Amerikasi mamlakatlari.

Mohiyat e'tibori bilan, bu markazlarning birontasi bir xil emas va har bir mamlakat o'z tuzilmasi doirasida boshqalarnikidan farqli manfaatlarga, geosiyosiy kod va koordinatlarga, harbiy va siyosiy maqsadlarga, tashqi dunyo bilan munosabatlarning o'z mezonlariga ega¹.

¹ Hasanov A. Geosiyosat. Ozarbayjonchadan B.Muxammadsharif tarjimasi. – T.: Tamaddun, 2016. – S. 394-395.

Siyosatshunoslik fanlari doktori, professor R.Muxayev geosiyosat mohiyatini kengroq anglashga bag'ishlangan "Geosiyosat" kitobida fanda mavjud bir qator asosiy paradigmalarni misol qilib keltiradi:

1. Institutsional-huquqiy paradigma – davlat yoki millat.
2. Geosiyosiy paradigma.
3. Geoiqtisodiy paradigma.
4. Geomafkuraviy paradigma.
5. Geosivilizatsiya paradigmasi.
6. Geoaxborot paradigmasi¹.

Institutsional - huquqiy paradigma (davlat yoki millat) tarafdorlari geosiyosiy makonning asosiy komponenti davlat, millat va xalqaro huquqdir, deb baholashadi.

Geosiyosiy paradigma mohiyatida geografik determenizm asosiy o'rinni egallaydi va u hokimiyat uchun kurashning hal qiluvchi vositasi hisoblanadi.

Geoiqtisodiy paradigmada hududiy hukmronlikning asosiy ta'sir usuli moliya va iqtisodiy resurslar monopoliyasi bo'lib, uning aktorlari Transmilliy korporatsiyalar hisoblanadi.

Geomafkuraviy paradigma vakillarining izohlashicha, geosiyosat mafkurasiz mavjud bo'lmaydi, ular o'zaro bog'liq. Mazkur paradigmaga ko'ra geosiyosiy ustunlikni g'oyalar kurashida g'olib bo'lish omili belgilaydi.

Geosivilizatsiya paradigmasi. Sovuq urush va kommunizm barham topgandan keyin turli kuchlar ta'sirida dunyoning yangi siyosiy manzarasi shakllandi. Yangi qarashlar va konsepsiyalar paydo bo'ldi. Geosiyosatga nisbatan sivilizatsion yondashuv shunday qarashlardan biri bo'lib, barcha xalqlar uchun yagona va umumiy o'lchov mavjud emas, har bir kishilik jamiyati noyob va o'ziga xos, degan g'oyani o'rtaga tashladi. Bunday nuqtayi nazarni rus olimlari N.Y. Danilevskiy, K.N. Leontiv, P.A. Sorokin, nemis faylasufi O.Shpengler, shuningdek, ingliz tarixchisi A.Toynbi ilgari surishdi. Ular orasidan N.Y. Danilevskiy "Rossiya va Yevropa" asari orqali geosiyosatda muhim rol o'ynovchi

¹ Bu haqida batafsil qarang: Мухаев Р.Т. Геополитика. Учебник. -2-е изд., перераб. и доп. – М.: 2012. – С. 28-45.

sivilizatsion sintez sifatida yagona millat sivilizatsiyasini targ'ib etuvchi "umumslavyan ittifoqi" (panslavyanizm) nazariyasini tushuntirib berdi. Qolgan olimlar esa, geosivilizatsiya paradigmasining markazida din turadi¹, deya baholashdi. Alohida qayd etish lozimki, geosivilizatsiya paradigmasi rivojiga S.Xantingtonning "Sivilizatsiyalar to'qnashuvi" asari ilmiy jilo baxsh etdi. S.Xantingtonning qat'iy ishonchiga ko'ra insoniyat tarixi — bu sivilizatsiyalar tarixidir, kelajakdagi kuchlar bloki u yoki bu sivilizatsiyalarga tegishlilik asnosida o'lchanadi va yakunda odamlar uchun siyosiy mafkura yoki iqtisodiy manfaat muhim bo'lmaydi. S.Xantington ushbu asarida bugungi kundagi 8 ta asosiy sivilizatsiyani ajratib ko'rsatadi:

1. Xitoy sivilizatsiyasi.
2. Yapon sivilizatsiyasi.
3. Hind sivilizatsiyasi.
4. Islom sivilizatsiyasi.
5. Pravoslav sivilizatsiyasi.
6. G'arb sivilizatsiyasi.
7. Lotin Amerikasi sivilizatsiyasi.
8. Afrika sivilizatsiyasi².

Umuman Xantington konsepsiyasi zahirida kelajak geosiyosatining yadrosida sivilizatsiyalar o'rtasida to'qnashuv muqarrar, degan qarash yaqqol ko'zga tashlanadi.

Geoaxborot paradigmasi. Zamonaviy dunyoda informatsion davlat va jamiyat shakllanishi bilan axborot omili geosiyosatning qudratli qurollaridan biriga aylandi. Bizning fikrimizcha geoaxborot quroli geosiyosat mexanizmlari ichida eng ta'sirchan va xavfli hisoblanadi, zeroki axborot maydonida barcha uchun yagona bo'lgan global nazorat mavjud emas.

Ta'kidlash joizki, yuqorida keltirilgan zamonaviy paradigmalar orasida geosiyosiy paradigma alohida ajralib, qolgan paradigmalar uning tarkibiy qismini tashkil etadi. Geosiyosiy paradigmani boshqa shaklda ifoda etuvchi konseptual

¹ Геополитическая парадигма. <https://helpiks.org/8-71622.html>

² Хантингтон С. Столкновение цивилизаций. — АСТ, 1996. — С. 26-32.

qarashlar ham yo'q emas. Masalan, siyosiy texnolog, jurnalist E.A. Senshin geosiyosiy konsepsiyalarning quyidagi klassifikatsiyasini taklif etadi:

1. *Klassik geosiyosat*. Ushbu konseptual qarashda geografik determenizm tamoyili ustuvorlik kasb etadi va unda geosiyosat aktori davlat, hududiy makon esa uning asosiy paradigmasidir.

2. *Revizionistik geosiyosat*. Bu konsepsiyaga binoan davlatlar ittifoqi va bloklar geosiyosiy aktorlar hisoblanadi va uning asl mohiyatida mafkuraviy paradigma yotadi.

3. *Modernistik geosiyosat*. Unga ko'ra davlat siyosatini iqtisodiy paradigma belgilaydi. Uning aktorlari esa Transmilliy va nohukumat siyosiy tuzilmalar hisoblanadi¹.

Hozirgi davr geosiyosiy tendensiyalari bir mintaqada sodir bo'lgan o'zgarishlar tez orada boshqa mintaqaga ham o'z ta'sirini ko'rsatish xususiyatiga ega ekanligi bilan ahamiyatga molikdir. Shu boisdan, aksariyat tadqiqotchilar hozirgi davr geosiyosiy jarayonlarini globalizatsiya omili bilan bog'liq ravishda ko'rib chiqish zarur, deb hisoblashmoqda. Xususan, Arizona universiteti sotsiologiya maktabi direktori A.Bergesen va Jahon hamjamiyati fondi prezidenti K.Sater fikrlariga ko'ra XXI asrda geosiyosat va globalizatsiya o'rtasida uzviy bog'liklik vujudga kelmoqda, geosiyosatni amalga oshirish vositalari ham doimiy ravishda o'zgarib borayotir, shu nuqtayi nazardan ham jahon geosiyosiy tizimida qudratli kuchlarning manfaatlari ma'lum bir hududda to'qnashishi natijasida uning boshqa hududlarga ta'sir etish holatlari ham o'z-o'zidan namoyon bo'lmoqda². Bizningcha, bunday qarashni "geosiyosiy globalizm" tushunchasi bilan ifodalash maqsadga muvofiq bo'ladi. "Geosiyosiy globalizm"ning mohiyati shundan iboratki, globalizm geosiyosiy xususiyat kasb etadi, uning asl zamirida geosiyosiy maqsadlar yashirin bo'ladi. O'z

¹Сеньшин Е.А. Эволюция геополитических парадигм в трансформирующемся мире // Известия Уральского государственного университета. Сер. 3, Общественные науки. № 48, вып. 2. 2007. – С.60-61.

²Bergesen A. Suter Ch. The Return of Geopolitics in the Early 21st Century: The Globalization/Geopolitics Cycles / The Return of Geopolitics. World Society Foundation Zurich, Switzerland, 2018. – P.7.

navbatida, zamonaviy geosiyosat mintaqalarda neft, gaz va boshqa tabiiy resurslar uchun kurash, axborot va savdo urushi singari omillarni o'z ichiga olgan yangi davr geosiyosiy jarayonlari bilan ham to'lib bormoqda.

Geosiyosatning zamonaviy paradigmalarini tahlil etar ekanmiz, muhim ahamiyatga ega bo'lishi mumkin bo'lgan konseptual qarashlarni ham qalamga olishimiz lozim bo'ladi. Xususan, shunday konsepsiya sirasiga Aerokratiya (Havo makoni) va Efirokrtiyanini (Kosmos makoni) kiritish mumkin. Innovatsion strategik aviatsiyaning taraqqiy etishi, yangi yadroviy qurollarni fazoviy sinovdan o'tkazishga urinishlar hamda shu orqali geosiyosiy istiqbolni tasavvur etish singari omillar Aerokratiya va Efirokrtiyaning dolzarb xususiyatini aks ettirmoqda. Bizning fikrimizcha shu omillar o'laroq, istiqboldagi geosiyosatda Heartland yoki Rimland modellaridan ko'ra "Airland" modeli ustuvor o'rin egallaydi. "Airland" formulasining mohiyatini quyidagicha tasvirlashimiz mumkin: *"Kim Heartland yoki Rimlandga hukmronlik qilishni istasa, Airlandni zabt etishi lozim bo'ladi. Airland esa jahon boshqaruvi kalitidir"*. Boshqacha aytganda, Airland modeli geosiyosatning dolzarb obyekti dengiz yoki quruqlik emas, balki havo va kosmos bo'lishini nazarda tutadi.

Ko'pchilik geosiyosatshunoslarning zamonaviy paradigmalariga nisbatan bildirgan yondashuvlari yuqorida keltirilgan paradigmalar bilan deyarli o'xshash va yakdildir. Geosiyosat nazariyachilarning nazaridan chetda qolgan ayrim paradigmalar ham mavjudki, ularga shu o'rinda to'xtalishimiz o'rinli bo'ladi. Ana shunday paradigmalardan biri geodiplomatik paradigmadir. Alohida qayd etishimiz lozimki, geodiplomatik paradigmanning nazariy asoslari va amaliy jihatlari borasida olib borilgan tadqiqotlar juda kamyob. Kanadalik diplomat Deril Kopeland "Partizan diplomatiyasi: xalqaro munosabatlarning qayta mushohadasi" asarida geodiplomatiya (*geodiplomatics*) iborasi sobiq Britaniya diplomati Peter Marshall va Vestministr universiteti London diplomatik akademiyasi direktori Nabil Ayad tomonidan kashf etilganini qayd etadi. Kopeland o'zining professor Ayad bilan

bo'lgan shaxsiy suhbatida geodiplomatiyani "global strategik halqaning eng ta'sirchan menejmenti"¹ sifatida baholab, bu borada hamfikir bo'lganini yozadi. Bizning fikrimizga ko'ra geodiplomatiya hayotiy muhim makonda o'z manfaatlarini ta'minlashda diplomatik vositalardan samarali foydalanish, tashqi siyosatda mintaqaviy muammolarni o'zaro muzokaralar orqali hal etishga asoslangan tizimli mexanizmlar majmuasidir. Shunday bo'lsada, geodiplomatiya paradigma sifatida ommaviy ravishda rivojlanmadi. Zeroki, aksariyat olimlar geosiyosiy jarayonlarni nazorat qilishda asosiy vosita sifatida xaos ustuvor, degan tezisga asosiy e'tiborini qaratishgan. Ayni shu jihatdan geodiplomatik paradigma geosiyosatning asosiy paradigmalari orasidan keng o'rin egallamadi. Biz ushbu paradigmani yuqorida zikr etilgan paradigmalar qatoriga kiritish zaruriyati dolzarb masalalardan biri ekanligini qo'llab-quvvatlaymiz. Bu zamonaviy geosiyosatning nazariy manzarasini yanada teran anglashga va yangi pragmatik qarashlarni shakllanishiga ilmiy ko'mak berishi, shubhasiz.

Mavzu bo'yicha savollar:

1. Geosiyosat tushunchasiga ta'rif bering.
2. Siyosiy geografiya va geosiyosat tushunchalari bir-biridan farq qiladimi?
3. Heartland va Rimland nazariyalariga sharh bering.
4. Tellurokratiya va talassokratiya haqida nimalarni bilasiz?
5. Paradigma nima?
6. Geosiyosiy paradigma nima?
7. Geosiyosatning zamonaviy paradigmalari nimalardan iborat?

Mustaqil ish topshiriqlari:

1. Geosiyosatga berilgan turli ta'riflar asosida taqdimot tayyorlash.

¹ Daryl Copeland. Guerrilla Diplomacy: Rethinking International Relations. LYNNE RIENNER. 2009. — P.19.
https://www.rienner.com/title/Guerrilla_Diplomacy_Rethinking_International_Relations

2. Geosiyosatning klassik va zamonaviy paradigmalari ni o'zaro qiyoslagan holda jadval holiga keltirish.

3. "Zamonaviy geosiyosiy paradigmalari: nazariya va amaliyot" mavzusida ilmiy maqola yozish.

4. Geosiyosatga oid top kitoblar 10 taligini infografik shaklda tayyorlash.

O'ZBEKISTON GEOSIYOSATINING NAZARIY ASOSLARI

Reja:

1. O'zbekiston geosiyosatining ustuvor yo'nalishlari.
2. Geografik determenizm.
3. Demografik ustunlik.
4. Harbiy qudrat va mintaqaviy xavfsizlik omili.
5. Tarixiy omillar.
6. Savdo-iqtisodiy imkoniyatlar va tabiiy-xomashyo resurs-lari
7. Intellektual, madaniy-ma'rifiy salohiyat va milliy-min-taqaviy g'oyalar

O'quv mashg'ulotining maqsadi: O'zbekiston geosiyosatini asoslaydigan nazariy dalillar xususida ma'lumot berish.

Tayanch so'z va iboralar:

Markaziy Osiyo, geografik determenizm, Sharq darvozasi, mintaqaviy yyetakchilik, mintaqaviy xavfsizlik, yadro qurolidan xoli hudud, jo'g'rofiy-siyosiy qiziqish, milliy-mintaqaviy g'oyalar, "Turkiston – umumiy uyimiz", Maslahat uchrashuvi.

O'zbekiston geosiyosati ustuvor yo'nalishlari

Xalqaro munosabatlar tizimida SSSRning qulashi va uning o'rnida yangi mustaqil davlatlar paydo bo'lishi jahon geosiyosatidagi katta o'zgarishlardan biri bo'ldi. Ayniqsa, Yevroosiyoning muhim markazi hisoblangan Markaziy Osiyo mintaqasi jahon maydonida o'zining qayta faollashuv jarayonini boshdan kechirdi. O'zbekiston har qanday davlatning taraqqiyoti ko'p jihatdan uning geografik joylashuvi va o'z milliy manfaatlarini mavjud bo'lgan hududlardagi siyosatini qay tariqa amalga oshirishi bilan chambarchas bog'liq ekanligini chuqur anglagan holda Markaziy Osiyo mintaqasi doirasida yirik davlatlar siyosatini jilovlab turishi va shu tariqa mustaqil geosiyosiy qarorlar qabul qila olishi mumkin ekanligini amalda isbotlamoqda. Shu nuqtayi nazardan Markaziy Osiyo mintaqasi O'zbekiston tashqi siyosatining ustuvor yo'nalishi bo'lib, O'zbekistonning mintaqadagi siyosiy yondashuvlari Markaziy Osiyo, xususan, Afg'onistonni xavfsiz, barqaror va taraqqiy etgan makonga aylantirishdan iborat. O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev qarashlari bilan aytganda "O'zbekiston bugungi kunda o'zining tashqi siyosatida Markaziy Osiyo mintaqasiga ustuvor ahamiyat qaratmoqda. Bu har tomonlama chuqur o'ylab tanlangan yo'ldir. Markaziy Osiyoning qoq markazida joylashgan O'zbekiston ushbu mintaqaga barqarorlik, izchil taraqqiyot va yaxshi qo'shnichilik hududiga aylanishidan manfaatdordir"¹. Bunday siyosatni amalga oshirish uchun esa geosiyosat nazariyalarida ko'zda tutilgan salohiyat vositalariga ega bo'lish va undan samarali foydalanish imkoniyatlarini ko'rib chiqish lozim bo'ladi. O'zbekistonning mintaqaviy miqyosidagi roli, ta'siri, geosiyosiy salohiyati va nufuzini nazariy jihatdan atroflicha va sinchiklab o'rganish ayni shuning uchun ham zarur ahamiyatga ega. Qolaversa, O'zbekiston geosiyosati faqat Markaziy Osiyo mintaqasi bilan chambarchas bog'liq, degan qarashlar bugungi

¹ Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиғи бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. – Т.: Ўзбекистон, 2018. – Б.248.

kunda yangicha va qo'shimcha yondashuvlar bilan ham to'ldirib borilmoqda.

O'zbekistonning jahon hamjamiyati bilan faol aloqalarni yo'lga qo'yishga oid tashqi siyosati xususida keng ko'lamli izlanishlar olib borilgan bo'lsa-da, aynan O'zbekiston geosiyosatini o'zida namoyon etadigan tadqiqotlar va manbalar sanoqlidir. Bundan tashqari xorijiy ilmiy doiralarda rasmiy Toshkentning mintaqaviy siyosatiga doir adabiyotlar va turkum maqolalar ko'zga tashlansa-da, biroq ularning aksariyati O'zbekiston geosiyosatini tor doirada talqin etish yoki mintaqani tashqi siyosiy kuchlar ta'siri, ya'ni O'zbekistonni yirik davlatlar bilan amalga oshiradigan tashqi siyosati orqali baholash bilan cheklanadi. Bizningcha, O'zbekiston geosiyosatini xolis va haqqoniy baholash jarayonida, avvalo, mamlakat geosiyosiy joylashuvi hamda uning mintaqadagi strategik o'rni bilan bog'liq nazariy asoslarni sinchiklab o'rganish zarur bo'ladi. Buning uchun bir qator omillar va tahliliy mulohazalarni keltirish o'rinlidir.

Geografik determenizm

O'zbekiston joylashgan hudud turli xil mezonlarga ko'ra mintqa uchun ulkan geosiyosiy ahamiyat kasb etadi. Respublika dunyoning strategik ahamiyatga molik bo'lgan Markaziy Osiyo mintaqasining qoq markazida joylashgan. Bu geografik jihatdan bevosita Makkinderning "Heartland" nazariyasining ayni ko'rinishidir. Tashqi siyosat tadqiqotlari instituti (Foreign Policy Research Institute) eksperti Kriss Sipl o'z maqolasida Makkinderning nazariy formulasiga tayangan holda O'zbekistonni Yevroosiyoning geosiyosiy hartlendi¹ sifatida baholab, Markaziy Osiyodagi kuchlar muvozanatida O'zbekiston amaliy geosiyosati bilan alohida ajralib turishini tahlil etadi. Kriss Siplning asosiy e'tibori O'zbekistonning 2001-yil sentabr voqealaridan so'ng AQSh va Yevropa bilan

¹ Seiple Ch. Heartland Geopolitics and the Case of Uzbekistan // Foreign Policy Research Institute, January 6, 2004. <https://www.fpri.org/article/2004/01/heartland-geopolitics-and-the-case-of-uzbekistan/>

bog'langan hamkorligiga qaratiladi. Uning fikriga ko'ra Qo'shma Shtatlar O'zbekistonning hartlenddagi strategik ahamiyatini 2001-yildan so'nggina anglab yetdi. Yuqoridagi qarashlarni to'ldirib, tadqiqotchi O.Sirojov quyidagicha yozadi: "Ma'lumki, geosiyosatdagi mavjud hartlend nazariyasiga ko'ra Markaziy Osiyo yer yuzi, mintaqalarning geosiyosiy yadrosi yoki markazi hisoblanadi. Markaziy Osiyoning hartlendi, geosiyosiy yadrosi esa O'zbekistondir. Shu nuqtayi nazardan mamlakat poytaxti Toshkentga "Sharq darvozasi" deb ta'rif berishadi"¹. Ushbu fikrlarga muvofiq eng muhim dalillardan yana biri O'zbekiston Markaziy Osiyo davlatlarining barchasi bilan umumiy chegaraga ega mintaqada yagona davlat ekanidir. Aniqroq qilib aytganda O'zbekiston tashqi siyosiy qarorlari o'z-o'zidan mintaqaning geosiyosiy yo'nalishlarini belgilashga ta'sir ko'rsatmasdan qolmaydi. Bu mamlakatimizning mintaqadagi geosiyosiy o'rnini yyetakchi kuch markazlari tomonidan jiddiy e'tiborga olinishni talab etadi. Ekspert V.Paramonov Markaziy Osiyoga tashqi kuchlarning ta'sirini baholar ekan, mintaqaviy va jahon darajasidagi davlatlar ushbu mintaqaga geosiyosiy regionalizm yondashuvi asosida hamda Yevroosiyo kuch markazlari o'rtasida siyosiy va iqtisodiy manfaatlar tutashgan yagona geosiyosiy makon sifatida qarashlarini qayd etadi². Bundan tashqari ushbu geosiyosiy makonda faqat O'zbekiston shunday kuch markazlarining bevosita ta'siridan tabiiy muhofazalangan mintaqadagi yagona davlat hamdir. Aniqroq qilib aytadigan bo'lsak O'zbekiston mintaqada Rossiya, Xitoy, Eron singari kuch markazlari bilan bevosita chegaraga ega emas. Bunday geosiyosiy maqom parallel ravishda O'zbekiston zimmasiga mintaqada kuchlar muvozanati va o'zaro ichki barqarorlikni ta'minlash mas'uliyatini ham yuklaydi.

O'zbekiston jahonning to'rtta yadroviiy davlati (Rossiya, Xitoy, Pokiston va Hindiston) qurshovida bo'lgan mintaq-

¹ Сирожов О. Марказий Осиё минтақасида ҳамкорлик жараёнлари. – Т.: О'zbekiston, 2016. – Б.129.

² Парамонов В. Геополитика Узбекистана: ракурс (Место под солнцем... и на политической карте) // Ижтимоий фикр. Инсон ҳуқуқлари. 1999. № 3-4 (7-8). – С.58.

ning markaziy qismi hisoblanadi. Rasmiy Toshkent yadroviy omilning mintaqaga harbiy-siyosiy ta'sir va bosim o'tkazish vositasiga aylanish ehtimoli mavjudligini anglagan holda "Markaziy Osiyoda yadro qurolidan xoli hudud to'g'risidagi" shartnomasi (Semipalatinsk, 2006-yil 8-sentabr) tashabbuskoriga aylandi. Mazkur shartnoma nafaqat mintaqaviy, balki XXI asr xalqaro xavfsizlik tizimini barpo etishdagi dastlabki qadam bo'ldi, deb ta'kidlashga barcha asoslar bor. 2014-yil 6-may kuni Birlashgan Millatlar Tashkilotining Nyu-Yorkdagi qarorgohida mazkur tashkilot tuzilganidan buyon birinchi marotaba besh yadroviy davlat — AQSh, Buyuk Britaniya, Fransiya, Xitoy va Rossiya yakdillik bilan va bir paytning o'zida muhim xalqaro hujjatni — Markaziy Osiyoda yadro qurolidan xoli zona barpo etish to'g'risidagi shartnomaga Xavfsizlik kafolatlari to'g'risidagi protokolni imzolashdi¹.

Geografik determenizm omilini bayon etishda O'zbekistonning strategik yo'laklarga olib chiquvchi tranzit chorrahasida joylashganini ham nazardan chetda qoldirib bo'lmaydi. Mamlakatimiz Yevropani Osiyo, Markaziy Osiyoni Janubiy Osiyo, Uzoq Sharqni Yaqin Sharq bilan bog'lash mumkin bo'lgan transport-kommunikatsiya yo'laklarining muhim halqasidir. O'zbekistonning Birinchi Prezidenti Islom Karimov o'z vaqtida ayni shunday geostrategik joylashuvning tahlikali jihatlari ham mavjudligini shunday izohlagan edi: "O'zbekiston amalda Fors ko'rfazi, Kaspiy dengizi havzasi va Tarim havzasining neft va gazga juda boy konlari joylashgan yarim halqaning strategik markazidir. Ya'ni bu yarim halqa atrofida butun dunyoda energiya taqchilligi sharoitida yaqin yillarda Yevroosiyo va jahon kelajagi uchun hal qiluvchi rol o'ynaydigan energiya zaxiralari mavjud"². Shu ma'noda O'zbekiston jo'g'rofiy-siyosiy holati mintaqalararo transport-tranzit tizimlarida o'z o'rnini topa olishi zarurligini anglatadi.

¹ Ўзбекистоннинг Биринчи Президенти Ислон Каримовнинг Марказий Осиёда ядро қуролидан холи зона барпо этиш тўғрисидаги ташаббуси жаҳон ҳамжамиятида ўзининг амалий ифодасини топди / № 102. (6002) Халқ сўзи 27 май 2014 йил.

² Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. —Т.:Ўзбекистон, 1997. — Б.12.

Tabiiy jihatdan har tomonlama yopiq bo'lganiga qaramay O'zbekistonning xalqaro Sharq-G'arb, Shimol-Janub transport yo'llaridagi geografik joylashuvi unga xalqaro transport tarmog'ining zaruriy qismi bo'lishida katta imkoniyatni taqdim etadi¹. Shu boisdan tarixda Buyuk ipak yo'lining asosiy yo'nalishlari O'zbekiston joylashgan hududlardan o'tgan. Zamonaviy ipak yo'lini tiklashga qaratilgan Xitoyning "Bir makon – bir yo'l" (One Belt, One Road) loyihasi istiqbollari ham shak-shubhasiz, O'zbekistonning mintaqalararo transport-tranzit chorrahasi sifatidagi rolini e'tirof etilishiga uzviy bog'liq.

Demografik ustunlik

Geosiyosat kategoriyalari orasida demografik omilning ham yuqori afzalliklari mavjud. Demografik omilning o'ziga xos jihati shundaki, u geosiyosatning barcha elementlariga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Masalan, aholi sonining yuqori ekanligi ishchi kuchi qatlami va mamlakat iqtisodiyotining tayanch negizi hisoblanadi. Ikkinchidan, nufus omili davlatga geografik makonning chegara tanlamas imkoniyatini beradi. Uchinchidan, demografik salohiyat bu harbiy salohiyatni yuksaltirish manbayidir. Demografik jarayonlar geosiyosatning an'anaviy va o'zgarmas ta'sir vositasi ekanligi haqida F.Ratselning nazariy qarashlari hamon dolzarb xususiyatga ega. Uning fikricha, demografik omil geosiyosatning xarakteri va yo'nalishini belgilaydi. Kam sonli aholi rivojlanishning pasayishiga, davlatni osonlik bilan bosib olishga olib keladi. Va aksincha, aholining ko'p sonli bo'lishi o'z hayotiy makonlarini kengaytirish uchun sezilarli imkoniyatlarni taqdim etadi².

O'zbekiston Markaziy Osiyo mintaqasida eng ko'p aholiga ega davlat bo'lib, Davlat statistika qo'mitasining 2020-yil yanvar holatidagi ma'lumotlarga ko'ra mamlakat doimiy

¹ Qarang: Tolipov F. Micro-Geopolitical Semiotics of Central Asia: "Crossroads" and "Bridges" // Central Asia and the Caucasus, Volume 16, Issue 2, 2015. – P.37.

² Qarang: Сакаев В.Т. Демографические процессы как фактор геополитики // In the World of Discoveries, № 11 (47), 2013. <http://naukarus.com/demograficheskie-protsessy-kak-faktor-geopolitiki>

aholisining soni 33 mln. 960 ming nafardan ortiq¹. Ushbu ko'rsatkich Markaziy Osiyo umumiy aholisining taxminan yarmiga yaqin demakdir. Ekspertlar O'zbekistonda aholi sur'ati yildan yilga o'sib borayotgani istiqbolda nafaqat Markaziy Osiyoda, balki MDH makonida O'zbekistonning rolining yanada oshishiga xizmat qilishini taxmin qilishmoqda. Masalan, rossiyalik ekspert A.Kazansev postsovet makonidagi aholini qiyoslab, quyidagicha yozadi: "Ukraina aholisining keksayishi va tug'ilishning pasayishi, O'zbekistonda esa tug'ilish va yoshlar qatlamining o'sishi (70% gacha yoshlar) O'zbekistonni tez orada postsovet makonida aholi soni jihatidan ikkinchi o'ringa (birinchi o'rinda Rossiya) chiqishidan darak beradi. Geosiyosiy nuqtayi nazardan postsovet makoni ko'proq "osiyocho" ko'rinishga ega bo'lmoqda. Qozog'iston allaqachon YIM bo'yicha Ukrainani ortda qoldirgan holda ikkinchi o'ringa ko'tarilgan bo'lsa, O'zbekistonning tezlik bilan mutlaq aholi soni bo'yicha ikkinchi o'ringa ko'tarilishi istiqbolda postsovet makonining yevropa qismi roli sezilarli darajada tushib ketishini anglatadi"². Tadqiqotchi Sh.Fayziyev O'zbekiston geosiyosatida demografik omilning ustuvor ahamiyatli ekanini qayd etar ekan, bu borada muhim jihatga e'tibor qaratishni tavsiya etadi: "O'z geosiyosiy o'rnidan kelib chiqqan holda O'zbekiston oldidagi eng muhim strategik vazifa millatlarning barqaror o'sishi va rivojlanishiga sharoitlar yaratish maqsadi o'laroq, shuningdek, O'rta Osiyo mintaqasida ulkan barqarorlashtiruvchi omil sifatida o'z demografik potensialidan oqilona foydalanishdir. Geosiyosiy sharoitda davlatning demografik tarkibiy qismlari nafaqat mintaqaviy doirada, balki yana ham kengroq – o'zgaruvchan xalqaro munosabatlarning global tizimi nuqtayi nazaridan ko'rib chiqilishi lozim"³.

¹ O'zbekiston aholisi // Statistika qo'mitasi, 2020. <https://stat.uz/uz/2-uncategorised/5221-o-zbekiston-aholisi>

² Казанцев А. Когда Узбекистан станет второй по численности населения страной постсоветского пространства?

<https://www.facebook.com/764563161/posts/10157724678868162/?app=fbl>

³ Файзиев Ш. Геополитика Узбекистана: ракурс (О населении "количественном" и "качественном") // Ижтимоий фикр. Инсон ҳуқуқлари. 1999. № 3-4 (7-8). – С.58.

Yana bir e'tiborli jihat shuki, Markaziy Osiyo mintaqasida O'zbekiston aholisi eng ko'p millatli aholi hisoblanadi. Mamlakatimizda 130 dan ziyod millat va elat vakillari istiqomat qiladi. Bugungi kunda O'zbekiston zaminidagi barcha millat va elatlar o'zaro tinch-totuv yashab kelmoqda, ularning hamjihatlikda va hech bir muammosiz yashashi uchun barcha zaruriy sharoitlar yaratilgan. Bu o'rinda O'zbekistonda tashkil etilgan 138 ta milliy-madaniy markaz (MMM) faoliyati muhim o'rin tutadi. Ulardan 14 tasi Respublika MMM mavqeyiga ega bo'lib, Toshkent shahrida 23 ta, Qoraqalpog'iston Respublikasida 6 ta va viloyatlarda 96 ta MMM faoliyat yuritmoqda¹. Mintaqaning o'ziga xos xususiyatini hisobga olgan holda aytish mumkinki, millatlararo munosabatlarda O'zbekiston tomonidan amalga oshirilgan barqaror siyosat ayni shu millat va elatlar istiqomat qiladigan davlatlar bilan faol va samarali hamkorlik qilish imkoniyatini taqdim etibgina qolmasdan, shubhasiz, yirik davlatlarni Markaziy Osiyo mintaqasidagi millatlararo munosabatlar vositasi bilan bog'liq bo'lgan geosiyosiy ta'sirini sezilarli ravishda kamaytiradi.

Mamlakatimiz demografik salohiyatining yana bir o'ziga xos xususiyati mavjud. O'zbekiston mintaqa davlatlaridan farqli ravishda, bir xil gomogen aholi tarkibiga ega. Bu yerda aholining 85% ni titul millat vakillar tashkil etadi. Umuman olganda o'zbeklar Markaziy Osiyodagi eng ko'p sonli millat hisoblanadi².

Harbiy qudrat va mintaqaviy xavfsizlik omili

Geosiyosatning kuchli vositalaridan biri bo'lgan harbiy qudrat omilida ham O'zbekiston Markaziy Osiyo mintaqasining eng yyetakchi davlatidir. Global harbiy qudrat indeksining 2021-yildagi hisobotiga ko'ra O'zbekiston dunyoda 139

¹ Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Миллатлараро муносабатлар ва дўстлик алоқалари қўмитаси ҳақида. <http://interkomitet.uz/mita-aida/?lang=oz#1519648532381-ae4343e3-6251>

² Сафоев С.С. Марказий Осиёдаги геосиёсат. – Т.: ЖИДУ, 2005. – Б.29.

davlat orasidan 51-o'rinni, Osiyoda 45 davlat orasidan 22-o'rinni egallab, Markaziy Osiyo davlatlari orasida esa eng qudratlisi, deb qayd etilgan. Mazkur hisobotga ko'ra O'zbekistonning faol qo'shinlari 50 ming kishini tashkil etib, jangovar tanklari 420 ta, samolyotlarni umumiy soni 194 ta, (shundan 60 tasi jangovar samolyotlar), vertolyotlar umumiy soni 89 tani (shundan 33 tasi hujumkor) tashkil etadi¹. O'zbekiston mintaqadagi davlatlar orasida o'zining mustaqil harbiy salohiyatini namoyon etib, tashqi kuchlarning mintaqaga harbiy ta'sirini kamaytirishda milliy huquqiy va amaliy asoslarga ega. Xususan, 2018-yil 9-yanvarda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining Mudofaa doktrinasi"-ga ko'ra O'zbekistonning mudofaa sohasidagi siyosati quyidagi prinsiplarga asoslangan:

- boshqa davlatlarga qarshi harbiy kuch ishlatmaslik, bundan harbiy tajovuzning oldini olish va uni daf etish hollari mustasno;

- xavfsizlikning bo'linmasligi, o'z xavfsizligini boshqa davlatlar xavfsizligi hisobiga mustahkamlashga yo'l qo'yilmasligi;

- boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik, ehtimol tutilgan nizolarni tinch yo'l bilan hal etish;

- harbiy-siyosiy bloklarda ishtirok etmaslik, har qanday davlatlararo tuzilmadan, agar u harbiy-siyosiy blok etib o'zgartirilsa, chiqib ketish huquqini o'zida saqlab qolish;

- mudofaaning yetarli darajada bo'lishi;

- harbiy qurilishning zamonaviy harbiy mojarolar xususiyatiga monand bo'lishi;

- yadroviy va boshqa turdagi ommaviy qirg'in qurolini ishlab chiqarish, olish, saqlash, tarqatish va joylashtirishdan voz kechish;

Markaziy Osiyoda yadro qurolidan xoli zona to'g'risidagi shartnoma prinsiplariga sodiqlik;

¹ 2021 Military Strength Ranking // Globalfirepower.

<https://www.globalfirepower.com/countries-listing.asp>; 2021 Uzbekistan Military Strength // Globalfirepower. https://www.globalfirepower.com/country-military-strength-detail.asp?country_id=uzbekistan

o'z hududida chet el harbiy bazalari va obyektlarining joylashtirilishiga yo'l qo'ymaslik;

Qurolli Kuchlarning xorijdagi tinchlik o'rnatish bilan bog'liq operatsiyalarda va harbiy mojarolarda ishtirok etmasligi¹.

O'zbekiston uzoq yillar davomida mintaqaviy xavfsizlikka tahdid tug'diruvchi terrorizm, ekstremizm, narkotik moddalar savdosi singari omillarga qarshi munosib kurash olib bordi va mintaqaviy xavfsizlikning kafolati ekanligini amalda namoyon qildi. Ch.Ko'charov monografik tadqiqotida bu masala xususida quyidagicha fikrlarni uchratish mumkin: "O'zbekiston Markaziy Osiyo mintaqasidagi xalqaro munosabatlarda geosiyosiy muhim o'ringa ega. Uning tashqi siyosati mintaqada shakllanayotgan xavfsizlik tizimini yaratishda yyetakchi hisoblanadi. Albatta, mintaqaning boshqa davlatlarini ham umumiy xavfsizlikdagi ta'sirini past baholash xato bo'lur edi. Lekin jahonning yyetakchi salohiyatli davlatlarining ushbu mintaqadagi manfaatlarini muvozanatga solib turishda mintaq ichidagi davlatlar har xil darajada imkoniyatlarga ega"². Markaziy Osiyo davlatlari orasida faqat O'zbekiston 90-yillarning boshlarida boshlangan Afg'oniston va Tojikistondagi fuqarolar urushidan mintaqaga kelishi mumkin bo'lgan xavfga qarshi geografik va harbiy qalqon vazifasini bajardi. XXI asr boshlarida Markaziy Osiyo mintaqaviy xavfsizlik tizimida vujudga kelgan o'zgarishlar natijasi o'laroq 2004-yilda ShHT Aksilterror tuzilmasining Toshkentda tashkil etilishi ham bu fikrni amalda tasdiqlaydi. Darhaqiqat, milliy va mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlashda O'zbekiston xavfsizlik tashkilotlarining roli va o'zni katta. "O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati to'g'risida"gi qonunda tashkilotning huquqiy maqomi va faoliyatining quyidagi muhim yo'nalishlari qayd etiladi:

¹ Ўзбекистон Республикасининг Мудофаа доктринаси // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари миллий базаси. <http://lex.uz/uz/docs/3495885>

² Кўчаров Ч. Марказий Осиёнинг минтақавий интеграцион жараёни муаммолари (геосийсий таҳлил тажрибаси). – Т.: Фан, 2008. – Б.47.

O'zbekiston Respublikasining davlat xavfsizligini va davlat manfaatlari tashqi hamda ichki tahdidlardan himoya qilinishini ta'minlash, mazkur sohada qonuniylik va qonun ustuvorligini mustahkamlash, huquqbuzarlikni oldini olish, ularni aniqlash va ularga barham berish;

O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumi, suvereniteti va hududiy yaxlitligiga bo'lgan tajovuzlarning oldini olish, ularni aniqlash hamda ularga barham berish bo'yicha razvedka va kontrrazvedka faoliyatini amalga oshirish;

O'zbekiston Respublikasining davlat chegarasini qo'riqlash va himoya qilish;

Terrorizm, ekstremizm, uyushgan jinoyatchilikka, qurol-yarog', giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarining noqonuniy muomalasiga qarshi kurashish¹.

Tarixiy omillar. O'zbekiston tarixi buyuk sivilizatsiyalar va imperiyalar tarixidir. O'tmishda O'zbekistonning Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz, Toshkent va boshqa shaharlari qadimiy Markaziy Osiyo hududlarining siyosiy, savdo-iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy rivojlanish markazi bo'lgan. Taniqli siyosatshunos Z.Bjezinskiy ham O'zbekistonning mazkur tarixiy nufuziga alohida urg'u berib, shunday yozgan edi: "Amaliy jihatdan O'zbekiston O'rta Osiyoda mintaqaviy yyetakchilik roliga asosiy da'vogar hisoblanadi. O'zbekiston siyosiy elitasi atayin yangi davlatni din, astronomiya va san'at ilmini o'rganish uchun mashhur mintaqaviy markazi Samarqand bo'lgan Temurning ulkan O'rta asrlar imperiyasi vorislari, deb atamoqda. Bu jihat zamonaviy O'zbekistonda qo'shnilar bilan taqqoslaganda tarixiy vorislik va diniy missiyani chuqur his etishni mustahkamlaydi"². Tadqiqotchi D.Muitov 1999-yil "Ijtimoiy fikr. Inson huquqlari" jurnalida chop etilgan maqolasida O'zbekiston geosiyosatini tarixiy tajriba asosida siyosiy tahlil etish va shu orqali uning geosiyosiy xususiyatlarini o'rganish ma'qul ekanligiga quyidagicha izoh

¹ Ўзбекистон Республикаси Давлат хавфсизлик хизмати тўғрисида // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари миллий базаси. <https://lex.uz/m/acts/3610935>.

² Бжезинский З. Великая шахматная доска. [пер. с англ. О. Уральской]. – Москва: Издательство АСТ, 2019. – С. 226-227.

beradi: "...O'zbekistonning geopolitik xususiyatini siyosiy-tarixiy tahlil qilish orqali davlatlar va ittifoqchilikning, hududiy-geografik siyosatning o'zaro aloqadorligini anglatuvchi ma'lum bir ilmiy xulosalarga kelish mumkin. Xalqaro maydonda geopolitik g'oyaning elementlari nafaqat buyuk davlatlar rejalarida, shu bilan birga mintaqadagi davlatlarning siyosatida, o'z milliy chegaralaridan uzoq bo'lgan hududlarda strategik va iqtisodiy nazorat o'rnatishdagi raqobatida ham aks etayotganligini ta'kidlash zarur. Shundan kelib chiqib, O'zbekistonning geopolitik va geostrategik xususiyatlari naqadar murakkabliklarga to'qnash ekanligini aytish bilan birga uni o'rganish uchun metodologik manba sifatida siyosatshunoslik, falsafa, tarix va boshqa ijtimoiy fanlarning yutuqlarini mujassam etgan siyosiy jarayonlarga xarakteristika beruvchi sistemali-strukturaviy uslubdan foydalanish vaqti kelganligini ta'kidlash joiz"¹. Darhaqiqat, O'zbekistonning shonli tarixi uning mintaqa kelajagi uchun ham muhim mavqeyini anglash imkonini beradi.

Savdo-iqtisodiy imkoniyatlar va tabiiy-xomashyo resurslari

Mintaqaning iqtisodiy rivojlanishi jarayonlarida O'zbekiston yyetakchi davlatlardan biri. Markaziy Osiyoda eng ko'p aholi va qulay geostrategik joylashuvga ega bo'lgan O'zbekiston mintaqaning eng katta bozori hisoblanadi. Bu bilan aytish mumkinki, O'zbekiston bozori butun Markaziy Osiyo bozori darvozasi. Britaniyaning nufuzli "The Economist" jurnali 2019-yilda O'zbekistonni "Yil mamlakati"² deb tan olgani ham bu boradagi o'ziga xos e'tirofdir. Jahon bankining global iqtisodiy istiqbollarga oid 2020-yil yanvar oyidagi hisobotida O'zbekiston Sharqiy Yevropa va Markaziy Osiyo davlatlari orasida yalpi ichki mahsulot o'sish sur'atlari bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich – 2020-yilda 5,7%, 2021-

¹ Муитов Д. Ўзбекистон геополитикаси: ўтмиш, бугун ва эртага // Ижтимоий фикр. Инсон ҳуқуқлари. 1999. № 1-2 (5-6). – С.52-54.

² Which nation improved the most in 2019?

<https://www.economist.com/leaders/2019/12/21/which-nation-improved-the-most-in-2019>.

2022 yillarda 6% o'sishi taxmin qilinadi¹. Jahon bankining 2020-yil iyunda nashr etilgan hisobotida ham koronavirus pandemiyasiga qaramay, O'zbekiston butun yil davomida iqtisodiyotning ijobiy o'sish ko'rsatkichlari bo'yicha keyingi yillarda Sharqiy Yevropa va Markaziy Osiyo davlatlari orasida yagona mamlakat bo'lib qolishi bashorat qilinadi².

Mamlakatimizda tabiiy-xomashyo resurslarining geostrategik jihatdan ulkan zaxirasi mavjud. Mamlakatimizda 3000 ta foydali qazilma konlari aniqlangan bo'lib, ularning 1100 tasi qazib olishga tayyor, xususan, 50 tasi asl, 41 tasi rangli, nodir, radioaktiv va qora metallar, 187 tasi yoqilg'i-energetika, 19 tasi kon-kimyo, 45 tasi konchilik xomashyosi, shuningdek, qurilish materiallari, yer osti suvlari va boshqa foydali qazilma konlaridan iborat. O'zbekiston yer osti boyliklari istiqboli juda ulkan. O'zbekiston hududining faqat 20% maydonida geologik razvedka ishlari olib borilgan. Jumladan, O'zbekistonda sanoat ahamiyatiga ega 86 ta neft konlari ochilgan bo'lib, ulardan 36 tasi neft, 24 tasi neft-gaz va gaz-neft, 26 tasi neft-gaz kondensat konlari toifasiga kiradi. Aniqlangan oltin zaxiralari bo'yicha respublika jahonda to'rtinchi, qazib olish darajasi bo'yicha to'qqizinchi o'rinda. O'zbekistonlik geologlar tomonidan Yevroosiyoda yirik hisoblangan shtokverk tipli koni (Muruntov) topilgan. O'zbekiston misning razvedka qilingan zaxirasi va qazib olish bo'yicha Markaziy Osiyo mamlakatlarida yyetakchidir. Mis konlarining 12% Janubiy Tyanshan, 80% O'rta Tyanshan va 8% Hisor burmali sistemasiga to'g'ri keladi. Uran zaxirasi bo'yicha esa O'zbekiston jahonda 7-8-o'rinlarni zabt etgan³. Respublikamizda foydali qazilmalarning qolgan turlari bo'yicha ham ulkan boyliklar mavjud. Bu Respublika geoiqtisodiy salohiyati mezonlaridan biridir.

¹ Global Economic Prospects: Slow Grows, Policy Challenges. (A World Bank Group Flagship Report). January 2020. – P.83.

² Global Economic Prospects: Slow Grows, Policy Challenges. (A World Bank Group Flagship Report). June 2020. – P.80.

³ Batafsil qarang: Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 12-жилд. Тахрир хайъати А.Азизхўжаев, Б.Алимов, М.Аминов ва б. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – Б.17-19.

Shu bilan birgalikda O'zbekiston iqtisodiy salohiyatini belgilab beradigan sohalar — qishloq xo'jaligi, yengil sanoat, mashinasozlik, turizm va mehnat salohiyati bo'yicha mintaqada yyetakchi nufuzga ega. Biroq bir qator obyektiv omillarga ko'ra O'zbekiston iqtisodiy salohiyati o'z imkoniyatlari va salohiyatini to'liq namoyon eta olmayapti. Geografik jihatdan jahon dengiz portlari va yo'laklariga chiqishning murakkab ekanligi, demografik o'sish sharoitida mehnat bozorida raqobatning kuchayishi, ishchi o'rinlari, suv resurslari muammosi va boshqa bir necha omillar O'zbekistonning makroiqtisodiy rivojlanish jarayonlariga o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Serhosil va unumdor yerlar, yer osti qazilmalari va boshqa shu singari iqtisodiy ustunliklar qatorida O'zbekistonning oraliqda joylashgani mamlakat uchun qiyinchiliklar tug'dirishi, mahsulotlar yetishtirish, ular eksporti, uning ta'minoti, asosan, qo'shni davlatlar nazoratida qolishiga olib keladi¹. O'z navbatida, O'zbekiston zaminida mavjud bo'lgan tabiiy-xomashyo boyliklarining qazib olinmagan zaxiralari, mintaqaviy istiqbolli yirik loyihalar, mintaqalararo transport infrastrukturasi, turizm va hokazo ustuvor jihatlar hisobga olinadigan bo'lsa, mamlakat mintaqaning geoiqtisodiy markaziga aylanish salohiyatini anglash qiyin emas.

Intellectual, madaniy-ma'rifiy salohiyat va milliy-mintaqaviy g'oyalar

O'zbekiston — jahon ilm-fani va madaniy-ma'rifiy taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan ulkan intellektual salohiyat zaminidir. Shuningdek, mamlakatimiz islom olami va boshqa dinlarning sivilizatsiya beshiklaridan biri sanaladi. Markaziy Osiyoda qachondir mavjud bo'lgan va davlatchilik, fan, madaniyat rivojlanishida sezilarli iz qoldirgan barcha asosiy davlat tuzilmalarining poytaxtlari hozirgi O'zbekiston hududida joylashgan. Samarqand, Buxoro, Xiva, Qo'qon va Toshkent madaniyatlarining sivilizatsion ta'siri o'tmishda mamlakat hududidan tashqarida ham juda kuchli bo'lgan. Bu

¹ Ўзбекистон геосиёсати. Ўқув қўлланма. (Таржимон — Ш. Рамазонов) —Т.: ЖИДУ, 2012. — Б. 77.

shaharlar asrlar davomida Markaziy Osiyoda va Yevroosiyoning boshqa hududlarida islom ta'limi, ilohiyoti va diniy rahbariyatining markazlari bo'lib kelgan¹. Ushbu shaharlar dunyo tomonidan yuksak nomlar bilan e'tirof etilishi ham fikrlarimiz tasdig'idir. Bugun O'zbekiston — faqat juda boy tabiiy-xomashyo zaxiralari, cheksiz bozor va sarmoya sarflanadigan sohagina emas. Ayni chog'da mamlakatimiz ulkan aql-zakovat, ma'naviy va madaniy imkoniyatlarga ega. Bularning barchasi dunyoda yangi siyosiy va iqtisodiy tartib faol shakllanib borayotgan bir sharoitda, yurtimizning noyob jo'g'rofiy o'rni bilan qo'shilgan holda juda katta jo'g'rofiy-siyosiy va jo'g'rofiy-strategik qiziqish uyg'otadi². Bugungi kunda Respublikaning intellektual salohiyati jadal rivojlanib bormoqda. O'zbekiston ta'lim tizimini rivojlantirish, iste'dodli yoshlarni kashf etish, umuman, ilm-fanni yanada yuksaltirish yuzasidan tub islohotlar olib borilmoqda. Shu nuqtayi nazardan O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek: “O'zbekiston ilm-fan, intellektual salohiyat sohasida, zamonaviy kadrlar, yuksak texnologiyalar borasida dunyo miqyosida raqobatbardosh bo'lishi shart”³. Qo'shimcha ravishda qayd etish zarurki, milliy-mintaqaviy mafkura omili ham O'zbekiston geosiyosatining muhim unsurlaridan biri hisoblanadi. Mahalliy siyosatshunos ekspert X.Umarov o'z nomzodlik ishida milliy mafkurani O'zbekiston geosiyosiy holatida shakllanish xususiyatini alohida paragraf sifatida tadqiq etadi⁴. O'zbekiston mintaqaviy g'oyalari mintaqada mushtarak hamkorlik, muammolarni o'zaro birgalikda hal etish singari tamoyillarni o'zida mujassam etib, o'tgan davr mobaynida ilgari surilgan “Turkiston — umumiy uyimiz” va bugungi kunda rasmiy Toshkent tashabbusi bilan ishlab

¹ Сафоев С.С. Марказий Осиёдаги геосиёсат. — Т.: ЖИДУ, 2005. — Б.31.

² Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. — Т.: Ўзбекистон, 1997. — Б.8.

³ Мирзиёев Ш.М. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси // Ўзбекистон Миллий ахборот агентлиги, 2017 йил 23 декабрь. <http://uza.uz/oz/documents/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyeevning-oliy-22-12-2017>

⁴ Bu haqida batafsil qarang: Umarov X.P. Ўзбекистон Республикаси геосиёсий ҳолатининг геостратегик жиҳатлари. Сиёсий фан. ном.дисс. — Т.: 2004.

chiqilgan “Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlari Maslahat uchrashuvi”ni buning yorqin misoli sifatida keltirish mumkin.

Yuqorida sanab oʻtilgan omillar qatoriga Afgʻoniston omilini ham kiritmaslikning imkoni yoʻq. Oʻzbekiston geosiyosati Afgʻoniston omili hisobiga yanada kengayadi va bu omil mamlakat tashqi siyosatining ustuvor yoʻnalishlaridan birini egallaydi. Oʻz navbatida, Respublikamiz Markaziy va Janubiy Osiyo mintaqalarini Afgʻoniston orqali oʻzaro bogʻlashga qaratilgan strategik maqsad va vazifalarni amalga oshirishga intilmoqda.

Umuman keltirilgan dalillar Oʻzbekistonning mustaqil geosiyosiy qarorlar qabul qilishdagi yuqori potensialini belgilab beradi. “Markaziy Osiyoda joʻgʻrofiy-siyosiy jihatdan markaziy oʻrin tutgan Oʻzbekiston kuchlar tengligi va muvozanatini taʼminlash, strategik muhim boʻlgan ushbu mintaqada hamkorlikka mustahkam zamin yaratish jarayonida sezilarli rol oʻynash uchun hamma imkoniyatlarga ega”¹. Mazkur asoslar tufayli yirik kuch markazlari ham Oʻzbekistonning mintaqadagi geosiyosiy potensialini hisobga olishi va uni munosib baholashi lozim boʻladi.

Umuman olganda geografik determenizm, demografik, tarixiy, savdo-iqtisodiy, harbiy, intellektual salohiyat hamda madaniy-maʼrifiy omillar majmuyi Oʻzbekiston geosiyosatini nazariy jihatdan asoslash imkonini beradi. Yuqoridagi omillar qatorida Afgʻoniston omili ham ustuvor boʻlib, ushbu mamlakat geografik, tarixiy, savdo-iqtisodiy, etnik, lisoniy, diniy-madaniy omillarga koʻra Markaziy Osiyoning uzviy qismidir. Oʻzbekiston geosiyosatining alohida ajralib turuvchi xususiyati shundaki, mamlakatimiz geosiyosiy imkoniyatlari parallel ravishda bir qator muammolarni ham oʻzida ifodalaydi. Masalan, Oʻzbekiston “double landlocked” davlat ekani, aholi sonining koʻpayishi qoʻshimcha yangi ish oʻrinlari yaratish zaruriyatini taqozo etishi, terrorizm, ekstremizm, narkotik moddalar savdosi va geosiyosiy raqobat xatarlari, Orol muammosi, jumladan, transchegaraviy suv resurslaridan

¹ Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. —Т.: Ўзбекистон, 1997. — Б.228.

oqilona foydalanish va boshqa dolzarb masalalar O'zbekistonni Markaziy Osiyodagi geosiyosatning salbiy tendensiyalari markazida ekanligini ham aks ettiradi. Shu jihatdan, O'zbekiston geosiyosatini belgilab beruvchi omillar mamlakatimizga ham konstruktiv, ham destruktiv ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bu esa, istiqbolda O'zbekiston geosiyosi nufuzini konstruktiv imkoniyatlardan samarali foydalanish va destruktiv omillarni oldini olish bilan chambarchas bog'liq bo'lishini anglatadi. Shu bilan birga, O'zbekiston geosiyosati mintaqaviy geosiyosat xususiyatiga ega bo'lib, u mintaqaga harbiy-siyosiy bosim o'tkazish mexanizmlarini tamomila rad etadi, aksincha mintaqada barqarorlik, taraqqiyot va tashqi kuchlarning o'zaro muvozanatini ta'minlashga asoslangan siyosatni ustuvor, deb hisoblaydi.

Mavzu bo'yicha savollar

1. O'zbekiston geosiyosatining ustuvor yo'nalishi qaysi?
2. Geografik determenizm deganda nimani tushunasiz?
3. O'zbekistonning demografik, harbiy, iqtisodiy va intellektual salohiyatini qayday baholaysiz?
4. O'zbekiston geosiyosatining o'ziga xos xususiyati qanday?
5. O'zbekiston geosiyosatini "Heartland" nazariyasi asosida talqin etish mumkinmi? Agar shunday bo'lsa, misollar asosida isbotlang.

Mustaqil ish topshiriqlari:

1. O'zbekiston geosiyosatining asoslaydigan dalillar aks etgan infografika tayyorlash.
2. "O'zbekiston — Markaziy Osiyoning geosiyosiy yadrosi" mavzusida ilmiy maqola yozish.
3. O'zbekiston geosiyosati va Markaziy Osiyoni o'rganadigan tahliliy aqliy markazlar jadvallarini shakllantirish.
4. O'zbekiston geosiyosati bo'yicha yozilgan ilmiy maqolalarni tarjima qilish.

XALQARO KUCH MARKAZLARINING MARKAZIY OSIYODAGI GEOSIYOSIY MANFAATLARI

Reja:

1. AQShning Markaziy Osiyodagi geosiyosiy manfaatlari
2. Rossiyaning Markaziy Osiyodagi geosiyosiy manfaatlari
3. Xitoyning Markaziy Osiyodagi geosiyosiy manfaatlari

O'quv mashg'ulotining maqsadi: Markaziy Osiyoda AQSh, Rossiya va Xitoy singari yirik davlatlarning geosiyosiy manfaatlari ilmiy tahlil etish.

Tayanch so'z va iboralar:

Yevroosiyo, Markaziy Osiyo, ISAF, C5+1, "Tolibon" harakati, Zalmay Xalilzod, Blackwater, DOISH, MDH, KXSHT, YII, hard power, soft power, «Markaziy Osiyo+Rossiya», ShHT, OBOR, Xitoy-Markaziy Osiyo hamkorlik forumi.

Zamonaviy xalqaro munosabatlar yangi tendensiyalar ta'siri ostida kechmoqda. Mazkur tendensiyalarda Markaziy Osiyo mintaqasining o'rni tobora muhim ahamiyatga ega bo'lib, xalqaro kuchlar mintaqada shakllangan kuchlar muvozanatiga ta'sir ko'rsatish uchun jiddiy raqobat olib bormoqda. Bu esa mintaqa geosiyosiy arxitekturasida AQSh, Rossiya va Xitoy singari yirik kuchlarning o'zaro kurashi yangi bosqichga chiqayotgani, o'z navbatida, mintaqaga nisbatan yangi yondashuvlar va qarashlar ishlab chiqish zaruriyatini ham namoyon etmoqda. Shu jihatdan yuqoridagi xalqaro kuchlar uchligining Markaziy Osiyo mintaqasidagi geosiyosiy manfaatlarini o'rganish dolzarb xususiyatga ega.

AQShning Markaziy Osiyodagi geosiyosiy manfaatlari

2001-yildan buyon Afg'onistonda urush harakatlari olib borayotgan AQShning mintaqadagi asosiy manfaati Afg'oniston orqali Yevroosiyo makonida o'z geosiyosiy ta'sirini saqlab turish va shu orqali Rossiya, Xitoy, Eron singari geosiyosiy raqobatchilar ta'sirini jilovlab turishdan iborat ekanligi namoyon bo'ldi. Bundan tashqari Vashington Kaspiy dengizi va Markaziy Osiyo mintaqasidan Afg'oniston orqali o'tadigan Hind okeanigacha bo'lgan geosiyosiy makonda neft va gaz quvurlari, temir yo'l, transport kommunikatsiyalari ustidan boshqaruvni to'la o'z nazoratiga olishga intilib kelmoqda. Siyosiy fanlar doktori, professor N.To'laganova Afg'oniston va Markaziy Osiyoni o'z ichiga oluvchi makrohududning iqtisodiy o'sish istiqbollari xususida shunday qayd etgan edi: "Katta ehtimol bilan yaqin istiqbolda, global ahamiyatga ega hamda yetakchi davlatlarning geoiqtisodiy manfaatlariga har doim ham daxl qilmaydigan Kaspiy dengizidan neft va gazni transport vositasida tashish masalalari dunyoning yetakchi davlatlari va Markaziy Osiyo mintaqasi davlatlarining kun tartibidagi dolzarb masalasi sifatida namoyon bo'ladi"¹.

Qo'shma Shtatlarning Markaziy Osiyodagi siyosatini ikki bosqichga ajratib olish mumkin. Birinchi bosqichda (2001-2010-yillar) Amerika geosiyosatining asosiy e'tibori mintaqada harbiy-siyosiy hozirlikni ta'minlash va shu orqali geostrategik maqsadlarni amalga oshirishga qaratilgan bo'lsa, ikkinchi bosqichda (2010-yildan hozirgi vaqtgacha) geoiqtisodiy omillar Vashington geosiyosiy yondashuvlarining ustuvor yo'nalishiga aylanmoqda.

Ma'lumki, AQShning Markaziy Osiyo mintaqasiga oid yangi yondashuvlari 2014-yildan so'ng, ya'ni Xalqaro xavfsizlikka ko'maklashuvchi kuchlar (ISAF) Afg'oniston hududini tark etishi jarayonlari bilan chambarchas bog'liq. Xususan, Qo'shma Shtatlar Markaziy Osiyo uchun alohida C5+1 formatini ishlab chiqqani bo'lib, unda tashqi ishlar mahkamalari rahbarlari tomonlar o'rtasida izchil hamkorlikni

¹Туляганова Н.У. Афганский конфликт и его последствия в контексте становления новой системы безопасности в Центральной Азии. Автореф. дисс. док. пол. наук. – Т., 2006. – С. 22-23.

chuqurlashtirish, mintaqaviy xavfsizlik, Markaziy Osiyo transport imkoniyatlarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan. Ushbu formatning ilk uchrashuvi 2015-yilda Samarqandda bo'lib o'tgani esa AQSh mintaqada eng asosiy hamkor sifatida O'zbekistonga umid bog'layotganligini ko'rsatib berdi. Shu paytdan boshlab, olti davlat tashqi ishlari rahbari doimiy muloqot o'tkazib kelmoqda.

Shu bilan birgalikda AQSh Davlat departamenti 2019-2025-yillarga mo'ljallangan Markaziy Osiyo bo'yicha yangi strategiyasini taqdim etdi. U AQSh sobiq davlat kotibi Maykl Pompeoning O'zbekiston va Qozog'istonga qilgan tashrifi chog'ida e'lon qilindi. Hujjatda ta'kidlanishicha, AQShning Markaziy Osiyo bo'yicha avvalgi strategiyasi 2015-yilda tasdiqlanganidan buyon mintaqadagi yangi rahbarlar islohotlar, mintaqaviy aloqalar va hamkorlikni rivojlantirishga Qo'shma Shtatlarni faol jalb etish uchun yangi imkoniyatlarni taqdim etdi.

Yangi strategiyaga eski strategiyadan joy olgan asosiy tendensiyalardan ayrimlari kiritilgan. Jumladan, mintaqadagi ichki va transchegaraviy terrorizm xavfsizlikka tahdid solayotgan asosiy muammolardan biri sifatida qoldirilgan. Shuningdek, Markaziy Osiyo davlatlari radikal ekstremizm, giyohvand moddalarning noqonuniy aylanmasi va yolg'on axborotlar kabi barqarorlikka tahdidlar bilan to'qnashishda davom etadi.

Strategiyada AQShning mintaqadagi siyosatiga oid oltita asosiy tamoyillar bayon etilgan:

1. Markaziy Osiyo davlatlarining ham alohida-alohida, ham butun mintaqada sifatida suverenitet va mustaqilligini qo'llab-quvvatlash va mustahkamlash. AQSh mahalliy hokimiyat organlarining demokratik institutlarni mustahkamlash va iqtisodiy taraqqiyotni yuksaltirish bo'yicha sa'y-harakatlarini qo'llab-quvvatlash uchun dasturiy yordamlarni taqdim etadi va o'zining mintaqadagi diplomatik ishtirokini oshiradi. Bundan tashqari Qo'shma Shtatlar "mintaqani bo'lib tashlagan" tushunmovchiliklarni bartaraf etish bo'yicha choralarni kuchaytirishni qo'llab-quvvatlaydi.

2. Markaziy Osiyoda terroristik tahdidlarni kamaytirish. Mintaqa hamjamiyati ekstremistik g'oyalarga chidamlilik qobiliyatini ishlab chiqishi, uning hududi esa terroristlar uchun boshpana vazifasini bajarmasligi kerak.

3. Afg'onistonda barqarorlik o'rnatish uchun yordam ko'rsatish va ularni kengaytirish. AQSh Afg'onistonning xavfsiz va barqaror bo'lishi Markaziy Osiyo davlatlari hukumatlari uchun asosiy ustuvor maqsad ekanini va mojarolarga chek qo'yishi mumkin bo'lgan tinchlik jarayonida har kimning muhim rol o'ynashini tan oladi. Qo'shma Shtatlar Afg'oniston bilan bog'liq iqtisodiy va tijoriy aloqalarni rivojlantirish hamda musulmn ko'pchilikka ega ko'p millatli davlatlarni barqaror boshqarish modelini ishlab chiqishda Markaziy Osiyo davlatlariga yordam ko'rsatadi.

4. Markaziy Osiyo va Afg'oniston o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish. Markaziy Osiyo davlatlari mintaqaviy barqarorlikka bevosita hissa qo'shadigan energiya, iqtisodiyot, madaniyat, savdo va xavfsizlik sohaları orqali Afg'oniston bilan yaqin aloqalarni rivojlantirishlari kerak.

5. Qonun ustuvorligini va inson huquqlarini hurmat qilishni qo'llab-quvvatlash. Saylovlar, shaffof siyosat, qonun ustuvorligi va inson huquqlarini hurmat qilish yo'li bilan fuqarolar, inklyuziv siyosiy tizimlarning jiddiy ishtirokini ta'minlash orqali Markaziy Osiyo davlatlari barqarorligini mustahkamlash.

6. AQShning Markaziy Osiyoga sarmoyalarini jalb qilish. Markaziy Osiyodagi qulay ishbilarmonlik muhiti AQSh kompaniyalarini jalb qiladi va rivojlanishning yanada kengroq maqsadlariga erishishga yordam beradi.

Ta'kidlash lozimki, strategiyada qayd etilgan quyidagi jumlar alohida ahamiyatga ega: "Barcha besh mamlakat bilan yaqin munosabatlar va hamkorlik AQSh qadriyatlarini targ'ib qilishga yordam beradi va mintaqadagi qo'shnilar ta'siriga qarshi turishini ta'minlaydi. Amerika biznesi uchun imkoniyatlarning kengayishi mintaqadagi iqtisodiy farovonlikni oshiradi, shuningdek, Qo'shma Shtatlarda ish bilan ta'minlash va sanoatni rivojlantirishga yordam beradi"¹.

Hozirgi paytda AQSh kuchlarining Afg'oniston hududini tark etish jarayonlari boshlanishi va "Tolibon" harakati bilan

¹ United States Strategy for Central Asia 2019-2025: Advancing Sovereignty and Economic Prosperity // United States Department of State, February 5, 2020.

<https://www.state.gov/united-states-strategy-for-central-asia-2019-2025-advancing-sovereignty-and-economic-prosperity/>

muzokaralar faollashishi siyosatchilar va tahlilchilar tomonidan qizg'in bahs-munozaralarga sabab bo'lmoqda.

Ma'lumki, AQSh "Tolibon" harakati bilan muzokaralar olib borishda eng faol aktorga aylandi. Afg'oniston va uning atrofidagi geosiyosiy voqealiklar D.Tramp rahbarligidagi AQSh ma'muriyati va "Tolibon" harakati o'rtasidagi muzokaralar formatining Vashington manfaatlariga mos tushishiga olib keldi va bizningcha, buning bir qator sabablari mavjud:

birinchidan, bir qancha muddat davomida Markaziy Osiyo va Afg'onistonni Vashington manfaatlariga asoslangan xavfsizlik halqasi orqali birlashtirish strategiyasining muvaffaqiyatsiz yakunlanganligi. Natija esa D.Tramp ma'muriyati oldiga Qo'shma Shtatlarning afg'on siyosatini qayta ko'rib chiqishni taqozo etdi. Shunday holatda, AQShning Afg'onistonda harbiy omilni qaytadan kuchaytirishga urinishi shubhasiz, Markaziy Osiyo bilan ham munosabatlarni keskinlashtirib qo'yishi mumkin edi. 2020-yil fevral oyi boshlarida AQSh Davlat departamenti tomonidan qabul qilingan Markaziy Osiyo strategiyasi¹ ayni shu jihatlarni ko'zda tutadi. Shu sababdan AQSh Afg'oniston va uning atrofidagi geosiyosiy manfaatlarini shaklini mintqa tomonlari qiziqishiga sabab bo'ladigan siyosiy muzokaralar jarayonini rag'batlantirish omiliga qaratdi. Bunday omilni Afg'oniston ichki siyosiy jarayonlarida real muxolif kuchga aylangan "Tolibon" harakati bilan muzokaralar o'tkazish orqali amalga oshirish mumkin edi;

ikkinchidan, "Tolibon" harakatining moliyaviy-harbiy ta'minot ko'makchilari doirasi kengayib, Vashingtonning Afg'onistondagi manfaatlariga daxl qiluvchi turli ko'rinish va shakllarda o'zgarib borganligi;

uchinchidan, Amerika hukmron doiralarida "Tolibon" harakati bilan muzokaralar o'tkazishning boshqa zaruriy sabablari ham mavjud. Siyosiy tahlilchi, ekspert R.Mahmudov AQSh Prezidenti D.Trampni toliblar bilan muzokaralar jarayonini qayta tiklash haqidagi qarorini ikki muhim omil,

¹ United States Strategy for Central Asia 2019-2025: Advancing Sovereignty and Economic Prosperity // United States Department of State, February 5, 2020. <https://www.state.gov/united-states-strategy-for-central-asia-2019-2025-advancing-sovereignty-and-economic-prosperity/>

ya'ni strategik va taktik sabablar bilan baholaydi: "Strategik jihatdan toliblar bilan kelishuv AQSh uchun juda zarur, negaki Amerika jamiyati mamlakat tarixida eng uzoq davom etayotgan urushdan charchadi va yakuni ko'rinmayotgan turli harbiy amaliyotlarga katta moliyaviy resurslar sarflashni istamaydi. Taktik jihatdan esa, 2020-yildagi yangi prezidentlik saylovlari arafasida tashqi siyosiy arenada ijobiy yangiliklar bo'lishi amaldagi Amerika prezidenti (D.Tramp) uchun juda zarur"¹. Turli baholashlarga ko'ra uzoq yillik urush davomida Qo'shma Shtatlarning 2,400 dan ortiq harbiylari halok bo'lgan, 20 000 dan ortig'i jarohatlangan. Vashington urushga 2 trillion dollarga yaqin mablag' sarflagan². Amerika universitetining Xalqaro xizmatlar maktabi fakulteti tadqiqotchisi Xayde Shurter (Heide Schurter) o'z dissertatsiyasida AQSh siyosatining Afg'onistondagi muvaffaqiyatsizligi sababi o'z vaqtida afg'onlarning o'zlariga boshqaruvni topshirish imkoniyati berilmagani hamda harbiy xarajatlar, moliyaviy resurlarning ayni shu maqsadga safarbar etilmaganidir³, deb xulosa qiladi. 2019-yil so'nggida "Washington Post" nashri tomonidan chop etilgan Afg'onistondagi urush haqiqatlariga oid maxfiy hujjatlarda ham AQSh generellaridan tortib diplomatlarigacha Afg'oniston urushiga tanqidiy munosabatda bo'lganligiga oid intervyular⁴ jamlangan. Shunday sharoitda, D.Tramp boshchiligidagi AQSh rahbariyati Afg'onistondagi urush xarajatlari va harbiy omilni kamaytirish vazifasini dolzarb masala sifatida belgiladi.

O'z navbatida, "Tolibon" harakatining AQSh bilan muzokaralar o'tkazish zarurati ham diqqatga sazovor:

¹ Махмудов Р. Зачем Трамп перезагружает переговоры с "Талибаном"? // Клуб «Валдай», 10.12.2019. <https://ru.valdaiclub.com/a/highlights/zachem-tramp-perezagruzhayet-peregovory-s-talibanom/>

² Richard N. Haass. How Not to Leave Afghanistan // Project Syndicate, March 3, 2020. <https://www.project-syndicate.org/commentary/trump-us-taliban-agreement-poor-prospects-by-richard-n-haass-2020-03>

³ Schurter H. The failures of U.S. policy in Afghanistan and the lessons learned. In partial fulfillment of the Requirements for the degree of Master of Arts in International Peace and Conflict Resolution. Washington, 2013. – P. 105-106.

⁴ Whitlock C. At War With The Truth. The Afghanistan Papers: A secret history of the war // Washington Post, December 9, 2019.

<https://www.washingtonpost.com/graphics/2019/investigations/afghanistan-papers/afghanistan-war-confidential-documents/>

birinchidan, ushbu harakatning asosiy maqsadi xorijiy harbiy kuchlarni Afg'onistondan to'liq olib chiqilishiga erishish va shu yo'l bilan Afg'onistonda o'z hokimiyatini o'rnatish hisoblanadi. Harakat rahbarlari bunday maqsadni amalga oshirishda Afg'onistonda eng ko'p sonli xorijiy qo'shnlarga ega bo'lgan AQSh bilan muzokaralar o'tkazish to'g'ri yo'l ekanini juda yaxshi anglashadi;

ikkinchidan, "Tolibon" vakillari Afg'onistonda uzoq yillar davomida katta harbiy va moliyaviy resurslarni urush olib borishga safarbar etdi. Bunday resurslarni asosan tashqaridan kelishi va muntazam harbiy harakatlarni afg'on jamiyati tomonidan to'la qo'llab-quvvatlanmasligi natijasida aholi ko'z o'ngida tinchlik muzokaralari olib borish lozim edi. Xalqaro Inqiroz guruhining Afg'oniston bo'yicha mutaxassisi Burxon Usmonning ta'kidlashicha, "Tolibon" harakatining muzokaralarga moyilligi ularning jang maydonida to'liq g'alaba qozona olmasligi dalili bilan izohlanadi"¹. Shu asnoda ushbu harakatning nazdida AQSh bilan muzokaralarga kirishish "qo'g'irchoq Afg'oniston hukumati" mavqeyini tushirib, mamlakat ichida "Tolibon" harakatining ijtimoiy-siyosiy nufuzini mustahkamlagan bo'lardi;

uchinchidan, AQSh-"Tolibon" muzokaralari formati Afg'oniston geosiyosiy tendensiyasida muhim rolga ega bo'lgan davlatlarni ham "Tolibon" bilan tegishli aloqalar o'rnatishiga olib kelardi. Tabiiyki, bu "Tolibon" harakatining mintaqaviy nufuzini oshirish imkoni bilan birga istiqbolda mintaqada davlatlari va jahon hamjamiyati tomonidan ushbu harakatni rasmiy ravishda tan olish uchun katta imkoniyat yaratgan bo'lar edi. O'z vaqtida terrorchi va harbiy jinoyatchi sifatida tanilgan "Tolibon" harakatining "Haqqoniy tarmog'i" rahbari Sirojiddin Haqqoniy tomonidan "New York Times" nashrida "Biz, "Tolibon" nima istaymiz" sarlavhasi ostida maqola chop etilishi ayni shunday maqsadlarni ko'zda tutadi. Unda keltirilgan quyidagi fikrlar alohida e'tiborga molikdir: "Biz xalqaro sheriklarimiz bilan uzoq muddatli tinchlik va qayta tiklanish bo'yicha o'zaro manfaatlar asosida ishlashga

¹ Мануков С. Мирные переговоры в Афганистане: «Не хотим войны, но можем воевать вечно» // EADaily, 2 декабря 2018. <https://eadaaily.com/ru/news/2018/12/02/mirnye-perегоvory-v-afganistane-ne-hotim-voyny-no-mozhem-voevat-vechno>

tayyormiz. Biz barcha davlatlar bilan do'stona aloqalarni saqlab qolish muhim ekanligini tan olgan holda ularning xavotirlarini jiddiy qabul qilamiz. Yangi Afg'oniston xalqaro hamjamiyatning mas'uliyatli a'zosiga aylanadi"¹;

to'rtinchidan, "Tolibon" harakatini o'z siyosiy maqsadini ro'yobga chiqarishning muhim vositalaridan biri sifatida tanlagan davlatlar yoki ularni bilvosita qo'llab turgan ayrim kuchlar ushbu harakatni muzokaralarga jalb etish orqali Afg'oniston siyosatida o'z ta'sir kuchini namoyon etgan bo'lar edi.

AQSh rahbariyati yuqorida qayd etilgan omillar va belgilangan strategik hamda taktik vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida kelib chiqishi afg'on bo'lgan diplomat Zalmay Xalilzodni AQSh Prezidentining Afg'oniston bo'yicha maxsus vakili sifatida tayinladi². Zalmay Xalilzod va "Tolibon" harakatining Qatardagi siyosiy mahkamasi rahbariyati o'rtasida olib borilgan ko'p raundlik muzokaralar natijasida 2020-yilning 29-fevral sanasida Qatar poytaxti Doha shahrida "Amerika Qo'shma Shtatlari va "Tolibon" o'rtasida Bitim³ imzolandi. Parallel ravishda Kobulda "Afg'oniston Islom Respublikasi va Amerika Qo'shma Shtatlari Afg'onistonda tinchlikka erishish to'g'risida"gi Qo'shma Deklaratsiyani⁴ ham imzolashdi. AQSh va "Tolibon" harakati o'rtasidagi "tinchlik kelishuvi" o'zida bir qator e'tiborga molik jihatlarni aks ettiradi. Unga ko'ra:

-Qo'shma Shtatlar va uning ittifoqchilari 14 oy ichida barcha qo'shinlarini Afg'oniston hududidan olib chiqadi (dastlabki bosqichda bitim imzolangan kundan e'tiboran 135 kun ichida AQSh harbiylari soni 8,600 taga qisqarishi va AQSh hamda ittifoqchilari 5 ta harbiy bazadan o'z kuchlarini

¹Haqqani S. What We, the Taliban, Want // The New York Times, February 20, 2020. <https://www.nytimes.com/2020/02/20/opinion/taliban-afghanistan-war-haqqani.html>

² Zalmay Khalilzad – Special Representative for Afghanistan Reconciliation // United States Department of State, September 21, 2018. <https://www.state.gov/biographies/zalmay-khalilzad/>

³ "Толибон" сифатида маълум, давлат сифатида Қўшма Штатлар томонидан тан олинмаган Афғонистон Ислом Амирлиги ўртасида Афғонистонда тинчликка эришиш тўғрисида"ги Битим / Agreement for Bringing Peace to Afghanistan // United States Department of State, February 29, 2020. <https://www.state.gov/agreement-for-bringing-peace-to-afghanistan/>

⁴ Joint Declaration Between The Islamic Republic Of Afghanistan And The United States Of America For Bringing Peace To Afghanistan // State Ministry for Peace of Afghanistan, February 29, 2020. <http://smp.gov.af/en/joint-declaration-between-islamic-republic-afghanistan-and-united-states-america-bringing-peace>

olib chiqishi, keyingi bosqichda — 9,5 oy ichida qolgan harbiy kuchlar va bazalarni Afgʻonistondan toʻliq olib chiqish);

- “Tolibon” harakati oʻz aʼzolari, boshqa guruhlar, jumladan “al-Qoida” va ularning aʼzolariga AQSh va uning ittifoqchilari xavfsizligiga qarshi Afgʻoniston hududidan foydalanishiga ruxsat bermaydi;

- ushbu bitim eʼlon qilingandan keyin “Tolibon” harakati afgʻon tomonlari bilan afgʻonlararo muzokaralarni boshlaydi;

- doimiy va har tomonlama oʻt ochishni toʻxtatish afgʻonlararo muloqot va muzokaralar dasturining predmeti boʻladi.

Qoʻshma Shtatlarning Afgʻonistondan qoʻshinlarini toʻliq olib chiqishi geostrategik jihatdan ushbu mamlakatning butun Yevroosiyo qitʼasida taʼsir doirasi pasayishiga olib keladi. Bizningcha, AQSh va “Tolibon” kelishuvini Afgʻonistonda tinchlikni taʼminlashga qaratilgan chinakam qadam, deb hisoblash uchun quyidagi muhim dalillarga asoslangan shubhali masalalarga javob izlash va ularga oydinlik kiritish lozim boʻladi:

- ushbu bitim har ikkala tomonning ham birinchi raqamli yuqori martabali vakillari tomonidan imzolanmadi. Bitimni AQSh tomonidan maxsus vakil Zalmay Xalilzod (AQSh prezidenti yoki davlat kotibi emas) va “Tolibon” tomonidan Qatardagi siyosiy mahkama rahbari Mulla Abdulgʻani Barodar (harakat rahbari Mulla Haybatulloh Oxunzoda emas) imzolashdi. Bu esa yaqin istiqbolda tomonlarning bitimga rioya qilishiga oid baʼzi shubhalarni vujudga keltiradi. Misol uchun, Amerika kuchlarining bitim imzolanganidan hech qancha vaqt oʻtmay, yaʼni 4-mart sanasida Helmand viloyatidagi “Tolibon” kuchlariga aviazarbalar bilan hujum qilgani¹ buni yaqqol koʻrsatmoqda. Afgʻoniston Milliy xavfsizlik kengashi vakili Jovid Faysal yozganidek, bitim imzolangan haftaning oʻzida mamlakatning 17 viloyatida 34 nafar tinch aholi halok boʻlib, 62 kishi turli tan jarohati olgan. 29 fevral sanasidan 20 aprel sanasigacha boʻlgan muddatda

¹ USFOR-A Spokesman Col Sonny Leggett. The US conducted an airstrike on March 4 against Taliban fighters in Nahr-e Saraj, Helmand, who were actively attacking an #ANDSF checkpoint. This was a defensive strike to disrupt the attack. This was our 1st strike against the Taliban in 11 days // Twitter, March 4, 2020. https://twitter.com/USFOR_A/status/1235116513629057025?s=20

esa “Tolibon” kuchlari 2,804 ta terrorchilik hujumlarini amalga oshirib, umumiy 789 kishi halok bo‘lgan yoki jarohatlangan¹. Bu raqamlar kelishuv shartlari ijrosi so‘roq ostida qolayotganini ko‘rsatadi.

- Bir qator siyosatshunos ekspertlarning tahliliy xulosalariga ko‘ra 2020-yil noyabr oyida bo‘lib o‘tgan AQSh prezidentlik saylovlari natijasi Qo‘shma Shtatlarning Afg‘oniston bo‘yicha amaldagi siyosatini qayta ko‘rib chiqishga undashi mumkin va taxminlarga ko‘ra AQSh Afg‘onistondan qo‘shinlarini to‘liq olib chiqmaydi, aksincha o‘z harbiy ta‘sirini razvedka xizmati xodimlari, instruktorlar, xususiy harbiy kompaniyalar yoki muhim strategik savdo obyektlarini qo‘riqchilari sifatida saqlab qoladi². NBC telekanalida e‘lon qilingan xabarda D.Tramp Afg‘onistondagi Amerika askarlarini “Blackwater”³ xususiy harbiy kompaniyasiga almashtirish variantlarini ko‘rib chiqayotgani ma‘lum qilinadi. Xabarda prezidentga ushbu taklifni kompaniya asoschisi Erik Prins bildirgani qayd etilgan⁴. “Afghanistan Times” gazetasida chop etilgan xabar esa Afg‘onistonda turli tanqidiy bahs va munozaralarga sabab bo‘ldi. Xabarga ko‘ra E.Prins Qo‘shma Shtatlar 29-fevral

¹ Faisal J. Taliban killed or wounded 789 civilians during this period (average of 15 a day). In a sign of intensifying Taliban campaign against civilians, last week was the bloodiest since the US-Taliban deal, with Taliban killing 34 and wounding 62 civilians across 17 provinces // Twitter, April 25, 2020. <https://twitter.com/Javidfaisal/status/1253983590553137154?s=20> ; From the February 29 signing of the peace deal until April 20, Taliban conducted 2,804 terrorist activities across Afghanistan (averaging about 55 a day). The numbers show Taliban doing nothing for peace and everything to continue their campaign of terror against Afghans // Twitter, April 25, 2020. <https://twitter.com/Javidfaisal/status/1253983501059227648?s=20>

² Серенко А. Вывод американских войск из Афганистана - предвыборный трюк Трампа // Politrus экспертно-аналитическая сеть, 14.03.2020.

<http://www.politrus.com/2020/03/14/afghanistan-usa-9/>

<http://www.politrus.com/2020/03/14/afghanistan-usa-9/>; Сотников В., Асафов А.

Победоносная война не удалась: выведут ли США войска из Афганистана // RT на русском, 2 марта 2020. <https://russian.rt.com/world/article/723790-ssha-afghanistan-voiska>

³ Blackwater – AQSh xususiy harbiy kompaniyasi. Hozirgi nomi “Academi” bo‘lib, dunyodagi eng katta xususiy harbiy kompaniya hisoblanadi. Asosiy daromadining 90% harbiy mojarolarda ishtirok etishga yo‘naltirilgan hukumat buyurtmalaridan kelib tushadi. Shuningdek, kompaniya harbiy yuklar yetkazish, strategik obyektlarni qo‘riqlash, qo‘shinlarni moddiy-texnik ta‘minlash hamda gumanitar ko‘mak ko‘rsatish vazifalarini ham amalga oshiradi.

⁴ Lee C., Kube C., Lederman J. Officials worry Trump may back Erik Prince plan to privatize war in Afghanistan // NBC News, August 17, 2018.

<https://www.nbcnews.com/news/military/officials-worry-trump-may-back-erik-prince-plan-privatize-war-n901401>

bitimidan keyin “Tolibon” harakati bilan hamkorlik qilishni mo‘ljallagan. Prinsning ta’kidlashicha, bunda “Tolibon” AIRda AQSh manfaatlariga qarshi bo‘lgan “DOISH”¹ va boshqa terrorchi guruhlariga qarshi kurashish uchun javobgar bo‘ladi². Bundan tashqari AQShning yangi saylangan prezidenti J. Bayden boshqaruvida Vashington toliblarning kelishuvga rioya etmasligi ortidan Afg‘onistonda o‘z ta’sirini saqlab qolishga intilishi mumkin. Boshqacha aytganda, Amerika kuchlarining Afg‘onistondan chiqib ketishi Vashington strategiyasi emas, taktikasi o‘zgarayotganidan shohidlik beradi.

Bitimda ko‘rsatilgan shartlar Afg‘oniston umummilliy tinchlik yarashuvidan ko‘ra ko‘proq Qo‘shma Shtatlarning strategik manfaatlariga xizmat qilishini ko‘rsatdi. Chunki, o‘t ochish va qurolli qarama-qarshilikni to‘xtatish masalasi Afg‘oniston hukumatiga emas, faqat AQSh va “Tolibon” harakatiga tegishli kelishuv sanaladi. Afg‘onistonning bir qator ekspertlari ushbu bitimni Qo‘shma Shtatlarning Afg‘onistondagi o‘z manfaatlarini turli shakllarda aks ettirishga urinishidir, deb baholamoqda. Jumladan, ekspert Azhar Ozim o‘tkazilgan muzokaralar faqat Vashington manfaatiga asoslanganini qayd etar ekan, birgina 2019-yilda o‘tgan yilga nisbatan tinch aholi orasida qurbonlar soni 42% ga oshganini misol sifatida keltiradi³. “Ormon-e milli” gazetasida nashr etilgan maqolada Amerika va “Tolibon” vakillari o‘rtasidagi muzokaralar jarayoni tafsilotlari Afg‘oniston xalqi va hattoki, hukumatdan sir tutilgani, parda ortida yuz berayotgan o‘yinlar o‘z o‘rnini afg‘onlararo muzokaralarga bo‘shatishi zarurligi haqida so‘z boradi⁴.

¹ DOISH – “Islom davlati” terrorchilik tashkilotining daryi va arab (DAISH) tillarida nomlanishi.

² US offers Blackwater role to Taliban // Afghanistan Times, April 28, 2020. <http://www.afghanistantimes.af/us-offers-blackwater-role-to-taliban/>

³ ازهر عازم. افغانستان و اولويت اصلی امريکا / ويسا خپلواکه ملي ورځپاڼه. پرسي ۳۵۹۳ مه کڼه، د ۲۰۲۰ کال د جنوري ۱۹ مه. – ص. ۱-۴.

(Azhar Ozem. Afg‘oniston va ulaviyat-e asli-ye Amriko. De 2020 kol de janvari 19 ma. – S. 1-4.)

Azhar Ozem. Afg‘oniston va Amerikaning asosiy ustuvor yo‘nalishi / Viso gazetasi, 2020-yil 19-yanvar. – B. 1-4.

⁴ باری های پشت پرده! ارمان ملی، سه شنبه ۲۲ دلو ۱۳۹۸، شماره ۲۵۸. – ص. ۲.

(Boziho-ye po‘sh-t-e parda! Ormone-e milli, seshanba, 22 dalv 1398, sho‘mora 258. – S. 2.)

Bundan tashqari “Ufuqnews” axborot saytida keltirilgan maqolada AQSh va “Tolibon” kelishuvi Afgʻoniston hukumati qarshi qaratilgani va Afgʻonistonning boʻlajak taqdiri AQSh va “Tolibon” harakati soyasida qolmasligi lozimligi taʼkidlanadi¹. Bitimda qayd etilgan 5000 nafar “Tolibon” mahbuslarini ozod etish masalasi va uning atrofida roʻy bergan qizgʻin bahslar ham oʻz-oʻzidan Vashington qarorlari, avvalo, rasmiy Kobul bilan kelishib tuzilmagani, ushbu bitim koʻproq AQSh geosiyosiy maqsadlariga hamohang yoʻnaltirilganini yaqqol koʻrsatdi.

Umuman olganda Qoʻshma Shtatlarning Afgʻoniston siyosati butun Yevroosiyo geosiyosatining asosiy tarkibiy qismi boʻlib, bugungi kunda Amerika manfaatlarini Afgʻoniston va Markaziy Osiyo hududida strategik darajada saqlash maqsadlari yangi shakllar va oʻyinlar orqali amalga oshirilayotganidan darak beradi.

Rossiyaning Markaziy Osiyodagi geosiyosiy manfaatlari

Rossiyaning Markaziy Osiyodagi manfaatlari tarixiy davrlarga borib taqaladi. Hattoki, Sovet Ittifoqi parchalangach ham Kreml rahbariyati Markaziy Osiyoga asosiy manfaat hududi sifatida eʼtibor qaratdi. Rossiya mintaqada oʻz geosiyosiy manfaatlarini izchil taʼminlash maqsadida MDH, Kollektiv xavfsizlik shartnomasi tashkiloti (KXShT), Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi (YII) singari mintaqaviy tuzilmalar faoliyatida asosiy aktor boʻlib qolmoqda. Ushbu tashkilotlar sobiq sovet makonida Moskvaning Markaziy Osiyodagi siyosatini aks ettirishda muhim mexanizmlar sifatida xizmat qiladi. Taʼkidlash kerakki, Rossiyaning mintaqadagi anʼanaviy taʼsir vositasi harbiy-siyosiy omillar hisoblanadi. Qirgʻiziston va Tojikistonda joylashgan Rossiya harbiy bazalari, Qozogʻistondagi harbiy aerodromlar, mintaqa mamlakatlari

Parda ortidagi oʻyinlar! “Armoni milli” gazetasi, 2020-yil 11-fevral, 258 son. – B.2.

¹ سرنوشت جمهوری، زیر سایه امریکا و امارات // خبرگزاری افق، فوریه 29، 2020
<https://ufuqnews.com/archives/141182>

bilan ikki tomonlama doiralardagi harbiy hamkorlik aloqalari Moskvaning "hard power" siyosati namunasi hisoblanadi.

2020-yil oktabr oyida Markaziy Osiyo davlatlari va Rossiya Federatsiyasi tashqi ishlar vazirlari hamkorlikning strategik yo'nalishlari to'g'risida qo'shma bayonot qabul qilishdi¹. Bayonotda tomonlar o'rtasida strategik hamkorlikning turli jabhalarida aloqalarni chuqurlashtirish masalalari, shuningdek, Afg'oniston mojarosi xususida so'z yuritilgan bo'lsa-da, mazkur bayonotning yakunida ta'kidlangan «Markaziy Osiyo+Rossiya» formatini tashkil etish g'oyasi eng e'tiborga molik jihat hisoblanadi.

Ta'kidlash kerakki, Kreml siyosatchilari uzoq vaqt davomida Markaziy Osiyo mintaqasiga MDH, Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi, Kollektiv xavfsizlik shartnomasi tashkiloti, Shanxay hamkorlik tashkiloti va boshqa mexanizmlar orqali ayri holda qarab kelgan edi va mintaqadagi asosiy raqobatchilari – AQSh (C5+1 formati) va Xitoy (Xitoy-Markaziy Osiyo hamkorlik forumi) singari Markaziy Osiyoni bir butun makon sifatida e'tirof etadigan formatni shakllantirmagan edi. Shu nuqtayi nazardan "Markaziy Osiyo+Rossiya" formatining joriy etilishi Markaziy Osiyoni geosiyosiy jarayonlarning obyekti emas, balki mustaqil subyekti o'laroq e'tirof etilishi hamda Moskva ham mintaqani yagona va bir butun makon sifatida tan olayotganini belgilab beradi.

Tabiiyki, mintaqaning strategik jozibadorligi yyetakchi davlatlarning jiddiy qiziqishi va manfaatlarini mintaqada turli vositalar orqali namoyon etishiga sabab bo'ladi. Eng muhimi, o'tgan davr mobaynida xalqaro va mintaqaviy kuch markazlarining mintaqaga ta'sir ko'rsatish omillari orasida "hard power" siyosati kutilgan natijaga olib kelmasligi ayon bo'lgach, "soft power" siyosati ustuvor yo'nalish o'laroq maydonga chiqa boshladi. Hozirda barcha kuch markazlari mintaqada o'z manfaatlarini aks ettirish maqsadida yumshoq kuch omilidan samarali foydalanishga intilmoqda. Jumladan, Rossiya Federatsiyasi ham ushbu omilning an'anaviy subyekti sifatida Markaziy Osiyoda faol o'ringa ega davlatdir. Siyosat-

¹https://www.mid.ru/ru/foreign_policy/news/-/asset_publisher/cKNonkJE02Bw/content/id/4390973.

shunos S.Safoyev Rossiya va Markaziy Osiyo o'rtasidagi aloqalarni bog'lab turgan omillarni quyidagicha qayd etadi:

Birinchi omil – savdo-iqtisodiy aloqalar.

Ikkinchi omil – transport kommunikatsiyalari.

Uchinchidan, Rossiya va Markaziy Osiyoni xavfsizlik va xalqaro xavf-xatarlarga qarshi umumiy manfaatlar bog'laydi.

To'rtinchi muhim omil – umumiy axborot maydonining mavjudligi¹.

Shu o'rinda, Rossiya va Markaziy Osiyoni o'zaro bog'lab turgan omillar safiga tarixiy-madaniy omillarni ham kiritish lozim bo'ladi. Tarixiy shakllangan madaniy aloqalarni jonlantirish, madaniy diplomatiyani izchil ilgari surish, ta'lim, fan, san'at va sport sohalarida yaqin hamkorlik aloqalarini rivojlantirish masalalari Rossiya uchun ham, Markaziy Osiyo davlatlari uchun ham nihoyatda muhim ahamiyatga ega.

Rossiya Prezidenti tomonidan 2016-yilda tasdiqlangan Tashqi siyosat konsepsiyasida "yumshoq kuch" tashqi siyosiy vazifalarni amalga oshirishga mo'ljallangan vosita sifatida qayd etilgan. Shu bilan birgalikda konsepsiyada quyidagi muhim jihatlar alohida ta'kidlanadi:

- Insonning asosiy huquq va erkinliklarini ta'minlash maqsadida butun dunyo bo'ylab ijtimoiy tizim gumanizmini amalga oshirish.

- Xalqaro va millatlararo aloqalar hamda jahon madaniyatining ajralmas qismi sifatida rus tilini kengaytirish va o'rganish ishlarini amalga oshirish, xorijda rus ta'lim tashkilotlarini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish, xorijiy davlatlar hududlarida joylashgan rus ta'lim muassasalari filiallari va vakillarini qo'llab-quvvatlash.

- Slavyan xalqlarining madaniy va gumanitar aloqalarini xalqaro darajada rivojlantirish.

- Rossiya tashqi siyosati samaradorligini oshirish maqsadida xalqaro muammolarni hal qilish ishlariga fuqarolik jamiyati institutlarini jalb qilish.

- Tamaddunlararo muloqotni ta'minlash vositasi sifatida ommaviy diplomatiya, xalqaro madaniy va gumanitar hamkorlik resurslaridan foydalanish¹.

¹ Сафоев С.С. Марказий Осиёдаги геосиёсат. – Т: 2005. – Б.119-120.

Rossiya TIV tarkibida xalqaro madaniy aloqalar masalalari bilan eng avvalo, UNESCO madaniy aloqalari va ishlari departamenti shug'ullanadi. Madaniy diplomatiyani shakllantirish va o'tkazish borasida Vazirlikning xorijiy muassasalari diplomatik va konsullik vakolatxonalariga alohida mas'uliyat yuklangan. Yagona davlat tashqi siyosiy yo'lini tutish va xorijiy davlatlar bilan Rossiyaning iqtisodiy, ilmiy hamda madaniy hamkorligini rivojlantirishda TIVning muvofiqlashtiruvchi rolini kuchaytirish maqsadida Rossiya Prezidenti 2002-yilning 6-fevralida "Rossiya TIV huzurida xalqaro ilmiy va madaniy hamkorlik Rossiya markazi" to'g'risidagi farmonni imzoladi. Mazkur farmonga muvofiq RF hukumati huzurida 1994-yilda tashkil etilgan, asosiy maqsadi xorijiy mamlakatlar bilan madaniy va ilmiy hamkorlik sohadsidagi faoliyatni rivojlantirish bo'lgan, Xalqaro ilmiy va madaniy hamkorlik Rossiya markazi (Roszarubejsentr) TIV tasarrufiga o'tkazildi. MDH mamlakatlari bilan yagona madaniy, axborot va ta'lim makonini shakllantirish, ushbu mamlakatlarning xalqlari bilan ko'p asrlik ma'naviy aloqalarni saqlab qolish, rus tilining tarixiy shakllangan mavqeyini mustahkamlash borasidagi ishlarni faollashtirish, shuningdek "yumshoq kuch" diplomatiyasi va "xalq diplomatiyasi"ni samarali ishlashini ta'minlash maqsadlarida RF Prezidentining 2008-yil 6-sentabrdagi farmoni bilan "Roszarubejsentr" MDH, xorijda yashovchi vatandoshlar ishlari va xalqaro gumanitar hamkorlik bo'yicha Federal agentlikka (Roshamkorlik) aylantirildi.

"Roshamkorlik" ning faoliyati xalqaro gumanitar hamkorlik davlat siyosatini amalga oshirish, xorijda zamonaviy Rossiya to'g'risidagi, uning moddiy va ma'naviy salohiyati, unda o'tkazilayotgan islohotlar hamda mamlakat tashqi siyosati yo'li to'g'risidagi xolis tasavvurlarni tarqatishga yo'nal-

¹ Kontsepsiya vneshney politiki Rossiyskoy Federatsii (utverzhdena Prezidentom Rossiyskoy Federatsii V.V.Putinyem 30 noyabrya 2016 g.) - Osnovopolagayushchiye dokumenty - Ministerstvo inostrannykh del Rossiyskoy Federatsii. [Foreign Policy Concept of the Russian Federation (approved by the President of the Russian Federation V.V. Putin on November 30, 2016) - Fundamental documents - Ministry of Foreign Affairs of the Russian Federation (in Russian)]. https://www.mid.ru/foreign_policy/official_documents/-/asset_publisher/CptlCk6B6Z29/content/id/2542248

tirilgan. Asosiy vazifalar orasida xorijdagi vatandoshlarni qo'llab-quvvatlash va xalq diplomatiyasi mexanizmlari orqali rossiyacha ta'limni xorijda ilgari surish singari vazifalar mavjud¹. E'tiborga molik jihat shuki, Rossiya TIV tarkibidagi ushbu tuzilma bugungi kunda dunyoning 80 mamlakatida o'z muassasalariga ega. Ulardan 61 mamlakatda Rossiya fan va madaniyat markazlari, 22 mamlakat elchixonalari tarkibida Agentlikning 24 vakili o'z faoliyatini olib boradi. Bundan tashqari Rossiyaning xorijdagi tashqi siyosatini «yumshoq kuch» orqali amalga oshirishda A.M. Gorchakov nomidagi fond va «Rus dunyosi» fondi ham katta rol o'ynaydi.

Uzoq yillar davomida saqlanib qolgan tarixiy rishtalar, madaniy mushtarakliklar va zamonaviy hamkorlik munosabatlari Markaziy Osiyo mintaqasida Rossiyaning «yumshoq kuch» ta'siridan foydalanish imkoniyatlarini taqdim etadi. Ushbu «yumshoq kuch» imkoniyatlari orasida eng ustuvorlisi rus tili hisoblanadi. Markaziy Osiyoda rus tili omili nafaqat mintaqaning davlat tashkilotlari va jamoat joylarida, balki Rossiyada mehnat qilayotgan markaziy osiyolik muhojirlar orasida ham keng foydalaniladi. Markaziy Osiyoda rus tilining «yumshoq kuch» vositasi sifatida qarab chiqilishda uni ikki guruhga ajratish o'rinli bo'ladi. Birinchi guruhga Qozog'iston va Qirg'iziston kirs, ikkinchi guruhga O'zbekiston, Tojikiston va Turkmaniston kiradi. «Gullup» kompaniyasi o'tkazgan ijtimoiy so'rov natijalariga ko'ra Markaziy Osiyoning mintaqaviy rusiyazabon amaliyoti quyidagicha: rus tilini u yoki bu darajada bilish ko'rsatkichi bo'yicha Qozog'istonda 99,9%, Qirg'izistonda 87,1%, Tojikistonda 68,5%, O'zbekistonda 99,2%; rus tilida erkin biladiganlar ulushi Qozog'istonda 89,6%, Qirg'izistonda 60,5%, Tojikistonda 41,2%, O'zbekistonda 99,2%ni tashkil etadi². Boshqa nashrlardagi ma'lumotlarga ko'ra bugungi kunda rus tilini bilish darajasi Qozog'istonda 84%, Qirg'izistonda 49%, O'zbekistonda 41%,

¹ Сайфуллаев Д.Б. Замонавий халқаро муносабатларда маданий дипломатия: Хитой ва Россия тажрибаси // Шарқшунослик. [Cultural diplomacy in modern international relations: the experience of China and Russia // Oriental Studies (in Uzbek)], 2019, № 3. – Б.173.

² Mendkovich N.Russkij jazyk v Srednej Azii i na Juzhnom Kavkaze [The Russian language in Central Asia and Caucas] //URL: <http://www.centrasia.ru/newsA.php?st=1361478180-22.02.2013>

Tojikistonda 33% va Turkmanistonda 18% ko'rsatkichga ega¹. Birinchi guruh hisoblangan Qozog'iston va Qirg'iziston davlatlari Asosiy qonunida rus tili rasmiy til maqomiga ega bo'lsa, ikkinchi guruhlar — O'zbekiston va Turkmaniston davlatlari Asosiy qonunlarida bunday qoida mavjud emas, Tojikistonda esa rus tili "millatlararo muloqot tili" maqomida qolmoqda.

Rus tilining Markaziy Osiyodagi yumshoq kuch vositasi sifatidagi roli ta'lim tizimi mexanizmlari bilan ham belgilanadi. Bu borada nafaqat Rossiyaning o'zida Markaziy Osiyo fuqarolarining tahsil olish jarayonlari, balki Markaziy Osiyo mintaqasida ham rus maktablari va Rossiya oliy ta'lim muassasalari filiallari va markazlarining ochilishi va kengayib borish jarayonlarini misol sifatida keltirish mumkin. Rossiya Fan va ta'lim vazirligi ma'lumotlarga ko'ra Markaziy Osiyoning 160 ming nafar fuqarolari Rossiyada tahsil oladi. Bu borada 2008-yildan 2019-yilgacha Rossiya umumiy miqdorda 6 milliard dollar mablag' sarflagan². Qolaversa, Markaziy Osiyo mintaqasida Rossiya oliy ta'lim muassasalari filiallari soni ham kengayib bormoqda. Bu boradagi ko'rsatkichlarga nazar tashlaydigan bo'lsak, O'zbekistonda 10 ta, Qozog'istonda 7 ta, Qirg'izistonda 8 ta, Tojikistonda 2 ta Rossiya oliy ta'lim muassasalari filiallari mavjud³. O'z-o'zidan, bu ta'lim muassasalari filiallari Rossiya va Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasida imzolangan shartnomalar natijasida yanada kengayib borishi mumkin.

Markaziy Osiyoda Moskva tomonidan qo'llanilayotgan amaldagi yumshoq kuch siyosatida bir qator muammolar o'z mavjudligini saqlab qolmoqda. Rossiya yumshoq kuch siyosatidagi vositalarning ta'siri bugungi kunda to'rtta muammoli sababga ko'ra pasayib ketmoqda.

¹ Tsentral'naya Aziya: russkiy yazyk kak faktor integratsii [Central Asia: Russian as an Integration Factor (in Russian)]. Режим доступа: <http://www.stanradar.com/news/full/6662-tsentralnaja-azija-russkij-jazyk-kak-faktor-integratsii.html>-19.12.2013

² Chem i kak Rossiya pomogayet Tsentral'noy Azii. Rossiyskaya gazeta [How and how Russia helps Central Asia. Russian newspaper (in Russian)] // <https://rg.ru/2020/02/19/chem-i-kak-rossiia-pomogaet-centralnoj-azii.html>

³ Obrazovaniye v Rossii dlya inostrannykh grazhdan: Obrazovatel'nyye uchrezhdeniya [Education in Russia for foreign citizens: Educational institutions (in Russian)]. <http://www.russia.edu.ru/obruch/sng/1115/>

Birinchi muammo. Markaziy Osiyo davlatlarining davlat tili sifatida titul millat tilining tanlanishi. Mustaqil Markaziy Osiyo davlatlarining milliy davlatchilik jarayonlarida o'z tili va madaniyatini qayta tiklash vazifasi ustuvor ahamiyat kasb etib, bu o'z-o'zidan rus tili mavqeyining keyingi darajaga tushishiga olib keldi.

Ikkinchi muammo. Yumshoq kuch siyosatida Rossiya sovet davrining merosi va stereotip yondashuvlarini Markaziy Osiyo mintaqasida amalga oshirishga urinoqda. Mintaqa davlatlari tomonidan rus tili yoki boshqa tillarga oid ma'lum bir masalalarda qarorlar qabul qilinishi bilan Moskva tomoni qarama-qarshi bayonotlar e'lon qilmoqda. Qolaversa, so'nggi yillarda Rossiyaning bu boradagi urinishlari mintaqa davlatlari tomonidan salbiy baholanayotgani ham fikrimizni tasdiqlaydi. Masalan, 2018-yilda Qozog'iston birinchi prezidenti Nazarboyev tomonidan lotin yozuuviga asoslangan yozuvdan foydalanish to'g'risida qaror qabul qilindi. Unga ko'ra 2025-yilga qadar ushbu qarorda belgilangan rejalar amalga oshirilishi zarur. Nazarboyev bu haqida shunday ta'kidlaydi: "Yoshlar davlat tilini bilmasdan davlat tuzilmalari, huquqni muhofaza etuvchi organlar, xizmatlar sohasi va sud tizimida ishlash mumkin emasligini yaxshi anglashi lozim"¹. Bu davlat siyosiy va ijtimoiy hayotida rus tili keng foydalanilsa-da, shubhasiz, Qozog'iston istiqbolida davlat tili ustuvor o'rinda turishini anglatadi. Lotin yozuviga o'tgan O'zbekiston va Turkmaniston safiga Qozog'istonning ham qo'shilishi Rossiyaning yumshoq kuch siyosatiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Zero, mintaqadagi ushbu uch boy mamlakatda butun Markaziy Osiyo aholisining 78,8% qismi istiqomat qilishi, shuningdek, Qozog'istonning mintaqada Rossiya bilan chegaradosh yagona davlat ekanligi hisobga olinsa, bunday qarorning ta'sirini yaqqol sezish mumkin. Shuningdek, joriy yil O'zbekiston Adliya vazirligi tomonidan O'zbekistonning barcha davlat idoralarida davlat tilidan foydalanishni nazarda tutuvchi qonun loyihasi ishlab chiqildi. Rossiya Tashqi ishlar

¹ Letnyakov D.E. "Rol' russkogo yazyka v postsovetskoy Tsentral'noy Azii", Politiya 4 (79): 2015, [The role of the Russian language in post-Soviet Central Asia (in Russian)] <https://cyberleninka.ru/article/n/rol-russkogo-yazyka-v-postsovetskoy-tsentralnoy-azii>

vaziri matbuot kotibi Mariya Zaxarovaning qonun tarafdorlari ozchilikni tashkil etishi, ko'pchilik rus tilining rasmiy va ommaviy doiralarda saqlanishi tarafdori ekanligi haqida o'z chiqishida ma'lum qildi. Ta'kidlash kerakki, aksariyat holatlarda xorijiy davlatlarda milliy til va madaniyatni qo'llab-quvvatlash har qanday davlat tashqi siyosatining yumshoq kuchi vositasi sifatida qaraladi va bu madaniy diplomatiyaning o'ziga xos ko'rinishidir. Ammo Rossiya TIV vakilining ushbu bayonoti bunga tamomila teskari ekanligini ko'rish mumkin. Shu nuqtayi nazardan O'zbekiston Tashqi ishlar vazirligi bunga quyidagicha munosabat bildirib o'tdi: "Davlat tilini tartibga soluvchi sohaga bog'liq masalalar davlatning mutlaq ichki siyosatiga daxldor bo'lib, har qanday aralashuv aslo maqbul emas"¹. Bundan tashqari 2020-yil sentabr oyida Ashxoboddagi yagona rus maktabi ham yopildi. Rossiyaning Turkmanistondagi elchixonasi Ashxobodning ushbu qarori 2002-yil 23-apreldagi Rossiya Federatsiyasi va Turkmaniston o'rtasidagi do'stlik va hamkorlik to'g'risidagi shartnomaning 14-moddasiga, ya'ni Turkmanistonda rus tili va Rossiyada turkman tilini o'rganish va kengaytirish bo'yicha kelishuvga zid hisoblanadi². Markaziy Osiyo davlatlarining til siyosatiga ushbu qarorlarini Rossiyaning mintaqaga yumshoq kuch vositalariga oid ta'sirini cheklashga qaratilgan xatti-harakatlari sifatida baholash joiz bo'ladi.

Uchinchi muammo. Markaziy Osiyoda ingliz, xitoy, turk va koreys tillarini o'rganish yoki Yevropa, Xitoy, Turkiya va Koreyada tahsil olish bo'yicha dasturlarga qiziqish tobora kuchayib bormoqda. Bu esa mintaqada rus tiliga nisbatan muqobil xalqaro tillar guruhi paydo bo'lishi va rus tilining ayrim hududlardagi roli keskin tushib ketishiga sabab bo'lmoqda.

¹ O'zbekiston Tashqi ishlar vazirligi izohi. [Comment of the Ministry of Foreign Affairs of Uzbekistan (in Uzbek)] http://m.mfa.uz/uz/press/statements/24159/?sphrase_id=13311032

² O polozhenii s russkoyazychnym obrazovaniyem v novom uchebnom godu - Glavnaya - Posol'stvo Rossiyskoy Federatsii v Turkmenistane [On the situation with Russian-language education in the new academic year - Main - Embassy of the Russian Federation in Turkmenistan (in Russian)] // https://turkmenistan.mid.ru/home/-/asset_publisher/ZAJDCURhDPSR/content/o-polozenii-s-russkoazychnym-obrazovaniem-v-turkmenistane-v-novom-ucebnom-godu?inheritRedirect=true

To'rtinchi muammo. Koronavirus pandemiyasining ta'siri davlatlar o'rtasida chegaralar yopilishiga olib keldi. Natijada Rossiya oliy ta'lim muassasalarida tahsil olish yoki madaniy-gumanitar hamkorlikning boshqa yo'nalishlari borasida aloqalar olib borishda turli muammolar va pasayishlar kuzatildi. Bu to'g'ridan-to'g'ri Rossiyaning Markaziy Osiyodagi yumshoq kuch siyosatiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan voqelikka aylandi.

Umuman Rossiyaning Markaziy Osiyodagi manfaatlarini mintaqada boshqa yirik kuchlarning ta'siri kuchayishini oldini olish, mintaqa davlatlari bilan turli mintaqaviy tuzilmalar vositasida hamkorlik qilish, "soft power" siyosatini kuchaytirish singari vazifalar orqali amalga oshirishga intiladi.

Xitoyning Markaziy Osiyodagi geosiyosiy manfaatlari

Xitoy Qo'shma Shtatlar va Rossiyadan farqli ravishda, Markaziy Osiyoning uchta davlati bilan bevosita chegaradosh bo'lgan yagona yirik davlat hisoblanadi. O'z navbatida, Xitoy Afg'oniston bilan ham bevosita chegaraga ega. Ayni mazkur omil mintaqada Xitoyning geosiyosiy manfaatlarini amalga oshirishi uchun yetarli darajada asos bo'ladi. Xitoy Markaziy va Janubiy Osiyo mintaqalari geosiyosiy jarayonlarida katta ta'sirga ega bo'lib, bu Afg'onistonni ham ushbu jarayonlarga jalb etishga doir Pekin strategiyasini belgilab beradi. Shuningdek, Xitoyning Shinjon uyg'ur avtonom viloyatida terroristik va separatistik harakatlarning avj olishi bevosita Afg'onistondagi beqaror vaziyat bilan bog'liq ekanligi, AQShning makromintaqaga ta'sir doirasi kengayishi va bu jarayonlarda Markaziy Osiyo va Afg'onistonning markaziy o'rin egallashi, Xitoyning mintaqada amalga oshirishni mo'ljallagan "OBOR" loyihasi xavfsizligini ta'minlash zaruriyati va mintaqaning bunday loyihalar kesimida joylashganligi singari omillar XXRning Markaziy Osiyodagi geosiyosiy manfaatlari sirasiga kiradi.

Ko'pchilik siyosatshunos mutaxassislar va tahlilchilar Xitoyning Markaziy Osiyodagi geosiyosiy manfaatlarini aks

ettirishda ustuvor mexazinizm sifatida Pekin geoiqtisodiy yondashuvlarini keltirishadi. Darhaqiqat, Xitoy tomonidan Markaziy Osiyo mamlakatlari iqtisodiy rivojlanishi uchun turli kreditlar va sarmoyalar ajratilmoqda. Xitoyning mintaqadagi faoliyati haqida qayd etish kerakki, keyingi vaqtlarda u mintaqa iqtisodiyotiga eng ko'p investitsiya kiritgan davlatdir. Keyingi uch yil ichida u mintaqaga 100 mlrd. dollarga yaqin investitsiya kiritishni mo'ljallamoqda. Bu asosan, energiya resurslarini qazib olish va yetkazish, kommunikatsiya tizimini takomillashtirishga yo'naltirilgan. Xitoy iqtisodiyoti rivoji uchun to'sqinlik qiluvchi omil xomashyo taqchilligi hisoblanadi. Xitoy dunyo neftining 7,4% ni, ko'mirning 31 % ni, temir rudasining 37 % ni, sementning 40% ni iste'mol qiladi¹. Tabiiyki, mazkur resurslar mintaqada yetarli darajada. Shu jihatdan aytish mumkinki, mintaqaga nisbatan geoiqtisodiy yondashuv Xitoy uchun dolzarb o'rinda turadi. Xitoyning mintaqadagi ta'sir imkoniyatlarini faqatgina mazkur omil bilan baholamaslik lozim. Pekin ShHT doirasida ham mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlashni, ya'ni siyosiy, savdo-iqtisodiy, madaniy-gumanitar va boshqa sohalaridagi hamkorlikni rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratadi. ShHTning ustuvor maqsadlari va vazifalarida terrorizm, ekstremizm va separatizmga qarshi kurash muhim ekanligi hisobga olinsa, Pekinning mintaqadagi mamlakatlar bilan xavfsizlik borasida ham yaqinlashuv siyosatiga intilishini kuzatish mumkin. Bundan tashqari, Xitoyning Markaziy Osiyo mintaqasi uchun alohida formati ham mavjud. Xususan, "Xitoy-Markaziy Osiyo" hamkorlik forumi tomonlar o'rtasida turli jabhalardagi aloqalarni yanada mustahkamlashni asosiy maqsad sifatida belgilagan. Bu jabha ishlab chiqarish, sanoat, energetika, qishloq xo'jaligi, sog'liqni saqlash, madaniyat, ilm-fan, ta'lim va boshqa jabhalarda yaqqol ko'zga tashlanadi. 2021-yil 12-may sanasida Xitoyning Sian shahrida o'tkazilgan "Xitoy-Markaziy Osiyo" tashqi ishlar vazirlari uchrashuvida qo'shma loyihalarni amalga oshirish, transport yo'laklari bog'-

¹ Qarang: Сирожов О. Марказий Осиё минтақасида ҳамкорлик жараёнлари. – Т.: O'zbekiston, 2016. – Б.120.

liqligiga ko'maklashish va uzluksiz savdoga keng yo'l ochish, mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlash hamda zamonaviy chaqiriq va tahdidlarga qarshi kurash borasidagi munosabatlarni chuqurlashtirishga oid dolzarb masalalar muhokama etildi.

Xitoy tomonidan rejalashtirilgan geoiqtisodiy va geosiyosiy qarashlar to'g'ridan to'g'ri AQSh va Rossiyaning mintaqadagi manfaatlariga mos kelmaydi. Jumladan, "OBOR" loyihasi Rossiya ta'siri kuchli hisoblangan VII doirasidagi mintaqaviy savdo aloqalariga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Shu nuqtayi nazardan mazkur yirik loyihaning uzviy qismiga aylanishi mumkin bo'lgan "Xitoy-Qirg'iziston-O'zbekiston" temir yo'l loyihasining amalga oshishi turli yo'llar bilan to'siqlarga uchramoqda. Boz ustiga AQSh va "Tolibon" harakati bitimiga muvofiq AQSh harbiy kuchlari Afg'oniston hududini tark etishi sharoitida Xitoy geosiyosati yanada faollashishi ehtimoli mavjud. Bu tendensiyalarda Xitoy butun Yevroosiyo qit'asi, jumladan, Afg'oniston va uning barcha qo'shnilarini o'z ichiga qamrab olgan yagona mintaqaviy tashkilot, ya'ni ShHT timsolida o'z roli va ta'sirini kuchaytirish salohiyatiga ega. Istiqbolda "ShHT-Afg'oniston" muloqot guruhi va ShHT mintaqaviy aksilterror tuzilmasi singari platformalar ta'sirchanligini oshirishda Xitoy tashabbuslari hal qiluvchi rol o'ynaydi. Bundan tashqari Xitoy Afg'oniston yo'nalishida geosiyosiy va geoiqtisodiy manfaatlar bilan chegaralanmasdan harbiy omillarga ham jiddiy e'tibor qaratmoqda. Jumladan, aynan Pekin tashabbusi bilan terrorizmga qarshi kurash maqsadida "To'rt tomonlama hamkorlik va terrorizmga qarshi kurash bo'yicha muvofiqlashtiruvchi mexanizm" (Quadrilateral Cooperation and Coordination Mechanism in Counter Terrosim)¹ tashkil etilgan. Ta'kidlash lozimki, XXR Afg'oniston, Pokiston va Tojikiston yuqori martabali harbiy vakillaridan iborat ushbu mexanizm orqali o'z atrofida mintaqaviy xavfsizlik halqasini barpo etishni maqsad qiladi.

¹ Afghanistan, China, Pakistan, Tajikistan issue joint statement on anti-terrorism // Ministry of Foreign Affairs of the People's Republic of China, August 4, 2016. http://eng.mod.gov.cn/DefenseNews/2016-08/04/content_4707451.htm

Markaziy Osiyo geosiyosiy tendensiyalarida Xitoy siyosati tahlili shundan dalolat bermoqdaki, rasmiy Pekin nafaqat Markaziy Osiyo, balki Afg'onistonda ham katta ta'sir aloqalarini o'rnatgan. Bu esa istiqbolda Markaziy Osiyo geosiyosiy manzarasidagi kuchlar nisbatida Xitoy roli va ta'siri ortishiga zamin yaratishi mumkin.

Mavzu bo'yicha savollar

1. C5+1 muloqot formatini sharhlab bering.
2. AQSh harbiy kuchlarining Afg'oniston hududini tark etishi Markaziy Osiyo mintaqasiga qanday ta'sir ko'rsatishi mumkin, deb hisoblaysiz?
3. AQShning Markaziy Osiyoga qaratilgan strategiyasining asosiy yo'nalishlarini sanab bering.
4. "Markaziy Osiyo+Rossiya" formatini sharhlab bering.
5. Rossiyaning Markaziy Osiyodagi geosiyosiy ta'sir mexanizmlari sifatida qaysi vositalarni misol qilib keltirish mumkin?
6. "Xitoy-Markaziy Osiyo" tashqi ishlar vazirlari uchrashtirishining asosiy maqsadlari nimalardan iborat?
7. "Bir makon, bir yo'l" loyihasining Markaziy Osiyoga ta'sirini qanday baholaysiz?

Mustaqil ish topshiriqlari:

1. AQSh, Rossiya va Xitoyning Markaziy Osiyodagi geosiyosati haqida taqdimot tayyorlash.
2. Markaziy Osiyoda AQSh, Rossiya va Xitoy geosiyosati bo'yicha guruhlariga taqsimlangan holda ilmiy dalillar va materiallar tayyorlash.
3. Mavzuga oid ilmiy maqolalar yozish.
4. Mavzuga oid infografika tayyorlash.

MINTAQAVIY KUCH MARKAZLARINING MARKAZIY OSIYO MINTAQASIDAGI GEOSIYOSIY MANFAATLARI

Reja:

1. Turkiyaning Markaziy Osiyodagi geosiyosiy manfaatlari
2. Hindistonning Markaziy Osiyodagi geosiyosiy manfaatlari
3. Pokistonning Markaziy Osiyodagi geosiyosiy manfaatlari
4. Eronning Markaziy Osiyodagi geosiyosiy manfaatlari

O'quv mashg'ulotining maqsadi: Mintaqaviy davlatlarning Markaziy Osiyoga qaratilgan siyosatini tahlil etish.

Tayanch so'z va iboralar:

Turkiy xalqlar, neousmonizm (yangi usmoniylik), Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashi, Turon armiyasi, Xalqaro Shimol-Janub transport koridori, Chobahor, "Hindiston-Markaziy Osiyo" muloqoti, TAPI, CASA-1000, TUTAP, "Mozori Sharif-Kobul-Peshovar", "Xaf-Hirot, "Mozori-Sharif-Hirot".

Turkiyaning Markaziy Osiyodagi geosiyosiy manfaatlari

Markaziy Osiyo mintaqasining geosiyosiy ahamiyati mazkur hududda nafaqat yirik kuchlarning, balki mintaqaviy kuch markazlarining ham jiddiy manfaatlar mavjud. Mazkur kuch markazlari orasida so'nggi yillarda eng faol aktor Turkiya hisoblanadi. Turkiyaning Markaziy Osiyo davlatlari bilan tarixiy, etnik, diniy va madaniy rishtalar orqali bog'langani Anqaraning mintaqada roli va ishtirokini oshirish uchun keng imkoniyatlar beradi. Iyerusalimdagi (Isroil) Ibroniya Universitetining Osiyo va Afrika instituti o'qituvchisi, 2008-yildan Isroil ochiq universiteti o'qituvchisi, Moskvadagi Yaqin Sharq instituti eksperti Vladimir Mesamedning bu haqidagi quyidagi fikrlari e'tiborga molik: "Darhaqiqat, Turkiya Markaziy Osiyo geosiyosiy jarayonlarida muhim rol o'ynaydi. Turkiya Markaziy Osiyoda bir vaqtning o'zida beshta mustaqil respublika paydo bo'lishi hodisasiga befarq qarashi mumkin emas edi. Qolaversa, bu respublikalarning to'rttasi turkiy tilli respublikalar bo'lib, etnolingvistik va madaniy jihatdan Turkiya bilan qardoshlik munosabatlariga ega. Bu respublikalarining dunyo siyosatining to'la huquqli subyektlariga aylanishi Turkiyaga mintaqaviy kuch maqomiga erishish imkoniyatini berdi. Bu esa Markaziy Osiyo davlatlari bilan ko'p tomonlama aloqalarni rivojlantirishga asoslangan yangi tashqi siyosiy strategiyani ishlab chiqishni taqozo qildi. Turkiyaning 90-yillar boshidagi bu sa'y-harakatlari uning o'zi uchun ham Markaziy Osiyo davlatlari uchun ham birdek manfaatli edi. Qolaversa, Markaziy Osiyodan tashqari Ozarbayjonni ham o'z ichiga olgan turkiy tilda so'zlashuvchi xalqlarning birlashuvi Turkiyaning geosiyosiy ahamiyatini jiddiy ravishda oshirishi va Yevropa Ittifoqiga qo'shilishida muhim vosita bo'lishi mumkinligi to'g'risidagi qarashlar ham bor edi. Umuman olganda, sobiq Sovet Ittifoqining parchalanishi Turkiyaga qadim turk sivilizatsiyasini qayta jonlantirib, turkiy xalqlarni o'z atrofida birlashtirish imkoniyatini bergan edi"¹. Bugungi kunda Turkiyaning mintaqada sezilarli

¹ Ривожланишнинг турк модели ёхуд Марказий Осиёда Туркия, Эрон ва Исроил рақобати. <https://uzanalytics.com/halqaromunosabat/8071/>

darajada faollashuvini kuzatish mumkin. Buning asosiy sababi sifatida Turkiya tashqi siyosatida Rejeb Toyib Erdo'g'on davriga kelib panturkizm qarashlari o'rnini neousmonizm (yangi usmoniylik) konsepsiyasi egallagani bilan chambarchas bog'liq. Usmoniylar imperiyasining zamonaviy sarhadlarida Turkiyaning o'rni va ta'sirini belgilash bo'yicha Erdog'on strategiyasi neousmonizm, deb nomlanmoqda. Ta'kidlash kerakki, mazkur konsepsiyada Markaziy Osiyo mintaqasi alohida o'rin egallaydi. Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashi esa mazkur jarayonlardagi manfaatlarni ta'minlashning o'ziga xos mexanizmi bo'lib xizmat qiladi. Mazkur kengashda Markaziy Osiyoning bevosita 3 ta davlati to'laqonli a'zo ekanligi, qolaversa ushbu davlatlarning istiqbolda Turkiya orqali Yevropa bozorlariga chiqish maqsadlari Turkiyaning mintaqaviy hamkorlikka chorlaydigan qarashlarini mintqa tomonidan e'tiborga olinishiga sabab bo'ladi. O'z navbatida, Turkiya Markaziy Osiyo davlatlari uchun mintaqada yirik davlatlar o'rtasidagi kuchlar muvozanatini ta'minlashda muhim sherik bo'lishi mumkin. Ammo Turkiyaning geosiyosiy qarashlarida Turkiy xalqlar "NATO"si yaratishga qaratilgan maqsadlari ham mavjudligi haqida hali ham bahs-munozaralar davom etmoqda. Ayniqsa, bu 2020-yil oktabr oyida Turkiya mudofaa vaziri Xulusi Akarning Qozog'iston va O'zbekistonga tashrifi davomida yanada ommalashdi. Hattoki, aynan mazkur paytga kelib Turkiyaning "Turkiye" gazetasi turkiyzabon davlatlar harbiy kuchlaridan iborat yagona armiya yaratishga chaqirdi¹. Gazetada ushbu harbiy ittifoq "Turon armiyasi" deb nomlanadi. Bizningcha, "Turon armiyasi" g'oyasi amalga oshishi ehtimoldan ancha yiroq bo'lgan g'oya hisoblanadi. Bunga quyidagi omillarni misol sifatida keltirishimiz mumkin:

Birinchidan, Turkiyaning o'zi ShAShTning² (keyingi o'rinlarda Shimoliy Atlantika shartnomasi tashkiloti) a'zosi

¹ Çare Turan Ordusu. 27.10.2020. <https://m.turkiyegazetesi.com.tr/gundem/741999.aspx>

² ShAShT – ko'pchilik mazkur tashkilotni o'zbek tilida "NATO" deb qayd etishga odatlangan. Ammo, bizningcha, uni ShAShT deb o'zbek tilida qisqartirish maqsadga muvofiq. Zero, BMT, ShHT singari tashkilotlarni rasmiy ma'lumotlarda ingliz tilidagi qisqartmasidan emas, balki o'zbek tilidagi qisqartmalaridan foydalanamiz. Shu jihatdan, ushbu tashkilotni "ShAShT" deb yoziladigan o'zbek tilidagi qisqartma shaklidan foydalanish mantiqan maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

hisoblanadi. Bu Turkiyaning alohida harbiy ittifoqqa birlashishiga katta to'siq bo'ladi.

Ikkinchidan, Markaziy Osiyo davlatlaridan Qozog'iston va Qirg'iziston Rossiyaning ta'siri kuchli bo'lgan harbiy tashkilot KXShTning a'zosi hisoblanadi. O'z navbatida, O'zbekistonning tashqi siyosiy konsepsiyasi va Mudofaa doktrinasi har qanday harbiy-siyosiy bloklarda ishtirok etishni taqiqlaydi.

Uchinchidan, Turkiya bilan doimiy masofa saqlab turadigan Tojikiston hamda tashqi siyosatda neytral maqomga ega bo'lgan Turkmaniston davlatlari bunday ittifoqqa tamomila qarshi chiqadi.

Hindistonning Markaziy Osiyodagi geosiyosiy manfaatlari

Hindiston ham Markaziy Osiyo mintaqasida eng muhim mintaqaviy kuch markazlaridan biri hisoblanadi. Hindistonning qudratli sivilizatsiyasi tobora rivojlanib borayotgan iqtisodiyoti tashqi siyosatda Markaziy Osiyo yo'nalishini muhim obyekt sifatida qarashga olib keldi. Hindiston Markaziy Osiyo davlatlarining mustaqillik yillari davomida mintaqamamlakatlari bilan ikki tomonlama siyosiy, savdo-iqtisodiy va madaniy-gumanitar hamkorlikka asosiy e'tiborini qaratdi. 2012-yilga kelib esa, yirik va mintaqaviy kuch markazlaridan birinchi bo'lib mintaqaga nisbatan alohida formatini ma'lum qildi. Mazkur format "Markaziy Osiyo bog'lanishi" (Connecting Central Asia) deb nomlandi. Biroq Afg'onistondagi beqaror harbiy va siyosiy vaziyat hamda Pokiston bilan o'rtadagi geosiyosiy raqobat Nyu Dehlining Markaziy Osiyo bilan to'laqonli hamkorlik olib borishida katta qiyinchiliklarga olib keldi. Shu nuqtayi nazardan Markaziy Osiyo yo'nalishida Hindiston tashqi siyosiy yondashuvlarining yangi formatini yaratish tashabbusi ilgari surildi. Bu borada O'zbekistonning alohida o'rni bor. Aynan mamlakatimiz tashabbusi bilan 2019-yil yanvarda Samarqand shahrida "Hindiston-Markaziy Osiyo-Afg'oniston" tashqi ishlar vazirlarining turli sohalardagi hamkorliklarni chuqurlashtirishga

qaratilgan muloqoti bo'lib o'tdi. Uchrashuv yakunida qabul qilingan Qo'shma bayonotda quyidagilar qayd etildi:

"Tomonlar Hindiston va Markaziy Osiyo o'rtasida madaniy, savdo va gumanitar aloqalar azaldan mavjudligini qayd etib, Hindiston va Markaziy Osiyo mamlakatlari o'rtasidagi izchil, samarali va do'stona munosabatlarni o'zaro manfaatli hamkorlikni ikki va ko'p tomonlama shakllarda mustahkamlash borasidagi intilishlari qat'iy ekanini ta'kidladilar.

Tomonlar xavfsizlik, barqarorlik va izchil taraqqiyotni ta'minlash maqsadida hamkorlik, o'zaro qo'llab-quvvatlash, dolzarb masalalarni birgalikda hal qilishga bo'lgan intilishlarini tasdiqladilar. Shu ma'noda uchrashuv ishtirokchilari 2018-yil 15-mart kuni Ostona shahrida Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining birinchi ishchi (maslahat) uchrashuvi muvaffaqiyatli o'tkazilganini qutladilar.

Tomonlar barcha shakl va ko'rinishdagi terrorizmni qoralab, butun dunyo xalqlari va iqtisodiyotga tahdid solayotgan terrorizmga qarshi kurashishda hamkorlikka kelishib oldilar.

Vazirlar Markaziy Osiyo mamlakatlarining iqtisodiy o'sishiga doir muammo va vazifalarni o'zaro kelishilgan holda hal etishni ta'minlaydigan loyihalarni teng huquqlilik, o'zaro foyda va manfaatlarni hurmat qilish tamoyillari asosida ishlab chiqish va amalga oshirish muhim ekanini alohida ta'kidladilar.

Tomonlar iqtisodiy hamkorlikni kengaytirish uchun real imkoniyatlar yaratish, o'zaro erkin savdo uchun qulay sharoitlarni ta'minlash maqsadida hamkorlikni mustahkamlashga intilishini bildirdilar.

Tashqi siyosat idoralari rahbarlari o'zaro savdo hajmini oshirishga ko'maklashish, sanoat, energetika, axborot texnologiyalari, farmatsevtika va qishloq xo'jaligi, ta'lim va kadrlar tayyorlash sohalariga investitsiyalar, innovatsiya va texnologiyalar jalb etishdagi hamkorlikning istiqbolli imkoniyatlari va yo'nalishlarini muhokama qildilar.

Tomonlar ishbilarmon doiralar va biznes tashkilotlari o'rtasidagi to'g'ridan to'g'ri aloqalarni rivojlantirishga, kompaniya va korxonalar kooperatsiyasining yangi shakllariga o'tishga ko'maklashishga tayyor ekanligini tasdiqladilar. Kichik va o'rta biznes, startaplar, venchur biznesi darajasida hamkorlikni ilgari surish zarurligini ta'kidladilar. Tarmoq biznes forumlari va boshqa o'zaro biznes tadbirlarini doimiy asosda o'tkazish muhimligini qayd etdilar.

Tashqi siyosat idoralari rahbarlari mintaqaning investitsiya muhiti va investitsion jozibadorligini, Markaziy Osiyo mamlakatlarining xalqaro makondagi ishbilarmonlik imkoniyatlarini yaxshilash bo'yicha o'zaro muvofiqlashgan sa'y-harakatlarni amalga oshirish muhimligini ta'kidladilar. Vazirlar Hindiston va Markaziy Osiyo mamlakatlari hududlari va shaharlari o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri o'zaro manfaatli iqtisodiy va madaniy aloqalarni yo'lga qo'yish va kengaytirish zarurligiga alohida e'tibor qaratib, bu yo'nalishda ko'maklashishga tayyor ekanliklarini bildirdilar.

Vazirlar Markaziy Osiyo mamlakatlarining tranzit va transport-kommunikatsiya salohiyatini rivojlantirish, mintaqaning transport-logistika tizimini takomillashtirish borasidagi hamkorlikni yanada mustahkamlash, mintaqaviy va xalqaro transport yo'laklarini yaratish bo'yicha qo'shma tashabbuslarni ilgari surishdan manfaatdor ekanliklarini ta'kidladilar. Xususan, ishtirokchilar Xalqaro transport va tranzit yo'lagini yaratish bo'yicha Ashxobod Bitimiga Hindistonning qo'shilganini ijobiy baholadilar.

Tashqi siyosat idoralari rahbarlari Markaziy Osiyo mamlakatlari va Hindiston o'rtasidagi savdo munosabatlarini rivojlantirish zarurligini qayd etib, hamkorlikning ko'p tomonlama mexanizmlarini ko'rib chiqish maqsadga muvofiq ekanini ta'kidladilar. Vazirlar Markaziy Osiyo mamlakatlari va Hindiston o'zaro sayyohlar oqimini kengaytirish uchun qulay sharoitlar yaratish, turizm infratuzilmasini rivojlantirishda intilishi qat'iy ekanini ta'kidladilar. Tomonlar Markaziy Osiyo

mamlakatlarida mintaqaviy turizm yo'nalishlari va turli sayohatlarni tashkil etish muhimligini qayd etdilar.

Tomonlar madaniyat, ilm-fan, ta'lim va sport sohalarida, jumladan, BMT Bosh Assambleyasining A/RES/73/128 "Ma'rifat va diniy bag'rikenglik" rezolyusiyasini amalga oshirish doirasida yoshlarga oid qo'shma loyihalari hayotga tatbiq etilishiga alohida e'tibor qaratdilar.

Vazirlar qo'shma loyihalarni ro'yobga chiqarish orqali madaniyat, fan, ta'lim, tibbiyot, axborot sohalarida ikki va ko'p tomonlama hamkorlikni mustahkamlashdan, shuningdek, "xalq" diplomatiyasi doirasida madaniy-gumanitar almashuvlarni qo'llab-quvvatlash, ekspert-tahlil va jamoatchilik doiralari, OAV o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirishdan manfaatdor ekanliklarini bildirdilar. Tomonlar umumiy madaniy meros va tarixiy yodgorliklarni asrash va o'rganish masalalaridagi hamkorlikka ustuvor ahamiyat qaratdilar.

Tashqi siyosat idoralari rahbarlari ko'p tomonlama forumlar va tashkilotlar doirasida hamkorlikni davom ettirish, jumladan, pozitsiyalarni kelishish, axborot almashish, nomzodlarni o'zaro qo'llab-quvvatlashga tayyor ekanliklarini tasdiqladilar.

Vazirlar mintaqaviy hamkorlik, tovarlar va energiya resurslari tranzitining muhim bo'g'ini bo'lgan Afg'onistonning "Hindiston-Markaziy Osiyo" muloqotining birinchi uchrashuvidagi ishtirokini ma'qullab, Markaziy Osiyo mamlakatlari va Hindistonning Afg'onistonda tinchlik, xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlash, ushbu mamlakatda bevosita afg'on xalqi rahbarligida va sa'y-harakatlari bilan tinchlik jarayonini o'rnatishga ko'maklashishda, shuningdek, qo'shma infratuzilmaviy, tranzit-transport, energetika va boshqa loyihalarni amalga oshirish, jumladan, mintaqaviy hamkorlik va investitsiya loyihalari orqali Afg'onistonning iqtisodiy tiklanishini qo'llab-quvvatlashga tayyor va bu borada intilishlari qat'iy ekanini ta'kidladilar.

Tashqi siyosat idoralari rahbarlari afg'onistonlik xotin-qizlarni mamlakat ijtimoiy hayotiga jalb etish orqali Afg'onistonda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash muhimligini

ta'kidladilar hamda Markaziy Osiyo mamlakatlarida ushbu masalalarga doir konferensiya va forumlarning muvaffaqiyatli o'tkazilishini ma'qulladilar"¹.

Ta'kidlash kerakki, mazkur formatning "Connecting Central Asia" formatidan asosiy farqi unda Afg'oniston tashqi ishlar vazirining ishtirokidir. Boshqacha aytganda, Hindiston Markaziy Osiyo bilan yaqin hamkorlikni amalga oshirishda faqat Afg'oniston orqali o'tadigan transport yo'laklari istiqbolli hisoblanadi. Jumladan, hozirda Hindiston Xitoyning "OBOR" loyihasiga muqobil hisoblangan Xalqaro Shimol-Janub transport koridorini yaratishni qo'llab-quvvatlamogda.

Bu borada Hindistonning Markaziy Osiyoga Afg'oniston orqali bog'lanishida istiqbolli yagona yo'lak Eronning Chobahor porti hisoblanadi. Dehli Afg'oniston siyosatida yuqoridagi omillarni inobatga olgan holda, hozirda rasmiy Kobul bilan hamkorlik qilishga asosiy e'tiborini qaratib kelmoqda. Javohirlal Neru nomidagi Universitetning Rossiya va Markaziy Osiyo tadqiqotlari markazi professori A.Moxantining ta'kidlashicha, Hindiston Afg'onistonga ko'mak ko'rsatish bo'yicha jahonda beshinchi, Janubiy Osiyo davlatlari orasida esa birinchi o'rinni egallaydi². Hindistonning Afg'onistondagi elchisi ushbu ma'lumotni tasdiqlab, hozirgi vaqtgacha Hindiston ikki tomonlama va xalqaro tashkilotlar doirasida Afg'onistonga 3 mlrd. dollar hajmda yordam ko'rsatganini ma'lum qildi³. 2020-yilda ikki davlat o'rtasidagi savdo hajmi 2 mlrd. dollarni⁴ tashkil etib, Dehli Afg'onistonni

¹ «Хиндистон – Марказий Осиё» мулоқоти ташки ишлар вазириларининг Афғонистон иштирокидаги биринчи учрашуви якунлари бўйича қўшма баёнот. http://uza.uz/oz/politics/-indiston-markaziy-osiye-mulo-oti-tash-i-ishlar-vazirlarinin-14-01-2019?m=y&ELEMENT_CODE=-indiston-markaziy-osiye-mulo-oti-tash-i-ishlar-vazirlarinin-14-01-2019&SECTION_CODE=politics

² Моханти А., Тренин Д., Топычканов П. Политика Индии на афганском и центральноазиатском направлениях // Carnegie Moscow Center, June 4, 2013. <https://carnegie.ru/2013/06/04/ru-event-4148>

³ Akbariy M.Z. Afghanistan-India Relations: A Good Example amongst Regional Countries // Daily Outlook Afghanistan, the Leading Independent, January 29, 2020. http://www.outlookafghanistan.net/topics.php?post_id=26249

⁴ India-Afghanistan trade likely to reach \$2 bn by 2020: Afghan Ambassador // The Economic Times, July 13, 2018. <https://m.economictimes.com/news/economy/foreign-trade/india->

ijtimoiy-iqtisodiy qayta tiklash, jumladan, savdo-sotiq, qurilish, ta'lim, sog'liqni saqlash, energetika va boshqa sohalarda faol rol o'ynamoqda. Jumladan, Eronni Afg'oniston bilan bog'laydigan, strategik ahamiyatga ega Zaranj-Dilorom avtomobil yo'li, Puli Xumridan Kobulgacha 202 km. uzunlikdagi elektr energiya liniyasi qurilishi Hindiston sarmoyasi asosida amalga oshirilgan¹. Shuningdek, Hindiston Afg'onistonning 31 ta viloyatida 116 ta yirik loyihalarni amalga oshirishni maqsad qilgan bo'lib, Shohtut to'g'oni, Kobul va Chorikor shaharlarini ichimlik suvi bilan ta'minlash va ularni Bomiyon viloyatidagi Bandi Amirga bog'lash yo'llarini tashkil etish loyihalari shular jumlasidan².

Hindistonning Markaziy Osiyo va Afg'onistondagi geosiyosiy manfaatlariga zid bo'lgan tashvishli jarayonlardan biri Xitoy-Pokiston hamkorligi bo'lib, mazkur masalada Xitoy-Pokiston iqtisodiy koridoriga Afg'onistonni ham jalb etish ehtimoli kuchaymoqda. XXRning Afg'oniston siyosiy jarayonlaridagi ta'siri Pokiston bilan hamkorlik qilish orqali kengayib borayotgan bir sharoitda Hindiston Afg'oniston masalasida AQSh, Eron va Markaziy Osiyo davlatlari bilan hamkorlikni kuchaytirmoqda. Jumladan, D.Trampning 2020-yil 24-25-fevral sanalarida Hindistonga uyushtirgan rasmiy tashrifi ushbu masala bilan chambarchas bog'liq. Tashrif yakunida imzolangan Qo'shma bayonotda "Pokiston va Xitoy hamkorligiga qarshi Hindiston va AQSh hamkorligi"ni aks ettirgan bir qator masalalar ko'zga tashlanadi. Ayniqsa, bayonotda ikkala tomonning "Hind-Tinch okeani mintaqasida o'zaro hamkorlik olib borish hamda Pokistonni terrorchilik hujumlari, jumladan Mumbay va Patankotga uyushtirilgan

afghanistan-trade-likely-to-reach-2-bn-by-2020-afghan-ambassador/articleshow/64978930.cms

¹ Shazad A. India: jostling for geopolitical control in Afghanistan // Open Democracy, March 27, 2014. <https://www.opendemocracy.net/en/opensecurity/india-jostling-for-geopolitical-control-in-afghanistan/>

² Dixit G. The New Geopolitical Realities in Afghanistan: India's Constructive Role as US Partner // The United Service Institution of India, January 2018 – March 2018. <https://usiofindia.org/publication/usio-journal/the-new-geopolitical-realities-in-afghanistan-indias-constructive-role-as-us-partner/>

hujumlarda o'ziga tegishli bo'lmagan hududdan (Afg'oniston) foydalanmaslikka chaqirish"¹ singari bandlar keltirilishi o'z mohiyati bilan yuqoridagi fikrlarni tasdiqlamoqda. O'z navbatida, Hindiston, Eron va Afg'oniston o'rtasida imzolangan Chobahor porti bitimi Markaziy Osiyo va Afg'oniston uchun nafaqat Pokistonning Gvadar va Karachi portlariga, balki istiqbolda Xitoy-Pokiston iqtisodiy koridoriga muqobil bo'lgan Xalqaro Shimol-Janub koridorining muhim qismiga aylanishi mumkin.



Hindistonning Chobahor porti orqali Afg'oniston bilan bog'lanishi

¹ Joint Statement: Vision and Principles for India-U.S. Comprehensive Global Strategic Partnership // Official website Prime Ministr Narendra Modi, February 25, 2020. <https://www.narendramodi.in/joint-statement-vision-and-principles-for-india-u-s-comprehensive-global-strategic-partnership-548572>

Chobahor va Eron-Afg'oniston chegarasida avtomobil va temir yo'l tarmoqlari tizimi to'liq yakunlanmaganiga qaramay Hindiston 2018-yilning o'zida Afg'onistonga 110 000 tonna bug'doy va 2 000 tonna dukkakli o'simliklarni yetkazib berdi. 2024-yilga kelib esa, Chobahor porti umumiy sig'imini 86 mln. tonnaga yetkazish maqsad qilingan¹. Ta'kidlash joizki, 2019-yil 12-13-yanvar sanalarida Samarqandda o'tkazilgan "Hindiston-Markaziy Osiyo muloqoti"ning dastlabki tashqi ishlar vazirlari uchrashuvida Afg'oniston tashqi ishlar vazirining ham ishtirok etishini Xitoy va Pokistonning mintaqadagi ta'siriga qarshi Dehlining to'g'ridan to'g'ri strategik yurishi, deb hisoblash mumkin.

Pokistonning Markaziy Osiyodagi geosiyosiy manfaatlari

Pokiston Islom Respublikasi (PIR) ning Markaziy Osiyodagi geosiyosiy manfaatlari bevosita Afg'oniston bilan bog'liq. Markaziy Osiyo bozoriga chiqish, yuqori energiya va xomashyo manbalariga ega bo'lgan Markaziy Osiyodan import aloqalarini kuchaytirish va shu orqali Hindistonning mintaqaga bo'lgan ta'siriga qarshilik ko'rsatish mazkur manfaatlar sirasiga kiradi. Yuqorida qayd etganimizdek, Pokistonning Markaziy Osiyodagi geosiyosiy manfaatlari haqida so'z yuritganda avvalo, uning Afg'onistondagi hozirgi vaziyatga ta'sirini tahlil etish o'rinli bo'ladi.

Afg'oniston bilan bog'liq har qanday geosiyosiy jarayonlarda PIR ishtiroki hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. PIR Afg'oniston bilan 2,500 km chegaraga ega bo'lib, bu Afg'oniston umumiy chegaralarining teng yarmidan ko'prog'i demakdir. Ta'kidlash lozimki, Afg'oniston va Pokiston o'rtasidagi chegara masalalarining bartaraf etilmagani Islomobod tomonidan Afg'oniston ichki siyosiy jarayonlariga bevosita va bilvosita aralashishning eng birlamchi omili hisoblanadi.

¹ Sawhney A. Chabahar Port: Unlocking Afghanistan's Potential // Center for Strategic and International Studies.

<https://www.csis.org/chabahar-port-unlocking-afghanistans-potential>

Bugungi kunda Afg'oniston ichki siyosiy o'yinlarida markaziy rolni ijro etishda Islomobodning asosiy ta'sir ko'rsatuvchi vositasi Tolibon harakati (TH) "loyihasi" hisoblanadi. E'tibor qaratish joizki, bugungi Afg'oniston siyosiy holatida THning harbiy va siyosiy rahbarlari tarkibi Islomobod razvedka xizmati bilan mustahkam aloqada bo'lgan eski a'zolaridan iborat. Harakatning harbiy yetakchisi Mulla Haybatulloh Oxunzoda, Dohadagi siyosiy mahkama rahbari Mulla Abdulg'ani Barodar¹ hamda "Haqqoniy tarmog'i" rahbari Sirojiddin Haqqoniy² shular jumlasiga kiradi. 2018-yil 25-oktabrda Mulla Abdulg'ani Barodarning Pokiston qamoqxonasidan ozod qilinishi³ va THning Qatardagi Doha siyosiy mahkamasi rahbari sifatida e'lon qilinishi ham boshqa geosiyosiy doiralar Afg'oniston bilan bog'liq har qanday muzokaralar jarayonida Islomobod bilan hisoblashishi lozim, degan ishorani anglatadi. Aksariyat mutaxassislar AQSh-Tolibon bitimi Pokiston uchun katta g'alaba ekanini ta'kidlamoqda. Janubiy Osiyo demokratik forumi (SADF) eksperti Zigfreyd Vulf fikricha "AQSh-Tolibon" kelishuvi Pokiston va AQSh aloqalarini yaxshilashda Islomobodning diplomatik yutug'i bo'lib, "bugungi "Tolibon" aynan Pokistonning siyosiy, iqtisodiy, harbiy va xalqaro ko'magi bilan avvalgidan ko'ra kuchliroqdir"⁴. Vudro Vilson Xalqaro olimlar markazi katta ilmiy xodimi Maykl Kugilmen qaydlariga ko'ra Pokiston ushbu kelishuv orqali Afg'oniston tinchlik jarayonlarining yagona mintaqaviy ishtirokchisiga aylanishi mumkin⁵. "Tinchlik kelishuvi"ning Pokiston uchun ikkinchi manfaatli jihati, Afg'oniston va mintaqada THning

¹ Mulla Abdulg'ani Barodar hozirda "Tolibon" muvaqqat hukumatida Bosh vazir o'rinbosari hisoblanadi.

² Maizland L., Laub Z. The Taliban in Afghanistan // Council on Foreign Relations, March 11, 2020. <https://www.cfr.org/backgrounder/taliban-afghanistan>

³ Afghan Taliban founder Mullah Baradar released by Pakistan // Aljazeera, October 25, 2018. <https://www.aljazeera.com/news/2018/10/afghan-taliban-founder-mullah-baradar-released-pakistan-181025093128441.html>

⁴ Wolf O. S. Does the US-Taliban deal serve Pakistan's interests in Afghanistan? // South Asia Democratic Forum. 6 March, 2020. <https://www.sadf.eu/comment-171-does-the-us-taliban-deal-serve-pakistans-interests-in-afghanistan/>

⁵ Kugelman M. Will Pakistan Continue to Play a Constructive Role in the Afghan Peace Process? // World politics review, March 9, 2020. <https://www.worldpoliticsreview.com/articles/28586/will-pakistan-continue-to-play-a-constructive-role-in-the-afghanistan-peace-talks>

siyosiy kuch sifatida tan olinishidir. Pokiston Tashqi ishlar vaziri Shoh Mahmud Qurayshiy Pokiston radiosiga bergan intervyusida “AQSh va “Tolibon” o‘rtasidagi kelishuv mintaqada rivojlanishning yangi yo‘llarini ochadi”¹, deya ma’lum qilishi harakatning aynan mintaqa doirasidagi muloqotini nazarda tutadi. Bizning nuqtayi nazarimizga ko‘ra toliblarning Afg‘oniston hokimiyatiga integratsiyalashuvi yoki ularning hokimiyatdagi alohida harbiy-siyosiy ta’siri va nufuzining ortishi ham Pokiston strategik manfaatlariga har jihatdan to‘g‘ri keladi.

Islomobod uchun afg‘on siyosiy sahnasida “Tolibon” harakatini qo‘llab-quvvatlashdan boshqa geosiyosiy rejalar ham ko‘zlangan edi. Pokiston siyosatchilari nazdida Markaziy Osiyo bilan savdo-iqtisodiy va transport-kommunikatsiya aloqalarini amaliyotga joriy etilishida parchalangan Afg‘oniston asosiy to‘siq hisoblanardi. Markaziy Osiyoning yoqilg‘i-energetika resurslari, ayniqsa, turkman neft va gaz quvurlarini “Tolibon” kuchlari kafolatida Pokistonga olib kelish rejasi ayni shu maqsadga yo‘naltirilgan. 90-yillar boshlarida Pokiston razvedkasi tomonidan ishlab chiqilgan “Buroq parvozi”² kodli maxfiy amaliyot “Tolibon” qurolli otryadlari tayanchi bilan Pokistonning Kvetta va Turkmanistonning Kushka shaharlarini bog‘lovchi transport magistralarini nazorat qilishni nazarda tutardi³. THning bugungi kunda Afg‘oniston shimolida faollashuvi, Pokiston va Markaziy Osiyo davlatlarining mintaqaviy iqtisodiy loyihalarni amalga oshirishga doir muzokaralarini ayni shu omillar bilan izohlash mumkin. Shunday muhim loyihalardan biri “Mozori Sharif-Kobul-Peshovar” temir yo‘l loyihasi hisoblanadi.

Mazkur temir yo‘l Markaziy Osiyo davlatlarini Afg‘oniston orqali eng yaqin dengiz bandargohlariga chiqishida samarali

¹ FM to represent Pakistan in signing ceremony of US-Afghan Taliban peace agreement // Radio Pakistan. February 29, 2020. <http://www.radio.gov.pk/29-02-2020/fm-to-represent-pakistan-in-signing-ceremony-of-us-afghan-taliban-peace-agreement>

² Buroq – payg‘ambar Muhammad sallallohu alayhi va sallamni Makkadan Quddusga olib borgan afsonaviy tulpor.

³ Маначинский А.Я. Афганистан среди гор и войн (исследования 2009 года). – М.: Издатель Воробьев А.В., 2015. – С.56.

rol o'ynaydi. O'z navbatida, Markaziy Osiyoning Janubiy Osiyo bilan bog'lanishi va natijada mintaqalararo hamkorlik muloqotining rivojlanishida "Mozori Sharif-Kobul-Peshovar" temir yo'li dolzarb ahamiyatga ega.

Eronning Markaziy Osiyodagi geosiyosiy manfaatlari

Eron Islom Respublikasi (EIR) ham Markaziy Osiyodagi faol aktoarlardan biridir. Eronni Markaziy Osiyo bilan tarixiy, diniy va madaniy rishtalar bog'lab turadi. Bu Eron uchun mintaq bilan o'zaro hamkorlik olib borishda ustuvor omillar hisoblanadi.

Lekin Markaziy Osiyo davlatlarining Fors ko'rfazi bandargohlariga hamda Eron orqali Yevropa bozorlariga chiqish imkoniyatlarini yaratishda manfaatlarning mushtarakligi mavjud bo'lgani Tehronga geoiqtisodiy yo'nalishlarda ham Markaziy Osiyoga qiziqish bildirishiga sabab bo'ladi. Shu nuqtayi nazardan Tehron Transafg'on transport koridori (TATK) orqali Markaziy Osiyo va Fors ko'rfazini bog'lashda yetakchi o'rin egallashga intilmoqda.

TATKni amaliyotga tatbiq etish maqsadida ikki tomonlama va xalqaro miqyosda bir qator uchrashuvlar tashkil etildi va samarali kelishuvlarga erishildi. Jumladan, 2006-yilda Afg'oniston bo'yicha Londonda o'tkazilgan xalqaro konferensiyada Eron va Afg'oniston tomonlari Xaf-Hirot temir yo'lini qurish bo'yicha Bitim imzolashdi.

Bitimdagi shartlarga muvofiq loyihani 60% qiymatini Eron tomoni, 40%ni esa Afg'oniston tomoni o'z zimmasiga oladigan bo'ldi¹.

Xaf-Hirot temir yo'li. Xaf-Hirot temir yo'l loyihasining umumiy uzunligi 130 km bo'lib, uning 70 km Eron hududidan, 60 km Afg'oniston hududidan o'tadi. Eron tomonidan Afg'oniston hududida temir yo'l qurilish jarayonlarining uzoq muddatga cho'zilishida xavfsizlik va

¹ План по строительству железной дороги между Афганистаном и Ираном выполнен на 70% // Все об Афганистане, 30.05.2008. <http://afghanistan.ru/doc/12176.html>

geosiyosiy omilning ta'siri katta bo'ldi. Tabiiyki, Xaf-Hirot temir yo'li geosiyosiy jihatdan Eronning mintaqadagi raqobatchilari hisoblangan AQSh va bir qator arab davlatlari manfaatlariga tamomila zid hisoblanardi. Shunga qaramay Tehron sa'y-harakatlari natijasida 2020-yil dekabr oyi avvalida mazkur temir yo'l orqali 500 tonna sement Afg'onistonning Hirot viloyatiga yetkazildi va 10 dekabr sanasida temir yo'lining ochilish marosimi bo'lib o'tdi. Unda EIR Prezidenti Hasan Ruhoniy va AIR Prezidenti Ashraf G'ani ishtirok etib, ushbu loyiha nafaqat ikki mamlakat uchun, balki mintaq uchun tarixiy ahamiyatga ega ekanligini qayd etishdi. Hirot viloyati voliysi Said Vohid Qatolining ta'kidlashicha, bu loyiha 600 ming afg'on yoshlarini ish bilan ta'minlashga imkon yaratadi¹.

Alohida ta'kidlash kerakki, "Eron Islom Respublikasi Temir yo'llari kompaniyasi" rahbari o'rinbosari Maziar Yazdaniyning ma'lum qilishicha, Eron istiqbolda o'z temir yo'lini Iroq janubidagi Basra viloyatida ham qurishni boshlab, Eron va Iroq yuklarini Afg'oniston orqali Markaziy Osiyo, Rossiya va Xitoy bozorlariga olib chiqishni rejalashtirgan².

Mazkur temir yo'l to'liq ishga tushganidan so'ng Afg'oniston birinchi marta Eron va Turkiya orqali temir yo'lining Yevropa tarmog'iga ulanadi. Ekspertlarning baholashicha, Xaf-Hirot temir yo'li Afg'oniston uchun Fors ko'rfazi portlariga eng yaqin yo'lni ochib beradi.

O'z navbatida, eronlik siyosatchilar va mutaxassislar ushbu loyihani Afg'onistonning boshqa viloyat va shaharlari bilan bog'lashga katta qiziqish bildirmoqda. Chunonchi, Eron yo'l xizmatlari va shaharsozlik vaziri Muhammad Islomiy bu haqida shunday ta'kidlaydi: "Hirot temir yo'li takomillashishi bilan ushbu yo'nalish liniyasini Afg'onistonning Mozori

¹ Afghan, Iranian Leaders Hail 'Historic' Khaf-Herat Railway // TOLO news, 10 december 2020. <https://tolonews.com/business-168392>

² Железная дорога между Ираном и Афганистаном Хаф – Герат построена на 89% // Информационное агентство "РЖД-партнер", 08.08.2018. <https://www.rzd-partner.ru/zhd-transport/news/zheleznaya-doroga-mezhdu-iranom-i-afganistanom-khaf-gerat-postroena-na-89-/>

Sharif, Kobul va boshqa shaharlari bilan bog'lash imkoni vujudga keladi"¹.

Mamlakatimiz uchun TATKning ishga tushirilishi strategik jihatdan ustuvor vazifalar sirasiga kiradi. O'zbekistonning Afg'oniston orqali dengiz portlariga chiqishi Qora va Boltiq dengiziga chiqish portlaridan 2-3 marta, Tinch okeani portlari yo'nalishidan 5 marta qisqaroqdir². Xalqaro transafg'on koridorining ochilishi mintaqalararo savdo muloqotiga zamin yaratadi, jumladan, O'zbekiston ham Eron, Pokiston va Hindiston portlari orqali dunyo bozorlariga chiqadi hamda butun mintaqaning ulkan tranzit salohiyatini keng ro'yobga chiqarish uchun yangi imkoniyatlar ochiladi. Biroq Afg'onistonda davom etayotgan qurolli to'qnashuvlar bunday imkoniyatlarga jiddiy xalaqit qilmoqda.

Mavzu bo'yicha savollar

1. Turkiyaning Markaziy Osiyo mintaqasidagi asosiy hamkor davlatlari qaysilar va ular bilan qaysi sohalarida hamkorlik olib boradi?

2. Neousmonizm konsepsiyasi panturkizm qarashlaridan qanday farq qiladi?

3. "Turon armiyasi" tashkil etilishida to'sqinlik qiluvchi qanday omillarni bilasiz?

4. "Connecting Central Asia" va "Markaziy Osiyo-Hindiston muloqot" formatlarining o'zaro farqi qanday?

5. Markaziy va Janubiy Osiyoni o'zaro bog'laydigan transport va energiya loyihalarini sanab bering.

6. Pokiston va Hindistonning Markaziy Osiyodagi geosiyosiy manfaatlarida qanday o'xshash va farqli jihatlar mavjud?

7. Eronning Markaziy Osiyodagi geosiyosiy manfaatlari qanday?

¹ یران می تواند راه آهن خواف-هرات را به مزارشریف متصل کند - خبرگزاری مهر // Mehr News Agency

<https://www.mehrnews.com/news/5125876>

² Столповский О.В. реализации транспортных проектов Узбекистан ориентируется на южное направление // Ритм Евразии, 01.09.2018. <https://www.ritmurasia.org/news--2018-09-01--v-realizacii-transportnyh-proektov-uzbekistan-orientiruetsja-na-juzhnoc-napravlenie-38304>

Mustaqil ish topshiriqlari:

1. Hindiston va Pokistonning Markaziy Osiyodagi geosiyosiy manfaatlarini qiyosiy tahlili bo'yicha infografika tayyorlash.
2. Turkiya va Eronning Markaziy Osiyodagi geosiyosiy manfaatlarini qiyosiy tahlili bo'yicha infografika tayyorlash.
3. Mavzuga oid tahliliy materiallar va ilmiy maqolalar yozish.

MARKAZIY OSIYO MINTAQASIDA O'ZBEKISTON GEOSIYOSATI

Reja:

1. Markaziy Osiyo mintaqasining tarixiy va geosiyosiy talqini.
2. Katta Markaziy Osiyo konsepsiyasi.
3. O'zbekiston geosiyosatida Markaziy Osiyo.

O'quv mashg'ulotining maqsadi: Markaziy Osiyoda O'zbekistonning geosiyosiy roli va o'rnini atroflicha o'rganish va zamonaviy geosiyosiy jarayonlarni tahlil etish.

Tayanch so'z va iboralar:

Movaraunnahr, Transaksoniya, G'arbiy o'lka, Turkiston, Turon, Ichki Osiyo, Markaziy Osiyo, O'rta Osiyo, Katta Markaziy Osiyo, Katta o'yin, Yevroosiyo Bolqoni.

Markaziy Osiyo mintaqasining tarixiy va geosiyosiy talqini

Zamonaviy Markaziy Osiyo jahon siyosatining eng muhim mintaqalaridan biri hisoblanadi. Uzoq yillar davomida mazkur mintaqaning tarixiy va geografik ahamiyati e'tibordan chetda qolgan bo'lsa-da Markaziy Osiyoda sobiq SSSRdan ajralib o'z mustaqilligini qo'lga kiritgan besh respublikaning vujudga kelishi turli tadqiqotchilar uchun mintaqani qaytadan kashf etish jarayonini boshlab berdi. Jahon Markaziy Osiyoning zamonaviy tarixini mustaqil ahamiyatga ega tadqiqot obyekti sifatida o'rganmoqda. Zero, Markaziy Osiyoda jo'g'rofiy-siyosiy joylashuv, umumiy din, o'zaro o'xshash tillar hamda qardosh xalqlar madaniyati tutashgan mushtarak rishtalar mavjud.

Markaziy Osiyoning zamonaviy tarixini tadqiq etishda turli xil omillar ustuvor o'rin egallaydi. Bular jumlasiga ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy, geografik va geosiyosiy omillarni alohida keltirish mumkin. Tabiiyki, bunday nuqtayi-nazar Markaziy Osiyoning o'ziga xos xususiyati bilan chambarchas bog'liq. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev *"Markaziy Osiyo: yagona tarix va umumiy kelajak, barqaror rivojlanish va taraqqiyot yo'lidagi hamkorlik"* mavzusidagi xalqaro konferensiyada bu masalaga alohida urg'u berib shunday degan edi: "Bizning mintaqamiz xalqlarini ming yillik qardoshlik va yaxshi qo'shnichilik rishtalari bog'lab turadi. Bizni tarix, umumiy madaniyat va an'analar birlashtiradi. Yevroosiyoning yuragida joylashgan mintaqamiz Yevropa va Yaqin Sharq, Janubiy va Sharqiy Osiyoni bog'lovchi ko'priq bo'lib, Rossiya va Xitoy singari yirik davlatlar bilan chegaradoshdir. Mintaqamiz tabiiy resurslarga boy, bu yerda ko'plab mamlakatlar va butun mintaqalar rivojiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatgan noyob madaniyat va taraqqiyot salohiyati mavjud"¹.

¹ Мирзиёев Ш. М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. – Т.: Ўзбекистон НМИУ, 2018. – Б. 264.

Alohida qayd etish lozimki, Markaziy Osiyo tarixi ayrim tarixiy tadqiqotlarda "sovet O'rta Osiyosi" deb nomlangan o'rinsiz yondashuvlar bilan ko'rsatib o'tilgan. Ayni shu ma'noda Markaziy Osiyo tarixining yangi jihatlarini xolis va haqqoniy yoritish jarayonida G'arb tarixshunos olimlari, tadqiqotchilari va soha vakillarining o'ziga xos ilmiy yondashuvlari va qarashlarini o'rganib chiqish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Jumladan, Markaziy Osiyo tarixini o'rganish ishlarini katta qiziqish bilan sinchiklab ko'zdan kechirishda quyidagi manbalar o'rganilishi lozim, deb hisoblaymiz:

- Humboldt, A. de. *Asie centrale. Recherches sur les chaines de montagnes et la climatologie compare.* - Paris, 1843. P. 649.

- *History of Civilizations of Central Asia.* UNESCO. 1992-2005.

- Arnold J. Toynbee. *A study of history.* Oxford University Press. 1934. P. 484.

- Peter B. Golden. *Central Asia in world history.* Oxford University Press. 2011. P. 178.

- Reinhard Krumm. *Central Asia: The struggle for power, energy and human rights.* January 2007. Compass 2020. P. 20.

- *Central Asian sources and Cenral Asian researches.* Edited by Johannes Reckel. Guttinger Bibliotheksschriften Band 39. P. 231.

Quyida ushbu manbalarning har biriga alohida to'xtalib o'tamiz:

Markaziy Osiyo siyosiy va iqtisodiy jihatdan eng qadimgi davrlardan Yevropa bilan bog'langan. Ayniqsa, Aleksandr Makedonskiy, Salavkiylar, Yunon-Baqtriya hamda Parfiya podsholigi boshqaruvi davrida aynan shunday mustahkam aloqalar o'rnatilgan va rivojlangan. Shuni alohida qayd etish lozimki, "Markaziy Osiyo" atamasi ham ilk bor G'arb manbalarida uchraydi. Jumladan, bu atama birinchi bor ilmiy doirada nemis olimi Aleksandr fon Gumboldt tomonidan "*Markaziy Osiyo: tog' tizmalarini tadqiq etish va iqlimlarini taqqoslash*" nomli asarda ishlatilgan. Mazkur asar uch jildda 1843-yilda Parijda chop etilgan bo'lib, unda muallif Markaziy Osiyoning tog' tizmalari, iqlimi va geografik joylashuvini

o'rgangan holda uni alohida mintaqqa sifatida ta'riflaydi. 1829-yilda A.Gumboldt Markaziy Osiyo orqali Ural tog'lari, Kaspiydan Xitoy chegarasida joylashgan Oltoy tog'lari bo'ylab ekspeditsiya uyushtiradi. A.Gumboldtning tavsifiga ko'ra Markaziy Osiyo hududi Osiyo qit'asining markazi hisoblanib, u sharqda Shimoli-g'arbiy Manchjuriyaning Buyuk Shingan tog'lari, g'arbda Kaspiy dengizining platosi bilan chegaradosh. Ushbu tavsif rus, nemis, ayniqsa, Rixtgofen singari boshqa geograflar tomonidan ham ilmiy atama sifatida ishlatilib, keyinchalik Markaziy Osiyo Tibet, Pomir, Oltoy va Buyuk Shingan tog'lari o'rtasidagi hudud sifatida qaraldi¹. Bundan shuni tushunish mumkinki, A.Gumboldtning Markaziy Osiyoga doir tarixiy qarashlarida bu mintaqqa geografik mezonlarga ko'ra tadqiq etiladi. Shu boisdan ham Markaziy Osiyo uzoq vaqt mobaynida geografik atama sifatida qo'llanilib kelindi. Bir qator manbalarda Markaziy Osiyo geografik jihatdan kengaytirilgan tarzda ko'rsatib o'tiladi. Ayniqsa, UNESCO tomonidan nashr etilgan "*Markaziy Osiyo sivilizatsiyalari tarixi*" deb nomlangan kitob Markaziy Osiyoni ulkan sivilizatsiyalar chorrahasiga aylangani hamda jahon taraqqiyotiga beqiyos hissa qo'shgani xususida so'zlaydi. Mazkur asar olti jildidan iborat bo'lib, unda Markaziy Osiyoda eng qadimiy davrlardan hozirgi davrgacha bo'lgan sivilizatsiyalar tadqiq etilgan. Shu bilan birgalikda, mazkur asarda Markaziy Osiyo mintaqasi yunonlar, rimliklar, arablar, eronliklar, xitoylar tomonidan *Movaraunnahr*, *Transaksoniya*, *G'arbiy o'lka*, *Turkiston*, *Turon*, *Ichki Osiyo* singari atamalar bilan nomlanib, uning hududi G'arbiy Xitoy, Mo'g'uliston, Shimoliy Hindiston, Pokiston va Rossiyaning Sibir o'lkasi janubiy qismiga borib tutashadi. Biroq mintaqqa ba'zan sobiq SSSR doirasida to'rt respublikaga ajratilgan holda "*O'rta Osiyo*" nomi ostida geografik kichraytirilganligini ham ko'rish mumkin. Biroq bizning fikrimizcha bunday yondashuv Markaziy Osiyoni diniy, etnomadaniy, lingvistik va boshqa xususiyatlarini tamoman inkor etishga olib keladi. Mintaqqa qanday talqin etilishidan qat'iy nazar uning xalqaro

¹ Richthofen, Ferdinand von. China – Ergebnisse eigener Reisen und darauf gegründeter Studien (5 Textbände und 2 Kartenbände), Berlin 1877–1912.

miqyosdagi roli va o'рни nihoyatda katta. Ingliz olimi, mashhur "*Tarixni anglash*" asari muallifi Arnold Toynbi o'z asarida "*Markaziy Osiyo turli xil qudratli imperiyalar to'qnashgan hududda joylashgani va mintaqaning tarixiy ahamiyati uning joylashgan o'рни bilan belgilanishi*"ni yozib qoldiradi¹.

Markaziy Osiyoning jahon tarixiy jarayonlaridagi ishtirokini o'rganishda amerikalik olim Peter Golden tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlar tadqiqotlar sifatini yanada boyitadi. Peter Goldenning ilmiy nazariyalarida Markaziy Osiyo jahon tarixida o'zining qonuniyatlari bilan shakllangani e'tirof etilib, turli-tuman o'lchovlarga ko'ra unga kengroq nazar tashlash lozim. Xususan, Peter Golden "*Jahon tarixida Markaziy Osiyo*" nomli kitobida Markaziy Osiyoga buddizm, zardushtiylik, yahudiy, xristian va musulmon dunyosining diniy, etnik, siyosiy va madaniy ko'prigi sifatida qarab, unga Yevroosiyoning "heartland" yoki "tayanch nuqtasi" deya ta'rif beradi. Uning yozishicha Markaziy Osiyo mintaqasi Osiyoning g'arbida joylashgan, uni tarixan G'arbiy Turkiston, hozirgi mustaqil besh davlatni esa G'arbiy Markaziy Osiyo, deb atash o'rinli bo'ladi². Darhaqiqat, Peter Golden nazariy qarashlari tarixiy jihatdan bir qancha asoslarga ega, ammo hozirgi holatda uni Osiyoning g'arbida emas, balki aynan markazida joy olganini hisobga olgan holda Markaziy Osiyo so'zini o'z o'rnida qoldirish maqsadga muvofiqdir.

Markaziy Osiyoning zamonaviy tarixiy jihatlarini yoritishda faqatgina geografik, umumiy din va madaniyat, sivilizatsiya hamda tarixiy ildizlar bilan cheklanmaslik zarur. Boisi yuqoridagi sanab o'tilgan ildizlar o'zaro zanjir singari bog'langan bo'lib, Markaziy Osiyoning bir davlatida sodir bo'lgan ma'lum bir jarayon boshqasiga ta'sir etmasdan qolmaydi. Boshqacha aytganda, mintaq aynan mana shu omillar vositasida bir-biri bilan chambarchas bog'liq. Biroq yana bir muhim jihatni e'tibordan qoldirib bo'lmaydi. Ya'ni

¹ Arnold J. Toynbee. A study of history. Oxford University Press, London. Volume I. – P. 379-380.

² Peter B. Golden. Central Asia in the world history. Oxford University Press, New York. – P. 14.

mintaqani geosiyosiy va geoiqtisodiy tendensiyalar, shuningdek mintaqaviy xavfsizlik majmuyi nazaridan anglash lozim. Xuddi shu jihatdan Markaziy Osiyoda AQSh, Rossiya va Xitoy singari yetakchi kuch markazlari hamda Hindiston, Pokiston, Eron, Turkiya va boshqa mintaqaviy davlatlarning o'z geosiyosiy va geoiqtisodiy manfaatlarini izlashi tabiiy jarayondir. Qo'shimcha ravishda aytganda, Afg'onistonni ham mazkur mintaqaning tarixiy ajralmas qismi sifatida qarash bo'yicha umumiy va o'xshash yondashuvlar ko'plab topiladi. Shu jihatdan, Markaziy Osiyoning geosiyosiy talqini tadqiqotlarda eng ustuvor o'rinni egallaydi.

Katta Markaziy Osiyo konsepsiyasi

2001-yil sentabrda AQShda sodir bo'lgan terroristik xurujlardan so'ng bir qator amerikalik olimlar Markaziy Osiyoning geosiyosiy xaritasini nazariy jihatdan ishlab chiqa boshladi. Markaziy Osiyo-Kavkaz tadqiqotlari instituti rahbari Frederik Starr tomonidan ishlab chiqilgan "Katta Markaziy Osiyo" konsepsiyasi aynan shunday xaritani o'zida aks ettiradi. Starrning yozishicha Afg'oniston mintaqada uzoq muddatli barqarorlik va xavfsizlikni ta'minlash yuzasidan Markaziy Osiyo mintaqasining uzviy qismidir. Amerikalik siyosatshunos Qo'shma Shtatlar tomonidan mintaqada turli xil sohalar — iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish, boshqaruv, savdo, antikorrupsiya, narkotik moddalar savdosiga qarshi kurash, demokratiya hamda xavfsizlik dasturlarini o'z ichiga olgan "Hamkorlik va taraqqiyot yo'lida Katta Markaziy Osiyo sherikligi" (Greater Central Asia Partnership for Cooperation and Development - GCAP) mintaqaviy dasturiga asos solishni taklif etadi¹.

Bugungi kunda Afg'oniston turli mezonlarga ko'ra Markaziy Osiyoning muhim bo'lagidir. O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Toshkentda o'tkazilgan maslahat uchrashuvida bunga alohida

¹ Starr F. A 'Greater Central Asia Partnership' for Afghanistan and Its Neighbors // Central Asia Caucasus Institute & Silk Road Studies Program – A Joint Transatlantic Research and Policy Center. Silk road paper, March 2005. - P.6-16.

urg'u bergan edi: "Afg'oniston bizning mintaqamizning uzviy qismidir. Ushbu mamlakatga tinchlik va taraqqiyot yo'liga qat'iy qadam qo'yishi uchun yordam berish barchamizning umumiy manfaatlarimizga to'liq mos keladi"¹. Bizning nuqtayi nazarimizga ko'ra Afg'onistonni Markaziy Osiyo mintaqasining bir butun qismi sifatida baholashda quyidagi masalalarga e'tibor berish lozim bo'ladi:

Geografik jihatdan. Afg'oniston o'z joylashuviga ko'ra Osiyoning markaziy qismi ekanligi bois "Osiyo yuragi" (Heart of Asia) nomi bilan ataladi va nazariy jihatdan Makkinderning "Heartland" nazariyasini o'zida ifoda etadi.



Katta Markaziy Osiyo

¹ Мирзиёев Ш.М. Миллий тикланишдан — миллий юксалиш сари. — Т.: Ўзбекистон, 2020. — Б.273.

Markaziy Osiyo atamasini fanga olib kirgan nemis olimi A.Gumboldt ham o'z asarida mintaqaning tog' tizmalari, iqlimi, tuzilishini batafsil ta'riflab, uning xaritasida Afg'onistonni ham qo'shib tasvirlagan¹. Amerikalik harbiy ekspert, kapitan J.Makkarti doktorlik dissertatsiyasi²da Afg'onistonni faqat Markaziy Osiyoning ma'lum qismi deb emas, balki unga mintaqaning abadiy yuragi sifatida qarash lozim, deb hisoblaydi. Yuqoridagi ta'kidlangan "Katta Markaziy Osiyo" talqinidan tashqari G'arb ilmiy doiralarida mintaqani yanada kengroq tasvirlash holatlari ham uchraydi. Rossiyalik ekspert A.Kazansev Markaziy Osiyo mintaqasini G'arbda tasvirlash variantlarini tahlil etib, ingliz tilidagi "stan" qo'shimchasini qo'shib hisoblash orqali G'arb olimlarining Markaziy Osiyoga Afg'oniston va Pokistonni ham kiritish zarurligi borasidagi mulohazalarini o'rinsiz, deb hisoblaydi. Uning fikriga ko'ra bunday qarash mintaqani siyosiy o'lchov vositasida ifoda etib, u kuchayib borgan sari Xitoyning Uyg'uriston, Rossiyaning Tatariston, Boshqirdiston va Dog'iston hududlarini ham qamrab olishi mumkin³. Bizning fikrimizcha mintaqani "stan" qo'shimchasi orqali talqin etish boshqa bahsli savollarni ham keltirib chiqaradi. Masalan, Pokiston o'zini Janubiy Osiyo mintaqasi hududi, deb hisoblaydi. Ikkinchidan, bunday bir tomonlama shovinistik talqin ayrim manfaat doiralarining geosiyosiy ambitsiyalar o'lchoviga asoslanadi.

- *Tarixiy jihatdan.* Hozirgi Markaziy Osiyo va Afg'oniston hududlari Yunon-Baqtriya, Kushon podsholigi, G'aznaviylar, Temuriylar va Boburiylar sulolarining davlatchilik davrlarida o'zaro bir butun mintaq bo'lgan. Professor R.Alimov o'z asarida hozirgi Afg'onistonning katta qismi bir qator asrlar davomida Buxoro xonligi tarkibida bo'lgani, u yerda joylashgan Balx shahri esa Buxoro xoni vorislarining (xon-

¹ Humboldt A. Asie centrale. Recherches sur les chaines de montagnes et la climatologie compare. - Paris, 1843. - P.581-582

² McCarty J. The Enduring Heart Of Central Asia: A Study To Understand Afghanistan's Survival. A Dissertation Presented to the Faculty of The Graduate College at the University of Nebraska In Partial Fulfillment of Requirements For the Degree of Doctor of Philosophy, 2018. - 285 p.

³ Казанцев А.А. "Большая игра" с неизвестными правилами: мировая политика и Центральная Азия. - М.: МГИМО, 2008. - Б.76.

to'ra) turar joyiga aylanganini misol sifatida keltirib o'tadi¹. Qolaversa, hozirgi afg'on zaminida Alisher Navoiy, Mavlono Lutfiy, Kamoliddin Behzod, Husayn Boyqaro, Abdurahmon Jomiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Abu Rayhon Beruniy, Boborahim Mashrab singari buyuk mutafakkirlar qabri joylashgani ham buning yaqqol tasdig'idir. Ular butun mintaqa xalqlari sivilizatsiyasi va madaniy-ma'rifiy aloqalariga beqiyos hissa qo'shishgan. UNESCO tomonidan nashr etilgan olti jildli "Markaziy Osiyo sivilizatsiyalari tarixi" kitobida mintaqa Afg'oniston, shimoliy-sharqiy Eron, Pokiston, shimoliy Hindiston, G'arbiy Xitoy va Mo'g'uliston hududlari bilan birgalikda kengroq doirada tasvirlanadi². Gollandiyalik tarixchi M.Makkoli esa Afg'oniston va Markaziy Osiyoni "Siam egizaklari"ga³ qiyoslab, ularni bir-biridan ajratib bo'lmaydi, degan xulosani bildiradi.

- *Savdo-iqtisodiy jihatdan.* Afg'oniston har tomonlama yopiq bo'lgan Markaziy Osiyo mintaqasini eng yaqin dengiz portlariga olib chiquvchi yo'l va ochilmagan bozor hamdir. Bu har jihatdan Markaziy Osiyo davlatlarini, jumladan, O'zbekistonni ham tashqi doiralardagi ayrim iqtisodiy bog'liqligini bartaraf etib, jahon savdosi munosabatlariga to'laqonli integratsiyalashuvini ta'minlaydi.

- *Etnik jihatdan.* Afg'onistonda Markaziy Osiyo davlatlarining barcha titul millat va elat vakillari istiqomat qiladi. Alohida e'tibor qaratish zarur bo'lgan muhim dalil shuki, Afg'oniston o'zbeklari O'zbekistondan tashqaridagi dunyo o'zbeklari orasida soni jihatidan birinchi o'rinda turadi. Yana bir muhim jihat, tojik millatiga mansub etnik vakillar soni Tojikistonda qancha bo'lsa, Afg'onistonda ham shuncha tojik vakillari istiqomat qiladi. Bu Tojikiston uchun nihoyatda dolzarb va hayotiy ahamiyatga ega. Afg'onistonlik turkmanlar ham Afg'oniston Asosiy Qonunida sanab o'tilgan ko'p sonli etnoslar toifasiga kiradi. Bundan tashqari hozirgi kunda ushbu

¹ Алимов Р. Центральная Азия: общность интересов. – Т.: Шапк, 2005. – Б.22.


² History of Civilizations of Central Asia. Volume III. The crossroads of civilizations: A.D. 250 to 750. UNESCO publishing, 1996. – P. 2.

³ Mc Maculey M. Afghanistan and Central Asia. A Modern History. Pearson Education Limited 2002. – P.19.

mamlakatda Markaziy Osiyoning qozoq va qirg'iz millatiga mansub mingdan ortiq vakillari ham yashab kelmoqda.

- *Lisoniy jihatdan.* Afg'oniston aholisining asosiy qismi Markaziy Osiyo xalqlari so'zlashadigan turkiy va forsiy tillarda muloqot olib borishadi. Afg'oniston Konstitutsiya¹ga asoslanib aytadigan bo'lsak, o'zbek tili O'zbekistondan tashqari dunyoda faqat Afg'onistonda rasmiy til maqomiga ega.

Madaniy urf-odatlar va diniy jihatdan. Markaziy Osiyo va Afg'oniston xalqlarining urf-odatlari va an'analari o'zaro o'xshash va bir-biriga juda yaqin. Masalan, Navruz, Ramazon va Qurbon hayiti bayramlari mintaqaning barcha xalqlarida birdek nishonlanadi. Shuningdek, islom dini ham xalqlarimizni chambarchas bog'lab turadi. Mintaqa xalqlari aholisining qariyb 90% qismi islom diniga e'tiqod qilishi ham buning asosiy sabablaridandir.



Yevroosiyo Bolqoni

¹ قانون اساسی افغانستان شهر کابل. ۱۴۰۲ هـ.ش. ص. ۴-۵.

(Qonun-e Asosi-ye Afg'oneston. Shahr-e Kobul. 12 jadi, 1382 h.sh. — S. 4-5.)

Afg'oniston Islom Respublikasi Konstitutsiyasi. — Kobul, 2004. — B.4-5.

Yevroosiyo Bolqoni. Amerikaning taniqli geosiyosatchilari-dan biri Z.Bjezinskiy Afg'oniston va Markaziy Osiyo mintaqasini "Yevroosiyo Bolqoni" hududlariga kiritar ekan, Afg'onistonga nafaqat O'rta Osiyo etnik jumboqlarining bir qismi, balki siyosiy nuqtayi nazardan "Yevroosiyo Bolqoni"ning ham bo'lagi sifatida qarash kerakligini qayd etgan¹.

Z.Bjezinskiyning mustaqil Markaziy Osiyo davlatlari etnik, mintaqaviy, diniy va boshqa mojarolar makoniga aylanishi yuzasidan bildirgan taxmini o'zini oqlamagan bo'lsa ham, biroq uning Afg'onistonga oid "bolqonlashuv" nazariyasi hozirda ham o'z dolzarbligini saqlab qolmoqda.

O'zbekiston geosiyosatida Markaziy Osiyo

Hozirgi davr xalqaro siyosiy jarayonlari turli xil tendensiyalar ta'siri ostida kechmoqda. Mazkur tendensiyalar aksariyat hollarda o'zaro yaqin hamkorlik, kelishuv va siyosiy muzokaralar doirasidan chiqib, jahonning ayrim mintaqalaridagi to'qnashuvlarda muammolarni harbiy vositalardan foydalanish yo'li bilan hal etishga urinishlar sodir bo'lmoqda. Bu esa har bir hududda va har qaysi paytda davlatlar tomonidan mintaqaviy diplomatiyaga murojaat etishni taqozo etadi. Markaziy Osiyo mintaqasi jahonning strategik ahamiyatga molik mintaqalaridan biri hisoblanadi. Mazkur mintaqada sodir bo'layotgan shiddatli o'zgarishlar jahon siyosiy hayotiga ham o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmaydi. Bugungi kunda mazkur mintaqada yyetakchi davlatlarning manfaatlari o'zaro kesishmoqda, turli xil noan'anaviy tahdidlar ham hamon saqlanib qolmoqda. Shunday sharoitda Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasida mintaqaviy diplomatiyani mustahkamlash va dolzarb muammolarni o'zaro birgalikda hal etish zarurati paydo bo'lmoqda. Bu borada O'zbekiston Respublikasi o'zining geosiyosiy jonbozligi va amaliy sa'y-harakatlari orqali mintaqada shunday diplomatik muhitni shakllantirishga muvaffaq bo'ldi.

¹ Бжезинский З. Великая шахматная доска. [пер. с англ. О. Уральской]. – Москва: Издательство АСТ, 2019. – С. 231.

Jahonda o'zining strategik o'rni va ahamiyati bilan alohida ajralib turadigan Markaziy Osiyo mintaqasi juda katta siyosiy o'zgarishlarni boshidan o'tkazmoqda. Jo'g'rofiy-siyosiy jihatdan Markaziy Osiyoning qoq yuragida O'zbekistonning joylashgani mintaqada uning geosiyosati ko'p jihatdan hal qiluvchi rol va ta'sirga egaligini ko'rsatib beradi. Ayniqsa, mazkur mintaqada O'zbekiston yangi rahbariyatining siyosiy irodasi o'laroq, mintaqaviy diplomatiyaning amaliy jihatlari rivojlanib bormoqda. Bu diplomatiyani quyidagi mezonlar asosida ko'rib chiqish maqsadga muvofiq:

Huquqiy asoslar. O'zbekistonning tashqi siyosatining dastlabki huquqiy poydevori o'z-o'zidan mamlakat Konstitutsiyasi sanaladi. Konstitutsiyaning 17-moddasiga ko'ra O'zbekiston Respublikasi xalqaro munosabatlarning to'la huquqli subyektidir. Uning tashqi siyosati davlatlarning suveren tengligi, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik, chegaralarning daxlsizligi, nizolarni tinch yo'l bilan hal etish, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik qoidalariga va xalqaro huquqning umume'tirof etilgan boshqa qoidalari va normalariga asoslanadi. Respublika davlatning, xalqning oliy manfaatlari, farovonligi va xavfsizligini ta'minlash maqsadida ittifoqlar tuzishi, hamdo'stliklarga va boshqa davlatlararo tuzilmalarga kirishi va ulardan ajralib chiqishi mumkin¹. Mazkur modda xalqaro huquqning diplomatik tamoyillariga to'la mos tushadi. O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatini belgilab beruvchi huquqiy hujjatlardan yana biri 2012-yil 12-sentabrda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi Tashqi siyosiy faoliyati Konsepsiyasi to'g'risidagi" qonun hisoblanadi. Mazkur qonunda qayd etilishicha, O'zbekiston tashqi siyosiy faoliyatining ustuvor yo'nalishi Markaziy Osiyo mintaqasi bo'lib, mamlakatning hayotiy muhim manfaatlari bu mintaq bilan chambarchas bog'liq. Shuningdek, Konsepsiyada O'zbekiston tashqi siyosatini amalga oshirishda siyosiy-diplomatik vositalar sifatida siyosiy maslahatlashuvlar o'tkazish, dolzarb masalalarni muhokama qilish va hal etish yo'llarini birgalikda izlash, o'zaro manfaatli bo'lgan mintaqaviy hamda

¹Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. Available at: <http://constitution.uz/uz/clause/index>

xalqaro muammolar bo'yicha fikr almashish va pozitsiyalarni muvofiqlashtirish, preventiv diplomatiya va oldini oluvchi chora-tadbirlarning shakl va usullarini qo'llash, O'zbekiston milliy manfaatlarini, mintaqada xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan tashqi siyosiy tashabbuslarni ishlab chiqish va boshqa vositalar sanab o'tiladi¹. Darhaqiqat, mazkur vositalar mintaqada faol diplomatiya uchun muhim rol o'ynaydi, biroq Markaziy Osiyoda sodir bo'lgan ayrim ichki va tashqi siyosiy jarayonlar va ta'sirlar natijasida bunday vositalarni amalga oshirishda bir qator qiyinchiliklar vujudga keldi. Bundan tashqari hozirgi davrda O'zbekiston tashqi siyosati asosiy tamoyillari va ustuvor yo'nalishlarining ayrim qismlarini aks ettiruvchi boshqa bir muhim hujjat — bu O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi hisoblanadi. Mazkur strategiyaning beshinchi ustuvor yo'nalishi — xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash, chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy ruhdagi tashqi siyosat yuritishda O'zbekistonning yon-atrofida xavfsizlik, barqarorlik va ahil-qo'shnicilik muhitini shakllantirish masalasiga alohida e'tibor qaratiladi². Bizning fikrimizcha O'zbekiston diplomatiyasi orqali vujudga kelgan Markaziy Osiyodagi tub o'zgarishlar Tashqi siyosiy faoliyat Konsepsiyasiga kerakli o'zgartirish va tuzatishlar kiritish yoki tashqi siyosatning aniq yo'nalishlari va mexanizmlari borasida yangi huquqiy hujjat ishlab chiqishni taqozo etmoqda.

Pragmatizm. Markaziy Osiyoning barcha davlatlari bilan to'plangan muammolarni siyosiy maslahatlashuvlar orqali hal qilish hamda mintaqa davlatlarini faol muloqot va hamkorlikka chorlashda O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning o'rni alohida e'tiborga molik. Shavkat

¹Ўзбекистон Республикасининг Ташқи сиёсий фаолияти Концепцияси. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлис палаталарининг Ахборотномаси 9/1 (1437) сон, 239-модда, 2012. [The Concept of Foreign Policy Activity of the Republic of Uzbekistan. Bulletin of the Chambers of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan № 9/1 (1437), Article 239. (In Uzbek)] — Б. 12-16.

²Ўзбекистон Республикаси Президентининг Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисидаги фармони. — Т.: “Адолат”, 2017. [Decree of the President of the Republic of Uzbekistan on the strategy of further development of the Republic of Uzbekistan - Т.: “Justice”, 2017. (In Uzbek)] — Б. 27.

Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqida “O‘zbekiston bugungi kunda o‘zining tashqi siyosatida Markaziy Osiyo mintaqasiga ustuvor ahamiyat qaratmoqda. Bu — har tomonlama chuqur o‘ylab tanlangan yo‘ldir. Markaziy Osiyoning qoq markazida joylashgan O‘zbekiston ushbu mintaqa barqarorlik, izchil taraqqiyot va yaxshi qo‘shnichilik hududiga aylanishidan manfaatdor”¹. Bugungi kunda Markaziy Osiyo mamlakatlari o‘rtasidagi munosabatlar jadal tarzda rivojlanib bormoqda. Markaziy Osiyoda yangi geosiyosiy ishonch muhiti vujudga kelmoqda. Markaziy Osiyo mamlakatlari o‘rtasida mavjud bo‘lgan bir qator muammolar borgan sari kamayayotgani aynan O‘zbekistonning bu boradagi o‘rni bilan chambarchas bog‘liq. Ayni shu ma’noda nafaqat ikki tomonlama, balki mintaqaviy va xalqaro darajada bir qator amaliy va ulkan ishlar amalga oshirildi. Jumladan, *Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining maslahat uchrashuvi*, “*Markaziy Osiyo: yagona tarix va umumiy kelajak, barqaror rivojlanish va taraqqiyot yo‘lidagi hamkorlik*” mavzusida Samarqand konferensiyasi, “*Tinchlik jarayoni, xavfsizlik sohasida hamkorlik va mintaqaviy sheriklik*” mavzusida Afg‘oniston bo‘yicha Toshkent konferensiyasi, “*Markaziy Osiyo xalqaro transport yo‘laklari tizimida: strategik istiqbollar va foydalanilmagan imkoniyatlar*” mavzusidagi Toshkent xalqaro konferensiyasi, “*Markaziy Osiyoda o‘zaro mush-taraklik: tahdidlar va yangi imkoniyatlar*” mavzuyidagi xalqaro ekspertlar konferensiyasi va boshqa mintaqaviy hamkorlikning diplomatik mexanizmlarini joriy etilishi siyosiy, savdo-iqtisodiy, transport-kommunikatsiya, madaniy-gumanitar sohalarda, xavfsizlik va barqarorlik masalalarida yanada samarali imkoniyatlarni yaratib beradi. Shavkat Mirziyoyev “*Markaziy Osiyo: yagona tarix va umumiy kelajak, barqaror rivojlanish va taraqqiyot yo‘lidagi hamkorlik*” mavzusidagi

¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Бирлашган Миллатлар Ташкилоти Бош Ассамблеясининг 72 сессиясидаги нутқи (Нью Йорк, 2017 йил 19 сентябрь) [Speech of the President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoev at the 72nd Session of the United Nations General Assembly (New York, September 19, 2017) // Public Speech, September 189, No. 189 (6883)] // Халқ сўзи 2017 йил 20 сентябрь, № 189 (6883).

Samarqand konferensiyasidagi nutqida ayni paytda Markaziy Osiyoda qudratli davlatlarning manfaatlari kesishayotgani, beqarorlik va qarama-qarshilik o'choqlariga tutash bo'lgan mintaqa yaqin va uzoq xorijda ro'y berayotgan barcha salbiy jarayonlar ta'sirini his etayotganiga alohida to'xtalib, bu yerda qanday kuch ustun keladi — nizo va qarama-qarshiliklarmi yoki hamkorlik va taraqqiyotmi, degan haqli savolni o'rtaga tashlaydi. Buning uchun Prezidentimiz savdo-iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish maqsadida Mintaqaviy iqtisodiy forum hamda Markaziy Osiyo davlatlari hududlari rahbarlari (hokimlari) biznes hamjamiyati assotsiatsiyasini tashkil etish, transport-logistika salohiyatidan yanada samarali foydalanish, Markaziy Osiyoda xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlashda "yaxlit xavfsizlik" tamoyiliga rioya qilish, jumladan, Afg'onistonni mintaqaviy iqtisodiy jarayonlariga qo'shilishiga har tomonlama ko'maklashish, davlat chegaralarini delimitatsiya va demarkatsiya qilish jarayonini tezda yakunlash, mintaqa suv resurslaridan mintaqadagi barcha davlatlar manfaatlarini hisobga olgan holda samarali foydalanish hamda Markaziy Osiyoda madaniy-gumanitar aloqalar, ayniqsa, "xalq diplomatiyasi"ni eng muhim vosita sifatida rivojlantirish masalalariga alohida e'tiborini qaratdi¹. Ayni shu bildirilgan tashabbuslarning amaliy ijrosi bosqichma-bosqich tatbiq etilmoqda. BMTning Markaziy Osiyoda preventiv diplomatiya bo'yicha mintaqaviy markazi rahbari N.German Afg'oniston bo'yicha o'tkazilgan Toshkent konferensiyasi matbuot markazida aynan O'zbekiston tashabbusi bilan qisqa vaqt ichida mintaqada hal etilishi lozim bo'lgan qaltis masalalar ko'lami kamaygani, BMT ushbu jarayonning rivojlanishiga har tomonlama hissa qo'shishga tayyorligini ma'lum qildi². Qolaversa, 2018-yilning 22-iyun kuni BMT Bosh Assambleyasining yalpi majlisida *"Markaziy Osiyo mintaqasida tinchlik, barqarorlik va izchil taraqqiyotni ta'minlash bo'yicha min-*

¹ Мирзиёев Ш. М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. — Т.: Ўзбекистон НМИУ, 2018— Б. 264-274.

² Герман Н. Минтақада ҳал этилиши лозим бўлган қалтис масалалар кўлами камаймокда // Халқ сўзи 2018 йил 29 март, № 61 (7019).

taqaviy va xalqaro hamkorlikni mustahkamlash"¹ rezolyusiyasi qabul qilindi. O'zbekiston tomonidan Markaziy Osiyo davlatlari bilan hamkorlikda ishlab chiqilgan ushbu hujjat loyihasini BMTga a'zo barcha mamlakatlar bir ovozdan qo'llab-quvvatladi. Ushbu rezolyusiya O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2017-yil sentabr oyida Nyu-Yorkda bo'lib o'tgan BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida ilgari surilgan tashabbusning amaliy natijasidir. ShHT Bosh Kotibi V.Norov hujjatning o'ziga xos ahamiyati sifatida quyidagi fikrlarni bildirib o'tadi: "Hujjatda mintaqa mamlakatlari tomonidan Markaziy Osiyoda barqarorlik va iqtisodiy hamkorlikni mustahkamlashga qaratilgan sa'y-harakatlar va tashabbuslarni BMT Bosh Assambleyasi qo'llab-quvvatlashi bayon etiladi. Mintaqaning asosiy muammolari bo'yicha Markaziy Osiyodagi besh davlatning umumiy pozitsiyasi belgilangan. Xususan, Markaziy Osiyoda xavfsizlikni mustahkamlash, suv va energiya manbalaridan unumli foydalanish, ekologik muammolarni yechish, transport va tranzit tizimini rivojlantirish kabi sohalarda mintaqaviy hamkorlikni kengaytirish muhimligi qayd etiladi. Bugungi kunda Markaziy Osiyoda barqaror va samarali hamkorlik uchun barcha zarur shart-sharoit mavjud. Yuqori texnologiyaga asoslangan ishlab chiqarishni yanada rivojlantirish, agrosanoat sektori va turizm sohasini takomillashtirish, iqtisodiyotning real sektoriga yirik xorijiy investitsiyalarni jalb etish uchun ulkan salohiyat bor. Shu o'rinda qayd etish joizki, o'tgan bir-ikki yil davomida aynan Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasida o'zaro savdo aylanmasi 20-30 foizga oshdi. Ba'zi qo'shni davlatlar o'rtasida esa bu ko'rsatkich 70 foizgacha o'sdi"². Ayni shu ma'noda O'zbekiston geosiyosatining amaliy ifodasiga aylangan

¹Strengthening regional and international cooperation to ensure peace, stability and sustainable development in the Central Asian region. Resolution adopted by the General Assembly on 22 June 2018, Distr.: General 25 June 2018. A/RES/72/283.

² БМТ резолюцияси — ўзбек дипломатиясининг тарихий ютуғи. Available at: <http://uza.uz/oz/society/bmt-rezolyutsiyasi-zbek-diplomatiyasining-tarixiy-yutu-i-18-07-2018>

quyidagi mintaqaviy va xalqaro miqyosdagi tadbirlarni misol sifatida keltirish mumkin:

- Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Maslahat uchrashuvlari;

- “Markaziy Osiyo: yagona tarix va umumiy kelajak, barqaror rivojlanish va taraqqiyot yo‘lidagi hamkorlik” mavzusida Samarqand xalqaro konferensiyasi;

- “Markaziy Osiyo xalqaro transport yo‘laklari tizimida: strategik istiqbollar va foydalanilmagan imkoniyatlar” mavzusidagi Toshkent xalqaro konferensiyasi;

- “Tinchlik jarayoni, xavfsizlik sohasida hamkorlik va mintaqaviy sheriklik” mavzusida Afg‘oniston bo‘yicha Toshkent xalqaro konferensiyasi.

Ta’kidlash o‘rinliki, O‘zbekiston rahbariyati tashabbuskor bo‘lgan Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Maslahat uchrashuvi va uning 2019-yil 29-noyabrda o‘tkazilgan Toshkentdagi yig‘ilishida mintqa davlatlarining barcha rahbarlari uzoq yillik tanaffusdan so‘ng yirik davlatlarning ishtirokisiz ilk marotaba uchrashgani ham O‘zbekiston mintaqaviy siyosatining pragmatik yutug‘idir. O‘z navbatida, O‘zbekiston tashabbusi asosida qabul qilingan xalqaro hujjatlar umummintqa barqarorligi va ravnaqining huquqiy bazasini mustahkamlashda katta rol o‘ynaydi:

- BMT Bosh Assambleyasining “Markaziy Osiyoda mintaqaviy tinchlik, barqarorlik va izchil taraqqiyotni ta’minlash bo‘yicha mintaqaviy va xalqaro hamkorlikni mustahkamlash” rezolyutsiyasi (2018-yil 22-iyun);

- “Tinchlik jarayoni, xavfsizlik sohasida hamkorlik va mintaqaviy sheriklik” Toshkent deklaratsiyasi (BMT Bosh Assambleyasi. 2018-yil 29-mart);

- BMT Bosh Assambleyasining “Markaziy Osiyoda barqaror turizm va barqaror rivojlanish” rezolyutsiyasi (2019-yil 19-dekabr);

- Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlari Maslahat uchrashuvi Qo‘shma bayonoti (BMT Bosh Assambleyasi. 2019-yil 19-dekabr);

-Orol dengizi mintaqasini ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar zonasi deb e'lon qilish to'g'risida maxsus rezolyutsiya (BMT Bosh Assambleyasi. 2021-yil 18-may).

Umume'tirof etilgan geosiyosiy qarashlar O'zbekiston Markaziy Osiyo mintaqasining geosiyosiy yadrosi ekanligidan dalolat beradi. Markaziy Osiyo mintaqasi joylashgan makonda jahon va mintaqaning katta kuchlari o'rtasida geosiyosiy raqobat hududiga aylangan Afg'oniston mamlakati ham joylashgan. Shu jihatdan afg'on muammosiga doir geosiyosiy nazariyalar va qarashlarni o'rganish o'z navbatida, O'zbekiston geosiyosatining nazariy-pragmatik asoslarini chuqur tahlil etish singari masalalar doimo o'z ahamiyati va dolzarbligini saqlab qoladi.

Bugungi kunda O'zbekiston geosiyosiy sa'y-harakatlari tufayli Markaziy Osiyo mintaqasi, jumladan, Afg'oniston ham jahon hamjamiyatining e'tibor obyektiga aylanib bormoqda. O'zbekiston esa ushbu geosiyosiy jarayonlarning faol subyekti sifatida o'z salohiyati va imkoniyatlarini muntazam safarbar etmoqda. Bizningcha, O'zbekiston geosiyosatining nazariy va pragmatik asoslari istiqbolida mamlakat oldiga o'z geosiyosiy jozibadorligini kengroq targ'ib qilish kabi dolzarb maqsad va vazifalarni belgilab beradi.

Mavzu bo'yicha savollar:

1. Markaziy Osiyo atamasini birinchi bo'lib kim ilmiy muomalaga kiritgan?
2. Markaziy Osiyo, O'rta Osiyo, Katta Markaziy Osiyo atamalarining bir-biridan qanday farqlari bor?
3. "Katta o'yin" atamasini sharhlab bering.
4. "Yevroosiyo Bolqoni" nazariyasini sharhlab bering.
5. O'zbekistonning Markaziy Osiyo mintaqaviy integratsiyasini shakllantirish bo'yicha qanday tashabbuslarini bilasiz?
6. Tashqi siyosatda pragmatizm va konstruktivizm deganda nimani tushunasiz?
7. "Osiyo yuragi" deganda qaysi davlat nazarda tutiladi?

Mustaqil ishlar topshiriqlari:

1. Markaziy Osiyoning geosiyosiy talqini bo'yicha taqdimotlar tayyorlash.

2. "O'zbekiston geosiyosatida pragmatizm" mavzusida viderolik tayyorlash.

3. "Markaziy Osiyo geosiyosatida O'zbekiston diplomatiyasi" mavzusida analitik savollar tuzish.

O'ZBEKISTONNING MINTAQAVIY TASHKILOTLARDAGI NUFUZI

Reja:

1. O'zbekistonning Shanxay Hamkorlik Tashkilotidagi nufuzi.
2. O'zbekistonning Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashidagi roli.
3. O'zbekistonning Yevroosiyo Iqtisodiy Ittifoqi bilan hamkorlik jarayonlarining geosiyosiy jihatlari.

O'quv mashg'ulotining maqsadi: O'zbekistonning nufuzli mintaqaviy tashkilotlardagi roli va tashabbuslari haqida o'rganish.

Tayanch so'z va iboralar:

Shanxay beshligi, Shanxay hamkorlik tashkiloti, "ShHT-Afg'oniston" muloqot guruhi, Ipak yo'li, xalq diplomatiyasi, ko'p tomonlama diplomatiya, madaniy diplomatiya, Sharq taronalari, sivilizatsiyalararo muloqot, Turkiy tilli davlatlar, turkiy xalqlar, Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi, mintaqaviy integratsion jarayonlar.

O'zbekistonning Shanxay Hamkorlik Tashkilotidagi nufuzi

Bugungi kunda O'zbekiston jahonga keng yuz ochmoqda. Har qanday davlatning taraqqiyot omillaridan biri jahon maydonida muhim tashkilotlar doirasida o'z o'rnini topishi bilan boqliq. O'zbekiston mintaq va jahon mamlakatlari bilan faol aloqalar va o'zaro manfaatli hamkorlik jarayonlarini jadallashtirishda turli xil diplomatik mexanizmlarni amalga oshirib kelmoqda. Mamlakatimiz uchun juda muhim bo'lgan shunday tashkilotlardan biri Shanxay hamkorlik tashkiloti hisoblanadi. ShHTga a'zo mamlakatlarning xalqlar o'rtasidagi boy tarix va yaqin madaniy aloqalari tashkilot doirasidagi keng madaniy – gumanitar hamkorlikni oldindan belgilab beradi. Aynan shu ma'noda yuz yil oldin ShHT davlatlari makonini qadimiy Ipak yo'li yo'nalishlari bog'lab turganligini tilga olish o'rinlidir. Shuningdek, XXI asrga kelib Yevroosiyo mintaqasi mamlakatlari globallashuv sharoitida qadimiy an'analarni tiklagan holda iqtisodiy, madaniy hamda gumanitar aloqalarni yangicha rivojlantirishga hozir ekanliklarida chuqur ramziy ma'no bor. Jahonda yuz berayotgan ayrim siyosiy va iqtisodiy o'zgarishlar faqat davlatlararo hamkorlikni xalq diplomatiyasi tamoyillariga moslashtirishni taqozo etmoqda. O'zaro tushunishni mustahkamlash, ikki tomonlama hamkorlik hamda madaniyatlarni yaqinlashtirish ShHT makonidagi xalqlarning an'analari va odatlari to'g'risidagi axborot va bilimlarni tarqatish uchun mustahkam ijtimoiy asosni yaratgan holda madaniy – gumanitar sohadagi hamkorlik rivojlanish tomon yuksalib boruvchi moyillikka ega. O'zbekiston azal-azaldan ShHT makoni xalqlari bilan etnik, lisoniy, diniy va boshqa rishtalar orqali chambarchas bog'langan. Ayni shu aloqalarni bog'lovchi ko'prik vazifasini O'zbekiston zamini bajargan. Shu bois O'zbekiston tashqi siyosatining eng muhim yo'nalishlari ShHTga a'zo davlatlar bilan hamkorlikka asoslanadi. Shu sababli ushbu tashkilotda barcha sohalar bo'yicha O'zbekistonning rolini yanada oshirish imkoniyatlari dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

ShHT — tinchlik, xavfsizlik va barqarorlikni mustahkamlash, oʻzaro-iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish maqsadida tuzilgan davlatlararo xalqaro tashkilot. ShHTning shakllanishi 1992-yildan Xitoy bilan chegaradosh besh sobiq Ittifoq Respublikalarining oʻzaro chegaralarni aniqlash bilan bogʻliq muammolarni muhokama qilishdan boshlangan. Dastlab “Shanxay beshligi” deb nom olgan bu tashkilot 1996-yil Shanxayda, 1998-yil Olmaotada, 1999-yil Bishkekda besh davlat rahbarlarining sammiti chegaralarni mustahkamlash, chegara hududlarida qurolli kuchlarni qisqartirish kabi masalalarni kelishib, hal etishga qaratildi. 2000-yil iyulida Dushanbe sammitida Oʻzbekiston kuzatuvchi sifatida qatnashdi. 2001-yil 15-iyunda Shanxay sammitida tashkilotga oltinchi boʻlib Oʻzbekiston qoʻshildi. ShHTni tuzish toʻgʻrisidagi deklaratsiya eʼlon qilindi, “Terrorizm, separatizm va ekstremizmga qarshi kurash toʻgʻrisida Shanxay konvensiyasi” imzolandi. 2002-yil Sankt Peterburgda “Shanxay hamkorlik tashkiloti xartiyasi” qabul qilindi. Alohida qayd etish kerakki, ShHTda Xitoyning ulushi 20,6%, Rossiyaning ulushi 20,6%, Qozogʻistonning ulushi 17,6%, Oʻzbekistonning ulushi 14,6%, Qirgʻiziston 8,8%, Tojikistonniki 6%, Hindiston 5,9%, Pokiston 5,9%ni tashkil etadi. Hozirgi kunda ShHT yalpi ichki mahsuloti 15,24 trln. \$, yaʼni butun dunyo koʻrsatkichlarining 20,9 %ga teng boʻlgan. Tashkilot jahon maydonining 2/3 qismini, dunyo aholisining esa teng yarmini qamrab oladi. Qolaversa, Hindiston va Pokistonning tashkilotga toʻlaqonli aʼzo boʻlishi bilan tashkilotda yadroviy salohiyatga ega boʻlgan mamlakatlar soni 4 taga yetdi.

Xitoyning “Jinmen Jinbao” nashrida yozilishicha, Hindiston va Pokistonning ShHTga qoʻshilishi mintaqadagi vaziyatni barqarorlashtirishga xizmat qiladi. Qolaversa, mazkur yirik mamlakatlarning ShHT doirasida doimiy uchrashib turishi ikki mamlakat oʻrtasidagi munosabatlarni yaxshilashga imkon beradi. ShHTning kengayishi iqtisodiy jihatdan ham qator afzalliklarga ega. Bu tashkilot aʼzolariga Hindiston va Pokiston orqali dunyo bozorlariga chiqish hamda butun mintaqaning ulkan tranzit salohiyatini keng roʻyobga chiqarish

imkonini beradi. Ammo ikki geosiyosiy raqobat olib boradigan, boz ustiga yadroviy qurolga ega bo'lgan mamlakatlarning ShHT tarkibiga qo'shilishi bir qator muammolarni yuzaga chiqarish ehtimolini ham nazardan chetda qoldirib bo'lmaydi. Bu borada ShHT Nizomi qoidalariga og'ishmay amal qilish lozim bo'ladi.

ShHTga a'zo davlatlarning madaniy sohadagi hamkorligi tashkilotning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Bunday hamkorlik xalqlarni bir-biriga yaqinlashishiga olib keladi, bu esa o'z navbatida siyosiy hamda iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishiga yordam beradi. Shanxay hamkorlik tashkilotiga a'zo davlatlar qadimiy urf-odat va an'analirga, boy tarixga ega ekanligini inobatga olgan holda madaniy hamkorlik, shubhasiz, sivilizatsiyalar muloqoti rivojiga yo'l ochib beradi. Boshqacha qilib aytganda, madaniy hamkorlik xalqlarning birlashishini tezlashtirishga qaratilgan ijtimoiy katalizator vazifasini o'taydi.

2013-yilda XXR Davlat kengashi Bosh vaziri Li Kesyan ShHT doirasida ustuvor hamkorlikning 6 ta yo'nalishini belgilab bergan edi:

1. Xavfsizlik sohasida hamkorlikni rivojlantirish va ayniqsa, birinchi navbatda terrorizm va narkotrafikka qarshi kurash.

2. Avtomobil hamda temiryo'l transportini rivojlantirish.

3. Savdo-sotiq va investitsiyalarni rivojlanishini qo'llab-quvvatlash hamda bojxona tartiblarini yengillashtirish.

4. Iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish.

5. Ekologik va energetik hamkorlikni rivojlantirish.

6. Madaniy hamkorlikni rivojlantirish, jumladan, gumanitar almashinuvlarni kengaytirish¹.

XXR vakillarining fikriga ko'ra ShHTga a'zo davlatlarning madaniy hamkorligi, hamkorlikning asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanib, ishtirokchi davlatlarni boshqa sohalarda ham yaqindan hamkorlik asosida birlashishi uchun katalizator

¹ Гуманитарное сотрудничество в рамках ШОС // МИД Российской Федерации [Электронный ресурс]. – URL: http://www.mid.ru/sanhajskaa-organizacia-sotrudnicestva-sos/-/asset_publisher/0vP3hQoCPRg5/content/id/939176 (дата обращения: 28.02.2017).

bo'lib xizmat qiladi. Shanxay hamkorlik tashkilotiga a'zo davlatlar madaniyat vazirlarining uchrashuvlari mexanizmi 2002-yil aprel oyida Pekinda ishga tushirilgan va 2005-yildan buyon har yili o'tkazilib kelinmoqda. Ushbu uchrashuvlar doirasida a'zo mamlakatlar vazirlari "xalqlar va davlatlar madaniyatlarning xilma-xilligini hurmat qilish, turli sohalarda sivilizatsiyaning tinchlik yo'lida rivojlanishi, teng huquqlilik asosida almashinuv va boyitib borilishiga chaqiriladi.

Tomonlar "sivilizatsiyaning barcha shakllari tinch totuv yashashi kerak" va bir-birlaridan tenglik sharoitida o'rganishlari kerakligini ta'kidlaydi. Shanxay hamkorlik tashkilotiga a'zo davlatlar madaniyat vazirligining Ostona yig'ilishida qabul qilingan 2005-2006-yillarga mo'ljallangan ShHTga a'zo davlatlar o'rtasida ko'p tomonlama madaniy hamkorlik rejasining amalga oshirilishi ShHTga a'zo davlatlar madaniyatining xilma-xilligini saqlashga, o'zaro hurmat, xalqlarning urf-odatlarini to'g'risida bilimlarini keng tarqatishga xizmat qiladi¹.

Turli sivilizatsiyalarning mavjudligi, ularning madaniyatlarini o'zaro boyitish, shubhasiz, mintaqada do'stlik ruhini saqlash va mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi. 2006-yil aprel oyida Toshkentda bo'lib o'tgan Shanxay hamkorlik tashkilotiga a'zo davlatlar madaniyat vazirlarining uchrashuvida 2007-2008-yillarga mo'ljallangan ko'p tomonlama madaniy hamkorlik rejasi tasdiqlangan. Tojikiston Respublikasi Shanxay hamkorlik tashkiloti doirasida o'tkazilgan san'at festivallarining faol ishtirokchilaridan biri edi. Festivallar davlatlar va xalqlar o'rtasida do'stlik aloqalarini mustahkamlashga muhim hissa qo'shdi².

2007-yilda Beshkek shahrida bo'lib o'tgan ShHTga a'zo davlatlar rahbarlari sammiti doirasida a'zo davlatlar hukumatlari o'rtasida Bitim imzolandi. Bu madaniyat arboblarning o'zaro munosabatlarini sezilarli darajada

¹ Железняк, О.Н. Культурная политика на современном этапе / О.Н. Железняк // Страны наших дней. – № 2 (8), 2011. – М.: ИДВ РАН, 2011. – 168 с.

² Животовский, Г.Г. Дух Шанхая – это равноправие и доверия / Е.С. Сыроватская // Финансы. – 2008. – №6. – С.62–64.

faollashtirdi va madaniy tadbirlar sonini ko'paytirdi. Faol madaniy hamkorlik natijasida "Shanxay ruhi" atamasi xalqaro siyosiy lug'atda paydo bo'ldi¹.

"Shanxay ruhi" ShHT mamlakatlari o'rtasida madaniy va gumanitar hamkorlikni kengaytirishda ham muhim rol o'ynaydi. Mamlakatlarimiz o'rtasida siyosiy muloqot, siyosiy va iqtisodiy aloqalarni mustahkamlash bilan bir qatorda san'at va ta'lim sohalarida hamkorlikka alohida e'tibor qaratilmoqda. Sammitlarda ShHTga a'zo mamlakatlar san'at ustalari va kuzatuvchilarning gala-konsertlarini tashkil qilish an'anaga aylangan. ShHTga a'zo davlatlar madaniyat va ta'lim vazirlari o'rtasida muntazam ravishda har yili uchrashuvlar va san'at festivallari o'tkazilib kelinmoqda.

O'zbekiston hozirgi kunda ShHT taraqqiyoti va hamkorligining asosiy tashabbuskoriga aylanmoqda. Biz bu borada madaniy-gumanitar sohadagi ko'p tomonlama hamkorlik jarayonlarini alohida ko'rib chiqishimiz maqsadga muvofiq. Ayniqsa, O'zbekiston va ShHTning madaniy-gumanitar aloqalarida ko'p tomonlama diplomatiya asoslarini rivojlantirish manfaatlarimizga hamohangdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2017-yil 8-9-iyun kunlari bo'lib o'tgan ShHTning Ostona sammitida "ShHT markazlari — xalq diplomatiyasining doimiy faoliyat yurituvchi institutlarini ta'sis etish"² tashabbus ilgari surildi. ShHTning Sindao sammitida Prezidentimizning "O'zbekiston birgalikdagi sa'y-harakatlar bilan tamaddunlar chorrahasi — Samarqand shahrida «Ipak yo'li» turizm universitetini tashkil etish"³ taklifi esa O'zbekiston va ShHT o'rtasidagi madaniy-gumanitar aloqalarida diplomatik ko'priklar barpo etish imkoniyatlarini kengaytirdi. Mazkur tashabbuslar

¹Стратегия ШОС до 2025 года. — 2015 [Электронный ресурс]. — URL: <http://sco-russia.ru/load/1013640805.html> (дата обращения: 12.04.2017).

² ШХТнинг Ostona sammiti. <http://uza.uz/oz/politics/sh-tning-ostona-samiti-09-06-2017>

³ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Шанхай ҳамкорлик ташкилотига аъзо давлатлар раҳбарлари кенгашининг кенгайтирилган таркибдаги мажлисидаги нутқи. Циндао шаҳри, ХХР, 2018 йил 10 июнь. <http://uza.uz/oz/politics/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyeevning-shan-11-06-2018>

tashkilotning barcha a'zolari tomonidan qo'llab-quvvatlanib, bugungi kunda hayotga tatbiq etildi.

Diplomatiya faoliyatida zamonaviy modelning rivojlanishi uchun keng qamrovlilik yetakchi o'rin tutadi. Xalqaro munosabatlar tizimida uni harakatga keltiruvchi kuch esa, ko'p tomonlama kelishuvlar orqali muvozanatni saqlash bo'lgan. Ushbu model shakllanishining yorqin misoli sifatida 1648-yildagi Vestfal tinchlik shartnomasini ko'rsatish mumkin¹.

Muvozanat tamoyili doimo harakatdagi faoliyat sifatida talqin qilingan. Bunda gap bir tarafdin, buzilgan kuchlar muvozanatini ko'p tomonlama diplomatik forumlar chaqirib, muvozanatga erishish yo'llari to'g'risida tadbirlar tashkil qilish nazarda tutilsa, boshqa tarafdin, erishilgan muvozanatni saqlab qolish to'g'risidagi masala muhim o'rin egallaydi. Mavjud yoki kuchli tahdidning bir davlat yoki davlatlar guruhi tomonidan qaytarilishi turli ko'p tomonlama diplomatiyaning vazifasi bo'lgan. Mas'uliyat va davlatlar tengligiga tayanadigan xalqaro munosabatlar muvozanatlashgan tizimining tashkil qilinishi bugungi kunda ham ko'p tomonlama diplomatiyaning eng dolzarb vazifasi hisoblanadi.

O'zbekiston diplomatiyasining ustuvor yo'nalishlaridan biri global darajadagi barqarorlik va tinchlikni saqlash bo'yicha ko'p tomonlama xalqaro hamkorlikdir. Ayniqsa, so'nggi yillarda O'zbekiston e'tiborini Shanxay hamkorlik tashkiloti doirasida iqtisodiy, siyosiy, madaniy sohalarda ko'p tomonlama aloqalarni mustahkamlash, mintaqaviy ahamiyatga molik muammolarga yechim topishda yirik tuzilmalarning ishtirokini kengaytirishga yo'naltirilgan diplomatik faoliyat olib borishga qaratdi. Yana bir e'tiborga molik jihat shundaki, aynan O'zbekiston tashabbusi bilan "ShHT-Afg'oniston" muloqot guruhi faoliyati qayta tiklandi, tashkilotning ShHT makonida Yoshlar huquqlarini ta'minlashga qaratilgan huquqiy hujjatlari qabul qilingani ham mamlakatimizning tashkilotda nufuzi tobora o'sib borayotganidan dalolat beradi.

¹Zonova T.V. Diplomatiya: Modeli, formy, metody. [Diplomacy: Models, forms, methods.] – M.: Aspekt Press, 2013. – C.108.

O'zbekiston ko'p tomonlama hamkorlikning sezilarli istiqbollariga ega. ShHT bugungi kunda aynan shunday ko'p tomonlama tuzilmadir. O'zbekiston ushbu sharaflı vazifani amalga oshirishda faol rol o'ynashga tayyor¹. ShHTga, shuningdek, tinchlik va barqarorlikni mustahkamlashga, mintaqaviy va xalqaro xavfsizlikka bo'lgan tahdidlarga qarshi turishda sheriklikka, mintaqaning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashga yo'naltirilgan ko'p tomonlama mintaqaviy diplomatiya mexanizmi sifatida qarash lozim. O'zbekiston diplomatiyasi mazkur tashkilotning mexanizmini takomillashtirishda faol ishtirok etmoqda.

O'zbekistonning Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashidagi roli

Biz yuqoridagi mavzularda har bir davlatning geosiyosiy salohiyati va mavqeyi uning nufuzli tashkilotlardagi faoliyati va roli bilan belgilanishi haqida qayd etgan edik. Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashi (TTDHK) shunday nufuzli tashkilotlar sirasiga kiradi. TTDHKning nufuzi tahlili haqida so'z yuritganda, quyidagilarga alohida e'tibor qaratish zarur:

Birinchidan, Turkiy kengash dunyo bo'ylab 300 mln.dan ortiq aholiga, 4,5 mln. km² maydon, 2 trln. dollarga yaqin iqtisodiy salohiyatga ega.

Ikkinchidan, 20 dan ortiq turli sohalarda ko'p qirrali hamkorlikni amalga oshirishga mo'ljallangan platforma.

Uchinchidan, ushbu tashkilot Markaziy Osiyo davlatlarining muqobil transport koridorlariga to'laonli integratsiyalashuvi jahon bozorlariga chiqishida nihoyatda muhim rol o'ynaydi.

To'rtinchidan, tashkilot kun tartibida a'zo mamlakatlar o'rtasida hech qanday siyosiy muammo mavjud emas. Bu esa a'zo davlatlar o'rtasida o'zaro ishonch muhitining rivojlanishidan dalolat beradi.

Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashi turk dunyosi mamlakatlari muloqoti va hamkorligini rivojlantirish uchun

¹Ekonomicheskaya diplomatiya v usloviyakh globalizatsii. [Economic diplomacy in the context of globalization]—M.: MGIMO, MVD RF, 2009. —C.165.

tashkil etilgan xalqaro platformadir. Turkiy tilli davlatlar hamkorlik Kengashi xalqaro hukumatlararo tashkilot bo'lib, faoliyatining asosi turkiy tilli mamlakatlar o'rtasida do'stlik va qo'shnichilikni mustahkamlash, hududda va jahonda tinchlikni saqlash, xavfsizlik va o'zaro ishonchni mustahkamlashga qaratilgan.

2009-yilning 3-oktabrida Ozarboyjonning Naxichevan shahrida Turkiya, Ozarbayjon, Qozog'iston va Qirg'izistondan iborat to'rt davlat ishtirokida Turkiyzabon davlatlarning hamkorlik kengashi tuzilgani e'lon qilingan bo'lib, uning faoliyati prinsiplari 2016-yil 16-sentabrdagi Istanbul deklaratsiyasida e'lon qilingan.

Birinchi bosqichda Turk Kengashiga Turkiya, Ozarbayjon, Qozog'iston va Qirg'iziston a'zo bo'lib kirgan. Vengriya tashkilotda kuzatuvchi mamlakat sanaladi.

Ushbu kelishuvdan keyin turkiy tilli davlatlar manfaatini birlashtiruvchi jiddiy tashkilot paydo bo'ldi. Endi bu xalqaro tashkilotga aylandi.

Dastlab, 1992-yilda Turkiy tilli davlatlar sammiti o'tkazila boshlangan edi. Kengashni tashkil etish tashabbuskori Qozog'istonning birinchi Prezidenti Nursulton Nazarboyev hisoblanadi. Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashi sammiti 2010-yildan boshlab 2015-yilgacha har yili o'tkazilib kelingan. 2015-yilda sammitni o'tkazish navbati Qirg'izistonga kelgan edi. Biroq bu davrga kelib ba'zi sabablarga ko'ra bu sammit o'tkazilmay qoldi.

Tashkilotning o'z kotibiyati va hamkorlikka oid kerakli hujjatlari borigini e'tirof etish kerak. Ushbu kengash siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniyat va sportga oid barcha masalada hamkorlik qilishni nazarda tutadi. Tashkilot tarkibi turkiy tilli davlatlarning rahbarlari kengashi, Tashqi ishlar vazirlari kengashi, Katta mansabdor shaxslari qo'mitasi, Oqsoqollari kengashi va Bokudagi Parlament assambleyasi, Nur-Sultonda Turk akademiyasi, Anqarada turk madaniyati xalqaro tashkiloti (TURKSOY) va Kotibiyatdan tashkil topgan. Kotibiyat Turkiya Respublikasining Istanbul shahrida joylashgan.

Turk kengashi yaqinda Budapeshtda o'z vakolatxonasini ochishni rejalashtirayapti. 2019-yilning may oyida esa qo'shma turk savdo-sanoat palatasi ta'sis etildi. Yaqin vaqtlarda Turk investitsiya forumi o'z faoliyatini boshlashi kutilmoqda.

Turkiya Respublikasi Prezidenti Rajab Toyyib Erdo'g'on 2018-yilning 29-30 aprel-1-may kunlari O'zbekistonga amalga oshirgan rasmiy tashrifi davomida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevga Turkiy tilli davlatlar hamkorlik Kengashiga a'zo bo'lish va sentabr oyida Qirg'izistonning Cho'lpon ota shahrida o'tadigan navbatdagi sammitda ishtirok etishni taklif qilgan edi.

2018-yilning 3-sentabr kuni Qirg'izistonning Cho'lponota shahrida bo'lib o'tgan sammitda Prezident Shavkat Mirziyoyev birinchi marta O'zbekiston nomidan faxriy mehmon sifatida ishtirok etdi.

Dunyodagi turkiy tilli 6 davlatdan biri bo'lgan O'zbekiston 2018-yilgacha Turkiy tilli davlatlar hamkorligi kengashi sammitlaridan birortasida ishtirok etgan emas.

O'zbekiston rahbari sammitda so'zlagan nutqida xalqlarning o'xshash til, mushtarak ma'naviy qadriyatlar va hamkorlik rishtalari bir-biriga bog'lab kelayotgani, bugungi kunda Kengashning siyosiy kun tartibida hech bir muammo yoki kelishmovchilik mavjud emasligini qayd etdi.

"Mamlakatlarimiz dolzarb xalqaro va mintaqaviy masalalarda o'zaro mos yoki yaqin qarash va yondashuvlarga amal qilib kelmoqda. Ayni vaqtda xalqlarimizning hayotiy manfaatlariga to'la javob beradigan iqtisodiyot, investitsiya, innovatsiya, transport va kommunikatsiya, turizm, ilm-fan va ta'lim kabi sohalarida o'zaro hamkorlik faol rivojlanmoqda", dedi Shavkat Mirziyoyev. Darhaqiqat, mamlakatimiz Prezidentining siyosiy irodasi, ochiq va amaliy tashqi siyosati natijasida Markaziy Osiyoda vaziyat o'zgardi, mintaqa davlatlari o'rtasida do'stona aloqalar mustahkamlandi. O'zbekiston rahbarining Qozog'iston, Qirg'iziston, Turkiya, Ozarbayjon prezidentlari bilan uchrashuv va muloqotlari samarasida turli sohalaridagi hamkorlik yanada rivojlandi. O'zbekistonning Turkiy kengashga a'zo davlatlar bilan o'zaro

savdo hajmi oxirgi bir yilda 40 foizdan ziyod oshdi. O'zbekiston Prezidenti bu ko'rsatkichlardan ancha yuqori marralarga erishish mumkinligini ta'kidlab, Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashi doirasidagi aloqalarni rivojlantirishga doir muhim yo'nalishlarga to'xtalib o'tdi. Bular eng avvalo, savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy hamkorlikni kengaytirish, yetakchi sanoat korxonalari, bank-moliya institutlari va tadbirkorlik tuzilmalari o'rtasida kooperatsiya aloqalarini kuchaytirishdan iborat. Transport yo'nalishlarining integratsiyalashgan tarmog'ini yaratish, dunyo va mintaqadagi asosiy bozorlarga chiqish masalasi ham manfaatlarimizga mos keladi.

Mamlakatlarni innovatsion asosda rivojlantirish, bu sohaga mas'ul bo'lgan idoralar, ilmiy-tadqiqot markazlari va venchur kompaniyalar o'rtasida hamkorlikni kengaytirish ham eng zarur yo'nalishlardan.

Turizmni rivojlantirish bo'yicha ulkan imkoniyatlar, madaniy-gumanitar aloqalar mustahkamligi ham xalqlarni yanada yaqinlashtirishini ta'kidlash o'rinli. Shu nuqtayi nazardan O'zbekiston Prezidentining Cho'lponotadagi uchrashuvda qadimiy Xivani tashkilot poytaxtiga aylantirish taklifi e'tiborga molik. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, O'zbekiston Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashiga a'zo mamlakatlar, avvalo, qo'shni davlatlar bilan hamkorlikni izchil rivojlantirayotgani, ushbu xalqaro tuzilmaning kelajagiga katta umid va ishonch bilan qarayotganidan dalolat beradi.

"Turkiy kengash doirasida o'zaro samarali hamkorlikni yanada rivojlantirishdan manfaatdormiz. Hozirgi bosqichda uning faoliyatida mamlakatimiz uchun amaliy jihatdan qiziqish uyg'otadigan yo'nalishlar bo'yicha ishtirok etishga tayyormiz", degan edi Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev. Qirg'izistonning 2017-yil kuzida saylangan prezidenti Soronbay Jeenbekov Turkiy tilli davlatlar sammitini 2018-yilning 3-sentabrida o'tkazish to'g'risidagi farmonni 21-iyun kuni imzolagan. Mazkur sammitning o'tkazilishi o'shanda Qirg'iziston uchun Turkiya va Qozog'iston bilan aloqalarning yaxshilanayotgani anglatgan edi. Qolaversa, o'shanda

Qirg'iziston prezidenti Sooronbay Jeenbekov O'zbekistonning Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashida ishtirok etish niyatini yuqori baholagan edi. Qirg'iziston sobiq prezidentining so'zlariga ko'ra bu qadam Turkiy kengashning kengayishi va uning xalqaro maydondagi nufuzining oshishi uchun yaxshi sharoit yaratadi, tashkilotga yangi nafas beradi hamda ko'plab yangilanishlar manbayiga aylanadi. U mazkur sammit turkiy tilli davlatlarning ko'p asrlik do'stligini yanada yuqori bosqichga ko'tarishiga va uning tarixida yangi sahifa ochishiga ishonch bildirdi. Unga ko'ra O'zbekistonning Turkiy tilli davlatlar kengashiga qo'shilishi Xitoy-Qirg'iziston-O'zbekiston temir yo'li qurilishining tezroq boshlanishiga turtki bo'ladi.

Boshqa a'zo davlatlar ham O'zbekistonning turkiy tilli davlatlar Hamkorlik Kengashi (Turk kengashi)ga a'zo bo'lib kirishini qo'llab-quvvatladi. Ular qatorida Qozog'iston, Turkiya va Ozarbayjon davlatlari bor. Ozarbayjon tashqi ishlar vazirligi O'zbekistonning 2019-yil 14-sentabrga to'g'ri kelgan Naxichevan kelishuvi ratifikatsiyasining yakunlashi turkiy tilli davlatlar birdamligini mustahkamlashda navbatdagi muhim voqea bo'lganini e'tirof etdi. "O'zbekiston Respublikasining Turk Kengashida o'zini taqdim etish qarori bizning ko'p asrlik chuqur ildizlarga asoslangan madaniy va tarixiy qardoshligimizni yanada rivojlantirish, zamon talablariga muvofiq turkiy tilli davlatlar manfaati, farovonligi nuqtayi nazaridan muhim ahamiyatga ega. O'zbekistonning Turk Kengashiga qo'shilishi haqidagi tarixiy qarorning Naxichevan kelishuvi imzolanishining 10 yillik sanasiga to'g'ri kelishida Ozarbayjon Respublikasi uchun alohida ramziy ma'no bor. 2019-yilning 15-oktabr kuni Bokuda bo'lib o'tadigan Turk Kengashining 7-sammitida Prezident Shavkat Mirziyoyev boshchiligidagi qardosh O'zbekiston delegatsiyasini qarshi olish ko'ngilli xushxabar va ulkan sharafdir", deyiladi Ozarbayjon Tashqi ishlar vazirligining bayonotida¹.

¹ Batafsil qarang: Туркий тилли давлатлар ҳамкорлик кенгаши – ўзаро ишончга яна бир қадам. <https://uza.uz/uz/posts/turkiy-tilli-davlatlar-amkorlik-kengashi-zaro-ishonchga-yana-17-09-2019>

TTDHK faoliyati tahlili va unga a'zo mamlakatlar salohiyati shuni ko'rsatmoqdaki, mazkur yo'nalishlar O'zbekiston uchun muhim iqtisodiy dividend(foйда) keltiradi. Bular nimalarda ko'rinadi?

Birinchidan, Kengashda savdo-iqtisodiy xarakterdagi masalalarni birgalikda hal etish uchun turkiy tilli davlatlar imkoniyatlarini birlashtirish bo'yicha katta salohiyat mavjud.

Bu umumiy 115 mln. kishilik aholi va 1,1 trln. dollardan ziyod yalpi ichki mahsulotga ega Kengash miqyosi o'zbek mahsulotlari eksporti uchun istiqbolli bozor ekanligidan dalolat beradi.

Ayniqsa, buni oxirgi yillarda a'zo davlatlar o'rtasidagi savdo-iqtisodiy hamkorlik TTDHK kun tartibida ustuvor ahamiyat kasb etib borayotganidan ham bilsa bo'ladi. Jumladan, uning tuzilmasida Ishbilarmonlik Kengashi faoliyat yuritmoqda. Joriy yilda esa Istanbulda Savdo-sanoat palatasi tuzildi.

Shularga hamohang tarzda Kengash mamlakatlari o'rtasidagi tovar aylanmasi 2018-yilda 2015-yilga nisbatan 29 foiz ortib, 7 mlrd. dollarni tashkil etdi. 2016-yildan buyon yurtimizning tashkilotga a'zo davlatlar bilan o'zaro mahsulot ayirboshlashi esa 40 foiz o'sdi. TTDHK ekspertlarining baholashlaricha, O'zbekistonning Kengashga qo'shilishi unga a'zo mamlakatlar o'rtasidagi tovar aylanmasini yiliga 12 mlrd. dollarga yetkazish imkoniyatini berar ekan.

Ikkinchidan, TTDHK mamlakatlarining tranzit salohiyati O'zbekistonga Yevropa bozorlariga chiqish imkonini beradi. Binobarin, Kengash ishtirokchilari bilan hamkorlikda "Boku-Tbilisi-Kars" ("BTK") temir yo'li bilan bog'liq Transkaspiy transport yo'lagini rivojlantirishga e'tibor qaratilyapti. Mamlakatimizning mazkur loyihaga qo'shilishi Yevropa davlatlariga yuk tranzitini tashkil etish bo'yicha ishlarni faollashtirishga xizmat qiladi. Bu "Toshkent- Turkmanboshi porti-Axalkalaki-Kars" yo'nalishi bo'yicha Osiyoni Yevropa bilan bog'lovchi "Marmaray" tunneliga chiqish deganidir. Shunday ekan, Kengashga a'zo davlatlar bilan transport-kommunikatsiya sohasida hamkorlik qilish respublikamizning

transport yo'llarini diversifikatsiyalash va savdo-iqtisodiy sheriklar doirasini kengaytirish bo'yicha tashqi iqtisodiy maqsadlariga mos keladi. Qolaversa, istiqbolda "Xitoy-Qirg'iziston-O'zbekiston" va uni "BTK" bilan bog'lash Chin o'lkasidan Yevropagacha bo'lgan tarixiy Buyuk Ipak yo'lini tiklashda muhim hissaga aylanadi. Zero, bu yo'l qachonlardir aynan turkiy tilli yurtlar hududlaridan o'tib, xalqlar o'rtasidagi savdo-iqtisodiy va madaniy-ma'naviy rishtalarni rivojlantirishga xizmat qilgan. Transport loyihalarini yo'lga qo'yish samaradorligini oshirish maqsadida tashkilot doirasida muntazam ravishda transport vazirliklari va bojxona idoralari xodimlari o'rtasida uchrashuvlar o'tkazilib boriladi.

Uchinchidan, O'zbekistonning 2018-yilda ishga tushirilgan "Zamonaviy Ipak yo'li" qo'shma turistik loyihasida faol qatnashuvi yurtimiz sayyohlik imijini Janubiy Kavkaz va Yaqin Sharq davlatlarida ilgari surish, shuningdek, diyorimizga keladigan sayyohlar oqimini ko'paytirishga yordam beradi. Bugungi kunda ushbu dastur doirasida tomonlar yagona turistik vizani joriy etish imkoniyatini ko'rib chiqishyapti. Bu borada ayniqsa, ziyorat turizmi jadal rivojlanishi kutilmoqda. Gap shundaki, Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra 2018-yilda musulmon mamlakatlaridan yurtimizga kelgan sayyohlar orasida turklar birinchi o'rinni(41,2 ming) egallagan. Bundan tashqari joriy yil yakuniga kelib "Boku-Tbilisi-Kars" temir yo'li bo'ylab yo'lovchi tashishni ham tashkil etish rejalashtirilmoqda. Bunday keng ko'lamli faoliyat natijasida mintaqaviy turizm ravnaq topadi. Istiqbolda bu O'zbekiston uchun ham katta imkoniyatlar baxsh etadi. Shu o'rinda yana shuni ta'kidlab o'tish lozimki, ushbu sammit doirasida Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning kiritgan 2020-yilda "Xiva shahriga turkiy tilli davlatlar madaniyat markazi" degan maqomni berish taklifi to'liq qo'llab- quvvatlandi va amaliy jihatdan kuchga kirdi. Bu degani Tashkilot doirasidagi madaniy tadbirlar kelasi yili Xivada bo'lib o'tadi va bu hodisa ko'hna va qadimiy shaharning jahonda turistik jozibasini kengroq namoyon bo'lishiga yana bir turtki beradi. Umuman olganda

O'zbekistonning TTDHK faoliyatidagi ishtiroki xalqimizning ijtimoiy-iqtisodiy farovonligini yuksaltirishga qaratilgan bo'lib, davlatimiz rahbarining mamlakat tub manfaatlarini turli tashkilotlar doirasida ilgari surish yo'lidagi qat'iy intilishini tasdiqlaydi. Ayni chog'da O'zbekistonning Kengashga qo'shilishini Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan respublikamizni butun dunyoga ochiqqligini ta'minlash yo'lida olib borilayotgan faol tashqi siyosatining yana bir amaliy ifodasi sifatida baholash mumkin. Bu Markaziy Osiyoda qulay mintaqaviy muhit va yaqin mamlakatlar bilan konstruktiv muloqot hamda o'zaro manfaatli hamkorlikni yo'lga qo'yish hisobiga O'zbekiston atrofida barqarorlik kamarini yaratishga qaratilgan yaxshi qo'shnihilik siyosatining mantiqiy davomidir¹.

Umuman TTDHK singari barcha tomonlar uchun birdek manfaatli bo'lgan tashkilotlar faoliyatida O'zbekistonning roli va nufuzini mustahkamlash O'zbekiston tashqi siyosatining ustuvor vazifalaridandir. Shu nuqtayi nazardan mazkur tashkilot doirasidagi konstruktiv va pragmatik tashqi siyosiy tashabbuslarni amalga oshirish mamlakatimiz geosiyosiy salohiyati yuksalishida muhim o'rin egallaydi.

O'zbekistonning Yevroosiyo Iqtisodiy Ittifoqi bilan hamkorlik jarayonlarining geosiyosiy jihatlarini

2020-yilda O'zbekiston YIIga kuzatuvchi davlat sifatida qabul qilindi. Mazkur tashkilot a'zo davlatlari bilan hamkorlik jarayonlari davom etmoqda. Turli soha mutaxassislari mazkur tashkilotga O'zbekistonning a'zo bo'lishi xususida turli xil qarashlarni ilgari surmoqda. Ba'zi iqtisodiy tahlilchilar tashkilotga a'zo bo'lish O'zbekiston iqtisodiyoti uchun manfaatli, deb hisoblasa, ba'zilari mamlakat iqtisodiyoti hali bunga tayyor emas, degan fikrda. Bundan tashqari, siyosatshunoslar mazkur tashkilot asosan siyosiy xususiyatga ega ekanligini ta'kidlashmoqda.

¹ Qarang: Каримов А. Ўзбекистон – Туркий тилли давлатлар кенгаши учун янги нафас - Халқ сўзи <https://xs.uz/uzkr/post/ozbekiston-turkij-tilli-davlatlar-kengashi-uchun-yangi-nafas>

2014-yil 29-mayda Ostona shahrida imzolangan “Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi haqida”gi Shartnomaning 4-moddasida uni tuzishning asosiy maqsadlari sifatida a’zo-davlatlar aholisining turmush darajasini oshirish maqsadida ular iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish uchun sharoitlar yaratish, tashkilot doirasida tovarlar, xizmatlar, kapital va mehnat resurslarining yagona bozorini shakllantirishga intilish, global iqtisodiyot sharoitida milliy iqtisodiyotlarni har taraflama modernizatsiya, kooperatsiya qilish va ular raqobatbardoshligini oshirish kabilar belgilangan. Demak, bu O’zbekistonning yangi iqtisodiy siyosatining asoslarini belgilab bergan Harakatlar strategiyasi maqsadlariga mos keladi.

Ayni paytda YII a’zolari — Rossiya Federatsiyasi, Belarus Respublikasi, Qozog’iston, Qirg’iziston va Armaniston davlatlarining umumiy maydoni 20,3 million kvadrat kilometrni tashkil etadi, aholisi 186 million kishi, YIM hajmi 1,9 trillion AQSh dollariga teng. Ko‘rinib turibdiki, YII — hajmi jihatidan juda katta bozor va bu bozorning teng huquqli a’zosi bo‘lish O‘zbekistonga ulkan imkoniyatlar yaratib beradi.

Iqtisod fanlari doktori, professor O.Olimjonov ushbu tashkilotga a’zo bo‘lishda quyidagilarni ta’kidlaydi: “Markaziy Osiyo davlatlari iqtisodiyoti asrlar mobaynida turli omillar ta’siri ostida biri-birini to‘ldirib turadigan yagona hududiy kompleks holida shakllangan. SSSR parchalangunga qadar Markaziy Osiyo davlatlari yagona hududiy kompleks sifatida saqlanib turgan. 1992-2016-yillar mobaynida beshta davlatning iqtisodiy aloqalari susaydi, o‘rtada sun’iy to‘siqlar paydo bo‘ldi. Bu davlatlarning hammasiga salbiy ta’sir ko‘rsatdi. Prezidentimiz Shaykat Mirziyoyev tashabbusi bilan tashqi siyosat butkul o‘zgartirilib, hamma davlatlar, ayniqsa, qo‘shni mamlakatlar bilan aloqalar kengaytirilgani mintaqada davlatlari iqtisodiyotiga sezilarli darajada ijobiy ta’sir ko‘rsata boshladi. Xususan, 2016-2019-yillarda YII davlatlari bilan hamkorlikning kuchayishi yirik investitsiya loyihalarini amalga oshirish, hududiy klasterlar, sanoat va savdo zonalarini tashkil etishda mintaqalararo hamkorlikni rivojlantirish imkoniyatini yanada kengaytiradi, tuman hamda shaharlarni industrial

rivojlantirish maqsadida hududlarga chet el investitsiyalarini jalb qilish imkoniyatini oshiradi. Ittifoq doirasida tovarlarning boj to'lovlarisiz olib o'tilishi, davlatlarning ichki bozorlariga mahalliy tovarlarning hech qanday to'siqlarsiz kirib borishi, bojxona idoralari faoliyatini tartibga solishning umumiy va mukammal tizimini yaratish, kapital harakati erkinligini ta'minlash imkoniyatlarini yaxshilaydi. Bu iqtisodiy aloqalar kuchayishining ijobiy tomonlari edi. Shu bilan birga, uning ayrim salbiy jihatlari ham mavjud. Bular —mamlakatimizda mahsulotlari yuqori narxga ega bo'lgan korxonalar faoliyatiga salbiy ta'sirlar bo'lishi, ichki bozorda import mahsulotlari hajmining ko'payishi, ayrim tovarlar bozorida raqobatning ortishi, hozir turlicha bo'lgan texnik tartibga solish va standartlarni bir xil qilish bilan bog'liq muammolar paydo bo'lishi, tayyor sanoat tovarlarini ishlab chiqarish bo'yicha tumanlararo tafovut ortishi va b.

VII doirasida yagona elektr energiyasi bozorini yaratish va shu yo'l orqali barcha a'zo davlatlarni nisbatan arzon elektr energiyasi bilan ta'minlash, suv resurslaridan oqilona foydalanishda bir yechimga kelish mumkin. Bular iqtisodiy o'sishga ijobiy ta'sir qiladi.

O'zbekiston ittifoqqa a'zo mamlakatlar ichida mehnat resurslari soni bo'yicha Rossiyadan keyin 2-o'rinni egallaydi. Bu esa O'zbekistonning mehnat resurslariga boyligini, mehnat salohiyati yuqoriligini ko'rsatadi. Masalaga shu jihatdan yondashilsa, ittifoqqa a'zo bo'lish mehnat munosabatlari masalasida ko'plab ijobiy natijalarni beradi. Bunga qo'shimcha qilib aytish mumkinki, siyosiy va iqtisodiy islohotlar, bozor iqtisodiyoti, iqtisodiy faoliyatni tashkil etish, xususiylashtirish konsepsiyalari hamda dasturlarini yaratish va ularni amaliyotga joriy etishda VII davlatlari bizdan ancha oldinga o'tib ketgan. Shu bois mazkur tuzilmaga a'zo bo'lib kirsak, biz ularning bu boradagi tajribasidan ham samarali foydalanishimiz mumkin. Mamlakatimizning Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqiga kirishining ayrim salbiy tomonlari mavjud bo'lsa-da, ijobiy jihatlari ko'p va salmoqli hamda ular O'zbekistonning manfaatlariga mos keladi. Hamma gap ushbu tashkilotga kirish uchun puxta

tayyorgarlik ko'rishga bog'liq. Ana shunda bu tadbir xalqimizning manfaatlariga xizmat qiladi va mamlakatimiz iqtisodiyoti yanada o'sishiga yordam beradi"¹.

Bizningcha, tashkilotga a'zo bo'lish masalasi O'zbekistonning milliy manfaatlari va tashqi siyosatida ko'zda tutilgan ustuvor tamoyillarga asosan amalga oshirilishi lozim. Bu tashkilotga O'zbekistonning jalb qilinishi bilan bog'liq muhokamalar hattoki Jahon savdo tashkiloti (JST) darajasida e'tibor qaratilganini ham unutmash lozim. JST Bosh direktori O'zbekistonning YIIga kirishi JSTga a'zo bo'lishini murakkablashtirish mumkinligi bilan bog'liq fikrlari mazkur masalaning siyosiy tus olganidan darak beradi. O'z navbatida, Markaziy Osiyodagi kuchlar muvozanatida O'zbekiston hal etuvchi rol o'ynaydi. Boshqacha aytganda, O'zbekistonning YIIga a'zo bo'lishi geosiyosiy xususiyatga ega bo'lib, mamlakatimiz tashqi siyosatidagi "tashqi kuchlar muvozanati" yondashuvining buzilishiga olib keladi. Shu nuqtayi nazardan tashkilotda kuzatuvchi maqomida bo'lish diplomatik jihatdan eng maqbul yo'l hisoblanadi.

Mavzu bo'yicha savollar:

1. ShHTning zamonaviy xalqaro munosabatlardagi o'rni qanday?

2. O'zbekistonning ShHTdagi qanday tashabbuslarini bilasiz?

3. O'zbekistonning so'nggi yillarda ShHT doirasidagi raisligi haqida qanday ma'lumotlarga egasiz?

4. TTDKning zamonaviy xalqaro munosabatlardagi o'rni qanday?

5. O'zbekiston TTDK a'zo bo'lishida qanday manfaatlarni ko'zlaydi?

6. YIIga O'zbekistonning kuzatuvchi maqomini olishini qanday baholaysiz?

¹ Олимжонов О. Евроосиё иқтисодий иттифоқи: бу борадаги фикр-мулоҳазалар бўйича хулоса ясашга шошилмайлик - Халқ сўзи <https://xs.uz/uzkr/post/evroosiyo-iqtisodiy-ittifoqi-bu-boradagi-fikr-mulohazalar-bojicha-khulosa-yasashga-shoshilmajlik>

Mustaqil ishlar topshiriqlari:

1. O'zbekistonning ShHT va YII bilan hamkorligi bo'yicha qiyosiy tahliliy materiallar tayyorlash.
2. O'zbekistonning TTDKdagi faoliyati va tashabbuslari bo'yicha infografika tayyorlash.
3. YIIga O'zbekistonning a'zo bo'lishini ijobiy va salbiy jihatlari xususida ilmiy maqolalar yozish.

O'ZBEKISTON GEOSIYOSATIDA TRANSAFG'ON LOYIHALARI

Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosatidagi o'zgarishlar, jumladan, Transafg'on loyihasi haqida qisqacha ma'lumot beriladi. Maqolada Transafg'on loyihasi haqida O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning fikrlari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosatidagi o'zgarishlar haqida ma'lumot beriladi. Maqolada Transafg'on loyihasi haqida O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning fikrlari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosatidagi o'zgarishlar haqida ma'lumot beriladi. Maqolada Transafg'on loyihasi haqida O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning fikrlari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosatidagi o'zgarishlar haqida ma'lumot beriladi.

Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosatidagi o'zgarishlar, jumladan, Transafg'on loyihasi haqida qisqacha ma'lumot beriladi. Maqolada Transafg'on loyihasi haqida O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning fikrlari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosatidagi o'zgarishlar haqida ma'lumot beriladi.

Reja:

1. Transafg'on koridorining geosiyosiy jihatlari.
2. "Mozori Sharif-Hirot" temir yo'l loyihasi.
3. "Mozori Sharif-Kobul-Peshovar" temir yo'l loyihasi.
4. "Surxon-Puli Xumri" elektr energiyasi loyihasi.

O'quv mashg'ulotining maqsadi: Transafg'on koridori va loyihalarining geosiyosiy jihatlari va mazkur loyihalarni amalga oshirishda O'zbekistonning sa'y-harakatlari haqida o'rganish.

Tayanch so'z va iboralar:

Transafg'on koridori, "Hayraton-Mozori Sharif", "Mozori Sharif-Hirot", "Mozori Sharif-Kobul-Peshovar", "OBOR", TAPI, "Surxon-Puli Xumri", "Xalqaro Shimol-Janub transport koridori" (INSTC).

Jahon siyosatining har bir davrida transport yo'llari katta ahamiyat kasb etib kelgan. Transport va tranzit yo'llariga egalik qilish davlatning taraqqiyot omillarini, mintaqadagi yetakchilik rolini, ba'zan esa, mintaqaga ta'siri darajasini belgilab bergan. O'zbekiston va Afg'oniston o'rtasidagi munosabatlarning yangi va jadal bosqichga ko'tarilishi, mintaqaviy siyosatdagi ochiqlik, yaxshi qo'shniçilik va o'zaro hamkorlik prinsiplariga Afg'onistonning ham jalb etilishi mintaqada strategik iqtisodiy loyihalarga qiziqishning tobora o'sib borishiga zamin yaratmoqda. Ayniqsa, O'zbekiston va Afg'oniston o'rtasidagi savdo-iqtisodiy va transport munosabatlarida yangi yondashuvlarning hayotga tatbiq etilishi sezilarli o'zgarishlarni boshlab bermoqda. Bunday o'zgarishlar harbiy-siyosiy vaziyat sababli xalqaro savdo tizimidan ajralib qolgan Afg'onistonni keng miqyosda mintaqaviy iqtisodiy loyihalarga jalb etishni taqozo etadi. Qolaversa, Afg'onistonning ishtirokisiz Markaziy Osiyo mintaqasining savdo-iqtisodiy va tranzit potentsialini to'liq rivojlantirib bo'lmaydi. Mintaqaning taraqqiyot va strategik markaz sifatida rivojlanish omillari Afg'onistonda o'z mintaqaviy loyihalarini amalda ro'yobga chiqarishi bilan chambarchas bog'liq. Mazkur qarashning asosiy tashabbuskori sifatida O'zbekiston har tomonlama yetakchi o'rin va nufuzga ega. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev "Markaziy Osiyo: yagona tarix va umumiy kelajak, barqaror rivojlanish va taraqqiyot yo'lidagi hamkorlik" mavzusidagi xalqaro konferensiyada bu xususida shunday degan edi: "Birinchil galdagi vazifalardan biri Afg'onistonning mintaqaviy iqtisodiy jarayonlarga qo'shilishiga har tomonlama ko'maklashishdan iborat. Bu dunyo hamjamiyatining Afg'onistonda tinç taraqqiyotni ta'minlashga qaratilgan sa'y-harakatlariga g'oyat muhim hissa bo'lib qo'shiladi"¹. Darhaqiqat, bugungi kunda har qanday mintaqaviy ahamiyatga molik masalalar muhokamasida

¹ Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиғи бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. – Т.: Ўзбекистон, 2018. – Б.269.

Afg'oniston iqtisodiy tiklanishi masalasi dolzarb o'rin egallaydi. Shu bois O'zbekiston tomonidan mintaqaviy transport loyihalarini amalga oshirish bo'yicha amaliy siyosiy qadamlar tashlanmoqda.

XXI asrda arzon va qulay hisoblangan dengiz yo'llariga chiqish Markaziy Osiyo mintaqasi davlatlarining istiqboldagi ustuvor vazifasi hisoblanadi. Osiyo taraqqiyot bankining 2018-yildagi hisob-kitoblariga ko'ra Markaziy Osiyo yalpi ichki mahsulotining mintaqaviy o'sishi Osiyo mintaqalari orasida eng past ko'rsatkich, ya'ni atigi 4,1% bilan siljimoqda. Bu ko'rsatkich 2015-yilda 3,1%, 2016-yilda 2,7%, 2017-yilda 4,3%ni tashkil etgan¹. Mutaxassislar ushbu baholash kelgusi yillarda ham o'zgarmasligini taxmin qilishmoqda. Masalan, Jahon bankining 2020-yil global iqtisodiy o'sish istiqbollariiga bag'ishlangan hisobotiga ko'ra Markaziy Osiyodagi iqtisodiy o'sish 2019-yilda 4,5%, 2020-yil 4,4%, 2021-yil 4,6% va 2022-yilda 4,5%ni tashkil etadi². Bu hisobotlar Markaziy Osiyodagi integratsiya jarayonlari darajasining geografik yopiqligi bilan aks etgan ko'rinishidir. Shu bois mintaqaning kelajagi uning yaqin dengiz portlariga chiqishi va shu asnoda turli transport koridorlarini amaliyotga qay darajada joriy etilishi bilan chambarchas bog'liqdir. O'z navbatida, mintaqaning joylashuv nuqtasi undan o'tadigan transport koridorlarining geosiyosiy xususiyatini o'zida namoyon etishi bilan xarakterlanadi. Rossiyalik tadqiqotchi O.Podberezkina xalqaro transport koridorlarining jahon siyosatidagi ahamiyati xususida olib borgan tadqiqotlarida transport koridori jahon siyosatining iqtisodiy-siyosiy makonini namoyon etishi, migratsiya, transmilliylik, integratsiya va globalizatsiya singari omillar birinchi navbatda siyosiy tabiatga ega ekanligi va bu bevosita geografiya bilan bog'liq bo'lishi, natijada xalqaro transport koridorlarining jahon siyosatidagi tahlili geosiyosiy

¹ Asian Economic Integration Report 2018. Toward Optimal Provision of Regional Public Goods in Asia and the Pacific. October 2018. <https://www.adb.org/publications/asian-economic-integration-report-2018/pdf>.

² Global Economic Prospects: Slow Grows, Policy Challenges. (A World Bank Group Flagship Report). January 2020. – P.82.

yondashuvdan ayri holda olib borilishi mumkin emas¹, deb yozadi. Aynan transport koridorlari mintaqamizning integratsiya jarayonlarini rivojlantirish uchun ulkan turtki beruvchi hayotiy omildir. Shu jihatdan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2018-2022-yillarda transport infratuzilmasini takomillashtirish va yuk tashishning tashqi savdo yo'nalishlarini diversifikatsiyalash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori² qabul qilindi va belgilangan Dasturni amalga oshirish yuzasidan quyidagi ustuvor vazifalar qayd etildi:

– temir yo'l transporti sohasida – temir yo'l transporti xizmatlari sifati va xavfsizligini oshirish, yangi temir yo'l magistralari qurish, temir yo'llarni elektrlashtirish darajasini oshirish, mamlakatning tashqi savdo yuklari asosiy jahon va mintqa bozorlariga olib chiqilishi uchun xalqaro transport yo'laklarini shakllantirishni davom ettirish va ularning faoliyatini takomillashtirish, moslashuvchan tarif siyosatini qo'llash, tarmoqning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish, logistika xizmatlarini takomillashtirish va har xil transport turlari o'rtasida o'zaro hamkorlikni ratsionallashtirish yo'li bilan O'zbekiston Respublikasining temir yo'l tarmog'ini jadal rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish;

– avtomobil transporti sohasida – milliy huquqiy bazaning xalqaro huquqiy baza bilan uyg'unlashuvini jadallashtirish yo'li bilan xalqaro hamkorlikni rivojlantirish, milliy avtoyuk tashuvchilarning og'ir yukli avtotransport vositalari harakat tarkibi parkini kengaytirish, avtomobillarda xalqaro yuk tashishning ruxsatnoma berish tizimini takomillashtirish, xalqaro transport kommunikatsiyalariga maqbul yo'l bilan chiqishni va tranzit tashuvlar hajmini ko'paytirishni ta'minlaydigan yangi avtomobil yo'laklarini shakllantirish uchun shart-sharoitlar yaratish;

¹ Подберезкина О.А. Эволюция значения международных транспортных коридоров в мировой политике на примере России. Дисс. кан. пол. наук. – Москва., 2015. – С.33.34.

² 2018-2022 йилларда транспорт инфратузилмасини такомиллаштириш ва юк ташишнинг ташқи савдо йўналишларини диверсификациялаш чора-тадбирлари тўғрисида // Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари миллий базаси. <https://lex.uz/docs/3436209>

— aviatsiya transporti sohasida — yuk tashish hajmlarini yanada ko'paytirish va parvozlar geografiyasini kengaytirish, mavjud infratuzilmani va ko'rsatilayotgan xizmatlar kompleksini xalqaro aviatransport xizmatlari bozoriga olib chiqish, yuklarni aviatsiya yordamida tashish chog'ida, shu jumladan, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini eksport qilishda moslashuvchan tarif siyosatini qo'llash, havo kemalarining aviatsiya parkini ko'paytirish va yangilash, "Navoiy" Xalqaro intermodal logistika markazining imkoniyatlaridan samarali va to'laqonli foydalanish.

Afg'oniston Markaziy Osiyoni Janubiy Osiyo, Yaqin Sharqni Uzoq Sharq mintaqalari bilan bog'laydigan mintaqalararo transport ko'prigidir. Markaziy Osiyo mintaqasiga eng yaqin dengiz portlari aynan Afg'oniston hududi orqali o'tadi. Geografik jihatdan yopiq O'zbekiston ham jahon dengiz va okean bandargohlariga chiqishi uchun qo'shni Afg'oniston hududi tranzit davlat vazifasini bajaradi. Ayni shu omil tufayli Markaziy Osiyo istiqbolini makrodarajada tasavvur qilish, uni geosiyosiy o'rni va nufuzini nazariy jihatdan "Rimland" bilan bog'lash imkoniyati vujudga keladi. Shu tariqa istiqbolda ushbu makromintaqa bepoyon Osiyoning geosiyosiy arxitekturasini o'zgartirib yuborishi mumkin bo'ladi.

O'zbekiston uchun dengiz portlariga chiquvchi transport koridorlari strategik ahamiyatga ega. Bu mamlakatimiz uchun yangi imkoniyatlar va qo'shimcha salohiyat, mustahkam iqtisodiyotni rivojlantirish imkoni va turli xil geoiqtisodiy bog'liklarni bartaraf etuvchi kalit vazifasini bajaradi. Bunday imkoniyatlar hamohang ravishda Markaziy Osiyo mintaqasining mushtarak manfaatlarini ham o'zida mujassam etadi. Tahliliy ma'lumotlarga ko'ra O'zbekiston umumiy xalqaro transportining 60% Markaziy Osiyo davlatlari va Afg'oniston tranzit yo'llaridan o'tadi. Ushbu tranzit yo'llarini umumiy ko'rsatkichlar bilan hisoblaganda 69% Qozog'iston va Turkmaniston, 21% Tojikiston, 6% Qirg'iziston va 4%

Afg'oniston hissasiga to'g'ri keladi¹. Istiqbolda O'zbekiston Markaziy Osiyo davlatlarini Afg'oniston orqali xalqaro bozorlarga olib chiqish uchun qulay imkoniyatlar va sharoitlar yaratishi mumkin. Siyosiy fanlar doktori, professor A. Haydarov Markaziy Osiyo davlatlari uchun transport kommunikatsiyalarining murakkab sharoitida jahon dengiz portlariga chiqishning to'rtta asosiy varianti mavjudligini sanab o'tadi:

birinchi: Afg'oniston va Pokiston hududlari orqali Hind okeanining Karachi va Qosim portlariga chiqish (masofasi 3800 km.);

ikkinchi: Turkmaniston va Eron hududlari orqali Fors ko'rfazidagi Bandar Abbas portiga chiqish;

uchinchi: Qozog'iston va Xitoy hududlari orqali 6195 km. masofadagi Uzoq Sharq portlariga chiqish (Mazkur variant qisman Qozog'iston-Xitoy-Qoraqum shossesi yo'nalishi bo'yicha Karachi va Qosim portlariga Pokiston orqali chiqishda foydalanilishi mumkin. Biroq baland tog'lardagi havo sharoiti tufayli u uzoq yil harakatga tushmasligi mumkin);

to'rtinchi: Turkmaniston, Kaspiy dengizi, Ozarbayjon va Gruziya hududlari orqali Qora dengiz portlariga chiqish (masofasi 2950 km.).

A. Haydarovning fikriga ko'ra ular orasida eng istiqbolli variant birinchisi bo'lib, u Termiz-Hirot-Qandahor-Karachi yo'nalishi hisoblanadi. Biroq ushbu yo'nalishda ish olib borish uchun bir qator omillar, avvalo, Afg'onistondagi beqaror harbiy-siyosiy vaziyat saqlanishi bilan bog'liq omil to'siq bo'lmoqda². O'z navbatida, davlatimiz manfaatiga zid bo'lgan, qisman foydalanish mumkin bo'lgan koridorlar ham mavjudligini qayd etish joiz. A. Zohidov tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda transport koridorlari shartli ravishda mamlakatimiz iqtisodiy manfaatlari ta'siri darajasiga ko'ra 3 guruhga ajratiladi:

¹ Kulipanova E. International Transport in Central Asia: Understanding the Patterns of (Non-) Cooperation // Institute of Public Policy and Administration. Working Paper No.2, 2012. – P.13.

² Хайдаров А.А. Центральная Азия во внешней политике Исламской Республики Иран. Дисс. док. пол. наук. – Т.: 1996. – С.137-138.

1. O'zbekiston manfaatlariga to'liq zid hisoblangan koridorlar:

“Qozog‘iston-Turkmaniston-Eron” temir yo‘li:

“Turkmaniston-Afg‘oniston-Tojikiston” temir yo‘li;

“Xitoy-Qirg‘iziston-Tojikiston” temir yo‘li;

“Rossiya-Qozog‘iston-Qirg‘iziston-Tojikiston” temir yo‘li.

2. Qisman foydalanish imkoni mavjud bo'lgan koridorlar:

“G‘arbiy Yevropa-G‘arbiy Xitoy” avtomagistrali.


3. O'zbekiston manfaatlariga mos muqobil koridorlar:

“O‘zbekiston-Qirg‘iziston-Xitoy” temir yo‘li;

“O‘zbekiston-Turkmaniston-Eron-Ummon” avtomobil va temir yo‘li;

“Toshkent-Andijon-O‘sh-Saritosh-Irkishtom-Qoshg‘ar”
avtomobil yo‘li:

Transafg'on koridori, ya'ni "O'zbekiston-Afg'oniston-Eron/Pokiston" temir yo'li¹.



O'zbekistonning temir yo'l transport koridorlari¹

¹ Зоҳидов А.А. Марказий Осиё транспорт тизимини самарали бошқариш механизмни такомиллаштириш. Иқт. фан. док. (Doctor of Science) дисс. – Т.: – Б.146.

Yuqorida sanab o'tilgan transport yo'laklari orasida mintaqaning barqaror siyosiy va iqtisodiy taraqqiyotida asosiy o'rin egallaydigan muhim transport yo'llaridan biri Transafg'on transport koridori (TATK) sanaladi. TATK Markaziy Osiyoni Afg'oniston orqali Janubiy va Janubi-Sharqiy Osiyo dengiz portlariga, o'z navbatida Afg'oniston, Eron, Pokiston va Hindistonni Markaziy Osiyo va Rossiya bozorlariga olib chiqadigan mintaqalararo transport yo'lagidir. TATK 2003-yil 18-iyunda O'zbekiston Respublikasi, Afg'oniston Islomiy O'tish Davlati va Eron Islom Respublikasi davlat rahbarlari tomonidan Tehronda imzolangan "Xalqaro Transafg'on transport koridorini tashkil etish to'g'risidagi Bitim" natijasida vujudga kelgan. Bu koridorning mamlakatimiz uchun strategik ahamiyati shundaki, u O'zbekiston tashqi savdo yuklarini Eron portiga yetkazish masofasini 1500 km.ga qisqartirish imkonini beradi². Bundan tashqari TATK orqali Afg'oniston o'z tarixida birinchi marotaba transportning temir yo'l tarmog'iga ega bo'ldi. Temir yo'l omili uzoq yillik urush, harbiy mojarolar sharoitida qolgan Afg'oniston iqtisodiyotini tiklash, aholiga yangi ish o'rinlari yaratish, eksport-import imkoniyatlarini kuchaytirishi, natijada esa harbiy mojaroni hal etishning asosiy omillaridan biriga aylanishi mumkin.

Ma'lumki, Afg'oniston tarixida temir yo'l qurish bo'yicha ko'plab loyihalar ishlab chiqilganiga qaramasdan turli siyosiy sabablar tufayli ularni qurish ishlari amalga oshmagan edi³. Ekspert O.Nissor Afg'onistonda uzoq vaqtgacha birorta ish o'rni yaratishga mo'ljallangan infrastruktura loyihasi qurilmaganini bayon etar ekan, afg'on muammosi yechimiga kalit iqtisodiy jabhada yotadi⁴, deb xulosa qiladi. Shu ma'noda murakkab va turli sabablarga qaramasdan, O'zbekiston va


¹ Manba: Ўзбекистон Республикаси Транспорт вазирлиги.

² Транспортные коридоры // Министерство инвестиций и внешней торговли Республики Узбекистан. <https://mift.uz/ru/menu/transportnye-koridory>

³ Batafsil qarang: Ежов Г.П. Проекты железных дорог Афганистана: прошлое, настоящее и будущее // Все об Афганистане, 13.01.2009. <http://afghanistan.ru/doc/13787.html>

⁴ Нессар О. Афганский кризис и проблема региональной безопасности / Материалы международного круглого стола "Состояние и перспективы обеспечения безопасности в Афганистане" (Дискуссия). – Т.: 2010. – С.164.

Eron tashabbuslari va amaliy sa'y-harakatlari natijasida TATK orqali Afg'oniston hududida dastlabki temir yo'l barpo etildi.



Transafg'on transport koridori va uning yo'nalishlari

TATK to'rtta yo'nalishni o'z ichiga qamrab oladi:

birinchi yo'nalish — Termiz-Hirot-Sangon temir yo'li;

ikkinchi yo'nalish — Toshkent-Hirot-Chobahor temir yo'li;

uchinchi yo'nalish — Toshkent-Hirot-Sangon-Bandar Abbas temir yo'li;

to'rtinchi yo'nalish— Toshkent-Hirot-Bozorgon temir yo'li.

Xaritada ko'rsatib o'tilganidek TATK orqali O'zbekiston tranzit yuklari birinchi yo'nalishda Afg'oniston bozorlariga, ikkinchi yo'nalishda Eronning Chobahor portiga, uchinchi yo'nalishda Bandar Abbas portiga, to'rtinchi yo'nalishda esa Turkiya orqali Yevropa bozorlariga chiqish imkoni yaratiladi.

Mamlakatimiz uchun TATKning ishga tushirilishi strategik jihatdan ustuvor vazifalar sirasiga kiradi. O'zbekistonning Afg'oniston orqali dengiz portlariga chiqishi Qora va Boltiq

dengiziga chiqish portlaridan 2-3 marta, Tinch okeani portlari yo'nalishidan 5 marta qisqaroqdir¹. Xalqaro transafg'on koridorining ochilishi mintaqalararo savdo muloqotiga zamin yaratadi, jumladan, O'zbekiston ham Eron, Pokiston va Hindiston portlari orqali dunyo bozorlariga chiqadi hamda butun mintaqaning ulkan tranzit salohiyatini keng ro'yobga chiqarish uchun yangi imkoniyatlar ochiladi. Biroq Afg'onistonda davom etayotgan qurolli to'qnashuvlar bunday imkoniyatlarga jiddiy xalaqit qilmoqda. Shunga qaramasdan O'zbekiston tomonidan Afg'onistonning iqtisodiy tiklanishi uchun katta ko'mak ko'rsatilmoqda. Afg'onistonda o'z harbiy-siyosiy ta'sirini o'tkazishga harakat qilgan davlatlardan farqli o'laroq, O'zbekiston bunyodkorlik va iqtisodiy rivojlanish omilini Afg'onistonda tinchlik va barqarorlikni ta'minlashning asosiy mezonlaridan biri, deb hisoblaydi. Alohida e'tibor qaratish joizki, mamlakatimiz Afg'oniston tarixi davomida Buyuk Britaniya, SSSR va AQSh singari qudratli davlatlar amalga oshirmagan ulkan bunyodkorlik ishlarini boshlab berdi. Masalan, O'zbekiston Afg'onistonda foydalanishga topshirilgan va poyezdlar qatnovi yo'lga qo'yilgan ilk temir yo'l – "Hayraton-Mozori Sharif" temir yo'lini bunyod etgan ilk davlat sifatida tarix sahifasidan joy oldi. Bu loyiha muddatidan oldin, ya'ni 11 oyda foydalanishga topshirildi. O'tgan davrda ushbu transport yo'lagi orqali 20 million tonnadan ortiq yuk tashildi. Shuning 5,5 million tonnaga yaqini yurtimizning eksport tovarlari bo'ldi².

O'zbekistonning TATKni ishga tushirishga mo'ljallangan amaliy harakatlari diqqatga sazovor. 2007-yilning 1-sentabriga kelib "Toshguzar-Boysun-Qumqo'rg'on" yangi temir yo'l liniyasi birinchi bosqichining qurilishi yakunlandi, natijada Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarini mamlakatning

¹ Столповский О.В. реализации транспортных проектов Узбекистан ориентируется на южное направление // Ритм Евразии, 01.09.2018. <https://www.ritm Eurasia.org/news--2018-09-01--v-realizacii-transportnyh-proektov-uzbekistan-orientiruetsja-na juzhnoe-napravlenie-38304>

² Камолов А. Афғонистон бўйича Тошкент халқаро конференцияси минтақада оқоийншалик ва барқарорликни мустахкамлашда муҳим ўрин тутди // Халқ сўзи 2018 йил 27 март, № 57-58 (7015-7016).

boshqa hududlari bilan ishonchli bog‘lab turuvchi yagona va yaxlit temir yo‘l kommunikatsiyalari tizimi shakllandi. Mazkur hududning boy mineral-xomashyo resurslari konlarini samarali va kompleks ravishda o‘zlashtirish, aholi bandligini ta‘minlash, barqaror hamda jadal iqtisodiy o‘sish va insonlar farovonligini oshirish, eksport salohiyatini o‘stirib borish uchun qulay shart-sharoitlar yaratildi. O‘zbekistonning jahon bozorlariga, eng avvalo, Transafg‘on temir yo‘l koridori orqali, bir vaqtning o‘zida O‘zbekistonning tranzit harakatidagi rolini oshirish bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri Hind okeani, Janubiy va Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari portlariga chiqish imkoniyati paydo bo‘ldi¹. 2008-yil Ozarbayjon poytaxti Bokuda bo‘lib o‘tgan Osiyo taraqqiyot bankining Markaziy Osiyo iqtisodiy hamkorlik dasturi (MOIHD) doirasida O‘zbekiston va Afg‘oniston tomonlari o‘rtasida Afg‘oniston temir yo‘l infratuzilmasini rivojlantirish orqali savdo-iqtisodiy aloqalarni kengaytirishga qaratilgan o‘zaro anglashuv Memorandumi imzolandi². Natijada, 2010-yilning noyabr oyida 75 km. masofaga ega bo‘lgan Hayraton-Mozori Sharif temir yo‘lining o‘zbek quruvchi mutaxassisleri tomonidan yakunlanganligi tarixiy voqelikka muhrlandi.

TATKning asosiy tarmoqlaridan biri hisoblangan Hayraton-Mozori Sharif temir yo‘lini qurish ishlari “O‘zbekiston temir yo‘llari” davlat-aksiyadorlik kompaniyasi bilan Afg‘oniston Islom Respublikasining Jamoat ishlari vazirligi o‘rtasida temir yo‘l qurish uchun 129,0 mln. AQSH dollari summasida kontrakt tuzish kelishuvi³ asosida


¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Тошгузар-Бойсун-Кумқўрғон янги темир йўл линиясидан фойдаланишни ташкил этиш тўғрисида”ги қарори (Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2007 й., 44-сон, 443-модда) // Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари миллий базаси. <https://www.lex.uz/docs/1262327>.

² Столповский О. В реализации транспортных проектов Узбекистан ориентируется на южное направление // Ритм Евразии, 01.09.2018. <https://www.ritmcurasia.org/news--2018-09-01--v-realizacii-transportnyh-proektov-uzbekistan-orientiruetsja-na-juzhnoe-napravlenie-38304>

³ “Хайратон ва Мозори Шариф ўртасидаги темир йўл линиясини лойиҳалаштириш, қуриш, ўрнатиш ва фойдаланишга тошпириш” лойиҳасини амалга ошириш чоратadbirlari тўғрисида // Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг қарори. (Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2009 й., 48-сон, 514-модда;

boshlandi. Loyihani qurish uchun Osiyo taraqqiyot bankining 165 mln dollarlik grantlari ajratildi va yiliga 9 mln tonnaga yaqin yuk tashish rejalashtirildi¹.

AFGHANISTAN
HAIRATAN TO MAZAR-E-SHARIF RAILWAY PROJECT
(as completed)



Hayraton-Mozori Sharif temir yo'li

Osiyo taraqqiyot bankining (OTB) 2014-yil may oyidagi ma'lumotlariga binoan mazkur temir yo'l qurilishi natijasida

2017 й., 28-сон, 654-модда; Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 09.02.2018 й., 09/18/102/0685-сон). <https://lex.uz/docs/1549355>

¹Ўзбекистон подписал контракт на эксплуатацию ж/д Афганистана на 3 года // Риа Новости, 19.03.2015. <https://ria.ru/20150319/1053338641.html>

1200 ta afg'onlar doimiy ish bilan ta'minlandi, loyiha hududlarida bandlik darajasi 10%dan oshib, 7 mln.dan ortiq aholi temir yo'l xizmatidan foydalanish imkoniyatiga ega bo'ldi. Shuningdek, yuklarni tashish vaqti ikki barobar qisqarib, O'zbekiston va Afg'oniston o'rtasidagi savdo hajmi 2008-yildagi 170 mln. dollardan 2011-2012-yillarga kelib 732 mln. dollarga yetdi. Ushbu davr mobaynida Afg'onistonning umumiy savdo hajmi 2008-yildagi 3,5 mlrd dollarga nisbatan 6,8 mlrd. dollarga yuqoriladi¹. OTB mutaxassislarining baholashicha, Hayraton Afg'onistonning asosiy quruqlik va daryo bandargohi bo'lib, u mamlakat umumiy importining 50%ga yaqin ulushini o'zida jamlaydi².

Afg'onistonlik ekspert Muhammad Huvaydo "Afg'oniston" gazetasida nashr etilgan maqolasida "Do'stlik" ko'p-rigidan o'tgan ilk temir yo'lining o'rni ikki davlat tijoriy munosabatlarida yuksak ahamiyat kasb etgani va O'zbekistonning qurilish sohasidagi resurslari va tajribasidan Afg'oniston ham foydalanishga katta qiziqishi bildirayotganiga ishora qiladi³. Qayd etish kerakki, ushbu temir yo'l oddiy afg'on aholisi turmush tarzi va hayotini yaxshilashga qaratilgan muhim qadamlardan biri bo'ldi. Noibobod bandargohining bosh menejeri G'ulom Yahyo Darvesh temir yo'l qurilganidan buyon oddiy afg'onlar hayoti o'zgarganini tasdiqlar ekan, uning 300 nafar ishchilari oyiga 60 ming tonna yukni tashish imkoniga ega bo'lgani va Afg'oniston shimolida kichik biznes muhiti shakllanganini e'tirof etadi. Hayraton bandargohining omborxona menejeri Ismatullohning ham quyidagi so'zlari e'tiborga molik: "Afg'onistonning Noibobod shahrida tun bo'yi 50-60 ga yaqin vagon yuklanadi, bu yerda Afg'onis-

¹ Unstoppable: The Hairatan to Mazar-e-Sharif Railway Project // Asian Development Bank, February 2014. [https://www.adb.org/filesPDF/Unstoppable The Hairatan to Mazar-e-Sharif Railway Project](https://www.adb.org/filesPDF/Unstoppable%20The%20Hairatan%20to%20Mazar-e-Sharif%20Railway%20Project)

² Hairatan to Mazar-e-Sharif Railway Project // Asian Development Bank, 24 December 2015. <https://www.adb.org/documents/afghanistan-hairatan-mazar-e-sharif-railway-project>

³ محمد رضا هویدا. روابط اقتصادی افغانستان و ازبکستان / روزنامه افغانستان، سال دهم - شماره ۲۶۷ - ص. ۲. (Muhammad Rizo Huvaydo. Ravobet-e iqtisodi-ye Afg'oneston va O'zbekiston / Ro'znoma-ye Afg'oneston Sol-e dahum - sho'mora 265. - S.2.)

Muhammad Rizo Huvaydo. Afg'oniston va O'zbekiston iqtisodiy aloqalari / "Afg'oniston" gazetasi. 2015-yil 16- sentyabr, № 265. - B.2.

tonning nafaqat shimoliy, balki janubiy, sharqiy va g'arbiy viloyatlaridan ham ishchilar kelib ishlashadi"¹.

Afg'oniston hududlarining asosiy qismi tog'lar bilan o'ralganligi sababli ushbu o'lkada temir yo'l qurish o'z-o'zidan ko'plab murakkablik va qiyinchiliklarga olib keladi. Transafg'on koridorining o'ziga xosligi shundaki, transport yo'llari Hindikush tog'ining ko'plab dovonlari va ko'priklar orqali o'tadi. Jumladan, Hirot-Qandahor yo'nalishida 126 ta turli xil ko'priklar, 6 ta tog' dovonlari va 2 ta suv omborlari mavjud. Eng yirik tog' dovonlari Rabot Mirzo (1681 m), Mir Alan (1800 m), Sahro Suxran (1700 m) hamda Snab Bobo (1670 m) hisoblanadi. Termiz-Kobul yo'nalishida 103 ta turli ko'priklar, umumiy uzunligi 6619 m bo'lgan 22 ta tor yo'lak, 4 ta tog' dovonlari va 1 ta tunnel mavjud. Asosiy tog' dovonlari Mirzo Atbili (1681 m) va Salang (3491 m) hisoblanadi². O'zbekiston transafg'on yo'nalishini barpo etish muzokaralari boshlanishidan ancha oldin Afg'onistondagi transport kommunikatsiyalarini qayta tiklashda ishtirok etib kelayotganini ta'kidlab o'tish lozim. O'tgan davr mobaynida o'zbek yo'l qurilishi mutaxassislari tomonidan Afg'oniston hududida jami 1000 metrdan ortiq masofadagi 11 ta yangi ko'priklar qurib foydalanishga topshirildi³. Bu esa Afg'oniston iqtisodiy tiklanishi va uning mintaqaviy savdo-iqtisodiy jarayonlarga jalb etilishida O'zbekistonning sezilarli rolini ko'rsatib berdi.

O'zbekistonda TATK doirasida Afg'oniston orqali Pokiston portlariga chiqishni nazarda tutuvchi bir qator variantlar ham mavjud. Masalan, Termiz-Kobul-Qandahor-Kvetta-Karachi transport yo'nalishi Afg'oniston hududida umumiy 1100 km. masofani, jumladan, Termizdan Kobulgacha 460 km. masofani qamrab oladi. Ikkinchi variant birinchi variantga muqobil hisoblangan Termiz-Mozori Sharif-Hirot-Qandahor-Kvetta-Karachi transport yo'nalishi

¹ Building Afghanistan's New Railway as Lifesaving Link // Asian Development Bank, 6 May 2014. <https://www.adb.org/results/building-afghanistans-new-railway-lifesaving-link>

² Зоҳидов А.А. Марказий Осиё транспорт тизимини самарали бошқариш механизмини такомиллаштириш. Иқт. фан. док. (Doctor of Science) дисс. – Т.: 2018. – Б.148.

³ Qarag'ang: Rashidov P.P. Afg'onistonda davlatchilik masalasi: tarix va hozirgi zamon. – T.: Navruz, 2017. – Б.200.

bo'lib, Termizdan Pokiston chegarasigacha 1700 km. masofani tashkil etadi. Shu maqsadda 2011-yilda O'zbekiston va Pokiston o'rtasida Afg'oniston hududi orqali transport va tranzit sohasida hamkorlik to'g'risida bitim imzolandi¹. Biroq hozirgi vaqtgacha Afg'onistonda saqlanib turgan beqarorlik, ayniqsa, ushbu yo'nalishda o'tadigan transport yuklarini Afg'onistonning harbiy to'qnashuvlar keskin bo'lgan janubiy va janubi-sharqiy viloyatlaridan o'tishi yuqoridagi loyihalarni amalga oshirishni xavf ostiga qo'ymoqda.

Bir qator ekspertlar va soha mutaxassisleri TATKni Markaziy Osiyo mintaqasi uchun istiqbolli yo'nalish ekanligi xususida o'zining ijobiy fikr-mulohazalarini bildirishmoqda. Jumladan, Zamonaviy Afg'onistonni o'rganish markazi eksperti M.Doud Markaziy Osiyo davlatlari tomonidan Afg'onistonga neft mahsulotlari, elektroenergiya, un, bug'doy, yengil sanoat va boshqa tovarlar yetkazilishi natijasida Afg'oniston bozori mintaqa davlatlari uchun istiqbolda eng jozibali bozorga aylanishiga asosiy e'tiborini qaratadi². Amerikalik olimlar F.Starr va A.Kuchins fikrlariga ko'ra Afg'onistonni temir yo'l tarmoqlari orqali mintaqaga integratsiyalashuvi Markaziy Osiyo davlatlarini har tomonlama dunyo bozoriga chiqishi uchun eng istiqbolli yo'nalishdir va bundan barcha davlatlar real foyda ko'radi³. Mahalliy ekspert A.Zohidov TATKga bag'ishlangan maqolasida mazkur koridor atrofidagi Eron, Afg'oniston, O'zbekiston, Pokiston, Xitoy, Tojikiston va Turkmaniston davlatlari manfaatlarini tahlil etib, koridorning yaratilishiga to'sqinlik qiluvchi omillar ta'siri yuqori ekanligini qayd etadi⁴. Rossiyalik afg'onshunos ekspert D.Verxoturov esa Afg'oniston temir yo'l koridori xususida

¹ Столповский О. В реализации транспортных проектов Узбекистан ориентируется на южное направление // Ритм Евразии, 01.09.2018. <https://www.ritmurasia.org/news-2018-09-01--v-realizacii-transportnyh-proektov-uzbekistan-orientiruetsja-na-juzhnoe-napravlenie-38304>

² Дауд М. Модернизация транспортной системы Среднего Востока может принести мир Афганистану // Всё об Афганистане, 14.12.2010. <http://afghanistan.ru/doc/19059.html>

³ Starr F., Kuchins A. The Key to Success in Afghanistan: A Modern Silk Road Strategy // Silk Road Paper, May 2010. – P.37.

⁴ Зоҳидов А.А. Трансафганский транспортный коридор: интересы государства и перспективы его развития. Центральная Азия и Кавказ. Том 15, 2012. – С.85-91.

quyidagicha yozadi: "Afg'oniston temir yo'llarining kelajagi porloq. Ushbu temir yo'llar Hindikush tog' tizmasidan shimol, janub va g'arbgga qadar yastangan bepoyon mintaqaning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Afg'on temir yo'l tarmoqlari rivojlanishi bilan bunday ta'sir yanada ortadi"¹.

TATK doirasida Afg'onistonda temir yo'llar barpo etilishi mintaqa iqtisodiy taraqqiyotidan tashqari o'ziga xos geosiyosiy jihatlarini ham namoyon etadi. Bizning fikrimizcha bu borada quyidagi ikkita ssenariy muhim o'rin tutadi:

Xavfsizlik ssenariysi. TATK orqali o'tadigan temir yo'llar qurilishi Afg'onistondagi ichki siyosiy kuchlar manfaatlariga xizmat qiladi. Koridorning ochilishi harbiy nizolarni yumshatish va afg'onlararo muloqot tezlashishi uchun turtki berishi mumkin. Zeroki, Afg'oniston iqtisodiyotini transport loyihalari orqali tiklanishi afg'on qabilalarini qaysidir qurolli guruh tomonida jang qilish orqali moddiy boylik orttirish singari stereotip qarashlarini o'zgartirishi, qurollarni tashlab, unga muqobil yondashuvga o'tishiga zamin yaratadi. Ch.Ko'charov mulohazasi bilan aytganda afg'on qabilalari an'anaviy tarzda kim ko'p pul to'lasa, o'shaning tomonida turib jang qilishga o'rganib qolishgan. Holbuki, toliblar tomonida turib jang qilish moliyaviy jihatdan foydali bo'lganligi uchun ko'pchilik afg'onlar rasmiy afg'on hukumati qo'shinlari safida xizmat qilishga ishtiyoq bildirishmaydi². Shu jihatdan qaraganda Afg'onistonda ish o'rinlari yaratishga xizmat qiluvchi strategik loyihalar metodi qurolli qarama-qarshilikni bartaraf etishda samarali vosita bo'lishi mumkin. Bu masalada siyosatshunos ekspert B.Ergashevning ham quyidagi fikrlarini keltirish o'rinli bo'ladi: "O'zbekistonning afg'on muammosini yechishga qaratilgan asosiy g'oyasi doimo harbiy harakatlar darajasini kamaytirish va iqtisodiyotni tiklash masalalariga e'tibor qaratish hisoblangan, chunki faqat shu orqali Afg'oniston ichidagi harbiy qarama-

¹ Верхотуров Д.Н. В Афганистане началась эпоха железных дорог.
<http://afghanistan.ru/doc/16754.html>

² Кўчаров Ч. Марказий Осиёнинг минтақавий интеграцион жараёни муаммолари (геосиёсий таҳлил тажрибаси). – Т.: Фан, 2008. – Б.73.

qarshilikni pasaytirish mumkin”¹. Boshqacha aytganda, TATK Afg‘onistonni xavf-xatar hududidan xavfsizlik va barqarorlikning kafolatli hududiga aylanishida ko‘mak beradi, natija esa o‘z-o‘zidan butun mintaqa barqaror rivojlanish uchun yangi yo‘llarni ochib beradi.

Geosiyosiy imkoniyatlar ssenariysi. Ushbu ssenariyning o‘ziga xos jihati shuki, TATK makromintaqa davlatlarining geosiyosiy manfaatlari doirasiga mos tushishi va Afg‘onistonni ham mintaqaviy hamkorlik jarayonlariga jalb etish uchun real imkoniyatlar yaratish xususiyatiga ega:

birinchidan, TATK mintaqa geosiyosiy arxitekturasiga ta’sir ko‘rsatadi. Qozog‘istonlik ekspert M.Laumulin Toshkent tomonidan taklif etilgan Transafg‘on koridori muhim geosiyosiy va geoiqtisodiy loyiha ekanligiga o‘z e’tiborini qaratgan holda bu koridor Iqtisodiy hamkorlik tashkilotining (Economic Cooperation Organization – ECO) barcha a’zolari, jumladan, global kommunikatsiyalar bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘lanmagan O‘zbekiston va Afg‘oniston uchun yangi savdo imkoniyatlarini taqdim etishini tahlil etadi². Rejadagi koridor yo‘nalishlari eng qisqa va istiqbolli muqobil yo‘nalishlar hisoblanadi. Ushbu yo‘nalishlarning qurilishi mintaqadagi geosiyosiy vaziyatni tubdan o‘zgarishiga sabab bo‘lib, yuk tashishi masofasi 1,5-2 barobar qisqaradi. O‘zbekiston Respublikasiga transosiyo transport-iqtisodiy aloqalarini yo‘lga qo‘yishida, shuningdek, Sharq va G‘arb davlatlari bilan turli shakllardagi samarali hamkorlikni oshirishida markaziy halqa rolini taqdim etadi³.

Ikkinchidan, Afg‘oniston tashqi kuchlarning geosiyosiy manfaatlari markazida turganligini hisobga olgan holda aytish mumkinki, u bilan bog‘liq har qanday transport loyihalari o‘zida geosiyosiy xususiyatni aks ettirishi bilan xarakterlanadi. Masalan, TATKning uzviy qismi hisoblangan Hayraton-

¹ Эргашев Б. Приоритетный Афганистан. У Узбекистана есть что предложить... Кабулу // Центр Азия, 21.09.2009. <https://centrasia.org/newsA.php?st=1253477820>

² Laumulin M. The Geopolitics of XXI Century in Central Asia. – Almaty.: KazISS, 2007. – P.198-199.

³ Центральная Азия: геополитика, геоэкономика, безопасность / Редколл.: Р.М. Алимов, Ш.Р. Арифханов и др. – Т.: Шарк, 2002. – С.31.

Mozori Sharif temir yo'li ham shunday xususiyatga ega. Ushbu temir yo'l Shimoliy ta'minot tarmog'i (Nothern Distribution Network – NDN¹) orqali Afg'onistonga G'arb davlatlari tomonidan yuk o'tkazilishida strategik rol o'ynab kelgan. Ural mintaqaviy axborot-tahlil markazi rahbari D.Popovning yozishicha o'z vaqtida amerikaliklar uchun ushbu tarmoq (Hayraton-Mozori Sharif temir yo'li) nafaqat iqtisodiy, balki qo'shinlar ta'minoti, zarur texnik jihozlar, asbob-uskuna va muhim materiallarni qayta ishlash singari harbiy vazifalarni hal etib bergan². Shuningdek, Afg'onistonga keladigan gumanitar ko'mak yuklarining asosiy qismi aynan Hayraton-Mozori Sharif temir yo'li orqali olib o'tiladi. Tabiiyki, ushbu mamlakatga gumanitar va insonparvarlik ko'maklarini yetkazishda O'zbekiston birinchilardan hisoblanadi. Jumladan, 2018-yil iyun oyida qo'shni Afg'onistonning qurg'oqchilikdan aziyat chekkan aholisi uchun O'zbekiston tomonidan 3 ming tonna bug'doy insonparvarlik yordami sifatida Hayraton orqali Afg'onistonga yetkazib berilgani³ ham shundan dalolatdir. 2020-yil 3-aprelda esa O'zbekiston tomonidan Afg'onistonga yetkazilgan 600 tonnaga yaqin gumanitar yuklar⁴ koronavirus pandemiyasi bilan bog'liq og'ir vaziyatdan aziyat chekkan afg'on xalqi uchun katta yordam hisoblanadi.

Uchinchidan, ShHT doirasida teng huquqli a'zolar va kuzatuvchi davlatlar o'rtasida geosiyosiy bog'lanish kuchayadi. Shunday sharoitda, taklif etilayotgan muqobil koridorlarni Afg'onistonda sinovdan o'tgan va yuqori tajribaga ega

¹ NDN – Afg'onistondagi halqaro koalitsiya harbiy kuchlariga shimoldan ta'minot yetkazib beruvchi tarmoq. Afg'onistonga gumanitar yuklarni yetkazishda asosan ushbu tarmoqdan foydalaniladi.

² Попов Д. Место Узбекистана в центральноазиатской политике США. [https://cyberleninka.ru/article/n/mesto-uzbekistana-v-tsentrlnaoziatskoy-politike-ssha/viewer\(pdf\)](https://cyberleninka.ru/article/n/mesto-uzbekistana-v-tsentrlnaoziatskoy-politike-ssha/viewer(pdf)). - С.71.

³ Ўзбекистон Афғонистонга 3 минг тонна бугдой- донни инсонпарварлик ёрдами сифатида жўнатди // Халқ сўзи, 2018 йил 6 июн. <http://xs.uz/uzkr/post/ozbekiston-afgonistonga-3000-tonna-bugdoj-donni-insonparvarlik-yordami-sifatida-zhonatdi>.

⁴ Afg'onistonga gumanitar yordam topshirish to'g'risida // O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi, 2020 yil 4 aprel. <https://www.facebook.com/MFAUZB/posts/1274092006109689>

TATKning asosiy bo'g'inlari bilan bog'lash imkoniyati paydo bo'ladi. 2019-yilda O'zbekiston tomonidan Qozog'iston don va un mahsulotlarini Afg'onistonga tashish uchun 20% chegirma joriy etilishi, qo'shni davlatlardan afg'on zaminiga eksport qilinadigan tijorat tovarlari uchun qo'shimcha to'lovlar bekor qilinishi¹, qolaversa, Rossiya uchun Afg'onistonga yuk tranziti tariflarining bekor qilinishi² hamda dastlabki konteyner poyezdining Afg'onistondan Xitoyga Hayraton-Mozori Sharif temir yo'li orqali yo'l olgani³ shunday jarayonlar kuchayishi uchun turtki beradi.

To'rtinchidan, TATK tashkil etilishi Afg'onistonga qo'shni bo'lgan davlatlar uchun manfaatlidir. Masalan, Markaziy Osiyo davlatlari uchun yangi bozorlar ochiladi, iqtisodiy integratsiya va tranzit imkoniyatlari kengayadi, natijada yyetakchi davlatlarning mintaqaga bo'lgan harbiy-siyosiy va iqtisodiy ta'siri hamda bosimi zaiflashadi; sanksiyalar sharoitida qolgan Eron uchun o'z yuklarini Afg'oniston orqali Markaziy Osiyo davlatlari va xalqaro maydondagi sheriklari hisoblangan Rossiya va Xitoyga yetkazish masalasi osonlashadi. O'z navbatida, Eron Afg'onistonda temir yo'l qurish orqali o'z tranzit yuklarini Pokiston bilan, Chobahor kelishuvi doirasida esa Hindiston bilan ayirboshlash imkoniyatiga ega bo'ladi; TATK Xitoy tomonidan taklif etilgan "OBOR" loyihasi doirasida mintaqalararo transport tarmoqlarining uzviy tuguniga aylanishi mumkin. Afg'oniston ekspertlari Mariyam Sofiy va Bismilloh Alizoda "OBOR" loyihasiga Afg'onistonning jalb etilishi masalasiga bag'ishlangan tadqiqotlarida ushbu loyihada Afg'oniston savdo, tranzit va mintaqaviy hamkorlikda hab vazifasini bajarishi potensialini o'rganib chiqadi. Ular tomonidan nashr etilgan tadqiqot ishida Afg'oniston bilan bog'langan turli loyihalar tahlil qilinib, Hayraton bandargohi orqali Xitoyni Afg'oniston

¹ Узбекистан и Афганистан намерены запустить ряд новых проектов. Интернет-издание «Газета.uz», 17 июля 2019. <https://www.gazeta.uz/ru/2019/07/17/afghanistan/>

² Узбекистан обнулил для России тарифы на транзит грузов в Афганистан // Афганистан сегодня, 02.10.2019. <http://www.afghanistantoday.ru/node/48034>

³ Афганистан запустил первый контейнерный поезд в Китай через Узбекистан // Синьхуа новости, 06.09.2019. http://russian.news.cn/2019-09/06/c_138370645.htm

bilan bog'laydigan Xitoy-Afg'oniston maxsus temir yo'l transport loyihasiga alohida e'tibor qaratiladi. Loyihaga ko'ra Afg'oniston tranzit yuklari Hayraton-Mozori Sharif temir yo'li orqali O'zbekiston, Qirg'iziston yo'nalishi bo'ylab Xitoyga bog'lanadi¹. Xitoydan Afg'onistonga dastlabki yuk poyezdi ham 2016-yilda aynan mana shu temir yo'l orqali kirib kelgan². Ma'lumotlarga ko'ra Xitoy-Qirg'iziston-O'zbekiston-Afg'oniston-Eron yo'nalishidagi 3,500 km quruqlik koridor Xitoy va Eron o'rtasida mavjud bo'lgan 13,800 km dengiz aloqasidan to'rt barobar qisqa hisoblanadi³. Ushbu tahlillar orqali baholaydigan bo'lsak, TATK har tomonlama Xitoy manfaatlariga mos keladi; uzoq vaqtdan buyon transport-tranzit imkoniyatlaridan ajralib qolgan Pokiston uchun esa TATK orqali belgilangan strategik vazifalar ijrosi ta'minlanadi. Ekspert A.Vorobyov Pokistonning Markaziy Osiyo mintaqasiga oid tashqi siyosiy maqsadlarida ikki guruh mavjudligini ta'kidlaydi. Birinchi guruh iqtisodiy maqsadlar, ya'ni yangi bozor, energiya resurslari va manbalari, o'zaro savdo-iqtisodiy masalalardagi hamkorlikni ustuvor, deb biladi. Ikkinchi guruhning maqsadlari esa harbiy-strategik masalalar bilan uzviy bog'liq. Ekspertning fikricha, Pokiston Hindiston bilan bo'ladigan nizolar va qarama-qarshilik sharoitida Afg'oniston va Markaziy Osiyoga yagona "xavfsizlik kamari" sifatida qaraydi va Hindistonning Afg'oniston va Markaziy Osiyo yo'nalishida faollashuvidan tashvishlanadi⁴. Pokiston uchun Markaziy Osiyo mintaqasi transport yo'laklari orqali katta iqtisodiy va siyosiy foyda olish mumkin bo'lgan mavjud yangi bozor bo'lsa-da, Afg'oniston bilan bog'liq harbiy-siyosiy vaziyat omili Markaziy Osiyo davlatlari bilan savdo-iqtisodiy

¹ Safi M., Alizada B. Integrating Afghanistan into the Belt and Road Initiative: Review, Analysis and Prospects. Friedrich-Ebert-Stiftung (FES) Publishing, August 2018. – P.21-22.

² Шпунт А. Китай пришёл в Афганистан. Одна дорога на Кабул – 76 км между мирами // Regnum, 21 февраля 2019. <https://regnum.ru/news/polit/2577769.html>

³ Karimova Z. Connecting Asia: Uzbekistan Looks to Capitalize on Central Asia's Transport Potential // The Diplomat, April 12, 2018. <https://thediplomat.com/2018/04/connecting-asia-uzbekistan-looks-to-capitalize-on-central-asias-transport-potential/>

⁴ Воробьёв А.В. Государства Центральной Азии и Пакистан: неспешная дорога к партнёрству // Expert Center for Eurasian Development. http://e-ced.ru/articles/Gosudarstva_Centralynoy_Azii_i_Pakistan_nespeshnaya_doroga_k_partnerstvu/

maqsadlarni amalga oshirishda o'z ta'sirini ko'rsatib kelmoqda.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan turli omillar va baholashlar orqali TATK istiqbolda ham strategik o'ringa ega bo'lishi hamda ishtirokchi davlatlar tashqi siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biriga aylanishini taxmin qilish mumkin.

Bugungi kunda Afg'oniston iqtisodiyotini tiklash, mintaqaviy savdo-sotiq, transport-kommunikatsiya aloqalarini rivojlantirish va ushbu jarayonlarda O'zbekistonning o'rnini kuchaytirish uchun qulay sharoitlar yaratish lozim. O'zbekiston va Afg'oniston o'rtasida imzolangan bayonotida tomonlar Afg'onistonda transport infratuzilmasini rivojlantirishga qaratilgan quyidagi loyihalarni birgalikda amalga oshirishga kelishib oldilar:

- "Transafg'on transport yo'lagi" doirasida "Mozori Sharif-Hirot" temir yo'l liniyasini barpo etish;

- O'zbekistonning Surxondaryo viloyatidan Afg'onistonning Puli Xumri shahrigacha 500 kV bo'lgan "Surxon-Puli Xumri" elektr uzatish liniyasini barpo etish;

- Kobul halqa yo'li, "Qaysar-Laman" yo'li, "Salang" tunnelini qayta ta'mirlash va boshqalar¹.

O'z-o'zidan ravshanki, transafg'on koridorini zamonaviy voqelikka aylantirish yuqoridagi kelishuvlar ijrosini yuqori saviyada ta'minlash bilan uzviy bog'liq. O'zbekiston tashqi siyosatida yuz berayotgan keng o'zgarishlar jarayoni Afg'onistondagi loyihalarni ham kengroq mezonlarda o'lchashni hamda geosiyosiy manfaatlar nuqtayi nazaridan baholashni taqozo etadi. Shundan kelib chiqqan holda O'zbekistonning zamonaviy transafg'on loyihalarini ikki guruhga ajratgan holda hamda siyosiy tahlil usullari yordamida o'rganish maqsadga muvofiq:

Birinchi guruh — TATK yaratilishiga xizmat qiladigan transport-kommunikatsiya loyihalari.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Afg'oniston Islom Respublikasi Prezidenti Muhammad Ashraf G'aning Qo'shma bayonoti // O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi, 2017-yil 6-dekabr.
<https://mfa.uz/uz/press/news/2017/12/13301/>

Ikkinchi guruh — Afg'onistonga elektr energiyasi etkazib berishga yo'naltirilgan loyihalar.

Birinchi guruhdagi loyihalarning o'ziga xos jihati shundaki, O'zbekiston bu borada hech qaysi davlat ega bo'lmagan imkoniyatlar va tajribaga ega. Jumladan, tadqiqotchi A.Ibraimova o'z nomzodlik ishida Eron portlariga muqobil Hind okeaniga chiqadigan yo'nalish haqida yozar ekan, haqli ravishda juda muhim bir dalilni keltirib o'tadi: "O'zbekiston Afg'oniston bilan transportning barcha turlari orqali bog'langan mintaqadagi yagona davlatdir. Shunga ko'ra bu yo'nalishdagi asosiy yuk oqimi mamlakatimiz orqali o'tishi va Termiz yirik xalqaro transport tuguniga aylanishi mumkin"¹. O'zbekistonning Afg'onistonda transportning barcha turlari orqali bog'langanligi istiqbolda Eron va Pokiston portlariga nafaqat temir yo'l, balki avtomobil, quvur yo'llari hamda havo transport tarmoqlari orqali o'z tranzit yuklarini barcha yo'nalishlarga qulay tashish salohiyatini vujudga keltiradi. Geosiyosiy jihatdan esa, bu mintaqalararo doirada O'zbekistonning nufuzi yanada ortib, uning transmintaqaviy aloqalar tizimida o'ziga xos muhim halqa bo'lishiga zamin yaratadi.

"Mozori Sharif-Hirot" temir yo'li loyihasi

Afg'onistonda sodir bo'layotgan g'oyat murakkab va chigal vaziyatga qaramasdan O'zbekiston va Afg'oniston o'rtasida savdo-iqtisodiy aloqalar tobora rivojlanib bormoqda. 2017-yil dekabr oyida umumiy qiymati 500 mln. dollardan ziyod bo'lgan 40 dan ortiq eksport shartnomasi imzolandi. Ayniqsa, hujjatlar orasida "Hayraton-Mozori Sharif" temir yo'lini uzaytiradigan "Mozori Sharif-Hirot" temir yo'lini qurish bo'yicha imzolangan kelishuv strategik ahamiyatga ega. O'zbekiston Davlat statistika qo'mitasining yillik yanvar-dekabr oylari ma'lumotlariga ko'ra ikki tomon o'rtasidagi tashqi savdo aylanmasi ko'rsatkichlari 2017-yilda 617,8 mln. doll. (shulardan 615, 6 mln. doll. eksport, 2,2 mln. doll.

¹ Ибраимова А.А. Ўзбекистон Республикасини Марказий Осиё давлатлари билан ташқи иқтисодий алоқаларининг географик жиҳатлари. Геог. фан. ном. дисс. – Т.: 2012. – Б.97.

import), 2018-yilda 604,6 mln. doll. (shulardan 602, 5 mln. doll. eksport, 2,1 mln. doll. import), 2019-yilda 618,0 mln. doll. (shulardan 615, 1 mln. doll. eksport, 2,9 mln. doll. import)ni tashkil etdi¹. O'zbekistonning Afg'onistondagi elchisi Yodgorxo'ja Shodmonovning ma'lum qilishicha koronavirus pandemiyasi sharoitiga qaramasdan 2020-yilda o'zaro savdo aylanmasi 775 mln. dollarga yetgan². Ta'kidlash kerakki, O'zbekistonning Afg'oniston bilan tashqi savdo aylanmasi qo'shni davlat orasida 2017-2018 yillarda Qozog'istondan so'ng ikkinchi o'rinni, 2019-yilda esa Qozog'iston va Qirg'izistondan so'ng uchinchi o'rinni band etadi. Afg'oniston Milliy statistika va axborot boshqarmasining 2019-yil hisobotida 2017-2018-yillarda O'zbekiston Afg'oniston importi bo'yicha yuqori beshlikdan o'rin egallagan³. Afg'onistonning asosiy savdo hamkorlari unga qo'shni davlatlar guruhi ekanligi hamda bu borada O'zbekistonning faol tashqi iqtisodiy siyosati hisobga olinsa, shuningdek, mazkur savdo aloqalari "Mozori Sharif-Hirot" temir yo'li orqali birlashtirilsa, nafaqat Afg'onistonning iqtisodiy tiklanishi tezlashadi, balki butun mintaqaning dunyo bozorlariga chiqishi va ulkan tranzit salohiyatini keng ro'yobga chiqarish uchun yangi imkoniyatlar eshigi ochiladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'biri bilan aytganda, "bu loyiha Afg'oniston iqtisodiyotini tiklash uchun aniq va amaliy hissa bo'lib qo'shiladi, yangi ish o'rinlari yaratadi va mamlakatning tranzit salohiyatini oshiradi. Transafg'on transport-kommunikatsiya loyihalari bo'yicha ishlarning shu kabi katta ahamiyatga ega bo'lgan "O'zbekiston-Turkmaniston-Eron-Ummon" va "O'zbekiston-Qirg'iziston-Xitoy" kabi boshqa mintaqaviy loyihalar bilan uzviy bog'liq holda boshlangani Shimoldan Janubgacha

¹ Внешнеторговый оборот Республике Узбекистан (январь-декабрь 2019 г.) // Государственный комитет Республики Узбекистан по статистике, 22.01.2020. <https://stat.uz/ru/press-tsentr/novosti-komiteta/8315-o-zbekiston-respublikasining-tashqi-savdo-aylanmasi-511>


² O'zbekistonning Afg'onistondagi elchixonasiga tashrif va elchi Yodgorxo'ja Shodmonov bilan suhbat // UZREPORT TV.

<https://www.facebook.com/uzreport.tv/videos/697510570937856/?app=fbi>

³ Afghanistan-Statistical-Yearbook-2018-19 _compressed.pdf // Issue № 40, July 2019. - P.138.

hamda Sharqdan G'arbgacha bo'lgan barcha yo'nalishlarda qit'alararo transport koridorlarini eng qisqa yo'llar bilan rivojlantirish uchun zarur sharoitlar yaratadi"¹.

"Mozori Sharif-Hirot" temir yo'l loyihasining umumiy uzunligi 657 km bo'lib, u Markaziy Osiyo davlatlarini Afg'onistonning Mozori Sharif-Jauzjon-Faryob-Bodg'is-Hirot viloyatlari² orqali Fors ko'rfazi va Janubiy Osiyo bilan bog'laydigan temir yo'l koridorining uzviy qismi hisoblanadi. "O'zbekiston temir yo'llari" aksiyadorlik jamiyati raisi o'rinbosari A.Kamolovning ta'kidlashicha, ushbu temir yo'l liniyasini "O'zbekiston temir yo'llari" AJ loyihalashtiradi. Shuningdek, Afg'oniston tarafi uchun loyiha taqdimoti o'tkazilib, ikki mamlakat temir yo'lchilari o'rtasida "yo'l xaritasi" ishlab chiqilgan. Dastlabki hisob-kitoblar asosida o'nlab ko'priklar va ikkita katta tunnel qurilishi rejalashtirilgan³.



"Mozori Sharif-Hirot" temir yo'l liniyasi

¹ Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. – Т.: Ўзбекистон, 2018. – Б.369-370.

² Implementation of Mazar-e-Sharif_Herat Railway Project // Afghanistan Railway Authority, April 03 2019. <https://ara.gov.af/en/implementation-mazar-e-sharifherat-railway-project>

³ Камолов А. Афғонистон бўйича Тошкент халқаро конференцияси минтақада осийишталик ва барқарорликни мустаҳкамлашда муҳим ўрин тутди // Халқ сўзи 2018 йил 27 март, № 57-58 (7015-7016).

Hozirgi paytda siyosatchilar, ekspertlar va tadqiqotchilar tomonidan mazkur loyihaning strategik ahamiyati hamda istiqboli yuzasidan fikr-mulohazalar va bahs-munozaralar qizg'in muhokama qilinmoqda. Ushbu muhokamalarni tahlil qilib, "Mozori Sharif-Hirot" temir yo'l loyihasining ahamiyatini quyidagicha baholash mumkin, deb hisoblaymiz:

Birinchidan, ushbu loyiha avvalo, afg'on xalqining manfaatlariga xizmat qiladi. Afg'onistonni mintaqadagi tranzit rolini amalda ro'yobga chiqaradi. Shu nuqtayi nazardan mamlakatdagi barcha siyosiy kuchlar, ayniqsa, asosiy muxolif kuch bo'lmish "Tolibon" harakatining siyosiy rahbarlari ham bunday infratuzilma loyihalariga o'z qiziqishini bildirayotgani "Mozori Sharif-Hirot" temir yo'l loyihasi istiqbolda Afg'oniston barqarorligi uchun zamin hozirlashi mumkinligini anglatadi. O'zbekiston Prezidentining Afg'oniston bo'yicha Maxsus vakili Ismatilla Ergashev loyiha ahamiyati haqida to'xtalib, shunday ta'kidlaydi: "Bu Afg'onistonni ikkita qo'shni – O'zbekiston va Eron bilan bog'laydigan yagona temir yo'l liniyasi hisoblanadi. Uning foydalanishga topshirilishi natijasida minglab afg'onlar ishli bo'ladi, mamlakat yuklar tranzitidan katta daromad ola boshlaydi. Bunday yuklar hajmi yaqin kelajakda yiliga 10 million tonnadan ortiqni tashkil qilishi mumkin. O'ylaymanki, "Tolibon" harakati timsolidagi muxolifat ham mamlakatda bunday infratuzilma loyihalari ro'yobga chiqarilayotganini ko'rib, qurolli qarama-qarshilikni davom ettirish mantiqsizligi haqida o'ylab ko'rishadi"¹. Ma'lumotlarga ko'ra ushbu loyihani amalga oshirilishi 30 ming afg'onistonlikni ish bilan ta'minlaydi va Kobulga yiliga 400-500 mln. AQSh dollari miqdorida foyda ko'rish imkonini beradi². Bu esa Afg'onistonda barqarorlikni ta'minlashga katta hissa bo'lishi, shubhasiz.

¹ Эргашев И.Р. Ўзбекистон бундан кейин ҳам тинчлик жараёнига кўмаклашади // Халқ сўзи 2018 йил 29 март, № 61 (7019).

² O'zbekiston delegatsiyasi Jenevadagi Afg'oniston bo'yicha halqaro konferensiyada ishtirok etdi // O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi, 2018-yil 28-noyabr. <https://mfa.uz/uz/press/news/2018/11/16847/>

Ikkinchidan, loyihadan barcha manfaatdor davlatlar foydalanishi mumkin. O'z navbatida, ushbu loyiha Afg'onistondagi geosiyosiy raqobatga katta ta'sir ko'rsatib, mintaqalararo bog'lovchi ko'priq vazifasini bajaradi. Mahalliy ekspert Z.Karimova Osiyo transport-kommunikatsiya loyihalari doirasida O'zbekistonning strategik roliga bag'ishlangan maqolasida ushbu loyihaning tatbiq etilishi Afg'oniston tinchlik jarayoniga jalb etilgan davlatlar o'rtasida raqobatdan ko'ra o'zaro hamkorlikning obyektiv sharoitlarini yaratib, mintaqaviy konsensusga erishishi, Markaziy Osiyo davlatlarini Hind okeani portlariga chiqishiga imkoniyat yaratishi, ularning transport va tranzit potensialini oshirishi va pirovard natijada O'zbekiston-Turkmaniston-Eron-Ummon yo'lagi va O'zbekiston-Qirg'iziston-Xitoy temir yo'l tarmoqlarining transafg'on koridori bilan bog'lanishi mintaqalararo transport koridorlarining rivojlanishi uchun zarur sharoitlarni yaratib berishini¹ qayd etadi. Eng muhimi, Afg'oniston tomoni ham mazkur loyihaning geosiyosiy jihatlariga alohida urg'u bermoqda. Xususan, Muhammad Shokir Korgar Afg'oniston tranzit muammolari O'zbekistonda hal etilayotgani, boz ustiga bunday tranzit habga asos solinishi Afg'onistonga o'z tovarlarini O'zbekistonning Andijon porti orqali Xitoy va Rossiya davlatlariga etkazish imkoniyatini taqdim yetishiga o'z e'tiborini qaratadi. Bunday strategik imkoniyat xususida Afg'oniston sobiq Moliya vaziri Iklil Hakimiy ham to'xtalar ekan, tovarlarni har bir konteyneri uchun O'zbekistonga to'langan 2,500 dollar miqdoridagi tranzit ulushi 1,250 dollarga qisqartirilgani kelajakda Afg'onistonga O'zbekiston orqali Osiyo davlatlari va Rossiyaga temir yo'l orqali bog'lanish imkoniyati ekanligini tasdiqlaydi². Afg'oniston mutaxassislari mazkur loyihaning O'zbekiston uchun ham strategik o'rnini yuqori baholashmoqda. Xususan, Afg'oniston

¹ Karimova Z. Connecting Asia: Uzbekistan Looks to Capitalize on Central Asia's Transport Potential // The Diplomat, April 12 2018. Available at: <https://thediplomat.com/2018/04/connecting-asia-uzbekistan-looks-to-capitalize-on-central-asias-transport-potential/>

² Uzbekistan Drops Transit Fees For Afghan Goods By 50% // Tolo News, 23 January 2018. <https://www.tolonews.com/business/uzbekistan-drops-transit-fees-afghan-goods-50>

Savdo va sanoat vazirligi Tranzit boshqarmasi sobiq rahbari Yahyo Axloqiy soʻzlariga koʻra Oʻzbekiston va Afgʻoniston oʻrtasidagi savdo-tranzit aloqalari ikki davlat foydasiga rivojlanmoqda. Mozori Sharif-Hirot temir yoʻliga Oʻzbekiston investitsiyasining kirib kelishi bilan Oʻzbekiston tovarlarini osonlik bilan Eronga va hattoki, Erondan Fors koʻrfazi mamlakatlariga olib oʻtishga imkon yaratiladi¹. Boshqa bir afgʻon rasmiy vakili, Abdul Bari Siddiqiyning ishonchiga koʻra bu loyiha istiqbolda Oʻzbekistonni Eron portlariga toʻgʻridan-toʻgʻri olib chiqishi va Oʻzbekiston, Afgʻoniston, Eron, Qirgʻiziston va Xitoy oʻrtasida savdo munosabatlarining kengayishiga sharoit yaratadi. Hindistonlik ekspertlarning qayd etishicha, Hindiston Eron-Afgʻoniston chegarasida Chobahordan Zohidongacha temir yoʻl qurilishini qoʻllab-quvvatlaydi, Oʻzbekiston esa Hindiston, Afgʻoniston va Eron tomonidan imzolangan tranzit savdo bitimiga qoʻshilishga katta qiziqish bildirmoqda. Hindiston tomoni “Xalqaro Shimol-Janub transport koridori” (INSTC) va Ummonni ham oʻz ichiga olgan Ashxobod bitimi orqali Markaziy Osiyo bilan bogʻlanishni rejalashtirgan². Koʻrinib turibdiki, mazkur loyihaning geosiyosiy xususiyati katta boʻlib, uning ishga tushishi natijasida nafaqat Afgʻoniston va Oʻzbekiston, balki qolgan Markaziy Osiyo davlatlari, oʻz navbatida, Eron, Pokiston, Hindiston, Xitoy va Rossiya oʻrtasida oʻzaro manfaatli hamkorlik serqirra tus oladi.

Ammo Afgʻonistonda yoʻlga qoʻyishi rejalashtirilgan har qanday loyihalar istiqboli ushbu davlatdagi nomaʼlum vaziyatning izga tushirilishi bilan chambarchas bogʻliq. Xususan, “Mozori Sharif-Hirot” temir yoʻl loyihasi amalga oshishi yoʻlida turli muammolar mavjud. Baʼzi ekspertlarning Afgʻonistondagi boʻlgʻusi vaziyatga nisbatan pessimistik qarashlari transafgʻon loyihalarining ham shunday mulohazalari bilan yoʻgʻrilgan. Shu nuqtayi nazardan “Mozori

¹ Uzbekistan Builds Transit Hub At Afghan Border // Tolo News, 01 July 2018. Available at: <https://www.tolonews.com/business/uzbekistan-builds-transit-hub-afghan-border>

² Chaudhury D.R. Uzbekistan keen to connect India via Afghanistan & Iran // The Economic Times, 22 December 2019. Available at: <https://m.economictimes.com/news/politics-and-nation/uzbekistan-keen-to-connect-india-via-afghanistan-iran/articleshow/72923860.cms>

Sharif-Hirot” temir yo‘l loyihasi oldida turgan muammolar va tahlikalar tahlili sinchiklab o‘rganilishi o‘rinlidir.

Birinchi asosiy muammo temir yo‘l qurilishi bo‘yicha to‘liq yakuniga yetkazilmagan *moliyaviy masalalar muammosi*. “Mozori Sharif-Hirot” temir yo‘lini qurish uchun O‘zbekiston 500 mln. dollar mablag‘ ajratishga tayyor¹. Biroq Afg‘oniston Temir yo‘l ma‘muriyati loyihani 1,8 mlrd. dollarga baholamoqda.².

Afg‘onistonda to‘la ta‘minlanmagan va kafolatsiz *xavfsizlik muammosi*. “Tolibon” harakati va ayrim terrorchi guruhlar tomonidan temir yo‘l qurilishiga monelik ko‘rsatilishi ehtimoli mavjud. Rossiyalik ekspert A.Serenko 2019-yilning dastlabki oylaridan boshlab “Tolibon” harakatining Afg‘oniston shimoliy viloyatlariga hujumi sezilarli ravishda faollashganini tahlil etib, turli baholashlarga ko‘ra ular Faryob viloyatining 90% hududini, shuningdek, Balx, Jauzjon va Bodg‘is viloyatlarining 10 dan ortiq blokpostini qo‘lga kiritgan³. Eng e‘tiborli jihati shundaki, egallangan hududlarning deyarli barchasi “Mozori Sharif-Hirot” temir yo‘l loyihasi o‘tadigan yo‘nalishlarda joylashganidir. BMT Bosh kotibining 2019-yil fevral oyi Xavfsizlik Kengashida qilgan hisoboti ham ushbu harakatning shimoldagi faollashuvini tasdiqlaydi⁴. Masalaning boshqa bir nozik jihati ham mavjud. Ya‘ni, Afg‘oniston janubida o‘rnashib olgan “IShID” terrorchi guruhi filialining mamlakatning shimoliy Jauzjon viloyatida ham hozir bo‘lishiga oid taxminlar o‘z tasdig‘ini topdi. Jumladan, BMT Xavfsizlik Kengashining 2019-yil yanvarda nashr etilgan tahliliy hisobotida Jauzjon viloyatida “IShID” terrorchi guruhi va “Tolibon” harakati o‘rtasida qurolli kurash sodir bo‘lgani haqida ma‘lumotlar keltirilib, “IShID” jangarilari “Tolibon”

¹ Hakimi E. Uzbekistan will provide \$500M to finance a portion of Mazar-Heart Railway // Twitter, 28 March 2018. <https://twitter.com/EkiliHakimi/status/978517743623340032?s=20>

² Uzbekistan Ready To Help Fund Railway Project // Tolo News, 29 March 2018. <https://tolonews.com/business/uzbekistan-ready-help-fund-railway-project>

³ Серенко А. Талибы открыли «новогодний фронт» на севере Афганистана. Войны и Армии / Независимая газета, 11.01.2019. http://www.ng.ru/armies/2019-01-11/100_afhan0111.html

⁴ The situation in Afghanistan and its implications for international peace and security (Report of the Secretary-General). A/73/777 S/2019/193, 28 February 2019. – P.6.

harakatining shimolda ularga xayrixoh kam sonli kuchlari (Faryobda taxminan 170 nafar, Sari Pulda 100 nafar va Balxda 50 nafar) mavjudligi haqida xabarlar tarqatsa-da, Jauzjon viloyati ushbu terrorchi guruhlardan tozalangani ma'lum qilinadi¹. Shu jihatdan temir yo'llar xavfsizligini ta'minlash kafolati katta so'roq ostida qolishi mumkin.

"Mozori Sharif-Hirot" temir yo'l loyihasi yo'nalishlarida katta **geosiyosiy raqobat** mavjud. Bunday raqobat Afg'onistonda tashqi kuchlarning o'z manfaatlar doiralarida ichki kuchlarga ko'rsatadigan moliyaviy, harbiy, mafkuraviy va boshqa yordamlari natijasidir. Mahalliy olim S.Adilxodjayeva Afg'oniston shimoliy viloyatlarida "ishidchi"larning paydo bo'lishi sabablari geosiyosiy omil bilan bevosita bog'liq ekanini quyidagicha izohlaydi: "Toliblarni Saudiya Arabistonining bir qator kuchlari moliyalashtirmoqda. "Islom davlati" guruhi esa Turkmanistondan Janubiy va Janubi-Sharqiy Osiyoga gaz quvuri o'tkazilishiga butunlay qarshi bo'lgan Qatar gaz biznes vakillari tomonidan moliyalashtirilmoqda, chunki aynan ular Pokiston, Hindiston va Xitoyga gaz eksport qilishda asosiy ta'minotchilardir. Bu vakillar "TAPI"² gaz quvuri qurilish loyihasidan manfaatdor emas, boisi bu loyiha ularning yuqorida keltirilgan davlatlarga gaz eksport qilish monopoliyasidagi yetakchiligiga barham beradi"³. Bunday geosiyosiy raqobat sharoiti ayni temir yo'l o'tadigan Afg'oniston hududlarini qamrab oladi. Ikkinchi geosiyosiy omil "Mozori Sharif-Hirot" loyihasining Eron bilan bog'liq jihatidir. Istiqbolda Eronga bog'lanadigan temir yo'l uning mintaqaviy raqobatchisi – Saudiya Arabistoni, xalqaro miqyosdagi raqobatchisi – AQSh manfaatlariga to'g'ri kelmasligi mumkin. Mazkur temir yo'l ishga tushadigan bo'lsa, Saudiya Arabistoni va AQSh

¹ Letter dated 15 January 2019 from the Chair of the Security Council Committee pursuant to resolutions 1267 (1999), 1989 (2011) and 2253 (2015) concerning Islamic State in Iraq and the Levant (Da'esh), Al-Qaida and associated individuals, groups, undertakings and entities addressed to the President of the Security Council. S/2019/50, 15 January 2019. – P.16.

² TAPI (Turkmenistan-Afghanistan-Pakistan-India) – Turkmanistondan Afg'oniston orqali Janubiy Osiyo tomon transafg'on gaz quvurini tashkil etishga mo'ljallangan loyiha.

³ Адилходжаева С.М. Обострение ситуации в Афганистане: новые угрозы миру и пути их предотвращения / Сравнительная политика и геополитика, 2017 Vol.8 No. 4. – С.79.

Eronning Afg'onistonda ta'siri ortishi, o'z navbatida, Eron, Markaziy Osiyo, Rossiya va Xitoy geosiyosiy halqasining vujudga kelishidan tashvishlanadi. Sharqshunos ekspert A.Knyazevning fikriga ko'ra "Hayraton-Mozori Sharif" temir yo'li katta transnatsional tarmoq hisoblanmaydi, biroq ushbu yo'lining Mozori Sharifdan Hirotgacha loyihalashtirilishi hamda Erongacha borishi geosiyosiy ahamiyatga ega bo'lib, to'g'ridan-to'g'ri AQSh manfaatlariga qarama-qarshi sanaladi¹. Bizning fikrimizcha, ushbu loyihaning geosiyosiy omili zohiran shunday ko'rinishga ega bo'lsa-da, botinan Qo'shma Shtatlarning o'ziga xos manfaatlariga ham javob berishi mumkin.

Jumladan, O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning AQShga uyushtirgan rasmiy tashrifi chog'ida Donald Tramp O'zbekiston tomonidan rejalashtirilayotgan temir yo'l va infratuzilma loyihalarini amalga oshirishga siyosiy va konsultativ ko'mak ko'rsatish taklifini ma'lum qilgan edi². Qo'shma Shtatlarning temir yo'l va boshqa infratuzilma loyihalariga siyosiy va konsultativ ko'mak ko'rsatish taklifi bejiz emas. Shuningdek, AQSh, Afg'oniston va O'zbekiston o'rtasida imzolangan uch tomonlama Qo'shma bayonot³da "Mozori Sharif-Hirot-Bahromcha" temir yo'lini qurish imkoniyatlari muhokama etilgani ham diqqatga molikdir. Bizning fikrimizcha buni Vashingtonning uchta o'zaro bog'liq manfaatlarini ssenariysi bilan bog'lash mumkin.

Birinchidan, bugungi kunda AQShning Afg'oniston siyosatida "AfPak" strategiyasi "AfCentAsia" strategiyasi bilan o'zgarib bormoqda. Misol uchun, 2019-yil dekabr oyida "O'zbekiston-AQSh-Afg'oniston" uch tomonlama formatidagi ilk uchrashuvni o'tkazilishi va unda O'zbekiston va

¹ Князев А. Мифология трансافганских проектов // Независимая газета, 27.01.2019. http://www.ng.ru/dipkurer/2019-01-27/11_7492_mythology.html

² The United States and Uzbekistan: Launching a New Era of Strategic Partnership // The White House, May 16, 2018. <https://www.whitehouse.gov/briefings-statements/united-states-uzbekistan-launching-new-era-strategic-partnership/>

³ Joint Statement on the U.S. - Afghanistan - Uzbekistan Trilateral Meeting // United States Department of State, May 27, 2020. <https://www.state.gov/joint-statement-on-the-u-s-afghanistan-uzbekistan-trilateral-meeting/>

Afg'oniston o'rtasida savdo hamda tranzit hamkorligi, C5+1 formatiga Afg'onistonni ham jalb etish masalalari muhokama etilishi¹ o'z-o'zidan "AfCentAsia" strategiyasi mahsuli hisoblanadi.

Ikkinchidan, hozirgi Afg'onistonda geosiyosiy ta'siri yuqori va hal qiluvchi rol o'ynaydigan Qo'shma Shtatlar uchun Mozori Sharif-Hirot loyihasi Eronga geosiyosiy bosim o'tkazish dastagiga aylanishi ssenariysi ham mavjud. Bunda Eron tranzit yuklari turli vositalar va yo'llar bilan to'siqqa uchrashi va shu orqali mamlakat iqtisodiyotiga jiddiy zarar yetkazilishi mumkin. Basharti istiqbolda Vashington tomonidan loyihani moliyalashtirish masalasi kun tartibiga ko'tariladigan bo'lsa, yuqoridagi gipoteza o'z tasdig'ini topishi mumkin.

Uchinchi ssenariy – Markaziy va Janubiy Osiyoni Afg'oniston orqali o'zaro bog'lash ssenariysi. Bunda Markaziy Osiyo davlatlari, ayniqsa, O'zbekistonning Afg'onistondagi transport-tranzit, energetika va boshqa loyihalari Oq uy tomonidan moliyalashtiriladi, Markaziy Osiyo mintaqasining Rossiya va Xitoyga bo'lgan iqtisodiy bog'liklari kamayadi va oqibatda ushbu yirik davlatlarning mintaqadagi ta'sir kuchiga putur yetkaziladi. Boshqacha aytganda, AQSh "Katta Markaziy Osiyo" geosiyosiy xaritasi orqali O'zbekistonga "Mozori Sharif-Hirot" loyihasiga muqobil variantlarni taklif etishi mumkin bo'ladi.

Biz yuqorida sanab o'tilgan turli xil imkoniyatlar, muammolar, ssenariylar va boshqa omillarni hisobga olgan holda, "Mozori Sharif-Hirot" temir yo'l loyihasini "SWOT" tahlil etish uning istiqboli haqida kengroq tasavvur qilish imkonini beradi, deb hisoblaymiz.

¹ First Afghanistan-US-Uzbekistan Trilateral Meeting Held In Istanbul // Ministry of Foreign Affairs of the Islamic Republic of Afghanistan, 09.12.2019.
<https://www.mfa.gov.af/news/1502-first-afghanistan-us-uzbekistan-trilateral-meeting-held-in-istanbul.html>

**“Mozori Sharif-Hirot” temir yo‘l loyihasi
“SWOT” tahlili**

KUCHLI JIHATLAR (STRENGTHS)	ZAIF JIHATLAR (WEAKNESSES)	IMKONIYATLAR (OPPORTUNITIES)	TAHLIKALAR (THREATS)
Afg‘onistonda temir yo‘l qurish bo‘yicha O‘zbekiston (Hayraton-Mozori Sharif) va Eron (Xaf-Hirot) tomonlarining katta tajribasi mavjudligi	Loyihani amalga oshirish yuzasidan yuqori darajadagi ko‘p tomonlama muzokaralar formatini ishlab chiqish zarurati	Afg‘on xalqining doimiy ish bilan ta‘minlanishi va turli afg‘on qabilalari o‘rtasida qurolli qarama-qarshilikni to‘xtatish imkoniyati	Afg‘onistondagi harbiy-siyosiy vaziyat va kafolatlanmagan xavfsizlik
Markaziy Osiyo davlatlari to‘g‘ri dan-to‘g‘ri hamda qisqa masofada Chobahor va Bandar Abbos portlariga chiqadi	Loyihani moliyalashtirish masalalarining nihoyasiga etkazilmagani	Afg‘oniston uchun bir vaqtining o‘zida ham Eron va Yevropa, ham Markaziy Osiyo, Rossiya va Xitoy bozorlariga chiqish imkoniyati	Tolibon va boshqa qurolli guruhlarining temir yo‘lga hujum uyushtirishi yoki undan siyosiy ta‘sir quroli sifatida foydalanishi
Iqtisodiy jihatdan tejamkor (1 t. yukni O‘zbekiston chegarasidan Bandar Abbosga yetkazilishi Saraxs orqali tashilganga nisbatan 10-12 dollarga arzon tushadi) ¹	Loyihaga muqobil variantlarning taklif etilishi (Kolxozobod-Quyi Panj (Tojikiston)-Kunduz-Mozori Sharif-Hirot (Afg‘oniston) - Bandar Abbos (Eron) temir yo‘li)	O‘zbekistonni eng yaqin masofadagi Fors ko‘rfazi, Hind okeani va Yevropa portlariga olib chiqadi	Temir yo‘l orqali noqonuniy qurol-yarog‘lar, narkotik va psixotrop moddalarni olib o‘tish xavfi
O‘zbekiston-Turkmaniston-Eron-Ummon yo‘lagi va O‘zbekiston-Qirg‘iziston-Xitoy temir yo‘l tarmoqlari ushbu loyiha orqali bog‘lanishi mumkin	Loyihani yakuniga yetkazish muddati belgilanmagani va muddat bo‘yicha shartnomaviy-huquqiy asosni yaratish zaruriyati	Markaziy Osiyo davlatlari mintaqaviy integratsiyasi rivojlanishini ta‘minlaydi	Afg‘onistondagi geosiyosiy raqobat, tashqi kuchlarning Afg‘oniston ichki ishlariga to‘g‘ri dan-to‘g‘ri aralashuvi

¹ Зоҳидов А.А. Марказий Осиё транспорт тизимини самарали бошқариш механизмни тақомиллаштириш. Иқт. фан. док. (Doctor of Science) дисс. – Т.: – Б.150.

Afg'onistonning ijtimoiy-iqtisodiy infrastrukturasi tiklanadi, aholi yangi ish o'rinlari bilan ta'minlanadi, mamlakat tranzit ulushidan katta daromad topadi;	Temir yo'l izlarining standartlari muvofiq emasligi (O'zbekistonda 1526 mm., Eronda 1435 mm.);	"OBOR" loyihasi, "Shimol-Janub" koridori, TRACECA transport koridorlari o'zaro bog'lanib, transqit'aviy aloqalar rivojiga turtki beradi;	Afg'onlararo muzokaralar jarayonining cho'zilib ketayotganligi
"Tolibon" harakatining loyihaga katta qiziqish bildirayotganligi;	AQSh va Eron o'rtasidagi mojarolarning kuchayishi sharoitida AQShning loyihani amaliy qo'llab-quvvatlamasligi ehtimoli;	Eron uchun sanksiyalarga qarshi kurashish imkoniyati;	Muqobil temir yo'l loyihalari bo'yicha turli darajadagi muzokaralar olib borilishi;
Afg'oniston tinchlik jarayonida mintaqaviy konsensus yaratishi.	Pokiston va Fors ko'rfazi arab davlatlarining loyihaga nisbatan xayrixoh emasligi yoki turli yo'llar orqali ta'sir ko'rsatish ehtimoli.	Xalqaro gumanitar ko'maklarning Afg'onistonga tezkor va keng jalb etish imkoniyati.	Loyihani moliyalashtirishning uzoq muddatga cho'zilishi.


"Mozori Sharif-Kobul-Peshovar" temir yo'li loyihasi

Birinchi guruh zamonaviy transafg'on loyihalari haqida so'z yuritganda O'zbekiston tashabbuskor bo'lgan "Mozori Sharif-Kobul-Peshovar" loyihasini alohida qayd etish joiz. 2018-yil 3-4-dekabrda Rossiya, Qozog'iston, O'zbekiston, Afg'oniston va Pokiston temir yo'l idorasi rahbarlari Toshkentda uchrashib, tomonlar o'rtasida "Mozori Sharif-Kobul-Peshovar" temir yo'li moliyaviy konsorsiumi va qo'shma ishchi guruhini tashkil etish bo'yicha Protokol imzolashdi¹.

"Mozori Sharif-Kobul-Peshovar" temir yo'li Markaziy Osiyoni Janubiy Osiyo bilan Afg'oniston orqali bog'laydigan temir yo'l liniyasi hisoblanadi. Ushbu temir yo'l loyihasi taqdimotchisi U.Ibragimovning loyiha haqidagi ma'lumotlariga ko'ra "Mozori Sharif-Kobul-Peshovar" temir yo'li istiqbolda 4305 km. masofadagi Rossiya-Qozog'iston-O'zbekiston-

¹ New transport corridor, new opportunities and large-scale prospects // O'zbekiston temir yo'llari, 12.07.2018. Available at: http://www.railway.uz/en/informatsionnaya_sluzhba/novosti/12643/

Afg'oniston-Pokiston-Hindiston transport koridorining barpo etilishiga xizmat qilishi mumkin.



“Mozori Sharif-Kobul-Peshovar” temir yo‘li (Kobul koridori)

Mazkur temir yo‘l Afg‘onistonning Mozori Sharif-Bag‘lon-Kobul va Pokistonning Torxam hududlari orqali o‘zaro bog‘lanadi. Temir yo‘l Afg‘onistonning Mozori Sharif shahridan Kobulgacha 573 km. masofada bo‘lib, aynan poytaxt Kobul yo‘nalishlarni Janubiy Osiyoga bog‘lovchi tugunga aylanishi mumkin, shu boisdan istiqboldagi ushbu temir yo‘l yo‘nalishlari “Kobul koridori” deb nomlanmoqda.

U.Ibragimovning ma‘lum qilishicha, temir yo‘lning Surxon-Puli Xumri-Doshi-Surabay-Jalolobod-Torxam yo‘nishi elektrlashtirilishi rejalashtirilgani, o‘z navbatida, Mozori Sharif va Torxamda logistika markazlari tashkil etilishi intermodal transport (temir va avtomobil yo‘llari) tizimi uchun strategik ahamiyat kasb etadi¹.

¹ Ibragimov U.N. Transport Corridor Russia-Kazakhstan-Uzbekistan-Afghanistan-Pakistan. Available at: <http://transport-koridori.blogspot.com>.

“Mozori Sharif-Kobul-Peshovar” temir yo‘li (Kobul koridori) bo‘ylab o‘tadigan yo‘nalishlarning strategik xususiyati shundan iboratki, u istiqbolda nafaqat temir yo‘l, balki avtomobil va havo yo‘llari singari transport vositalari bilan harakatlanadigan multimodal transport koridorga aylanishi mumkin.

Shu bilan birgalikda Kobul koridorining geosiyosiy ahamiyati xususida quyidagilarni sanab o‘tish lozim:

Birinchidan, koridor Afg‘onistonning ijtimoiiy-iqtisodiy va ayrim siyosiy muammolarini hal etishga yordam beradi. Loyihaga diqqat bilan e‘tibor qaratganda, u Afg‘onistonning markaziy shaharlari va viloyatlarini bir-biri bilan bog‘labgina qolmasdan, butun aholining ishsizlik, qashshoqlik, elektr energiyasi tanqisligi, umuman, mamlakatning izdan chiqqan ishlab chiqarish va sanoat infratuzilmasini rivojlanishiga katta turtki bo‘ladi. Qolaversa, “Mozori Sharif-Torxam” avtomobil yo‘li “Kobul halqa yo‘li”ni ham tezkor ravishda yakunlanishiga amaliy hissa qo‘shadi.

Ikkinchidan, ushbu temir yo‘l nafaqat mintaqaviy, balki xalqaro iqtisodiy-siyosiy munosabatlar rivojlanishida samarali o‘rin egallaydi. Mutaxassislarning baholashicha, Kobul koridori Yevropa, Markaziy Osiyo, Pokiston, Hindiston va Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlari o‘rtasida savdoning kengayishi, eksport va import o‘shishiga xizmat qiladi. Zamonaviy jahon iqtisodiyoti sust rivojlanayotgan sharoitda ushbu loyihaning amalga oshishi mintaqaviy taraqqiyotni ta‘minlash barobarida global iqtisodiy o‘shish sur‘atlariga yangi turtki bo‘lish imkonini beradi¹.

Uchinchidan, loyiha ShHTning barcha a‘zo davlatlarini Afg‘oniston orqali o‘zaro bog‘laydi. Bu geografik jihatdan Rossiya va Markaziy Osiyoni Hindiston va Pokiston bozorlariga, o‘z navbatida, Hindiston va Pokistonda Markaziy Osiyo, Rossiya va Yevropa bozorlariga olib chiqadi. Xitoy tomoni uchun ushbu koridor “OBOR” loyihasining amaliyotga tadbiiq etilishi uchun ko‘makchi vazifasini bajarishi

¹ Результат многосторонних переговоров: “Кабульский коридор” // O‘zbekiston temir yo‘llari, 11.04.2019. http://railway.uz/ru/informatsionnaya_sluzhba/novosti/14457/

mumkin. Xususan, O'zbekiston Prezidentining Afg'oniston bo'yicha Maxsus vakili Ismatilla Ergashev va XRR Tashqi ishlar vazirligining Afg'oniston bo'yicha Maxsus elchisi Den Siszyun o'rtasida 2019-yil 8-aprelda Pekinda bo'lib o'tgan uchrashuvda Xitoy tomoni "Mozori Sharif-Kobul-Peshovar" temir yo'l loyihasiga qo'shilishga tayyor ekanini ma'lum qildi. Xitoyning mazkur loyihaga qiziqish bildirishi faqatgina geoiqtisodiy sabablar bilan bog'liq emas. Bu temir yo'l Xitoy uchun harbiy-strategik jihatdan ham manfaatlidir. Zamonaviy Afg'onistonni o'rganish markazi eksperti, sharqshunos D.Verxoturovning bu xususidagi mulohazalari e'tiborga molik. Uning fikriga ko'ra Afg'onistonning baland tog'li hududlari uzra o'tadigan temir yo'l loyihasiga Xitoyni jalb etmaslikning imkoni yo'q. XRR – balandligi 3000 metrdan ortiq temir yo'l qurgan dunyodagi yagona davlat hisoblanadi¹. Shuningdek, D.Verxoturov taxminiga ko'ra Rossiya temir yo'l magistrali qurilishiga qarshi bo'lmasligi mumkin, biroq Xitoy va AQSh unda loyiha ishtirokchisi sifatida ishtirok etadigan bo'lsa, manfaatlar to'qnashishi ehtimoli mavjud. Bundan tashqari amerikaliklar Xitoyning barcha dengiz kommunikatsiyalarini qamal qilish haqida jiddiy o'ylamoqda. Agar Xitoy shunday temir yo'lga ega bo'lsa, harbiy-strategik jihatdan bu temir yo'l dengiz qamalini aylanib o'tishga real imkoniyat bo'ladi².

To'rtinchidan, Pokiston tomoni ham mazkur temir yo'l qurilishiga ko'proq xayrixoh davlat ekanligi hisobga olinsa, Kobul koridori ishga tushishi sharoitida Afg'oniston va Pokiston o'rtasidagi chegara muammolarini muzokaralar orqali hal etilishiga samarali ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Kobul koridori turli rasmiy vakillar va ekspertlar tomonidan baholanishi barobarida uni amalga oshirishga

¹ Верхотуров Д. Кратчайший путь для рыбка: кому и зачем нужен "Кабульский коридор" // Sputnik News, 16.04.2019. Available at: https://m.uz.sputniknews.ru/columnists/20190416/11249398/Kratchayshiy-put-dlya-ryvka-komu-i-zachem-nuzhen-Kabulskiy-koridor.html?mobile_return=no

²Верхотуров рассказал, почему Китаю нужна железная дорога через Афганистан // Sputnik News, 11.04.2019. Available at: <https://m.uz.sputniknews.ru/radio/20190411/11202190/Verkhoturov-rasskazal-pochemu-Kitayu-nuzhna-zheleznyaya-doroga-cherez-Afganistan.html>

to'sqinlik qiluvchi sabablarni ham diqqat bilan tahlil qilishimiz o'rinli bo'ladi.

Loyihaga to'sqinlik qiluvchi asosiy omil Afg'oniston atrofidagi **geosiyosiy qarama-qarshilik omilidir**. Mamlakatda uzoq yillardan buyon davom etayotgan ichki va tashqi kuchlarning o'zaro kurashi sharoitida mazkur loyihani ham geosiyosiy maqsadlar va manfaatlar doirasida o'lchanishi va bu boshqa tomonga aks ta'sir ko'rsatishi ehtimoli ham yo'q emas. Aniqroq aytganda, loyihaning AQSh tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlanishi ma'lum ma'noda Xitoy va Rossiyaning geosiyosiy manfaatlariga mos emas. Boshqa tomondan, Hindiston va Eron tarafidan muqobil koridorlar variantlari ham ishlab chiqilgani o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmaydi.

Afg'onistondagi **xavfsizlik omili** temir yo'l qurilishini katta xavf ostiga qo'yadi. Ayniqsa, Afg'onistonning Pokiston bilan chegaradosh janubiy hududlarida turli terrorchi guruhlarining markazlashgani omili ham loyiha uchun jiddiy tahlikadir.

Temir yo'l qurilishiga **masofaviy omil** ham o'z ta'sir ko'rsatishi mumkin. Boz ustiga ushbu temir yo'l Afg'onistonning murakkab tuzilishga ega baland tog'li hududlaridan o'tadi.

Temir yo'l relslaridagi standartlar omili yuzasidan yagona kelishuvga erishish lozim. Ma'lumotlarga ko'ra Pokiston temir yo'l izlari kengligi 1676 mm., O'zbekistondan Mozori Sharifgacha bo'lgan temir yo'l izlari kengligi MDH standarti bo'yicha 1526 mm.ni tashkil etadi¹. Bu esa tovarlarni qayta yuklash va ularni yetkazish uchun ko'p vaqt hamda xarajatlar sarflanishiga olib keladi.

"Mozori Sharif-Kobul-Peshovar" temir yo'l loyihasini ham "SWOT" tahlili yordamida o'rganish loyiha istiqbolini xolis baholash va shu orqali uni "Mozori Sharif-Hirot" temir yo'l loyihasi bilan qiyosiy tahlil etish imkonini beradi.

¹ Расулов М.Х., Ибрагимов У.Н., Мирахмедов М.М., Ризаев А.Н. Центральнo-Азиатские транспортные коридоры и перспективы дальнейшей интеграции Узбекистана в международные перевозки / Вестник ТашИИТ №2, 2015. – С.103.

“Mozori Sharif-Kobul-Peshovar” temir yo‘l loyihasi (Kobul koridori) “SWOT” tahlili

KUCHLI JIHATLAR (STRENGTHS)	ZAIF JIHATLAR (WEAKNESSES)	IMKONIYATLAR (OPPORTUNITIES)	TAHLIKALAR (THREATS)
Afg'onistonning ijtimoiy-iqtisodiy va ayrim siyosiy muammolarini hal etadi;	Loyihani moliyalashtirish masalalarining to'liq yakuniga yetkazilmagani	Afg'on xalqi doimiy ish bilan ta'minlanadi (markaziy shaharlar va viloyatlar o'zaro bog'lanadi)	Temir yo'l o'tadigan Afg'oniston hududlarida qurolli qarama-qarshiliklar sodir bo'lishi
Temir yo'l loyihasining ishtirokchi davlatlar tomonidan qo'llab-quvvatlanishi	Loyihaga Hindiston tomonini rasmiy ravishda jalb etilmagani	Ishtirokchi davlatlarning tranzit davlat sifatidagi roli kuchayib, tranzit ulushidan katta daromad ko'rishi	Afg'oniston va Pokiston chegara-sidagi turli terrorchi guruhlarining temir yo'l qurilishiga monelik qilishi
Zamonaviy temir yo'l qurish bo'yicha innovatsion tajribaga ega Xitoy (ShHTning barcha a'zo davlatlarini qamrab olishi) hamda AQShning loyihada ishtirok etishga tayyor ekanligi	Loyihaning Rossiya geosiyosiy manfaatlariga zid tomonlari mavjud ekanligi	Markaziy Osiyo davlatlarining yangi jahon bozorlariga chiqishi, natijada ularning Rossiya va Xitoyga bo'lgan iqtisodiy bog'liqliklari kamayishi	Temir yo'l orqali noqonuniy qurol-yarog'lar, narkotik va psixotrop moddalarni olib o'tish xavfi
Markaziy Osiyoning barcha davlatlarini Janubiy Osiyo portlariga olib chiqadigan eng qisqa yo'nalish ekanligi	Temir yo'l masofasining uzun ekanligi (taxminan 4305 km.) yoki Rossiya va Qozog'iston tomonlarining boshqa muqobil temir yo'l yo'nalishlari bilan qanoatlanishi	Kobul koridorining multimodal transport (temir yo'l va avtomobil yo'li) xususiyatga ega ekanligi	Afg'onistondagi geosiyosiy raqobat, tashqi kuchlarning Afg'oniston ichki ishlariga to'g'ridan-to'g'ri aralashuvi
O'zbekiston tomonidan olib borilayotgan faol temir yo'l diplomatiyasi	Temir yo'l izlarining standartlari muvofiq emasligi (O'zbekistonda 1526 mm., Pokistonda 1676 mm.)	Temir yo'l liniyasining elektrlashtirilishi	Afg'onlarning muzokaralar jarayonining cho'zilib ketayotganligi
Markaziy Osiyo davlatlarini Afg'oniston orqali Janubiy Osiyo bandargohlariga eng yaqin masofada chiqishga mo'ljallangan temir yo'l koridori ekanligi	Afg'onistonning noqulay tabiiy geografik reliefi (baland tog'lar, dovonlar)	Afg'oniston va Pokiston chegara muammolarini muzokaralar orqali hal etishga turki berishi mumkin	Afg'onistonning tog'li hududlarida ko'chki xavfining tez-tez sodir bo'lib turishi

Umuman olganda O'zbekiston Hind okeani portlariga chiqish yo'lida katta diplomatik sa'y-harakatlarni kuchaytir-moqda. Ayniqsa, transafg'on loyihalari bilan bog'liq masa-lalarda turli geosiyosiy manfaatlarga ega davlatlar bilan muntazam muzokaralar olib borilmoqda. Misol uchun, O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2018-yilda Hindistonga rasmiy tashrifi davomida "Mozori Sharif-Hirot" temir yo'l loyihasini Chobahor kelishuvi bilan bog'lash xususidagi muzokaralardan roppa-rossa bir oy o'tib, Tashqi ishlar vaziri Abdulaziz Komilov boshchiligidagi delegatsiya Pokiston Bosh vaziri Imron Xon bilan ikki mamlakatni Afg'oniston orqali bog'laydigan temir yo'l loyihasi yuzasidan muzokara olib borganini e'tiborga molikdir. Shuningdek, yuqoridagi sahifalarda "Mozori Sharif-Kobul-Peshovar" temir yo'lini moliyalashtirish uchun 2018-yilda Rossiya va Xitoy tomonlarini ham jalb etish bo'yicha muzokaralar olib borilgani haqida yozgan edik. Biroq o'tgan vaqt davomida ushbu temir yo'lning moliyaviy ta'minoti yuzasidan kutilgan natijalarga erishilmaganligi tufayli o'zbek diplomatlari bu borada AQSh bilan ham muzokaralarga kirishishni boshladi. Natijada O'zbekiston Prezidentining 2020-yil 12-noyabrdagi "Afg'onis-ton Islom Respublikasi bilan iqtisodiy hamkorlikni yanada kengaytirish va mustahkamlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida belgilangan vazifalar¹ ijrosi yuzasidan 2020-yil dekabrda O'zbekiston, Afg'oniston va Pokiston davlatlari rahbarlari nomidan loyihani moliyalashtirish uchun AQSh Xalqaro taraqqiyot moliya korporatsiya va boshqa xalqaro moliya institutlari mablag'larini jalb etishga qaratilgan qo'shma murojaat yo'llandi. Shundan so'ng 2021-yil 2-fevralda O'zbekiston, Afg'oniston va Pokiston hukumati vakillari ishtirokida "Mozori Sharif-Kobul-Peshovar" temir yo'l loyihasini qurish bo'yicha uch tomonlama ishchi guruhning birinchi yig'ilishi o'tkazilib, unda tomonlar

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Афғонистон Ислом Республикаси билан иқтисодий ҳамкорликни янада кенгайтириш ва мустаҳкамлаш чора-тадбирлари тўғрисида"ги ПҚ-4982-сон қарори // Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базиси, 12.11.2020. <https://lex.uz/docs/5100020>

o'rtasida "Yo'l xaritasi" imzolandi¹. Shu kunning o'zida O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Toshkentda Afg'oniston Tashqi ishlar vaziri Hanif Atmar hamda Pokiston Bosh vazirining savdo, to'qimachilik sanoati va investitsiyalar masalalari bo'yicha maslahatchisi Abdul Razzoq Dovudni qabul qildi. Ayni shunday diplomatik sa'y-harakatlar orqali O'zbekiston makromintaqa geosiyosiy arxitekturasiga katta ta'sir ko'rsatmoqda. Mustaqil ekspert F.Mashrab Transfg'on temir yo'l loyihalari doirasida O'zbekistonning AQSh, Rossiya, Xitoy, Hindiston va Pokiston davlatlari bilan olib borgan muzokaralar jarayonini tahlil etib, uni temir yo'l diplomatiyasi² deb nomlaydi. Tabiiyki, Toshkentning mintaqaviy temir yo'l diplomatiyasi borasidagi mazkur qadamlari transafg'on loyihalarining geosiyosiy jihatlari bilan uzviy bog'liqdir.

O'z navbatida, mamlakatimiz tashqi siyosatida nafaqat Markaziy Osiyo va Afg'oniston, balki Janubiy Osiyo yo'nalishida ham ko'p qirrali hamkorliklarni amalga oshirish tobora ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan 2021-yil Toshkentda yuqori darajadagi "Markaziy va Janubiy Osiyo: mintaqaviy o'zaro bog'liqlik. Tahdidlar va imkoniyatlar" mavzusidagi xalqaro konferensiyaning o'tkazilishi geosiyosiy jihatdan mintaqalararo muloqotning yangi davriga zamin yaratadi. Tashqi ishlar vaziri A.Komilovning xalqaro konferensiya munosabati bilan Markaziy Osiyo davlatlariga amalga oshirgan tashriflari ekspertlar tomonidan yuqori baholanayotgani ham shundan dalolat beradi. Jumladan, Markaziy Osiyo va O'rta Sharq masalalari bo'yicha ekspert Aleksandr Knyazev fikriga ko'ra O'zbekiston qo'shnilariga yangi bozor taklif etmoqda: "Abdulaziz Komilov mintaqaviy

¹ Toshkent shahrida "Мозори-Шариф-Кобул-Пешавор" темир йўлини куриш бўйича юқори даражадаги уч томонлама ишчи гуруҳининг биринчи йиғилиши бўлиб ўтди // Ўзбекистон Республикаси Инвестициялар ва ташқи савдо вазирлиги. 2021 йил 2 февраль. <https://mift.uz/uz/news/toshkent-sharida-mozori-sharif-kobul-peshavor-temir-julini-urish-bujicha-juori-darazhadagi-uch-tomonlama-ishchi-guruining-birinchi-jiilishi-bulib-utdi>

² Mashrab F. Uzbekistan Steps up Railway Diplomacy // The Jamestown Foundation: Global Research & Analyse, November 8, 2018. <https://jamestown.org/program/uzbekistan-steps-up-railway-diplomacy/>

mokimonand diplomatiyasi¹ning asosiy maqsadi O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga yo'llagan murojaatidagi 2021-yil tashqi siyosat tashabbuslarini amaliyotga tadbiq etishdan iboratdir. Unda Janubiy Osiyo bilan hamkorlikni rivojlantirish va Afg'onistonda tinchlikni ta'minlash joriy yildagi ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan"². Shuningdek, Knyazev A.Komilov tashriflaridagi asosiy urg'u Toshkentda o'tkazilishi rejalashtirilgan "Markaziy va Janubiy Osiyo hamkorligi"ga bag'ishlangan konferensiyaga qaratilgani, bu mintaqalararo hamkorlikning kompleks rivojlanishiga rag'bat berishi hamda yangi transport koridorlari ochilishi uchun sharoit yaratishiga o'z e'tiborini qaratadi. Darhaqiqat, ushbu anjuman Markaziy va Janubiy Osiyo mintaqalarini o'zaro bog'lashda Afg'onistonning tarixiy ko'prik sifatida maqomini tiklashda dastlabki va nihoyatda muhim qadam bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekiston transafg'on transport yo'nalishining uchinchi turi hisoblangan havo transporti sohasida ham Afg'oniston bilan tarixiy aloqalarni boshladi. 2017-yil 29-noyabr kuni Toshkent va Kobul o'rtasida birinchi marta to'g'ridan-to'g'ri havo qatnovi yo'lga qo'yildi. Bu voqea nafaqat chuqur ramziy ma'noga, ayni paytda katta amaliy ahamiyatga ham egadir. Endi ikki mamlakat rasmiy vakillari, ishbilarmon doiralari, eng asosiysi, oddiy fuqarolar aloqalari uchun qulay imkoniyat yaratildi³. Aynan 29-noyabr kuni Afg'onistonning "Kam Air" aviakompaniyasi "Kobul-Toshkent" yo'nalishida dastlabki reysni amalga oshirdi. "O'zbekiston havo yo'llari" aviako-

¹ Mokimonand diplomatiya (челночная дипломатия, shuttle diplomacy) – AQSh Davlat kotibi Genri Kissenjer 1973-yil Yaqin Sharqda tinchlik o'rnatish maqsadida qisqa muddat ichida o'ndan ziyod diplomatik safarlar qiladi. G.Kissenjerning Yaqin Sharq mamlakatlariga bo'zchini mokusidek tez-tez safar qilishini G'arb matbuoti "mokimonand diplomatiya" deb nomlaydi. Ushbu ibora muallifi amerikalik diplomat Jozef Sisko. Hozirgi kunda diplomatiyaning ushbu tushunchasi ma'lum dolzarb muammoni muzokaralar orqali tezkor hal qilish maqsadida uzluksiz amalga oshiriladigan diplomatik sa'y-harakatlarga nisbatan ishlatiladi.

² Князев А. Узбекистан предлагает соседям новые рынки / СНГ / Независимая газета, 19.02.2021. https://www.ng.ru/cis/2021-02-19/5_8087_uzbekistan.html

³ Ўзбекистон ва Афғонистон муносабатларида янги саҳифа // Ўзбекистон Миллий ахборот агентлиги, 05.12.2017. <http://uza.uz/oz/politics/zbekiston-va-af-oniston-munosabatlarida-yan-gi-sa-ifa-05-12-2017>

mpaniyasi ma'lumotlarga ko'ra ilgari Afg'onistondan yo'lovchilar Toshkentga Istanbul yoki Dubay orqali kelardi va bu 17 soatdan 32 soatgacha vaqt sarflanishiga olib kelardi. Hozirda esa Kobuldan Toshkentga to'g'ridan-to'g'ri bir yarim soatda yetib kelish imkoni yaratildi. Bugungi kunda haftada ikki marta "Kobul-Toshkent-Kobul" yo'nalishlarida aviareyslar qatnovi amalga oshirilmoqda. O'z navbatida, O'zbekiston aeroporti Kam Air aviakompaniyasi yo'lovchilarini Germaniya, Buyuk Britaniya va Yevropaning boshqa davlatlariga tutash reyslarni amalga oshirish imkonini beruvchi aviaxab vazifasini ham bajaradi¹. O'zbekiston Afg'oniston bilan avialoqalar kengayishida va Afg'onistonning jahon aviatsiya tarmoqlariga arzon va qulay tarzda bog'lanishida katta rol o'ynamoqda. 2018-yil aprelda Afg'oniston Transport vaziri Muhammad Hamid Taxmasiyning Toshkentga tashrifi chog'ida "Uzbekistan airways Technics" (UAT) aviakorxonasi Afg'oniston samolyotlariga texnik va ta'mirlash xizmatlarini ko'rsatishi ma'lum qilindi. Eng muhimi, O'zbekiston tomoni Afg'oniston aviatsiya sohasi uchun yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashga ham ko'maklashadi². Qayd etish kerakki, 2019-yil 18- noyabr sanasida O'zbekiston Transport vazirligi va Afg'oniston Fuqarolik aviatsiyasi boshqarmasi o'rtasida Mozori Sharifdan Toshkentga doimiy aviaqatnovlarni yo'lga qo'yish bo'yicha bitim³ imzolangani ham O'zbekistonning Afg'oniston bilan havo transporti yo'nalishidagi aloqalari tobora kengayib borayotganidan dalolat beradi.

"Surxon-Puli Xumri" elektr energiyasi loyihasi

Afg'onistonga uzluksiz elektr energiyasi yetkazish mam-lakat ijtimoiy-iqtisodiy tiklanishi uchun muhim shartlardan

¹ Первый рейс Кабул – Ташкент // Uzbekistan airways.

<https://www.uzairways.com/ru/news/pervyy-reys-kabul-tashkent>

² Ўзбекистон Афғонистон самолётларини таъмирлаб беради // Халқ сўзи, 2018 йил 10 апрель. <http://xs.uz/uzkr/post/ozbekiston-afgoniston-samolyotlarini-tamirlab-beradi>

³ Mazar-e-Sharif to Tashkent flights to be launched in December // The Tashkent Times, 21.11.2019. <https://tashkenttimes.uz/national/4642-mazar-e-sharif-to-tashkent-flights-to-be-launched-in-december>

biridir. Transafg'on loyihalarining **ikkinchi guruhi** hisoblangan elektr energiyasini Afg'onistonga eksport qilish sohasida ham O'zbekiston yetakchi o'rinlardan birini egallaydi. Mamlakatimiz Afg'onistonga 2002-yildan buyon shartnoma asosida elektr energiyasi yetkazib beradi. Ayniqsa, 2017-yil dekabrda AIR Prezidenti Ashraf G'ani va O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o'rtasida O'zbekistonning Surxondaryo viloyatidan Afg'onistonning Puli Xumri shahrigacha elektr uzatish liniyasini qurish to'g'risida imzolangan kelishuv alohida o'ringa ega. Ma'lumotlarga ko'ra 2002-yilda O'zbekiston tomonidan Afg'onistonga elektr energiyasi yetkazib berish hajmi 62 million kVt/soatni tashkil etgan bo'lsa, 2017-yilga kelib mazkur ko'rsatgich 200 million kVt/soatga etkazildi. "Surxon-Puli Xumri" elektr uzatish liniyasi loyihasining boshlang'ich qiymati 150 million dollarni tashkil etadi. Liniyaning umumiy uzunligi 260 km. bo'lib, uning 45 km.i yurtimiz, 215 km.i esa Afg'oniston hududidan o'tadi. Uning o'tkazish quvvati 1000 MVt, ya'ni bir kecha-kunduzda 24 million kVt/soat, bir yilda 6 milliard kVt/soat elektr energiyasi yetkazib berishga teng¹. Prezident qaroriga ko'ra loyihaning Afg'oniston hududidagi qurilish ishlarini 2021-yil avgustida boshlash rejalashtirilgan².

Ta'kidlash kerakki, elektr energiyasi Afg'onistonda nafaqat ijtimoiy-iqtisodiy, balki ichki siyosiy barqaror muhit shakllanishida samarali ko'mak beradi. "Surxon-Puli Xumri" elektr uzatish liniyasi, birinchi navbatda, jafokash afg'on xalqi turmush sifatini yaxshilashga imkon beradi. Ushbu mamlakatning elektr energiyasiga bo'lgan taqchilligi kamayadi. 2019-yil 30-iyun sanasida O'zbekiston Bosh vaziri Abdulla Aripov Afg'oniston Hukumati ijroiya raisi Abdulla Abdulla bilan Balx viloyatida bo'lib o'tgan uchrashuvda O'zbekiston "Surxon-Puli Xumri" elektr uzatish liniyasining Afg'onis-

¹ Ўзбекистон Афғонистонга электр энергияси етказиб бериш хажмини кескин оширмоқчи // Халқ сўзи, 2018 йил 11 июль <http://xs.uz/uzkr/post/ozbekiston-afgionistonga-elektr-energiyasi-etkazib-berish-hazhmini-keskin-oshirmoqchi>

² Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Афғонистон Ислом Республикаси билан иктисодий ҳамкорликни янада кенгайтириш ва мустаҳкамлаш чора-тадбирлари тўғрисида"ги ПҚ-4982-сон қарори // Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 12.11.2020. <https://lex.uz/docs/5100020>

tondagi qurilishi uchun 45 mln. dollar mablag' ajratishini ma'lum qildi¹. Qolaversa, O'zbekiston tomonidan Afg'onistonga uzatilayotgan elektr energiyasi narxi 8,5 sentdan 5 sentga tushirildi². Afg'onistonning "De Afg'oniston Breshna Sherkat" elektr kompaniyasi vakili Vohidulla Tavhidiyning ta'kidlashicha, "De Afg'oniston Breshna Sherkat" O'zbekiston tomonidan amalga oshirilgan bunday qadamni juda yuqori baholaydi va bu loyiha Afg'onistonda elektr energiya tarifining sezilarli pasayishiga zamin yaratadi. Hozir O'zbekiston Afg'onistonga 5 sent evaziga 300 MVt elektr energiyasini eksport qilmoqda. Iqtisodiyot sohasi bo'yicha mutaxassislar O'zbekiston tomonidan qabul qilingan mazkur qaror mintaqada elektr energiyani yetkazib beruvchilar orasida raqobatning yangi davrini vujudga keltiradi, deb hisoblashmoqda³. E'tiborli jihati shundaki, Afg'onistonni asosiy elektr energiya ta'minotchilari unga qo'shni Markaziy Osiyo davlatlari hisoblanadi. Ayni shu jihatdan, O'zbekiston uchun asosiy masalalardan biri Afg'onistonni Markaziy Osiyo mintaqasining yagona energiya halqasiga qo'shishdan iborat. O'zbekiston Prezidentining Afg'oniston bo'yicha maxsus vakili Ismatilla Ergashevning mazkur loyiha ahamiyati xususidagi fikrlaridan buni anglash mumkin: "Surxon-Puli Xumri yangi elektr tarmog'i Afg'onistonga Markaziy Osiyoning yagona elektr energiyasi tizimiga qo'shilishiga yordam beradi, kelajakda esa elektr energiyasini mazkur mamlakat hududi orqali Pokistonga eksport qilish imkoniyati paydo bo'ladi"⁴. Bu o'z-o'zidan "Surxon-Puli Xumri" elektr uzatish liniyasi transafg'on darajasidagi energetika loyihasi ekanligini namoyon etib, Markaziy Osiyo elektr energiyasini Afg'oniston orqali Janubiy Osiyo bozorlariga eksport qilishdek strategik vazifasini ham ko'zda tutadi. 2019-yil sentabr oyida O'zbekiston

¹ Uzbekistan to invest \$45m on Afghan power project // Afghanistan Times, July 1, 2019. <http://www.afghanistantimes.af/uzbekistan-to-invest-45m-on-afghan-power-project/>

² Jhanmal Z. Uzbekistan Cuts Electricity Tariffs For Afghanistan // Tolo News, 10 April 2018. <https://tolonews.com/business/uzbekistan-cuts-electricity-tariffs-afghanistan>

³ Узбекистан снизил тарифы на электричество для Афганистана // ИА "Гумилев Центр"-Афганистан. Available at: www.gumilev-center.af/archives/9702

⁴ Эргашев И.Р. Ўзбекистон бундан кейин ҳам тинчлик жараёнига қўмаклашади // Халқ сўзи 2018 йил 29 март, № 61 (7019).

Afg'onistonga keyingi 10 yilga mo'ljallangan elektr energiyasi yetkazib berish bo'yicha shartnoma imzoladi. Afg'oniston sobiq Moliya vaziri Humoyun Qayumiy ushbu shartnomaning Afg'oniston uchun qiymatini yuksak baholadi. Uning ta'kidlashicha, shartnoma Afg'onistonni elektr energiyasi borasida 600 million dollarlik sarf-xarajatdan saqlab qoladi. Shuningdek, shartnoma orqali Afg'oniston elektr energiyasi tizimi O'zbekistonniki bilan moslashadi, eng muhimi esa Afg'oniston Qirg'iziston, Qozog'iston va Tojikistondan ham elektr energiyasi quvvatini xarid qilish imkoni paydo bo'ladi¹. O'z navbatida, "Surxon-Puli Xumri" elektr uzatish loyihasi "CASA-1000"² energetika loyihasi bilan bog'lanib, butun Markaziy Osiyo energetika eksportini Afg'oniston orqali Janubiy Osiyoga qulay tarzda etkazish uchun sezilarli darajada hissa qo'shadi. Natijada Afg'oniston viloyatlarining teng yarmi uzluksiz elektr ta'minoti bilan ta'minlanadi, afg'on xalqi uchun yangi ish o'rinlari yaratiladi. Ammo bizningcha, loyihani ro'yobga chiqarish uchun bir qator masalalarga ham alohida e'tibor qaratish joiz bo'ladi.

Birinchi navbatda, butun Markaziy Osiyo energetik tizimini o'zaro birlashtirish zarur. Qayd etish joizki, CASA-1000 energetika loyihasi ishtirokchilari Qirg'iziston, Tojikiston, Afg'oniston va Pokiston hisoblanadi. Holbuki, Afg'onistonga Markaziy Osiyoning nafaqat O'zbekiston³, balki Turkmaniston davlati ham elektr energiyasini eksport qiladi. Bundan tashqari, mazkur loyihaning nomidan kelib chiqqanda holda Janubiy Osiyoning yirik davlati hisoblangan Hindistonni ham loyihaga bevosita jalb etish maqsadga muvofiqdir. Ayni shu tariqa Markaziy va Janubiy Osiyoning energetika hamkorligida Afg'oniston ko'priki rolini bajargan bo'lar edi. Qolaversa,

¹ Jhanmal Z. Afghanistan, Uzbekistan Sign Pact For Imported Electricity // Tolo News, 22 September 2019. <https://tolonews.com/business/afghanistan-uzbekistan-sign-pact-imported-electricity>.

² CASA-1000 (Central Asia-South Asia-1000) – Qirg'iziston va Tojikistondan Afg'oniston orqali Pokistongacha 1000 MVtdan ortiq elektr energiyasi yetkazib berishga mo'ljallangan loyiha.

³ Афғонистон электр энергиясининг тахминан 42% Ўзбекистон ҳиссасига тўғри келади. Манба: The Urgent Need to Expand Afghanistan's Electricity Supplies / Caspian Policy Center, January 9, 2021.

<https://www.caspianpolicy.org/the-urgent-need-to-expand-afghanistans-electricity-supplies/>

loyiha o'tadigan Afg'oniston hududidagi tayanch ustunlarga jangarilar tomonidan goh-gohida ziyon yetkazilishi¹ singari holatlar ushbu loyihaning ham ayrim tashqi kuchlar geosiyosiy manfaatlariga ta'sir ko'rsatishidan dalolat beradi.

“Surxon-Puli Xumri” va “CASA-1000” elektr uzatish loyihalarining Afgʻonistonda bogʻlanishi²

¹ Taliban blow up Afghan power lines over funding dispute / The National, 26 March, 2018. <https://www.thenationalnews.com/world/asia/taliban-blow-up-afghan-power-lines-over-funding-dispute-1.716273>

gektarni tashkil etgan yirik industrial park qurish bo'yicha kelishuvga erishgan. Bundan tashqari O'zbekiston Afg'onistonda beshtasement zavodi tashkil etilishida katta yordam ko'rsatgan. Xabarlarga ko'ra Afg'onistonning O'zbekiston chegarasiga yaqin hududida uch ming gektar hududni egallaydigan erkin iqtisodiy zona ham barpo etiladi¹. Darhaqiqat, yuqorida sanab o'tilgan ulkan bunyodkorlik ishlari afg'on zaminida umrguzaronlik qilayotgan oddiy aholi hayotini sezilarli ravishda yaxshilab, ularning tinchlik, barqarorlik sari dadil qadam tashlashiga turtki bo'ladi.

Umuman, xulosa sifatida qayd etadigan bo'lsak, davlatimiz tomonidan belgilangan strategik tashqi siyosiy va iqtisodiy vazifalar ijrosida Afg'oniston mamlakatining ishtiroki asosiy o'rinlardan birini egallaydi. Negaki, Afg'oniston mamlakatimiz uchun faqatgina barqaror mintaqa kafolati bo'lib qolmasdan, barcha turdagi mahsulotlarga hayotiy zarurati mavjud bo'lgan istiqboldagi katta bozor hamdir. O'zbekiston Afg'onistonda nafaqat transport sohasida, balki energetika va boshqa infratuzilmalarni rivojlantirishda juda katta tajriba va salohiyatga ega. Bunday tajriba, shubhasiz, yangi loyihalarni amaliyotga kengroq joriy etish imkoniyatini taqdim etadi. Bugungi Afg'onistondagi vaziyat oldingisidan ancha farq qilishini inobatga olgan holda, davlatimiz tomonidan ishlab chiqilgan zamonaviy transafg'on loyihalarining strategik ahamiyati, geosiyosiy xususiyatlari va bu bilan bog'liq istiqboldagi muammolarni tahlil etish ayni shu sababdan dolzarb vazifalar sirasiga kiradi.

O'zbekiston hozirgi kunga qadar Afg'oniston bilan transportning barcha turlari orqali bog'langan davlatdir. Bu geosiyosiy jihatdan muhim ustunlik bo'lib, Markaziy Osiyoni Afg'oniston orqali dengiz yo'laklari bilan bog'lash istiqbolida O'zbekistonning markaziy roli va nufuzi yanada ortishi, uning transmintaqaviy aloqalar tizimida o'ziga xos muhim halqa bo'lishiga zamin yaratadi. Shu nuqtayi nazardan TATK O'zbekiston uchun eng istiqbolli koridor hisoblanadi.

¹ Haidari S. Uzbekistan Delegation Visits Kabul // Tolo News, July 9, 2018. Available at: <https://tolonews.com/business/uzbekistan%C2%A0delegation-visits-kabul>

O'zbekiston Afg'oniston tarixida "Hayraton-Mozori Sharif" temir yo'lini bunyod etgan ilk davlat bo'lib qoladi. Bu orqali Toshkent mintaqa va jahonning yirik davlatlariga Afg'oniston tinchligi va barqarorligini ta'minlashning muhim mezonlaridan birini namuna sifatida ko'rsatdi.

Afg'oniston hududida ilk temir yo'llar — "Hayraton-Mozori Sharif" va "Xaf-Hirot" temir yo'l loyihalari tajribasi mavjud ekanligi va transafg'on yo'nalishlarini bog'laydigan imkoniyatlar va tahlikalar ko'lami shundan dalolat bermoqdaki, "Mozori Sharif-Hirot" temir yo'l loyihasining ro'yobga chiqish istiqboli "Mozori Sharif-Kobul-Peshovar" temir yo'l loyihasidan yuqori turadi. "Mozori Sharif-Hirot" temir yo'li istiqbolda Chobahor kelishuvi orqali Hindistonning Mumbai bandargohiga yoki Hirot-Qandahor-Kvetta yo'nalishi orqali Pokiston bandargohlariga ham chiqish imkoniyatiga ega. Bu esa, O'zbekiston zamonaviy transafg'on loyihalarining geosiyosiy xususiyatini namoyon etib, ushbu loyihalar faqat Afg'oniston bilan cheklanmasdan ushbu davlat hududi orqali Markaziy Osiyoni Fors ko'rfazi va Janubiy Osiyo singari mintaqalar bilan uzviy bog'lashdek strategik vazifani maqsad qiladi.

Mintaqaning yirik aktorlari manfaatlari to'qnashuvini hisobga olgan holda O'zbekiston taklif etayotgan transafg'on transport loyihalarini amalga oshirish yuzasidan faqat ikki yoki uch tomonlama formatlarda muzokaralar olib borish kutilgan darajada samara bermasligi mumkin. Shu jihatdan, transafg'on transport loyihalari bo'yicha barcha mintaqa davlatlarini o'z ichiga olgan yuqori darajadagi ko'p tomonlama uchrashuv formati tashkil etilishi hamda loyihalarni moliyalashtirishning to'liq nihoyasiga yetkazilishi singari asosiy masalalar birinchi o'rinda hal etilishi maqsadga muvofiqdir.

Mavzu bo'yicha savollar:

1. Transafg'on koridori deganda nimani tushunasiz?
2. "Hayraton-Mozori Sharif" temir yo'l loyihasi haqida nimalarni bilasiz?
3. "Mozori Sharif-Hirot" temir yo'l loyihasi haqida nimalarni bilasiz?

4. "Mozori Sharif-Kobul-Peshovar" temir yo'l loyihasining geosiyosiy xususiyatlari haqida ma'lumot bering.

5. "Surxon-Puli Xumri" elektr energiyasi loyihasi haqida ma'lumot bering.

Mustaqil ishlar topshiriqlari:

1. "Hayraton-Mozori Sharif" va "Mozori Sharif-Hirot" temir yo'l loyihasi qiyosiy tahlili bo'yicha infografika tayyorlash.

2. "Surxon-Puli Xumri" elektr energiyasi loyihasi haqida taqdimot qilish.

3. Mavzuga oid ilmiy maqolalar va tahliliy materiallar yozish.

O'ZBEKISTON GEOSIYOSATIDA AFG'ON MUAMMOSI

Muallif

Asqarols

Shollashuv

publ. yild

Osiyodag savu

vaziyat bilan chax

jahon hamjamiyatining Afg

qaratishi, mazkur muamman

zaminida faoliyat va harakat

yo'nalishlariga e'tibor berib

O'zbekiston Respublikasi Fan

BN Taling 43-soniyasida birin

Reja:

1. 1992-2017-yillarda O'zbekiston tashqi siyosatida afg'on muammosi.
2. 2017-yildan hozirgi vaqtgacha O'zbekistonning afg'on muammosini hal etishdagi geosiyosiy yondashuvlari.
3. Afg'onlararo darajadagi diplomatiya.
4. Mintaqaviy darajadagi diplomatiya.
5. Global darajadagi diplomatiya.

Tayanch so'z va iboralar:

Afg'on muammosi, "Tolibon", "Al-Qoida", "6+2" muloqot formati, "Shimoliy Alyans", "6+3" muloqot guruhi, "ShHT-Afg'oniston" muloqot guruhi, "Osiyo yuragi" Istanbul jarayoni, Afg'oniston bo'yicha mintaqaviy iqtisodiy hamkorlik konferensiyasi (RECCA), Toshkent deklaratsiyalari, afg'onlararo muloqot, "defence approach".

Afg'on muammosi o'z ta'sir doirasi va ko'lami jihatidan jahonning eng dolzarb ahamiyat kasb etuvchi hamda yechimi murakkab muammolaridan biri sifatida saqlanib qolmoqda. Shubhasiz, afg'on muammosi unga qo'shni bo'lgan mintaqa mamlakatlari, xususan Markaziy Osiyoning muhim halqasi hisoblangan O'zbekiston tashqi siyosatida markaziy o'rinni egallaydi. Shu bois, O'zbekiston afg'on mojarosini faqat siyosiy yo'l, ya'ni muzokaralar o'tkazish yo'li bilan hal etishga qaratilgan jarayonlarni to'la qo'llab-quvvatlab kelmoqda.

O'zbekistonning Afg'onistonda tinchlik jarayonlarini boshlash va muammoga jahon hamjamiyati e'tiborini keng jalb etishga qaratilgan geosiyosatini ikki davr orqali tadqiq etish o'rinalidir. 1992-2017-yillardagi birinchi bosqichda Afg'onistonda ro'y bergan og'ir harbiy-siyosiy vaziyatni Markaziy Osiyo mintaqaviy xavfsizligi, xususan, O'zbekiston milliy xavfsizligiga jiddiy tahdid va tahlika omili sifatida baholash ustuvorlik kasb etgan bo'lsa, 2017-yildan hozirgi kungacha bo'lgan ikkinchi davrda O'zbekiston tomonidan Afg'onistonga strategik imkoniyatlar manbayi sifatida qarash yondashuvi kuchayib, mamlakatimizning tinchlik jarayonlaridagi geosiyosiy ishtiroki sezilarli ravishda oshdi.

1992-2017-yillarda O'zbekiston tashqi siyosatida afg'on muammosi

Mustaqilligimizning ilk yillarida Afg'onistonda boshlangan fuqarolar urushi, ushbu mamlakatda terrorchi guruhlarining faollashuvi O'zbekiston milliy va mintaqaviy xavfsizligiga jiddiy tahdidlarni vujudga keltirdi. Mazkur davrda Markaziy Osiyodagi xavfsizlik tizimi Afg'onistondagi harbiy-siyosiy vaziyat bilan chambarchas bog'liq edi. Shu bois O'zbekiston jahon hamjamiyatining Afg'oniston muammosiga jiddiy e'tibor qaratishi, mazkur muammoga befarq qaramaslikka, afg'on zaminida tinchlik va barqarorlik o'rnatishda barcha choralarni ko'rishga da'vat etib keldi. Dastlab, 1993-yil 28-sentabrda O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov BMTning 48-sessiyasida birinchilardan bo'lib butun jahon

ahlini afg'on muammosining nafaqat mintaqaviy, balki xalqaro tinchlik va barqarorlikka ta'siri xususida ogohlantirgan edi. 1995-yil 24-oktabrda, ya'ni BMTning 50 yilligi munosabati bilan bo'lib o'tgan tantanali yig'ilishda Islom Karimov BMT Xavfsizlik Kengashiga Afg'onistonga qurol olib kirishni taqiqlash taklifi bilan murojaat qildi¹. Darhaqiqat, Afg'onistondagi turli guruhlarining tashqi kuchlar tomonidan qurol-yarog' aslahalari bilan ta'minlanishi, shuningdek, mamlakatning narkotik moddalar savdosi yirik bozoriga aylanib borishi hamda mazkur vositalar "Tolibon", "Al-Qoida" singari guruhlarining moliyaviy manbayi asosini tashkil etishi Markaziy Osiyo mintaqasi bilan birgalikda jahon hamjamiyatining ham jiddiy tashvishiga sabab bo'ldi. Shu jihatdan O'zbekiston afg'on muammosini xalqaro ahamiyatga ega dolzarb muammo sifatida qabul qilish lozimligi xususida butun jahonga takror-takror murojaat qildi va mazkur muammo yuzasidan chuqur amaliy ahamiyatga ega xalqaro tashabbuslarni ilgari surdi. Bu borada ayniqsa 1999-yil 19-20-iyul kunlari Toshkentda o'tkazilgan "6+2" muloqot guruhi² uchrashuvini alohida qayd etish lozim. Muzokara yakunlari bo'yicha qabul qilingan "Afg'onistondagi nizolarni tinch yo'l bilan hal etish tamoyillari to'g'risida"gi Toshkent deklaratsiyasi³ BMT Xavfsizlik Kengashining rasmiy hujjatiga aylandi. Bu o'rinda shuni alohida ta'kidlash joizki, mintaqa davlatlari bilan birgalikda BMT Xavfsizlik Kengashining AQSh, Rossiya va Xitoy singari uchta doimiy a'zosini "6+2" muloqot guruhi tarkibidan o'rin egallashi mazkur format faoliyatini ta'sir kuchi va yuqori nufuzini ko'rsatib berdi. "6+2" muloqot formatining yana bir e'tiborga molik jihat shundan iboratki, Afg'onistonda o'zaro kurashayotgan tomonlar, ya'ni "Tolibon" va "Shimoliy Alyans" vakillari

¹ Каримов И.А. Бунёдкорлик йўлидан. Т. 4. – Т.: Ўзбекистон, 1996. – Б. 56-57.

² Мазкур мулоқот гуруҳини Афғонистон билан чегарадош 6 та давлат, яъни Ўзбекистон, Туркменистон, Тожикистон, Покистон, Эрон, Хитой ҳамда АҚШ ва Россия давлатлари ташкил этади.

³ Tashkent Declaration on Fundamental Principles for a Peaceful Settlement of the Conflict in Afghanistan // United Nations Security Council Fifty-fourth year, A/54/174 S/1999/812, 22 July 1999.

Toshkentda dastlabki bor yuzma-yuz muzokaralar stoli atrofida to'planishdi. Afg'onistondan geosiyosiy manfaatdor bo'lgan yirik davlatlar va mintaqaviy aktorlar Afg'oniston hokimiyatini qurolli yo'l bilan qo'lga kiritgan "Tolibon" harakati bilan siyosiy muloqot olib borish samarasiz, degan xulosaga kelishgan o'sha paytda, "6+2" formati toliblarni ilk marotaba siyosiy muzokaralarga jalb eta olgani bilan alohida xususiyat kasb etdi. Shak-shubhasiz, ushbu muzokaralar O'zbekiston mintaqaviy diplomatiyasining amaliy yutug'iga aylandi. Ammo, 2001-yil AQShda sodir etilgan terroristik hujum ushbu muloqot formati faoliyatini to'xtatib qo'ydi.

2001-yildan so'ng AQSh rahbarligidagi xalqaro koalitsiya kuchlarining Afg'oniston hududida amalga oshirgan harbiy amaliyotlari ham kutilgan natijalarga olib kelmadi. Bu esa, muammoni harbiy yo'l bilan hal etish sira imkonsiz ekanligini yana bir bor namoyon etdi. Shu jihatdan, muammoni siyosiy muzokaralar orqali hal etish jarayonlarini boshlash va rag'batlantirish maqsadida O'zbekiston tomonidan 2008-yilda "6+2" formatini "6+3" muloqot guruhiga aylantirish tashabbusi ilgari surildi. Biroq ushbu muloqot guruhi muammoga daxldor tashqi kuchlarning geosiyosiy raqobati natijasida amalga oshmadi. "6+3" formati mintaqada geosiyosiy manfaatlar to'qnashuvi kuchaygan, Qo'shma Shtatlarning Afg'onistondagi harbiy ishtirokini uzoq vaqt saqlab turishga qaratilgan strategiyasi, Rossiya hamda ShASHT o'rtasidagi raqobat kabi omillar tufayli qo'llab-quvvatlanmagan bo'lsa hamki, ushbu tashabbusni mintaqada, jumladan Afg'oniston muammosi bo'yicha O'zbekiston geosiyosatining chuqur tanlovga asoslangan tarkibiy qismi sifatida baholash o'rinli bo'ladi. Buning tasdig'i sifatida ushbu tashabbus ilgari surilgan bir yilda sodir bo'lgan voqealar rivojining quyidagi jihatlariga e'tibor qaratish lozim:

- birinchidan, tashabbus aynan 2008-yilda jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida ilgari surildi;
- ikkinchidan, 2008-yilda O'zbekiston Yevroosiyo iqtisodiy hamjamiyatiga a'zoligini to'xtatdi;

– uchinchidan, 2005-yildan so‘ng G‘arb davlatlarining inson huquqlari masalalaridagi turli ayblovlariga nisbatan 2008-yilda O‘zbekistonda o‘lim jazosini bekor qilish amaliyoti joriy etildi.

Toshkentning mazkur geosiyosiy qadami (6+3 tashabbusi), avvalo, G‘arb davlatlari bilan 2005-yil voqealaridan so‘ng uzilib qolgan munosabatlar tizimini qayta tiklash siyosatiga yo‘naltirilgan bo‘lsa, boshqa bir tomondan, Markaziy Osiyo mintaqasida yetakchi davlatlar orasidan yagona kuchning ta’siri ortib ketishini oldini olish va shu orqali mintaqada tashqi kuchlar muvozanatini ta’minlash strategiyasini nazarda tutgan edi. Qolaversa, Afg‘onistonda tinchlikni ta’minlashning siyosiy muloqot yo‘lini tanlash va uni keng yo‘lga qo‘yish rejalari O‘zbekistonning mintaqadagi yangi geosiyosiy maqomi va Afg‘oniston orqali jahon dengiz yo‘laklariga chiqish orzusini ifodalalar edi. Natijada ushbu tashabbus vositasida G‘arb davlatlari, jumladan AQSh bilan aloqalarning yangi davri boshlanib, bu mintaqa geosiyosiy jarayonlarida kuchlar tengligi va o‘zaro muvozanatini saqlash imkonini berdi.

2017-yildan hozirgi vaqtgacha O‘zbekistonning afg‘on muammosini hal etishdagi geosiyosiy yondashuvlari

Bugungi kunda O‘zbekiston qo‘shni davlatlar bilan ochiq, do‘stona va o‘zaro manfaatli hamkorlik jarayonlarini yangi bosqichga ko‘tarish, Afg‘onistonda tinchlik va barqarorlikka qaratilgan siyosiy muzokaralarga barcha afg‘on siyosiy kuchlarini jalb etish hamda Afg‘onistondagi vaziyatga daxldor barcha tashqi kuchlar o‘rtasida geosiyosiy konsensusni ta’minlash jarayonlarida faol ishtirok etish orqali mintaqada yangi geosiyosiy tendensiyalarida sezilarli rol o‘ynamoqda. O‘zbekistonning Afg‘oniston yo‘nalishidagi geosiyosati uni mintaqadagi o‘rni va ahamiyatini oshiribgina qolmay, Afg‘oniston tinchlik muzokaralariga doir konstruktiv va yangi paradigmalarni ishlab chiqish jarayonlariga muhim turtki berishi mumkin.

Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Prezidenti sifatida saylanishi natijasida O'zbekiston tashqi siyosatida katta o'zgarishlar sodir bo'ldi. Avvalo, Markaziy Osiyo mintaqasi qo'shni mamlakatlari bilan olib borilgan ochiq va pragmatik tashqi siyosat tamoyillari Afg'onistonga oid siyosatda ham o'z aksini topdi. Bizning nuqtayi nazarimizga ko'ra O'zbekistonning Shavkat Mirziyoyev rahbarligidagi Afg'oniston siyosatida oldingi qarashlardan farq qiluvchi quyidagi muhim o'zgarishlar sodir bo'ldi:

1) Afg'oniston milliy va mintaqaviy xavfsizlikka tahdid sifatida emas, balki strategik imkoniyatlar manbai sifatida qarash yondashuvi ishlab chiqildi. Shavkat Mirziyoyevning quyidagi fikrlari bunday qarashni o'zida mujassam etadi: "Biz endi Afg'onistonga uning hududidan tinchlik va barqarorlikka tahdid solmaydigan davlat sifatida qaray boshlashimiz kerak. Afg'oniston — bizning do'stona hamkorimiz va qo'shnimizdir"¹. Markaziy Osiyo mintaqaviy siyosatiga Afg'onistonning ham faol jalb etilishi mazkur qarashlarni amaliy jihatdan ifoda etmoqda.

2) O'zbekiston va Afg'oniston o'rtasidagi siyosiy munosabatlarda tub burilishlar sodir bo'ldi. Masalan, uzoq yillik tanaffusdan so'ng 2017-yilda Afg'oniston Prezidenti O'zbekistonga rasmiy tashrif bilan keldi. Kuzatishlarga ko'ra uch yil davomida (2016-2019-yillar) ikki davlat rahbarlari turli doiralarda 8 marotaba² o'zaro uchrashib, ikki va ko'p tomonlama doiralardagi munosabatlar bo'yicha muzokaralar olib borishgan. Shuningdek, birgina 2018-yilning o'zida o'zaro delegatsiyalar tashrifi jami 60 tani tashkil etib, ulardan 32 tasi Afg'onistondan O'zbekistonga, 28 tasi esa O'zbekistondan

¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Афғонистон бўйича "Тинчлик жараёни, хавфсизлик соҳасида ҳамкорлик ва минтақавий шериклик" мавзусида ўтказилган халқаро конференциядаги нутқи // Халқ сўзи 2018 йил 28 март, № 59-60 (7017-7018).

² Izoh: Ikki davlat rahbarlarining ikki va ko'p tomonlama tadbirlar doirasidagi o'zaro uchrashuvlari 2016-yilda 1 marta, 2017-yilda 4 marta, 2018-yilda 2 marta, 2019-yilda 1 marotaba o'tkazilgan.

Afg'onistonga amalga oshirilgan tashriflardir¹. Bu borada O'zbekiston va Afg'oniston tashqi ishlar vazirliklari o'rtasida siyosiy maslahatlashuvlar tashkil etilgani ham alohida e'tiborga molik o'zgarishlardandir.

3) O'zbekiston Afg'onistonga oid munosabatlarda faqat ikki tomonlama formatdan tashqari ko'p tomonlama formatlarda ham to'liq ishtirok etishni boshladi. 2012-yilda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi Tashqi siyosiy faoliyati konsepsiyasi"da O'zbekiston Afg'oniston bilan munosabatlarini ikki tomonlama asosda, har ikkala mamlakatning milliy manfaatlari va xalqaro huquqning umume'tirof qilingan normalarini hisobga olgan holda yo'lga qo'yishi qayd etilgan edi². Ushbu yondashuv natijasida O'zbekiston Afg'oniston siyosatida ko'p tomonlama darajadagi formatlardan ma'lum muddat o'zini cheklab keldi. Hozirda esa O'zbekiston rasmiy vakillari o'z faoliyatini qayta tiklagan "ShHT-Afg'oniston" muloqot guruhi, shuningdek, "Osiyo yuragi" Istanbul jarayoni, Afg'oniston bo'yicha mintaqaviy iqtisodiy hamkorlik konferensiyasi (RECCA) va boshqa mintaqaviy hamda xalqaro darajadagi muhokamalarda faol ishtirok etib kelmoqda.

4) O'zbekiston va Afg'oniston o'rtasida o'zaro munosabatlarda sohalar ko'лами kengayib bormoqda. Xususan, O'zbekiston va Afg'oniston o'rtasidagi siyosiy, iqtisodiy va transport-savdo munosabatlari orasida madaniy-gumanitar sohaning ham shiddat bilan kengayishini kuzatish mumkin. Ayniqsa, "O'zbekiston-Afg'oniston" do'stlik jamiyatining tashkil etilishi buning yorqin misolidir. Do'stlik jamiyati raisi, professor A.Mannonov ta'kidlaganidek: "O'zbekiston-Afg'oniston" do'stlik jamiyatining ochilishi tarixiy voqea bo'lib, shu vaqtga qadar ikki davlatlar tarixida Afg'oniston bilan do'stlik aloqalarni o'rnatishga yordamlashadigan jamiyat

¹ O'zbekistonning Afg'onistondagi elchixonasiga tashrif va elchi Yodgorxo'ja Shodmonov bilan suhbat // UZREPORT TV.

<https://www.facebook.com/uzreport.tv/videos/697510570937856/?app=fbl>

² Ўзбекистон Республикасининг Ташқи сиёсий фаолияти Концепцияси. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлис палаталарининг Ахборотномаси 9/1 (1437) сон, 239-модда, 2012. – Б.14.

mavjud bo'lmagan edi¹. Madaniy-gumanitar munosabatlarning yana bir e'tiborga molik jihati shundaki, 2018-yildan boshlab Surxondaryo viloyatining Termiz shahrida Afg'oniston fuqarolarini o'qitish ta'lim markazi faoliyati yo'lga qo'yildi. Bu markaz turli sohalar bo'yicha afg'onistonlik mutaxassislarni tayyorlash ishlariga sezilarli ravishda hissa qo'shib kelmoqda.

5) Afg'onistondagi asosiy muxolif kuch hisoblangan "Tolibon" harakatiga nisbatan O'zbekiston yondashuvlarida bir qator o'zgarishlar vujudga keldi. Shavkat Mirziyoyevning "qurolli muxolifat vakillari, jumladan, toliblar ham afg'on jamiyatining bir qismi va Afg'oniston fuqarolari sifatida o'z mamlakati kelajagini belgilash uchun ovoz berish huquqiga ega", deb ta'kidlagan fikrlari ham bunday o'zgarishlarni tasdiqlaydi. Shu nuqtayi nazardan "Tolibon" harakati bilan tegishli aloqalarning o'rnatilishi va ularni Afg'oniston tinchlik muzokaralariga keng jalb etish jarayonlarida O'zbekiston diplomatiyasi jadallashib, bu borada zarur mexanizmlar amalga oshirildi.

Zamonaviy Afg'onistonda chinakam tinchlikka erishish istiqbollari global va mintaqaviy darajada geosiyosiy konsensusni ta'minlay olish bilan uzviy bog'liq. Afg'onistonda vaziyatni barqarorlashtirish masalasida O'zbekiston geosiyosiy imkoniyatlari va salohiyatini tahliliy baholash va teran tadqiq etish uchun ilmiy tadqiqotlarda yangicha qarashlar va paradigmalarni ishlab chiqish zarurati paydo bo'lmoqda. Mulohazalarimiz shunday paradigma sifatida zamonaviy geosiyosatning o'tkir vositalaridan biri bo'lgan geodiplomatiya paradigmasini tadqiq etishni taklif etadi. Dastlabki mavzuda qayd etilganidek, geodiplomatik paradigmaning nazariy asoslari va amaliy jihatlar borasida olib borilgan tadqiqotlar juda kamyob. O'zbekistonning afg'on muammosini hal etishga qaratilgan geosiyosiy yondashuvlari asosiy falsafasini uchta o'zaro bog'liq darajadagi geodiplomatik paradigmalarni orqali o'rganib chiqish yuqoridagi qarashlarimizni asoslash imkonini beradi:

¹ Маннонов А.М. "O'zbekiston – Afg'oniston" do'stlik jamiyatining taqdimoti // Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalari qo'mitasi. 18.09.2018. <http://interkomitet.uz/boshqa/o-zbekiston-afg-oniston-do-stlik-jamiyatining-taqdimoti/>

Afg'onlararo darajadagi diplomatiya

Ushbu daraja O'zbekistonning barcha ichki afg'on siyosiy kuchlari bilan o'rnatgan aloqalarini nazarda tutadi. Bu borada O'zbekiston yondashuvi Afg'onistonga daxldor geosiyosiy ishtirokchilar orasida barcha afg'on ichki siyosiy kuchlari bilan neytral pozitsiya va o'zaro teng masofani saqlab turishi bilan alohida ajralib turadi. Shu jihatdan afg'onlararo darajadagi O'zbekiston siyosatini uch guruhga taqsimlash o'rinli bo'ladi:

Afg'oniston sobiq hukumati bilan aloqalar. Ming yillik tarixga ega ushbu davlatlar o'rtasida qadimdan yaqin qo'shnichilik va qardoshlik munosabatlari rivojlanib kelgan. Ikki davlat o'rtasidagi hamkorlik aloqalarni yanada mustahkamlash va izchil rivojlantirish maqsadida Shavkat Mirziyoyev topshirig'iga binoan, 2017-yil 23-24 yanvar kunlari Tashqi ishlar vaziri Abdulaziz Komilov boshchiligidagi O'zbekiston delegatsiyasi rasmiy tashrif bilan Afg'onistonda bo'ldi. Aynan ushbu tashrif o'zaro munosabatlarni yangi bosqichga olib chiqish jarayonida dastlabki qadamga aylandi, deb aytish mumkin. O'zbekiston va Afg'oniston o'rtasida oliy darajadagi uchrashuvlar ham o'tkazilib, bu ayniqsa Ashraf G'aning 2017-yil 4-6 dekabr sanalarida O'zbekistonga uyushtirgan rasmiy tashrifi davomida o'z ifodasi topdi. Muzokaralar yakunida tomonlarning Qo'shma bayonoti va turli sohalarda hamkorlikni mustahkamlashga doir 20 dan ortiq hujjat imzolandi. 2019-yil 31-mart sanasida O'zbekiston Milliy xavfsizlik kengashi raisi Viktor Mahmudov va Tashqi ishlar vaziri Abdulaziz Komilov Afg'onistonga tashrif buyurib, Prezident Ashraf G'ani bilan o'tkazilgan uchrashuvda O'zbekiston tomoni Afg'oniston tinchlik jarayonining har qanday shakliga mezbonlik qilishga tayyorligini ma'lum qildi¹. Afg'onistonning "Anis" gazetasi bosh sahifasida chop etilgan maqolalarda O'zbekiston delegatsiyasining mazkur tashrifi va nufuzli afg'on hukumati vakillari bilan olib borgan

¹ Hashimova U. What is Uzbekistan's Role in the Afghan Peace Process?

Available at: <https://thediplomat.com/2019/03/what-is-uzbekistans-role-in-the-afghan-peace-process/>

muzokaralari haqida atroflicha soʻz yuritiladi. Jumladan, Afgʻoniston rahbari mushtarak hamkorlikning kengayishi yuzasidan roʻy bergan jiddiy konsentratsiya jarayonlari mintaqada ham barqarorlikka zamin yaratishini taʼkidlar ekan, Afgʻoniston hukumati Oʻzbekiston tomonidan afgʻonlararo muzokarlarni Samarqandda oʻtkazishda mezbonlik qilishga doir taklifini olqishlaydi¹. Yuqoridagi singari ikki davlat hukumatining nufuzli delegatsiyalari tashriflari bugungi kunda ham izchillik bilan davom etmoqda.

“Tolibon” harakati bilan aloqalar. 2001-yildan buyon xalqaro kuchlarning ushbu harakatga qarshi olib borgan harbiy amaliyotlari koʻzlangan natijani bermaganligi, qolaversa, harakatning Bonn va shu singari xalqaro siyosiy muzokara jarayonlaridan uzoq vaqt mosuvo etilishi Afgʻonistonda vaziyatni barqarorlashtirmadi, aksincha qoʻshimcha jiddiy oqibatlarini keltirib chiqardi. Ayni shu nuqtayi nazardan Oʻzbekiston Afgʻoniston hukumati va muxolifatdagi asosiy siyosiy kuch sifatida eʼtirof etilayotgan “Tolibon” harakati oʻrtasida oldindan shart qoʻymasdan toʻgʻridan-toʻgʻri muzokarlarni oʻtkazish zarurligini qoʻllab-quvvatlamogda, oʻz navbatida, afgʻonistonliklarning roziligi asosida bunday tinchlik muzokaralari uchun istalgan vaqtda muloqot maydoni boʻlishga tayyor ekanini ham maʼlum qilmoqda². Eng asosiysi, Oʻzbekiston “Tolibon” harakatining siyosiy mahkamasi vakillari bilan tegishli aloqalar oʻrnatib, ularni afgʻonlararo tinchlik muzokaralarida ishtirok etishga daʼvat etib kelmoqda. Jumladan, 2018-yil 7-10 avgust kunlari harakatning Doha shahrida joylashgan siyosiy idorasi sobiq rahbari Sher Muhammad Abbas Stanekzay boshchiligidagi delegatsiya

¹ اشرف غنى. تمرکز روی افزایش همکاری ها، سبب ثبات در منطقه می شود. روزنامه انیس، اول اپریل ۲۰۱۹ میلادی. - ص. ۱.

(Ashraf Gʻani. *Tamarkoʻz-e ruy-e afzoyesh-e hamkoriho, sabab-e sabot dar mintaqah mishavad // Ruznoma-ye Anis, Avval-e april 2019 milodi. - S.1.*)

Ashraf Gʻani. Hamkorlikni kengaytirishga qaratilgan konsentratsiya mintaqada barqarorlikka sabab boʻladi // “Anis” gazetasi, 2019-yil 1 aprel. - B. 1.

² Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Афғонистон бўйича “Тинчлик жараёни, хавфсизлик соҳасида ҳамкорлик ва минтақавий шериклик” мавзусида ўтказилган халқаро конференциядаги нутқи // Халқ сўзи 2018 йил 28 март, № 59-60 (7017-7018).

O'zbekistonga amaliy tashrif bilan keldi¹. E'tiborli jihati shundaki, muzokaralar masalasida "Tolibon" harakati Afg'onistonga chegaradosh hududlar orasidan o'z mintaqaviy ishtirokini aynan Toshkentdan boshlagani ham O'zbekistonning Afg'oniston tinchlik jarayonlaridagi geodiplomatiyasi nufuzini belgilab beradi. TH siyosiy vakillari bilan muloqotlarning doimiy tus olishi O'zbekiston uchun nafaqat mintaqaviy barqarorlikni ta'minlash jarayonlarida, transafg'on loyihalari xavfsizligini kafolatlashda, balki Afg'oniston bilan bog'liq bo'lajak geosiyosiy ssenariylar sharoitida oqilona va strategik qarorlar qabul qilish nuqtayi nazaridan ham muhim rol o'ynaydi. Taxminlarga ko'ra "Tolibon" harakati ham O'zbekistonning Markaziy Osiyo mintaqasidagi yyetakchi nufuzi hamda 1999-yilda o'rnatilgan o'zaro fundamental aloqalarni hisobga olgan holda, harakatning mintaqaviy darajada tan olinishi uchun O'zbekistonga umid bog'lashni maqsad qilgan bo'lishi mumkin. Shu jihatdan, 2019-yil 3-martda THning Dohadagi siyosiy idorasi rahbari Mulla Barodar Oxund Tashqi ishlar vaziri Abdulaziz Komilov va O'zbekiston Prezidentining Afg'oniston bo'yicha Maxsus vakili Ismatilla Ergashev bilan bo'lgan uchrashuvda O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Afg'oniston tinchlik jarayoniga ko'maklashishga qaratilgan siyosatini yuqori baholashi va o'tkazilgan Toshkent xalqaro konferensiyasi afg'on mojarosini tinch yo'l bilan hal etish borasidagi sa'y-harakatlarning faollashishiga kuchli turtki bergani, O'zbekistonning faol tashqi siyosati orqali Afg'oniston kelajakda Markaziy va Janubiy Osiyoda "ishonch va hamkorlik ko'prigi" bo'lishi mumkinligini alohida ta'kidlagan edi². 2019-yilning 8-avgust sanasida Toshkentga qayta tashrif buyurgan THning siyosiy idorasi rahbariyati tomonidan afg'onlararo muloqotning navbatdagi raundini Samarqand

¹ Delegation of Taliban visits Uzbekistan // Ministry of Foreign Affairs of the Republic of Uzbekistan, 11 august 2018. Available at: www.mfa.uz/en/press/news/2018/08/15768/

² Uzbek Foreign Minister Meets Taliban's Leadership // Ministry of Foreign Affairs of the Republic of Uzbekistan, 4 March 2019. Available at: <https://mfa.uz/en/press/news/2019/03/18029/>

shahrida o'tkazish taklifining qo'llab-quvvatlanishi¹ Afg'oniston tinchlik jarayonlarini siyosiy yo'l bilan hal etilishida O'zbekistonning roli munosib baholanayotganidan darak beradi.

Boshqa afg'on etnosiyosiy vakillari bilan aloqalar. Sir emaski, boshqa afg'on siyosiy yetakchilari bilan O'zbekiston aloqalari haqida so'z yuritganda, eng birinchi navbatda, barchaning ko'z oldiga afg'onistonlik o'zbek marshali Abdurashid Do'stum keladi. A.Do'stum bilan o'rnatilgan aloqalar xususida ekspert doiralari va matbuotlarda turli fikrlar bildirilgan va bu jarayon ayrim joylarda noxolis shaklda ko'rsatilayotgan bo'lsa hamki, bugungi kunda mamlakatimizning barcha afg'on etnosiyosiy rahbarlari bilan aloqalari o'zaro muvozanat va tenglik tamoyillariga asoslangan. Mintaqaviy masalalar bo'yicha tojikistonlik ekspert Qosim Bekmuhammadning ushbu masaladagi quyidagi fikrlariga to'liq qo'shilamiz: "O'zbekiston uchun Afg'oniston va Janubiy Osiyoda energetika va transport infrastrukturasini sohasida Mozori Sharif-Hirot, Mozori Sharif-Kobul-Peshovar, TUTAP va boshqa loyihalarga doir iqtisodiy manfaatlar juda muhim hisoblanadi. Shuning uchun ham O'zbekistonning Afg'oniston masalasidagi yondashuvlari aniq etnik guruhlar manfaatlarini qo'llab-quvvatlash doirasidan chiqib, uzoq muddatli iqtisodiy maqsadlarni amalga oshirishga qaratilgan"². Ta'kidlash zarurki, rasmiy Kobul va "Tolibon" kuchlaridan tashqari Afg'onistonda katta ta'sirga ega boshqa afg'on ichki siyosiy kuchlari mavjud bo'lib, ularni ham muzokaralar jarayoniga jalb etmasdan, ushbu mamlakatda barqarorlikni ta'minlashning sira imkoni yo'q. O'zbekiston Tashqi ishlar vaziri A.Komilovning ma'lum qilishicha, Afg'oniston ichki siyosiy kuch vakillari, xususan, Bosh vazir (hozirda Milliy yarashish

¹ Meeting with the representatives of the Taliban // Ministry of Foreign Affairs of the Republic of Uzbekistan, 8 august 2019. Available at: <https://mfa.uz/en/press/news/2019/08/20399/>

² Бекмухаммад К. В Кабуле ошибаются, когда думают, что талибы станут частью власти // Central Asian Bureau for Analytical Reporting, 22.04.2020. <https://cabar.asia/ru/kosim-bekmuhammad-v-kabule-oshibayutsya-kogda-dumayut-chto-taliby-stanut-chastyu-vlasti/>

bo'yicha Oliy kengash raisi) A.Abdulla, Afg'onistonning sobiq prezidenti H.Karzay, "Afg'onistonni ozod qilish Islom ittifoqi" partiyasi rahbari A.Sayyof, "Afg'oniston islom partiyasi" rahbari G.Hikmatyor, Afg'oniston Oliy tinchlik kengashi raisi K.Haliliy, "Afg'oniston milliy islom harakati" boshqaruvi kengashi a'zosi B.Do'stum, "Milliy islom jabhasi" yetakchisi S.Giloniy, "Afg'oniston islom jamiyati" boshqaruv kengashi a'zolari Y.Qonuniy va M.Ismoilxon, Balx viloyati sobiq hokimi A.Nur va boshqalar bilan to'g'ridan-to'g'ri aloqalar o'rnatilgan¹.

Yuqorida sanab o'tilgan afg'on siyosiy vakillari bilan yo'lga qo'yilgan aloqalar afg'onlar boshchiligidagi muzokaralarni boshlash yuzasidan o'zaro fikr almashish, dolzarb masalalarni muhokama qilish va umuman, barcha ichki kuchlarni yagona siyosiy muloqotga chorlashda aniq natijalar berishi mumkin.

Mintaqaviy darajada diplomatiya

O'zbekiston geosiyosatida Afg'oniston omili mintaqaviy miqyosda konsensusga erishishni taqozo etadi. Rasmiy Toshkent Afg'oniston muammosini hal etishda katta ta'sir ko'rsatuvchi mintaqaning ko'zga ko'ringan aktorlari — Pokiston, Hindiston, Eron, Saudiya Arabistoni, BAA, Qatar, Turkiya singari kuch markazlari, shuningdek, Markaziy Osiyo davlatlari bilan turli darajalarda muzokaralar olib bordi va bu jarayonlar davom etib kelmoqda.

O'z-o'zidan ravshanki, Afg'onistonni Markaziy Osiyo mintaqaviy jarayonlariga keng jalb etish O'zbekiston tashqi siyosatining ustuvor jihatlaridan biri hisoblanadi. Shavkat Mirziyoyev turli mintaqaviy darajadagi uchrashuvlarda bugungi kunda Markaziy Osiyoda barqaror va izchil taraqqiyotning istiqbollari qo'shni Afg'onistonda tinchlik

¹ Президент Шавкат Мирзиёевнинг минтақавий хавфсизликни таъминлаш ва афгон муаммосини ҳал этиш масалалари юзасидан стратегик қараши (Ўзбекистон Ташқи ишлар вазири Абдулазиз Комилов билан интервью) // // Халқ сўзи 2020 йил 29 февраль, № 44 (7546).

o'rnatish bilan chambarchas bog'liq¹ degan qat'iy fikrni ilgari suradi. Afg'on o'lkasidagi notinch va beqaror vaziyatgina ushbu mamlakatni Markaziy Osiyo mintaqasi bilan turli sohalaridagi integratsiyalashuviga xalaqit bermoqda. Misol sifatida ta'kidlashimiz o'rinli, 2019-yil 29-noyabr kuni Toshkentda o'tkazilgan Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining ikkinchi maslahat sammitida ushbu muammo kun tartibidagi dolzarb masalalardan biri sifatida atroflicha muhokama etildi. Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Qo'shma bayonotida aks etgan alohida band ham buni yaqqol tasdig'i hisoblanadi: "Markaziy Osiyoda barqaror rivojlanish qo'shni Afg'onistonda tinchlikka erishish bilan bog'liq. Afg'onistonda uzoq muddatli va barqaror tinchlik o'rnatish maqsadida muammoni siyosiy yo'l bilan hal etish, avvalo, zo'ravonlikni rad etish, o't ochishni to'xtatish, muloqot va murosaga tayyorgarlikni namoyish qilish singari muhim tamoyillarni saqlash lozim, deb hisoblaymiz. Markaziy Osiyo davlatlari tinchlik jarayonlari olg'a siljishi uchun ko'mak beradigan mintaqaviy savdo-iqtisodiy va infrastruktura loyihalariga Afg'onistonni ham jalb etish bo'yicha har tomonlama sa'y-harakatlarni davom ettiradi"². Shu nuqtayi nazardan barqaror Markaziy Osiyo barqaror Afg'onistonni yaratishidan ko'ra barqaror va tinch Afg'oniston mustahkam va taraqqiy etgan Markaziy Osiyoni barpo etish jarayonlarida hal etuvchi rol o'ynaydi, deb aytishga to'la asos bor. Bu esa ayni hozirgi kunda Markaziy Osiyo va Afg'oniston o'rtasida istiqboldagi mintaqaviy muloqotni amalga oshirish bo'yicha umumiy strategik qarashlarni o'zida ifodalovchi huquqiy baza ishlab chiqishni taqozo etadi. Ushbu huquqiy bazani yaratish yuzasidan tashabbus O'zbekiston tomonidan bildirilishi mantiqiy jihatdan maqsadga muvofiq bo'lar edi.

O'zbekiston Afg'onistondagi vaziyatni barqarorlashtirish va bu orqali Markaziy Osiyo davlatlarining Hind okeani

¹ Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиғи бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳоdir. – Т.: Ўзбекистон, 2018. – Б.269.

² Совместное заявление Консультативной встречи глав государств Центральной Азии // Министерство иностранных дел Республики Узбекистан, 29 ноябр 2019. <https://mfa.uz/ru/press/news/2019/11/22149/>

bandargohlariga chiqishi masalalarida faol geodiplomatiyaga alohida e'tibor qaratmoqda. O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2021-yilda Toshkentda Markaziy Osiyoning Janubiy Osiyo mintaqasi bilan munosabatlariga doir yuqori darajadagi xalqaro konferensiya o'tkazish tashabbusi ushbu geodiplomatiyaning eng muhim g'oyalarini o'zida mujassam etadi. Bunday mintaqalararo muloqot nafaqat mintaqamizning umumiy manfaatlariga mos bo'lgan yangi geosiyosiy o'zgarishlar jarayonini boshlab beradi, balki istiqbolida Afg'onistonning Markaziy va Janubiy Osiyo mintaqalarini bog'lovchi ko'prik sifatidagi tarixiy rolini tiklash uchun keng imkoniyalar va sharoitlar yaratish uchun xizmat qiladi. Shu nuqtayi nazardan Janubiy Osiyoning yirik davlatlari bilan serqirra hamkorlikni rivojlantirish, Afg'oniston muammosini hal etish bo'yicha Janubiy Osiyodagi manfaatdor davlatlar bilan doimiy muzokaralar olib borish O'zbekiston zamonaviy geosiyosatining dolzarb omillaridan biriga aylanmoqda. Shavkat Mirziyoyevning 2018-yil oktabr oyi avvalidagi Hindistonga amalga oshirgan rasmiy tashrifi Afg'oniston muammosini hal etish yo'llarini izlash hamda mintaqalararo muloqotga zamin yaratishda rasmiy Dehlining imkoniyatlaridan samarali foydalanishni asosiy maqsadlardan biri sifatida belgilagan edi. Hindistonlik diplomat P.Stobdan Mirziyoyevning Dehliga tashrifi uning afg'on siyosiy yechimini izlashga qaratilgan dasturlari bilan uzviy bog'liq, deb hisoblaydi. Diplomatiyning fikriga ko'ra Mirziyoyev ShHT Sindao sammitidan so'ng ochiq mintaqaviy diplomatiya tamoyillari asosida Yangi Dehli va Islomobod o'rtasida mustahkam ko'prik bunyod etish missiyasini ado etishi mumkin¹. Markaziy Osiyo mintaqasidagi geosiyosiy o'zgarishlar va Pokistonning Afg'onistondagi faol ta'siri natijasida Dehli strategik hamkor sifatida rasmiy Toshkent bilan faol muloqotga intilayotganini kuzatish mumkin. Qolaversa, ushbu mintaqada Hindistonning boshqa raqobatchisi — Xitoy siyosatining kuchayishi ham Dehlini Markaziy Osiyo va

¹ Stobdan P. As Uzbek President Visits, India Must Rethink Its Central Asia Policy // The Wire, September 30 2018. <https://thewire.in/world/as-uzbek-president-visits-india-must-rethink-its-central-asia-policy>

Afg'onistonda faollashishga undaydi. Ushbu omillarni hisobga olgan holda 2019-yilning yanvar oyida O'zbekiston tashabbusi bilan Hindiston-Markaziy Osiyo va Afg'oniston tashqi ishlar vazirlarining dastlabki muloqoti Samarqand shahrida o'tkazildi. Uchrashuv yakunlari bo'yicha qabul qilingan qo'shma bayonotda vazirlar mintaqaviy hamkorlik, tovarlar va energiya resurslari tranzitining muhim bo'g'ini bo'lgan Afg'onistonning "Hindiston-Markaziy Osiyo" muloqotining birinchi uchrashuvidagi ishtirokini ma'qullab, Markaziy Osiyo mamlakatlari va Hindistonning Afg'onistonda tinchlik, xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlash, ushbu mamlakatda bevosita afg'on xalqi rahbarligida va sa'y-harakatlari bilan tinchlik jarayonini o'rnatishga ko'maklashishda, shuningdek, qo'shma infratuzilmaviy, tranzit-transport, energetika va boshqa loyihalarni amalga oshirish, jumladan, mintaqaviy hamkorlik va investitsiya loyihalari orqali Afg'onistonning iqtisodiy tiklanishini qo'llab-quvvatlashga tayyor va bu borada intilishlari qat'iy ekanini ta'kidladilar. Bundan tashqari Qo'shma bayonotda tashqi ishlar vazirlari Afg'oniston bo'yicha sakkizinchi mintaqaviy iqtisodiy hamkorlik konferensiyasini (RECCA VIII) Toshkent shahrida o'tkazishda hamkorlik qilishga tayyor ekanini tasdiqladilar¹. Bizningcha, Samarqand muloqotida Afg'oniston tashqi ishlar vazirining ishtirok etishi O'zbekiston geosiyosiy jozibadorligini yanada oshirib, rasmiy Toshkentning makromintaqaviy manfaatlarini samarali va tezkor amalga oshirishga turtki berdi.

O'zbekiston uchun Pokiston bilan ikki tomonlama hamkorlik qilish va Afg'on muammosi bo'yicha muzokaralar olib borish mintaqaviy xavfsizlik omillaridan tashqari Janubiy Osiyoning eng yaqin dengiz portlariga chiqish singari strategik vazifalarni bajarish jihatidan nihoyatda muhimdir. O'z o'rnida, Islomobod ham Markaziy Osiyo mintaqasi bilan bog'liq istiqboldagi manfaatlarini ro'yobga chiqarishda Toshkent bilan o'z aloqalarini rivojlantirib borishdan

¹ «Хиндистон–Марказий Осиё» мулоқоти ташқи ишлар вазирларининг Афғонистон иштирокидаги биринчи учрашуви якунлари бўйича қўшма баёнот // Ўзбекистон Миллий ахборот агентлиги, 14.01.2019. <http://uza.uz/oz/politics/-indiston-markaziy-osiye-mulo-oti-tash-i-ishlar-vazirlarinin-14-01-2019>

manfaatdor. 2018-yil 1-noyabrda Pokistonga tashrif buyurgan A.Komilov boshchiligidagi delegatsiya Islomobodda Pokiston Bosh vaziri Imron Xon, Pokiston Tashqi ishlar vaziri Mahmud Qurayshiy, Pokiston Quruqlikdagi qo'shinlari qo'mondoni, general Qamar Bajva, Pokiston Qurolli kuchlari shtab boshliqlarining Birlashgan qo'mitasi raisi, general Zubayr Mahmud Hayot bilan o'tkazgan muloqotida Afg'oniston inqirozini siyosiy yo'l bilan bartaraf etish jarayonini boshlash yuzasidan xalqaro sa'y-harakatlarni muvofiqlashtirish masalalarini atroflicha ko'rib chiqdi. A.Komilov ushbu tashrifda asosan Pokiston yuqori martabali harbiy vakillari bilan muzokaralar olib borishi, shuningdek, muzokaralarda O'zbekiston delegatsiyasi tarkibida O'zbekiston Davlat xavfsizlik xizmati raisi va O'zbekiston Prezidentining Afg'oniston bo'yicha maxsus vakili ham ishtirok etgani to'g'risidagi Pokiston Tashqi ishlar vazirligi rasmiy sahifasida keltirilgan ma'lumotlardan¹ anglash mumkinki, tomonlar o'rtasida Afg'onistondagi beqaror harbiy-siyosiy vaziyat va mintaqaviy xavfsizlik masalalari eng asosiy mavzu sifatida muhokama etilgan. Markaziy va Janubiy Osiyo mintaqalarining Afg'onistonda xavfsizlik masalalari bo'yicha hamkorlik muloqotini yo'lga qo'yishida aynan Toshkent mintaqaviy markaz vazifasini bajarmoqda. Pokiston Milliy xavfsizlik bo'yicha sobiq maslahatchisi, general-leytenant Nosir Xon Janjua "Tolibon" siyosiy vakillarining 2018-yil avgustdagi Toshkentga tashrifiga izoh berar ekan, O'zbekistonga mintaqada kollektiv tashabbuslar, muntazam aloqalar va umumiy kelajak barpo etishga intiladigan muhim mintaqaviy o'yinchi sifatida baho beradi². Shuningdek, 2019-yil 21-fevralda Markaziy va Janubiy Osiyo mamlakatlari qurolli kuchlari bosh shtabi boshliqlarining Toshkentdagi anjumani mintaqaviy xavfsizlik masalasida O'zbekistonning geosiyosiy markaz sifatidagi maqomini ko'rsatib berdi. Unda

¹ Visit of Minister of Uzbekistan to Pakistan 1st November 2018 // Ministry of Foreign Affairs of Pakistan, 1 november, 2018. <http://mofa.gov.pk/visit-of-minister-of-uzbekistan-to-pakistan-1st-november-2018/>

² «Талибан» начал переговоры по афганскому миру в Ташкенте // Новости ДНД Радио, 11 августа 2018. <https://www.dispatchnewsdesk.com/%d1%82%>

O'zbekiston, Qozog'iston, Turkmaniston, Tojikiston, Afg'oniston va Pokiston qurolli kuchlari bosh shtabi boshliqlari, Qirg'iziston bosh shtab boshlig'ining birinchi o'rinbosari, AQSh Qurolli Kuchlari Markaziy qo'mondonligi (CENTCOM) qo'mondoni ishtirok etib, mintaqada xavfsizlikni ta'minlash, Afg'onistondagi vaziyatni barqarorlashtirish, shuningdek, terrorizm, giyohvand moddalar savdosi hamda kiberjinoyatchilikka qarshi kurashish masalalari muhokama etildi¹. Ta'kidlash lozimki, O'zbekiston Davlat xavfsizlik xizmati raisining 2019-yil iyul oyi so'ngida Ravalpandi shahrida Pokiston Quruqlikdagi qo'shinlari qo'mondoni, general Qamar Bajva bilan olib borgan muzokaralarida ham O'zbekiston va Pokiston o'rtasida mintaqaviy xavfsizlik masalalari yuzasidan hamkorlikni yanada kuchaytirishga kelishib olindi². Eng e'tiborlisi, ushbu tashrifdan qariyb bir hafta o'tib, "Tolibon" harakatining Dohadagi siyosiy mahkamasi rahbarlari Toshkentga rasmiy tashrif buyurdi. Shu bilan birgalikda, 2021-yilda Markaziy va Janubiy Osiyo mintaqalarini bog'lashga doir Toshkent xalqaro konferensiyasiga Pokiston tomonini taklif etish maqsadida A.Komilov 2021-yil martda Pokiston Bosh vaziri Imron Xon va Tashqi ishlar vaziri Shoh Mahmud Qurayshiy bilan muzokaralar olib bordi³. Darhaqiqat, Islomobodning Afg'on muammosini hal etish jarayonlaridagi ta'sirchan roli hisobga olinsa, O'zbekiston geodiplomatiyasi sezilarli darajada muhim yutuqlarga erishganini anglash mumkin.

O'zbekistonning mintaqaviy darajadagi Afg'oniston siyosatida Eron ham alohida o'ringa ega. Eron omili Afg'oniston ichki harbiy-siyosiy vaziyatiga katta ta'siri mavjudligi bois boshqa mintaqaviy qo'shni aktorlar singari O'zbekistonning

¹ Toshkentda Markaziy va Janubiy Osiyo mamlakatlari bosh shtab boshliqlarining anjumani bo'lib o'tadi // O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi, 19.02.2019. <http://mudofaa.uz/6766/>; Markaziy va Janubiy Osiyo mamlakatlari qurolli kuchlari bosh shtabi boshliqlarining anjumani boshlandi. 21.02.2019. <http://mudofaa.uz/6828/>

² Uzbek National Security Services chief meets General Bajwa // Daily Times, July 31, 2019. <https://dailytimes.com.pk/440048/uzbek-national-security-services-chief-meets-general-bajwa/>

³ Sajjad Syed Baqir. Uzbekistan offered access to Pakistani ports / DAWN media group, March 11, 2021. <https://www.dawn.com/news/1611855>

umumiy mintaqa xavfsizlik halqasini o'rnatish va Fors ko'rfazining Chobahor va Bandar Abbas bandargohlariga qisqa masofalarda chiqishi uchun mo'ljallagan strategik manfaatlarini namoyon etadi. So'nggi yillarda O'zbekiston va Eron Tashqi ishlar vazirlari va diplomatik vakillari o'rtasida muntazam o'tkazilayogan muzokaralarda¹ Afg'oniston muammosini hal etishga qaratilgan sa'y-harakatlarni qo'llab-quvvatlash, afg'onlararo tinchlik muzokaralari, "Mozori Sharif-Hirot" temir yo'l loyihasini to'laqonli amalga oshirish bo'yicha o'zaro aloqalarni mustahkamlash masalalari atroflicha ko'rib chiqilayotgani O'zbekistonning mintaqalararo manfaatlarini amaliyotga joriy etishda sezilarli o'rin o'ynaydi.

Global darajada diplomatiya

Afg'on muammosining global xususiyati o'z-o'zidan global darajada kelishuvlarga erishishni taqozo etadi. O'zbekistonning Afg'oniston siyosatiga oid global darajadagi qadami 2018-yil 26-27 mart sanalarida bo'lib o'tgan ***"Tinchlik jarayoni, xavfsizlik sohasidagi hamkorlik va mintaqaviy sheriklik"*** mavzusidagi Afg'oniston bo'yicha Toshkent xalqaro konferensiyasi hisoblanadi. Konferensiyada jahonning yetakchi davlatlari va xalqaro tashkilotlardan taniqli vakillar ishtirok etib, jafokash afg'on zaminida tinchlik o'rnatish jarayonlarida barcha umumiy imkoniyatlar va harakatlarni muvofiqlashtirish zarurligini qayd etishdi. O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev

¹ Eron Tashqi ishlar vaziri bilan uchrashuv, 2017-yil 17-oktabr. <https://mfa.uz/uz/press/news/2017/10/12812/>; Eron tashqi ishlar vaziri bilan uchrashuv, 2018-yil 10-fevral. <https://mfa.uz/uz/press/news/2018/02/13889/>; O'zbekiston delegatsiyasining Eronga tashrifi to'g'risida, 2018-yil 29-oktabr. <https://mfa.uz/uz/press/news/2018/10/16491/>; Eron Elchisi bilan uchrashuv, 2018-yil 26-dekabr. <https://mfa.uz/uz/press/news/2018/12/17195/>; O'zbekiston Prezidentining Afg'oniston bo'yicha Maxsus vakili Eron Elchisi bilan uchrashdi, 2019-yil 29-avgust. <https://mfa.uz/uz/press/news/2019/08/20733/>; Eronning Afg'oniston bo'yicha maxsus vakili bilan uchrashuv, 2019-yil 11-noyabr. <https://mfa.uz/uz/press/news/2019/11/21850/>; Eron Elchisi bilan uchrashuv, 2020-yil 17-fevral. <https://mfa.uz/uz/press/news/2020/02/23395/>; Eron Tashqi ishlar vaziri bilan telefon orqali muloqot to'g'risida, 2020-yil 7-may. <https://mfa.uz/uz/press/news/2020/05/24087/>; Eron Tashqi ishlar vaziri bilan muzokaralar to'g'risida, 2021-yil 8-mart. <https://mfa.uz/uz/press/news/2021/eron-tashqi-ishlar-vaziri-bilan-muzokaralar-togrisida---29382>.

ushbu anjuman Afg'onistondagi qarama-qarshilikni amaliy ruhda muhokama qilib, birgalikda umumiy echim topishga imkoniyat ekanligini alohida ta'kidlab, o'z ma'ruzasida afg'on muammosini tinch yo'l bilan hal etishning asosiy tamoyillarini ishlab chiqish va ular bo'yicha keng va qat'iy xalqaro konsensusga erishish, global darajada – dunyoning yetakchi, buyuk davlatlari va donor tashkilotlar tomonidan Afg'onistondagi tinchlik jarayonlari prinsipial jihatdan siyosiy qo'llab-quvvatlanishi va mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy tiklanishi uchun moliyaviy yordam ko'rsatilishi zarurligini alohida ta'kidladi¹. Qayd etishimiz joizki, aynan konferensiya doirasida imzolangan Afg'oniston bo'yicha Toshkent deklaratsiyasi BMTning rasmiy hujjati² sifatida mojaroni tinch yo'l bilan hal etishning asosiy tamoyillari aks etgan va Afg'onistondagi tinchlik jarayonlari prinsipial jihatdan global miqyosda siyosiy qo'llab-quvvatlanishi uchun "yo'l xaritasi" vazifasini bajarishi mumkin. Shu o'rinda, Afg'onistonda tinchlik va barqarorlikni ta'minlashda mazkur nufuzli konferensiyaning amaliy ahamiyati qanday yoki Toshkent deklaratsiyasi afg'on muammosini hal etilishi jarayonlariga qay darajada turtki berdi, degan savollarga atroflicha javob berishimiz maqsadga muvofiqdir.

Birinchidan, Toshkent xalqaro anjumani Afg'oniston muammosiga daxldor turlicha qarashga ega AQSh, Rossiya va Xitoy davlatlarini, shuningdek, BMT, YI, ShHT, ShAShT, IHT singari nufuzli tashkilot a'zolari, ayniqsa, Markaziy Osiyo davlatlari vakillarini bir joyda to'pladi va Afg'onistonda yalpi tinchlikka erishish uchun o'ziga xos geosiyosiy platforma yaratib berdi. Xorijiy ekspert doiralari ham Toshkent anjumanining global xususiyatiga alohida e'tibor qaratishdi. Jumladan, Qohira universiteti Osiyo tadqiqotlari markazi o'rinbosari Ahmad Tarabikni baholashiga ko'ra O'zbekiston

¹ Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиғи бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. – Т.: Ўзбекистон, 2018. – Б.365-370.

² Declaration of the Tashkent Conference on Afghanistan: Peace Process, Security Cooperation and Regional Connectivity (Tashkent, 26–27 March 2018) // Annex to the letter dated 29 March 2018 from the Permanent Representatives of Afghanistan and Uzbekistan to the United Nations addressed to the Secretary-General. A/72/830 S/2018/288

1999-yilda afg'on muammosini hal etish uchun global o'yinchilar o'rtasida murosaga erishgan bo'lsa, bu galgi Toshkent uchrashuvining muhim yutug'i shundaki, unda yirik va mintaqaviy qudratli davlatlardan tashqari, Afg'onistonning ham "yaqin qo'shnilari" taklif qilindi. Yevropa xavfsizlik va istiqbol instituti eksperti Kanishka Surxabi e'tirofiga ko'ra, Toshkent konferensiyasi afg'on muammosini hal etish bo'yicha konstruktiv muzokaralar boshlash uchun ijobiy signal bo'lib, tadbirga Markaziy Osiyo davlatlari, Rossiya, Xitoy, AQSh va boshqa davlatlar, shuningdek, mintaqaviy va xalqaro tuzilmalarning jalb etilishi yuzasidan uni Afg'onistonda tinchlik va barqarorlikni ta'minlashdagi tarixiy voqea, deb atash mumkin¹. Fikrimizcha, Toshkent konferensiyaning eng muhim natijasi uning Afg'oniston tinchlik jarayonlari bo'yicha keyinchalik amalga oshirilgan muzokara formatlari – "AQSh-Tolibon" muzokaralari va "Afg'onlararo muloqot" bo'yicha Moskva formatidan ajralib turuvchi o'ziga xos xususiyatlari bilan chambarchas bog'liq. Boshqacha aytganda, Toshkent formati, eng avvalo, BMT shafeligi ostida tashkil etilishi bilan, qolaversa, Afg'oniston tinchlik jarayonlari bo'yicha rasmiy Kobul va mintaqa mavqeyini bosh omil sifatida hisobga olgani bilan ham ahamiyatlidir. Har qanday Afg'oniston tinchlik jarayonlarida BMT singari xalqaro hamjamiyat shafeligi va mintaqani e'tiborga olmaslik yoki afg'on xalqi nomidan vakolatga ega bo'lgan rasmiy Kobul hukumatini asosiy aktor sifatida inkor etilishi, o'z-o'zidan global o'yinchilarni Afg'onistondagi vaziyatni o'z manfaati va foydasiga qaratishga intilayotganidan dalolat beradi. Toshkent formati esa Afg'oniston hukumati rahbarligidagi "Kobul jarayoni"ni afg'on muammosini yechishga doir tashabbuslar qatorida bosh forum sifatida e'tirof etibgina qolmasdan, chinakam tinchlik istiqbollari faqat afg'onlarning o'zlari boshchiligidagi muzokaralar formatida ekanini qat'iy ta'kidlab kelmoqda.

¹ Batafsil qarang: Rakhimov A. Tashkent conference on Afghanistan in the assessments of foreign experts and researchers // *International Relations: Politics, Economics, Law*: Vol. 2018: Iss. 1, Article 9. Available at: <https://uzjournals.edu.uz/intrel/vol2018/iss1/9>

Ikkinchidan, aynan Toshkent anjumanidan so'ng global kuch markazlari ham muzokaralar jarayonlariga katta rag'bat bera boshladi. AQSh, Rossiya va Xitoyning Afg'oniston bo'yicha maxsus vakillari uchrashuvi tashkil etilishi¹, 2019-yilda oktabrda Afg'onistonda tinchlik o'rnatish bo'yicha AQSh, Rossiya, Xitoy va Pokiston qo'shma bayonoti² imzolanishi tomonlarning afg'on muammosi bo'yicha qarama-qarshi qarashlarini muvofiqlashtirishga urinayotganini anglatadi. BMT Bosh kotibining Afg'oniston bo'yicha sobiq maxsus vakili Tadamichi Yamamoto "AQSh-Tolibon" muzokaralari va uning natijasida tinchlik kelishuv bitimi imzolanishida Toshkent xalqaro anjumani juda katta hissa qo'shdi, muhim poydevor yaratdi, deb hisoblaydi. T.Yamamoto O'zbekiston rahbariyatiga bu jarayonda asosiy ishtirokchi sifatida xizmat qilgani uchun xalqaro hamjamiyat va BMT nomidan alohida tashakkur bildiradi³.

Uchinchidan, Toshkent deklaratsiyasida barcha tomonlar Afg'oniston hukumati va "Tolibon" harakati o'rtasida muzokaralarni hech qanday oldindan qo'yilmaydigan shartlar asosida boshlash zarurligini ma'qullashdi. Jumladan, toliblar bilan munosabatlarni siyosiy yo'l bilan hal etish Afg'onistondagi zo'ravonlikka barham berishning eng maqbul yo'li ekanligi, shuningdek, Afg'oniston hukumati va "Tolibon"ning murosasoz vakillari o'rtasida oldindan hech qanday shart qo'ymasdan to'g'ridan-to'g'ri tinchlik muzokaralarini o'tkazish zarurati mavjudligi deklaratsiyada alohida qayd etildi⁴. Taniqli afg'onshunos ekspert, Xalqaro hamkorlik markazi (AQSh) direktori o'rinbosari B.Rubin Afg'onistondagi nizolarning ikki jihati, ya'ni ichki va tashqi

¹ China, U.S., Russia meet on Afghanistan issue, agree on further talks // 新华网, March 23, 2019. http://www.xinhuanet.com/english/2019-03/23/c_137918082.htm

² U.S., Russia, China and Pakistan Joint Statement on Peace in Afghanistan // United States Department of State, October 2018, 2019. <https://www.state.gov/u-s-russia-china-and-pakistan-joint-statement-on-peace-in-afghanistan/>

³ Ўзбекистон Президентининг ташаббуслари Афғонистонда тинчлик ва барқарорликни ўрнатишда муҳим рол ўйнамоқда // Халқ сўзи 2020 йил 3 март, № 45 (7547).

⁴ Афғонистон бўйича "Тинчлик жараёни, хавфсизлик соҳасидаги ҳамкорлик ва минтақавий шериклик" мавзусидаги Тошкент конференциясининг Декларацияси. / № 59-60. (7017-7018) Халқ сўзи 28 март 2018 йил.

jihatlariga to'xtalar ekan, xalqaro hamjamiyatni, avvalo, Qo'shma Shtatlarni Afg'onistonda siyosiy yo'l bilan tinchlikka erishish, shuningdek, xalqaro terrorizmga qarshi kurash mexanizmlarini ishlab chiqish yo'lida Toshkent konferensiyasi toliblarga aniq signal yuborish imkoniyatini yaratib berganini aytib o'tadi¹. Kobuldagi Ibn Sino universitetining siyosiy fanlar bo'yicha professori Nabi Savoriy anjuman mintaqaviy davlatlar, ayniqsa, "Tolibon"ga ta'sir qila oladigan bevosita qo'shni davlatlarni Afg'oniston hukumati bilan urushni to'xtatish yuzasidan kelishuv imzolashga ishontira olish imkoniyatini yaratib berdi, deb izohlaydi. Afg'oniston Oliy tinchlik kengashi vakili S.Tohiriy esa, o'z e'tiborini Toshkent anjumanidan so'ng tinchlik taklifini qabul qilish bo'yicha "Tolibon" kuchlariga bo'ladigan bosimlar ortishiga qaratadi².

To'rtinchidan, Toshkent xalqaro konferensiyasi Markaziy Osiyo davlatlari uchun Afg'oniston muammosi yuzasidan o'zaro yakdil qarashlarni global darajada ifodalash imkoniyatini yaratib berdi. Buni xorijiy diplomatlar, ekspert va tahlilchilarning bu boradagi qiziqishlaridan ham anglash mumkin. Jumladan, Germaniyaning Afg'oniston va Pokiston bo'yicha maxsus vakili Markus Potselning ta'kidlashicha, O'zbekiston rahbariyati Markaziy Osiyoda sezilarli islohotlarni amalga oshirmoqda, Afg'oniston esa mintaqaning noqonuniy qurol-yarog', narkotik moddalar savdosi va terrorizm bilan to'qnash kelayotgan markazi hisoblanadi. Shu jihatdan, Toshkent konferensiyasi tinchlik jarayonlariga muhim ishoradir³. Zamonaviy Afg'onistonni o'rganish markazi direktori U.Nissor bu borada Toshkentning amaliy rolini shunday ta'riflaydi: "Shu vaqtgacha afg'on inqirozida Afg'oniston shimoliy qo'shnilarining ishtirok etishi bunchalik

¹ Во имя мира, стабильности и прогресса // Материалы международной конференции высокого уровня по Афганистану "Мирный процесс, сотрудничество в сфере безопасности и региональное взаимодействие". – Т.:2018. – С.187-188.

² News Analysis: Experts see recent Tashkent conference on peace in Afghanistan as a step forward // Xinhuanet, 2018.03.30. http://www.xinhuanet.com/english/2018-03/30/c_137076670.htm

³ Во имя мира, стабильности и прогресса // Материалы международной конференции высокого уровня по Афганистану "Мирный процесс, сотрудничество в сфере безопасности и региональное взаимодействие". – Т.:2018. – С.173.

yorqin bo'lmagan edi. Toshkent konferensiyasi O'zbekistonni afg'on yo'nalishida jiddiy o'zgarishlarga kirishgani haqida so'zlaydi¹". Xalqaro munosabatlar va xavfsizlik kengashi (Qirg'iziston) a'zosi Edil Ostonbetov O'zbekiston ushbu anjuman orqali Markaziy Osiyoni xalqaro hamjamiyatning geosiyosat subyektiga aylanishi uchun birinchi katta qadamni tashlaganini olqishlab, shunday yozadi: "Toshkent konferensiyasi sababli Markaziy Osiyo yangi geosiyosiy davraga qadam qo'ydi va mintaqa geosiyosat subyektiga aylanishi uchun katta imkoniyatga ega bo'ldi"². Yaqin Sharq va Markaziy Osiyo xavfsizlik masalalari bo'yicha ekspert Jeyms Durso "Diplomat" nashrida chop etilgan maqolasida Markaziy Osiyo Afg'onistonga har tomonlama o'z eshiklarini ochayotgani va bunda O'zbekistonning siyosiy roli katta bo'lganini tahlil etadi³.

Ma'lumki, Afg'onistonning istiqbolda ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan qayta tiklanishi borasida global darajadagi sa'y-harakatlar sust kechmoqda. Bu masalada O'zbekiston davlat rahbarining BMT 75-sessiyasida ilgari surgan **Birlashgan Millatlar Tashkiloti huzurida afg'on xalqining dardu tashvishi-ni tinglaydigan, doimiy faoliyat ko'rsatadigan qo'mita tashkil etish** taklifi⁴ Afg'oniston masalasini jahon hamjamiyatining istiqbolda ham e'tibor markazida turishi uchun muhim turtki bo'ladi. Ushbu taklif Afg'onistonda vayron bo'lgan iqtisodiyot va ijtimoiy muammolarni hal etishda ko'mak berish va afg'on xalqini tinch turmush tarziga o'tish yo'lida O'zbekistonning tashabbuskor va pragmatik tashqi siyosatining yorqin ifodasi sifatida namoyon bo'ladi.

¹ У афганской инициативы Кремля появляются двойники // Независимая газета, 26.03.2018. http://www.ng.ru/dipkurer/2018-03-26/9_7197_afgan.html

² Во имя мира, стабильности и прогресса // Материалы международной конференции высокого уровня по Афганистану "Мирный процесс, сотрудничество в сфере безопасности и региональное взаимодействие". – Т.: 2018. – С. 194.

³ Durso J. Central Asia Opens the Door to Afghanistan // The Diplomat, May 10, 2018 <https://thediplomat.com/2018/05/central-asia-opens-the-door-to-afghanistan/>

⁴ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Бирлашган Миллатлар Ташкилоти Бош Ассамблеясининг 75-сессиясидаги нутқи // Ўзбекистон Республикаси Президентининг расмий веб сайти, 23.09.2020. [president.uz \(https://president.uz/uz/lists/view/3851\)](https://president.uz/uz/lists/view/3851)

O'zbekiston geodiplomatik sa'y-harakatlari Afg'onistonda tinchlik o'rnatish jarayonlarini jadallashtirish yuzasidan AQSh, Rossiya, Xitoy va Yevropa Ittifoqining Germaniya, Fransiya singari global yetakchi davlatlar bilan o'tkazilgan oliy darajadagi ikki tomonlama uchrashuvlarda ham namoyon bo'lmoqda. Jumladan, O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning AQShga amalga oshirgan tashrifi mobaynida qabul qilingan Qo'shma siyosiy bayonotda Afg'oniston va mintaqada tinchlik, barqarorlik va xavfsizlikni ta'minlash masalalari bo'yicha o'zaro hamkorlik olib borishga kelishib olindi¹. AQShning Afg'onistondagi yarashish masalalari bo'yicha maxsus vakili Zalmay Xalilzod Afg'oniston tinchlik jarayonida O'zbekistonning o'rnini yuqori baholab, Toshkentga bir necha marotaba amaliy tashrif uyushtirdi. Unda diplomat Toshkentda bo'lib o'tgan xalqaro konferensiya yakunlari afg'on masalasini tinch yo'l bilan hal etish bo'yicha ko'p jihatdan xalqaro choralar yo'nalishlarini belgilab bergani va bu boradagi qo'shma harakatlar uchun asos bo'lgani hamda AQSH O'zbekistonning Afg'oniston tinchlik muzokaralariga ko'maklashish borasidagi konstruktiv sa'y-harakatlarini, xususan, Afg'oniston hukumati vakillari ishtirokidagi muloqotning navbatdagi davrasini Samarqandda o'tkazish to'g'risidagi tashabbusini qo'llab-quvvatlashini ma'lum qildi². 2019-yil dekabr oyida Istanbulda "O'zbekiston-AQSh-Afg'oniston" uch tomonlama formatidagi ilk uchrashuv o'tkazilishi va unda C5+1 formatiga Afg'onistonni ham jalb etish masalalari muhokama etilishi³ Katta Markaziy Osiyo mintaqasidagi O'zbekiston geosiyosatiga alohida urg'u

¹ The United States and Uzbekistan: Launching a New Era of Strategic Partnership // The White House, May 16, 2018. <https://www.whitehouse.gov/briefings-statements/united-states-uzbekistan-launching-new-era-strategic-partnership/>

² President of the Republic of Uzbekistan receives the United States delegation // Ministry of Foreign Affairs of Uzbekistan, 11 december 2018. Available at: <https://www.mfa.uz/en/press/news/2018/12/17005>; Shavkat Mirziyoyev receives the US Special Representative for Afghanistan Reconciliation. // Ministry of Foreign Affairs of Uzbekistan, 3 april 2019. Available at: <https://www.mfa.uz/en/press/news/2019/04/18572>

³ First Afghanistan-US-Uzbekistan Trilateral Meeting Held In Istanbul – Ministry of Foreign Affairs of the Islamic Republic of Afghanistan. <https://www.mfa.gov.af/news/1502-first-afghanistan-us-uzbekistan-trilateral-meeting-held-in-istanbul.html>

berilayotganidan dalolatdir. Shu bilan birgalikda, O'zbekiston Prezidenti Sh.Mirziyoyev va Rossiya Prezidenti V.Putin tomonidan imzolangan Qo'shma bayonotda tomonlar "Afg'onistonda tez fursatda tinchlik va barqarorlikka erishish Markaziy Osiyo va qo'shni mintaqalarda xavfsizlikni saqlash va mustahkamlash omili hisoblanishi va birgalikda zarur ko'mak ko'rsatishda davom etishga tayyor"¹ ekanliklarini tasdiqlashdi. O'zbekiston va Xitoyning Afg'oniston muammosini hal etish bo'yicha hamkorligiga doir masalalar davlat rahbarlari uchrashuvlarida, ShHTssindao sammitida hamda o'zbek va xitoy diplomatlari muzokaralarida atroflicha muhokama qilinmoqda. Xitoy elchisi Jiang Yangning tasdiqlashicha, Xitoy tomoni O'zbekistonning Afg'onistonda siyosiy muzokaralar jarayonini boshlash borasidagi sa'y-harakatlarini yuqori baholaydi va Xitoy ham Afg'oniston inqirozini tinch yo'l bilan hal etish tarafdori hisoblanadi². O'zbekiston Prezidentining Fransiya va Germaniyaga rasmiy tashriflarida ham Afg'onistonda tinchlik o'rnatish masalalari yuzasidan o'zaro fikr almashilganini kuzatish mumkin. Jumladan, Germaniya Federal kansleri Angela Merkel OAV uchun brifingdagi nutqida Germaniya o'z harbiylarini Afg'onistonga etkazib qo'yish uchun O'zbekiston hududidan foydalanayotgani va buning uchun minnatdor ekanini ma'lum qildi. Kanslarning so'zlariga ko'ra tomonlar turli nuqtayi nazarlarga ega bo'lishidan qat'iy nazar, hamisha ishonchli sherik bo'lib kelgan, jumladan Afg'oniston fuqarolik tuzilmalariga yordam berish loyihalarida O'zbekiston va Germaniya birgalikda ish olib borishi mumkin³.

Ta'kidlash kerakki, O'zbekiston global darajadagi tashqi kuchlarning Afg'oniston inqirozini hal etishdagi geosiyosiy o'lchovlarini juda yaxshi anglaydi. Abdulaziz Komilov bu

¹ Совместное заявление Президента Российской Федерации В.В.Путина и Президента Республики Узбекистан Ш.М.Мирзиёева // Президент России, 5 апреля 2017. <http://kremlin.ru/supplement/5180>

² Xitoy Elchisi bilan uchrashuv // O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi, 2020-yil 27-fevral. <https://mfa.uz/uz/press/news/2020/02/23550/>

³ Меркель А. Германия Ўзбекистоннинг ишончли шериги бўлишни истайди // // Халк сўзи 2019 йил 23 январь, № 15 (7245).

haqida O'zbekiston yondashuvini shunday ma'lum qiladi: "Afg'oniston masalasida biz "defence approach" deb ataluvchi himoya yondashuviga asoslanmaymiz. Biz mintaqamizda vaziyat qanaqa ekanligini yaxshi idrok etishimizga ishonchimiz komil, shuning uchun "o'yinchi"larning biri g'alaba qozonsa, ikkinchisi mag'lub bo'ladigan "nolga teng o'yinlarda" ishtirok etishga intilmaymiz. Biz pragmatikmiz va yaxshi qo'shni bo'lishni xohlaymiz"¹. Bizning fikrimizga ko'ra Markaziy Osiyoning geosiyosiy subyekti sifatida O'zbekiston tomonidan Afg'oniston masalasida qabul qilingan tashqi siyosiy qaror har qanday holatda ham, mintaqadagi kuchlar nisbatiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi va bu mamlakatimizdan yangi "Katta o'yinlar"da ishtirok etmaslikni talab etadi. Shu nuqtayi nazardan O'zbekiston geosiyosiy yondashuvlari va sa'y-harakatlari geodiplomatik paradigmalarga asoslanib, Afg'onistondagi har qanday geosiyosiy o'yinlarni inkor etadi va afg'on zaminida chinakam tinchlik va barqarorlik o'rnatish istiqbollari ni maqsad qiladi.

Umuman Afg'oniston inqirozi o'zida ichki, mintaqaviy va global darajadagi kuchlarni jalb etgan murakkab muammo ekanligini ko'rish mumkin. Bu holat barcha tomonlarni geosiyosiy jihatdan murosaga kelishini, tinchlik o'rnatish yuzasidan faol va muntazam muzokaralar amaliyotini safarbar etishni taqozo etadi. Tomonlarni ayni shunday murosaga va muzokaralarga jalb etish tajribasi O'zbekiston geodiplomatik yondashuvlari va strategik qarashlari misolida o'z aksini topadi. Shu jihatdan quyidagi xulosalarni sanab o'tish mumkin:

"AQSh-Tolibon" bitimi va "Afg'onlararo muloqot" bo'yicha Moskva formatidagi muzokara variantlarining jiddiy kamchiligi ularda rasmiy Kobul va BMT shafeligining tinchlik jarayonlarida asosiy aktorlar sifatida e'tiborga olinmaganligidir. Katta geosiyosiy manfaatga asoslangan yuqoridagi muzokara

¹ Президент Шавкат Мирзиёевнинг минтақавий хавфсизликни таъминлаш ва афғон муаммосини ҳал этиш масалалари юзасидан стратегик қараши (Ўзбекистон Ташқи ишлар вазири Абдулазиз Комилов билан интервью) // Халқ сўзи 2020 йил 29 февраль, № 44 (7546).

variantlari Afg'onistonda siyosiy vaziyatning "bolqonlashuvi"ga sabab bo'ldi.

O'zbekistonning zamonaviy afg'on muammosini hal etish bo'yicha geodiplomatiyasi makromintaqada Toshkent siyosatining qudratli dastagi hisoblanadi. Barcha afg'on ichki siyosiy kuchlari bilan teng va o'zaro muvozanat tamoyillari asosida o'rnatilgan aloqalar O'zbekistonga har tomonlama afg'onlararo tinchlik muzokaralarida muloqot maydoni bo'la olish imkoniyatini taqdim etadi. Shu nuqtayi nazardan O'zbekiston "Afg'onlararo muzokaralar" bo'yicha Samarqand formati tashabbusini amaliyotga joriy etish uchun muntazam diplomatik sa'y-harakatlarni kuchaytirishi lozim bo'ladi.

So'nggi vaqtlarda O'zbekistonning mintaqaviy darajadagi Afg'oniston siyosati asosan ikki yoki uch tomonlama hamkorliklarga tayanmoqda. Toshkentning bunday hamkorlik yondashuvlariga rag'bat berishi Afg'onistonda geosiyosiy qarama-qarshilik qiladigan tomonlarni murosaga keltirishda ma'lum qiyinchiliklarga olib keladi. Shu boisdan, bunday qarashlarni ko'p tomonlama muvofiqlashuv yondashuvlari orqali ham boyitib borish kutilgan natijalar asosiga aylanishi mumkin.

O'quv qo'llanmasida keltirilgan masalalar nihoyatda dolzarb bo'lib, geosiyosat sohasida milliy kadrlar tayyorlash jarayonini shakllantirishni o'zining asosiy maqsadlaridan biri sifatida belgilaydi. Shu jihatdan, quyidagi muhim masalalar yuzasidan atroflicha mulohaza yuritishni lozim, deb hisoblaymiz:

Geografik determenizm, demografik, tarixiy, savdo-iqtisodiy, harbiy, intellektual salohiyat O'zbekiston geosiyosatini asoslaydigan omillardir. O'zbekiston geosiyosati mintaqaviy geosiyosat xususiyatiga ega bo'lib, mintaqaga harbiy-siyosiy bosim o'tkazish mexanizmlarini tamomila rad etadi, mintaqada barqarorlik, taraqqiyot va tashqi kuchlarning o'zaro muvozanatini ta'minlashga asoslangan siyosatni ustuvor, deb hisoblaydi. Afg'oniston geografik, tarixiy, savdo-iqtisodiy, etnik, lisoniy, diniy-madaniy omillar nuqtayi nazaridan Markaziy Osiyoning uzviy qismi ekanligi sababli ushbu yondashuv qo'shni mamlakatdagi siyosat bilan uzviy bog'liq va hamohangdir.

O'zbekiston barcha Markaziy Osiyo davlatlari va Afg'oniston bilan bevosita chegaradosh bo'lgani, shuningdek, hozirgi kunga qadar Afg'oniston bilan transportning barcha turlari orqali bog'langan davlat ekanligi muhim ustunlik bo'lib, Markaziy Osiyoni Afg'oniston orqali Fors ko'rfazi va Janubiy Osiyo bilan uzviy bog'lashdek geosiyosiy roli va salohiyatini o'zida mujassam etadi. Bundan tashqari O'zbekiston hozirgi kunda Afg'onistonda mintaqaviy temir yo'l diplomatiyasini amalga oshirayotgan yagona davlat ekanligi ham istiqbolda mamlakatimiz geosiyosiy nufuzi yanada ortishi, uning transmintaqaviy aloqalar tizimida o'ziga xos muhim halqa bo'lish omillarini belgilaydi. Shu nuqtayi nazardan Transafg'on koridori O'zbekiston uchun juda zarur, istiqbolli koridordir. Mazkur koridor orqali O'zbekiston bir vaqtning o'zida Eronning Chobahor va Bandar Abbas, Pokistonning Gvadar va Karachi hamda Hindistonning Mumbay dengiz bandargohlariga chiqish imkoniyatiga ega bo'ladi. Afg'onistonning Markaziy va Janubiy Osiyoni bog'lab

turuvchi ko'prik sifatidagi tarixiy rolini qayta tiklamasdan mintaqalararo o'zaro bog'liqlikni, mintaqalarimiz o'rtasidagi qadimiy va do'stona hamkorlik aloqalarini yangi jabhalarda rivojlantirishning imkoni yo'q. Bugungi kunda aynan shunday yondashuv Yevroosiyo makonida xavfsizlik, barqaror taraqqiyotni ta'minlashning bosh shartiga aylanmoqda. Zero, Afg'oniston tinchligi — bu butun Markaziy va Janubiy Osiyo tinchligi hamda taraqqiyotining real zaminidir. Shu nuqtayi nazardan Afg'oniston oldida turgan murakkab va chigal masalalarni hal etishda Markaziy va Janubiy Osiyo mamlakatlari sa'y-harakatlarini o'zaro muvofiqlashtirish zarurati ortib bormoqda.

Bugungi kunda O'zbekiston Afg'onistonda tinchlik va barqarorlik o'rnatishga qaratilgan siyosiy muzokaralarga barcha afg'on siyosiy kuchlarini jalb etish hamda Afg'onistondagi vaziyatga daxldor barcha tashqi kuchlar o'rtasida murosa va muvozanatga erishish jarayonlarida faol ishtirok etish orqali Markaziy Osiyo mintaqasining geosiyosiy tendensiyalarida sezilarli rol o'ynamoqda. Toshkentning zamonaviy afg'on muammosini hal etish bo'yicha geosiyosiy yondashuvlari o'zida afg'onlarni, mintaqaviy va xalqaro darajadagi geodiplomatik paradigmalarni mujassam etganligi makromintaqada Toshkent siyosatining qudratli dastagiga zamin hozirlamoqda.

Umuman olganda O'zbekistonning mintaq miqyosidagi roli, ta'siri, geosiyosiy salohiyati va nufuzini atroflicha va sinchiklab o'rganish ayni shuning uchun ham muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, O'zbekiston geosiyosati Markaziy Osiyo mintaqasi bilan chambarchas bog'liq, degan qarashlar bugungi kunda yangicha va qo'shimcha yondashuvlar bilan ham to'ldirib borilmoqda. Xususan, so'nggi yillarda O'zbekiston mintaqaviy siyosatida Janubiy Osiyo mintaqasi bilan hamkorlik olib borish masalalari tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Markaziy va Janubiy Osiyo mintaqalararo muloqotining geosiyosiy omillari, Afg'onistondagi vaziyatning o'zgarib borishi O'zbekiston geosiyosatida yangi yondashuvlar ishlab chiqishni taqozo etmoqda.

GLOSSARIY

Aerokratiya (yunoncha: aero — havo, kratos — hokimiyat; havo vositasida) — havo makonidan geosiyosiy bosqinchilik niyatida foydalanish. Strategiyaning bu kuchli omili aviatsiya rivojlana boshlagandan keyin paydo bo'ldi. Dengizchilikdan farqli o'laroq, geosiyosatda mustaqil rol o'ynamaydi.

AfCentAsia — Afg'oniston va Markaziy Osiyoni yagona hudud sifatida belgilovchi atama.

AfPak — Afg'oniston va Pokiston davlatlarini yagona makon sifatida belgilaydigan atama.

AIR — Afg'oniston Islom Respublikasi.

CASA-1000 — Markaziy Osiyoni Janubiy Osiyo bilan bog'laydigan elektr energiyasi loyihasi (Central Asia-South Asia — 1000 MWt)

CENTCOM — AQSh Qurolli Kuchlari Markaziy qo'mondonligi

CPEC — (China-Pakistan Economic Corridor) Xitoy-Pokiston iqtisodiy koridori

Delimitatsiya (lat.: delimitatio—aniqlash) — davlatlar o'rtasidagi chegaralarning umumiy yo'nalishi (davlat chegaralari)ni muzokaralar yo'li bilan aniqlash. Odatda, demilitatsiya to'g'risidagi qaror davlat chegarasini aniqlash yoki o'zgartirish haqidagi sulh muzokaralari yoki maxsus kelishuvlarning tarkibiy qismi bo'ladi. Shartnoma tuzayotgan tomonlar delimitatsiya jarayonida chegara chiziqlarini (odatda, xaritada) aniqlab oladilar va bu hol bitimning alohida moddasida yoxud bitim ilovasida bayon etiladi. Bu dastlabki materiallar chegaralarni belgilashning keyingi bosqichi — ko'zda tutilgan chegaralarni joylarda o'tkazish (demarkatsiya) uchun asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Demarkatsiya (lat.: demarcatio — ajratish) — ko'zda tutilgan joylarda maxsus belgilar va alomatlar bilan davlat chegarasini tortish. Demarkatsiya taraflarning tengligi asosida tuzilgan qo'shma komissiyalar tomonidan delimitatsiya hujjatlari (shartnoma, xalqaro shartnoma, xarita, hujjat tavsifi) ga asoslangan holda amalga oshiriladi. Bu vaqtda ko'zda tutilgan chegaraning topografiyasi chiziladi yoki aerofotosi olinadi va shu asosda chegara mintaqasining yirik mashtabli topografik xaritasi tuziladi, chegara belgilari qo'yiladi va uning koordinatlari aniqlanadi.

DOISH — "Islom davlati" terrorchilik tashkilotining dariy va arab (DAISH) tillarida nomlanishi

ECO — Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti (Economic Cooperation Organization)

FATA — Federal ma'muriy qabilalar hududi (Federally Administered Tribal Areas)

Geografik determinizm — an'anaviy geosiyosatning sotsial-darvinizm bilan bir qatorda turadigan asoslaridan biri. Bu nazariya, odatda, xalqaro munosabatlarda tabiiy-geografik omillarning rolini haddan tashqari oshirib yuboradi.

Geoiqtisodiyot — davlat va blokning o'z iqtisodiy qudratiga ishonib amalga oshiradigan geosiyosati. Tashqi siyosat maqsadlariga jahon miqyosida va mintaqaviy ustunlikka asosan iqtisodiy yo'l bilan erishish. Geoiqtisodiyot baynalmilal iqtisodiy munosabatlarning o'zgarishi, jahon iqtisodiy integratsiyasi va globallashuv omillarining ta'siri ostida davomli ishlab chiqarish raqobati sharoitining yaratilishi kabi masalalarni tadqiq qiladi.

Geosiyosat — ko'p o'lchamli kommunikatsiya makonida turli-tuman davlatlar va davlatlararo birlashmalarning ta'sir doiralarni bo'lish va qayta bo'lib olish qonuniyatlari haqidagi fan. Xausxoferning aytishiga ko'ra bu — "davlatning geografik aql-idrokidir". Hozirgi geosiyosatga geoiqtisodiyot bilan ayni deb qaraladi. Geografik va iqtisodiy determinizmni oradan ko'tarish maqsadida sivilizatsiya geosiyosati (geofalsafa) rivojlantira boshlandi.

Geosiyosiy dualizm — talassokratiya va tellurokratiya (Dengiz va Qit'a) o'rtasida tarixiy jarayon "dvigatelining" ishlashini ta'minlaydigan qarama-qarshilik.

IHT — Islom hamkorlik tashkiloti

INSTC — (International North-South Transport Corridor) Xalqaro Shimol-Janub koridori

ISI — (Inter-Services Intelligence) Pokiston idoralararo razvedka xizmati

KXShT — Kollektiv xavfsizlik shartnomasi tashkiloti

MOIHD — Markaziy Osiyo iqtisodiy hamkorlik dasturi

Mossad — Isroil razvedka xizmati agentligi

MRB — (Central Intelligence Agency) Markaziy razvedka boshqarmasi

NDN — (Nothern Distribution Network) Shimoliy ta'minot tarmog'i

NDS — (National Directorate of Security) Afg'oniston Milliy xavfsizlik boshqarmasi

NWFP — (North-West Frontier Province) Shimoliy-g'arbiy chegara viloyati

OBOR — (One Belt, One Road) "Bir makon, bir yo'l" loyihasi

OTB — Osiyo taraqqiyot banki

PIR — Pokiston Islom Respublikasi

QCCM — (Quadrilateral Cooperation and Coordination Mechanism in Counter Terrosim) Xitoy, Afg'oniston, Pokiston va Tojikiston o'rtasidagi To'rt tomonlama hamkorlik va terrorizmga qarshi kurash bo'yicha muvofiqlashtiruvchi mexanizm

QCG — Afg'oniston, Pokiston, Xitoy va AQSH o'rtasidagi To'rt tomonlama muvofiqlashtiruvchi guruh (Quadrilateral Coordination Group)

RAW — Hindiston Tadqiqot va tahlil bo'limi razvedka xizmati (Research and Analysis Wing)

RECCA — Afg'oniston bo'yicha mintaqaviy iqtisodiy hamkorlik konferensiyasi

SADF — Janubiy Osiyo demokrati forumi

ShASHt — (NATO) Shimoliy Atlantika shartnomasi tashkiloti

ShHT — Shanxay hamkorlik tashkiloti

SWOT — masalaning kuchli, zaif tomonlari, imkoniyatlari va tahlikali jihatlarini o'rganadigan tahlil turi (Strengths, Weaknesses, Opportunities, Threats)

Talassokratiya (yunoncha: talassa — dengiz va kratos — hokimiyat) — harbiy-dengiz va savdo flotiga ega davlatlarning dengiz qudrati.

Tamaddunlar to'qnashuvi — Amerikalik siyosatshunos Samuel Hantingtonning konsepsiyasi. Bu konsepsiyaga ko'ra ikki qutbli dunyo sistemasi barham topgandan keyin xristian va islom sivilizatsiyalari to'qnashishi mumkin. Mintaqaviylik tendensiyalari va etnoslararo marginal konfliktlar an'anaviy axloq, tarix va madaniyatda mavjud tafovutlarga bog'liq. Xantingtonning aytishicha, G'arbning hukmronligi poyoniga yetadi. G'arb madaniyati va qadriyatlari butun dunyo uchun universal bo'lishi mumkin emas. Bunga urinishlar juda og'ir oqibatlariga sabab bo'lishi mumkin.

TAPI — Turkmaniston, Afg'oniston, Pokiston va Hindiston gaz quvuri loyihasi

Tarixning geografik o'qi (yoki Heartland) — X.Makkinderning atamasi bo'lib, jahon geosiyosiy makonida markaziy o'rin tutadigan Yevroosiyo qit'a ichi o'q maydonini bildiradi. Makkinderning fikricha, o'rta o'qni egallash jahon hukmronligiga yo'l ochadi. Turli davrlarda Sharqiy Yevropa va Sovet Ittifoqini Heartland deb atashgan.

TATK — Transafg'on transport koridori

Tellurokratiya (yunoncha: tellus — yer va kratos — hokimiyat, kuch, qudrat) — ochiq dengizlardan uzoq joylashgan davlatlarning qit'a qudrati.

TH — "Tolibon" harakati

TRACECA — (Transport Corridor Europe-Caucasus-Asia) Yevropa-Kavkaz-Osiyo transport koridori

TUTAP — Turkmaniston, O'zbekiston, Tojikiston, Afg'oniston va Pokiston o'rtasidagi elektr energiyasi loyihasi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

Asosiy adabiyotlar

1. *Мирзиёев Ш.М.* Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари. – Т.4. Т.: Ўзбекистон, 2020. – 450 б.
2. *Мирзиёев Ш.М.* Нияти улуғ халқнинг – иши ҳам улуғ, ҳаёти ҳам ёруғ ва келажаги фаровон бўлади. – Т.3. – Т.: Ўзбекистон, 2019.
3. *Мирзиёев Ш.М.* Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. – Т.: Ўзбекистон, 2018. – Т.2.
4. *Мирзиёев Ш.М.* Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. – Т.1. – Т.: Ўзбекистон, 2017.
5. *Мирзиёев Ш.М.* Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. – Т.: Ўзбекистон, 2017.
6. *Каримов И.А.* Ўзбекистон ХХI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. – Т.: Ўзбекистон, 1997.
7. *Каримов И.А.* Хавфсизлик ва тинчлик учун курашмоқ керак. – Т.10. – Т.: Ўзбекистон, 2002.
8. *Каримов И.А.* Ўзбек халқи ҳеч қачон ҳеч кимга қарам бўлмайди. – Т.13. – Т.: Ўзбекистон, 2005.

Monografiya, ilmiy maqola, patent, ilmiy to'plamlar

O'zbek tilidagi adabiyotlar

9. *Акмалов Ш.* “Толибон” ҳаракатининг Афғонистондаги сиёсий жараёнлардаги роли. // Хорижий Шарқ мамлакатлари тарихий жараёнлари ва уларни ўрганишнинг долзарб муаммолари. Вазирлик миқёсидаги илмий-амалий конференция материаллари тўплами (Тошкент, 22.05. 2017 й. № 10). – Т.: ТДШИ, 2017.
10. *Бўронов С.М.* Афғонистонда тинчлик ва барқарорлик ўрнатиш жараёнларида Ўзбекистон геосиёсати. – Т.: EFFECT-D, 2021.
11. *Ғойибназаров Ш.* Халқаро терроризм: илдизи, омиллари ва манбалари. – Т.: O'zbekiston, 2013.
12. *Жузжоний А.Ш.* Ўзбекистон ва Афғонистон дўстлигининг янги босқичи // “Афғонистон ХХ ва ХХ асрлар чорраҳасида: тарихий, иқтисодий-ижтимоий, сиёсий жиҳатлари ва унинг Марказий Осиё мамлакатлари билан ўзаро муносабати масалалари” халқаро илмий конференция материаллари тўплами. – Т.: ТДШИ, 2019.

13. Кўчаров Ч. Марказий Осиёнинг минтақавий интеграцион жараёни муаммолари (геосиёсий таҳлил тажрибаси). – Т.: Фан, 2008.
14. Муштов Д. Ўзбекистон геополитикаси: ўтмиш, бугун ва эртага // Ижтимоий фикр. Инсон ҳуқуқлари. 1999. № 1-2 (5-6).
15. Рашидов Р.Р. Афғонистонда давлатчилик масаласи: тарих ва ҳозирги замон. – Т.: “Наврўз” нашриёти, 2017.
16. Сафоев С.С. Марказий Осиёдаги геосиёсат. – Т.: ЖИДУ, 2005.
17. Сирожов О. Марказий Осиё минтақасида ҳамкорлик жараёнлари. – Т.: O‘zbekiston, 2016.

Rus tilidagi adabiyotlar

18. Адилходжаева С.М. Обострение ситуации в Афганистане: новые угрозы миру и пути их предотвращения / Сравнительная политика и геополитика, 2017 Vol.8 No. 4.
19. Акимбеков С.М. История Афганистана. ИМЭП при Фонде Первого Президента. – Астана., 2015.
20. Алимов Р.М. Центральная Азия: общность интересов. – Т.: Шарк, 2005.
21. Белокреницкий В.Я., Сикоев Р.Р. Движение Талибан и перспективы Афганистана и Пакистана. – М.: Институт востоковедения РАН, 2014.
22. Бжезинский З. Великая шахматная доска. [пер. с англ. О. Уральской]. – Москва.: Издательство АСТ, 2019.
23. Казанцев А.А. “Большая игра” с неизвестными правилами: мировая политика и Центральная Азия. – Москва: МГИМО, 2008.
24. Леонтьев М. Большая Игра. Британская империя против России и СССР. – М.: Астрель, 2012.
25. Майоров А.М. Правда об Афганской войне. Свидетельства Главного военного советника. – М.: Права человека, 1996.
26. Маккамбаев П.А. Военно-политическая ситуация в Афганистане и ее влияние на пограничную безопасность государств Центральной Азии. – Т.: Адолат, 2013.
27. Маначинский А.Я. Афганистан среди гор и войн (исследования 2009 года). – М.: Издатель Воробьев А.В., 2015.
28. Маннонов А.М. Исторические переломы Афганистана на рубеже XX-XXI вв. // “Афғонистон XX ва XX асрлар чорраҳасида: тарихий, иқтисодий-ижтимоий, сиёсий жиҳатлари ва унинг Марказий Осиё мамлакатлари билан ўзаро муносабати масалалари” халқаро илмий конференция материаллари тўплами. – Т.: ТДШИ, 2019.

29. Мейли У. Афганистан с точки зрения истории и географии // Конфликт в Афганистане. Международный журнал Красного Креста. Избранные статьи из номеров 880–881, декабрь 2010 г. – март 2011 г.

30. Мухамедов Ш. Некоторые аспекты изучения истории Центральной Азии. – Т.: Adabiyot uchqunlari, 2016.

31. Нессар О. Афганский кризис и проблема региональной безопасности / Материалы международного круглого стола “Состояние и перспективы обеспечения безопасности в Афганистане” (Дискуссия). – Т.: 2010.

32. Парамонов В. Геополитика Узбекистана: ракурс (Место под солнцем... и на политической карте) // Ижтимоий фикр. Инсон ҳуқуқлари. 1999. № 3-4 (7-8).

33. Пластун В., Андрианов В. Наджибулла. Афганистан в тисках геополитика. – М.: 1998.

34. Рахимов М. Международное сотрудничество Узбекистана в контексте обеспечения стабильности и устойчивого развития в Центральной Азии. – Т.: Yangi nashr, 2011.

35. Туляганова Н.У. Афганский фактор в современных международных отношениях в Центральной Азии. – Т.: Фан, 2004.

36. Умаров А.А. Афганистан и региональная безопасность Центральной Азии: начало XXI века. – Т.: УМЭД, 2017.

37. Файзиев Ш. Геополитика Узбекистана: ракурс (О населении “количественном” и “качественном”) // Ижтимоий фикр. Инсон ҳуқуқлари. 1999. № 3-4 (7-8).

38. Фененко А.В. Проблематика «АфПак» в мировой политике // Вестн. Моск. ун-та. Сер. 25. Международные отношения и мировая политика. 2013. № 2.

39. Хайдаров А.А. Центральная Азия во внешней политике Исламской Республики Иран. – Т.: ТашГИВ, 1998.

40. Хайдаров А.А. Афганской вектор в современной внешней политике Республике Узбекистан // “Афғонистон XX ва XX асрлар чоррахасида: тарихий, иқтисодий-ижтимоий, сиёсий жиҳатлари ва унинг Марказий Осиё мамлакатлари билан ўзаро муносабати масалалари” халқаро илмий конференция материаллари тўплами. – Т.: ТДШИ, 2019.

41. Южаковъ С.Н. Афганистан и сопредельные страны (Политико-исторический очерк). – С.Петербург: Общественная Польза, (Harvard University Library) 1885.

Ingliz va fransuz tilidagi adabiyotlar

42. *Andreyev S.* A survey of ethnic composition, some social institutions and recent political history of Afghanistan. – Islamabad., 2002.
43. *Barfield Th.* Afghanistan: a cultural and political history. – New Jersey: Princeton University Press, 2010.
44. *Barrat J., Ferro C., Wang Ch.* Géopolitique de l'Ouzbékistan. – Paris: SPM, 2010.
45. *Biswas A.* Durand line: History, Legality & Future. – New Delhi. Vivekananda International Foundation, 2013.
46. *Buranov S.* Durand Line – Key of The Afghan Problem // International Journal of Scientific and Technology Research Volume 9, Issue 02, February 2020.
47. *Buranov S.* Afghanistan: The bridge connecting Central and South Asia // Kabul Times, INo 71-Vol:LIX, June 16, 2021.
48. *Cooley J.K.* Unholy wars: Afghanistan, America, and international terrorism. – London: Pluto Press, 1999.
49. *Copeland D.* Guerrilla Diplomacy: Rethinking International Relations. Boulder London, Lynne Rienner Publishers. 2009.
50. *Dhaka A.* South Asia and Central Asia: Geopolitical dynamics. – Jaipur: Mangal Deep Publications, 2001.
51. *Dr Megoran N.* The Politics of Using Mackinder's Geopolitics: The Example of Uzbekistan // Central Asia and the Caucasus (Special Issue) No. 4(34), 2005.
52. *Frank H.L.* Into the land of bones: Alexander the Great in Afghanistan. – California, University of California Press, 2005.
53. *Goodson L.P.* Afghanistan's endless war: state failure, regional politics, and the rise of the Taliban. – Seattle: University of Washington Press, 2001.
54. *Griffin M.* Reaping the whirlwind: Afghanistan, Al Qa'ida and the holy war. – London: Pluto Press, 2003.
55. *Hassan K.* A political and diplomatic history of Afghanistan, 1863-1901. – Brill Leiden (Boston), 2006.
56. *History of Civilizations of Central Asia. Volume III. The crossroads of civilizations: A.D. 250 to 750.* UNESCO publishing, 1996.
57. *Hopkins B.D.* The making of modern Afghanistan. – Hampshire: Palgrave Macmillan, 2008.
58. *Hopkirk P.* The Great Game on Secret Service in High Asia. – New York: Oxford University Press, 1990.

59. *Huasheng Zh.* China and Afghanistan: China's interests, stances and perspectives // Center for Strategic and International studies. March 2012.

60. *Humboldt A.* Asie centrale. Recherches sur les chaines de montagnes et la climatologie compare. – Paris:1843.

61. *Huntington S.P.* The Clash of Civilizations and Remaking of the World Order. – New York: Simon&Schuster Rockfeller Centre, 1996.

62. *Jalalzay M.Kh.* The Afghan Intel Crisis; Satellite State – War of Interests and the Blame Game. New York, Algora Publishing. 2017.

63. *Jones S.G.* In the Graveyard of Empires: America's War in Afghanistan. – Array: W.W. Norton & Company.

64. *Kavalski E.* The New Central Asia: The Regional Impact of International Actors. – Singapore: World Scientific Publishing Co. Pte. Ltd., 2010.

65. *Kipling R.* Kim. Penguin Classics, 1987.

66. *Kulipanova E.* International Transport in Central Asia: Understanding the Patterns of (Non-) Cooperation // Institute of Public Policy and Administration. Working Paper No.2, 2012.

67. *Kassenova N.* Relations between Afghanistan and Central Asian states after 2014. Incentives, Constraints, and Prospects. – Solna (Sweden), 2014.

68. *Laumulin M.* The Geopolitics of XXI Century in Central Asia. – Almaty: KazISS, 2007.

69. *Mackinder H.J.* Democratic Ideals and Reality: a Study in the Politics of Reconstruction. New York.: Henry Holt, 1919.

70. *Maley W.* The Afghanisthan wars. – Hampshire: Palgrave Macmillan, 2002.

71. *McCauley M.* Afghanistan and Central Asia: A Modern History. – London: Pearson Education, 2002.

72. *Misdaq N.* Afghanistan: Political Frailty and External Interference. – New York: Routledge Taylor & Francis Group, 2006.

73. *Mohammed Ali.* The Afghans. – Kabul, 1969.

74. *Rashid A.* Taliban: Islam, Oil, and the New Great Game in Central Asia. London-New York, I.B.Tauris Publishers. 2000.

75. *Rogers P.* A war on terror: Afghanistan and after. – London: Pluto Press, 2004.

76. *Rubin B.R.* Afghanistan from the Cold War through the War on Terror. – New York: Oxford University Press, 2013.

77. *Safi M., Alizada B.* Integrating Afghanistan into the Belt and Road Initiative: Review, Analysis and Prospects. Friedrich-Ebert-Stiftung (FES) Publishing, August 2018.

78. *Saikal A., Maley W.* The Soviet Withdrawal from Afghanistan. – Cambridge: Cambridge University Press, 1989.

79. *Sayfullayev D.* Afghan for Central Asia and Uzbek Prescription for its Treatment // The publication is brought out under the project Cooperative Development, Peace and Security in South and Central Development sponsored by Ministry of External Affairs, New Delhi, 2013.

80. *Schofield V.* Afghan Frontier: At the crossroads of conflict. – London: Tauris Parke Paperbacks, 2010.

81. *Shahrani N.M.* Taliban and Talibanism in Historical Perspective // The Taliban and the Crisis of Afghanistan edited by Robert D. Crews and Amin Tarzi. – Cambridge, Massachusetts: Harvard University Press, 2008.

82. *Starr F.* A 'Greater Central Asia Partnership' for Afghanistan and Its Neighbors // Central Asia Caucasus Institute & Silk Road Studies Program – A Joint Transatlantic Research and Policy Center. Silk road paper, March 2005.

83. *Starr F., Kuchins A.* The Key to Success in Afghanistan: A Modern Silk Road Strategy // Silk Road Paper, May 2010.

84. *Tellis A.J.* Reconciling with the Taliban? Toward an alternative grand strategy in Afghanistan. – Carnegie Endowment for International Peace, Washington, D.C., 2009.

85. *Tolipov F.* Micro-Geopolitical Semiotics of Central Asia: "Crossroads" and "Bridges" // Central Asia and the Caucasus, Volume 16, Issue 2, 2015.

86. *Wardak D.P.* Why the NDS matters: The emergence of the Afghan intelligence agency after 9/11 // Journal of Intelligence and Terrorism Studies, 2017, 2: #LDS6AJ.

87. *Yuldasheva G.* The Role of Iran and the United States of America in Geopolitics of Central Asia. Latvian Institute of International Affairs, 2017.

Dariy tilidagi adabiyotlar

88. *امير عبدالرحمان خان.* تاج التواريخ (از ۱۷۴۷ تا ۱۹۰۰م). – کابل. میوند، ۱۳۷۵.

۴۲۰-۴۲۳.

89. *زلمی هیوادم.* جستاری در باره همکاریهای فرهنگی افغانستان و ازبکستان در سده

بیستم. تاشکند. – ص. ۲۳-۳۰. //

"Afg'oniston XX va XX asrlar chorrahasida: tarixiy, iqtisodiy-ijtimoiy, siyosiy jihatlari va uning Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan

o'zaro munosobati masalalari" xalqaro ilmiy konferensiya materiallari to'plami. – T.: TDSH, 2019. – B.23-30.

90. عزیز آریانفر. "دیورند": "پایان خط" نزدیک می شود! – کابل، ۲۰۰۵. – ص. ۱۵.
91. عطایی محمد ابراهیم. تاریخ معاصر افغانستان. – کابل، ۱۳۸۹. – ۷۳۶ ص.
92. قیومی محمد داوود. جایگاه دیپلوماسی عمومی در سیاست جمهوری اسلامی افغانستان // فصلنامه مطالعات استراتژیک. – کابل: ۲۵ و ۲۶، ۱۳۹۰. – ص. ۶۵-۷۰.
93. هویدا محمد رضا. روابط اقتصادی افغانستان و ازبکستان / روزنامه افغانستان، سال دهم – شماره ۲۶۷. – ص. ۲.
94. خاوری مظفر. امکان پذیری سیاست خارجی افغانستان بر اساس نظریه سیستمی // فصلنامه مطالعات استراتژیک. – کابل: ۲۵ و ۲۶، ۱۳۹۰. – ص. ۳۹-۵۲.
95. غبار میر غلام محمد. افغانستان در مسیر تاریخ. مرکز نشر انقلاب، ۱۳۶۸. – ۸۶۱ ص.
96. زلمی خلیل زاد. فرستاده: از کابل تا کاخ سفید (سفر من در جهان آشفته). – کابل: (ترجمه هارون نجفی زاده) انتشارات عازم، ۱۳۹۵. – ۳۴۴ ص.
97. عظیمی محم نبی. اردو و سیاست (درسه دهه اجی افغانستان). – میوند: ۱۳۷۲. – ۶۴۱ ص.

Dissertatsiya va avtoreferatlar

98. Gulzad Z.A. The history of the delimitation of the Durand Line and the development of the Afghan state (1838-1898). A thesis submitted in partial fulfillment of the requirements for the degree of Doctor of Philosophy (History). University Of Wisconsin-Madison, 1991.

99. McCarty J. The Enduring Heart Of Central Asia: A Study To Understand Afghanistan's Survival. A Dissertation Presented to the Faculty of The Graduate College at the University of Nebraska In Partial Fulfillment of Requirements For the Degree of Doctor of Philosophy, 2018.

100. Perkin J.C. The end of the Great Game: Anglo-Russian Relations Concerning Central Asia 1899-1907. Thesis submitted in partial fulfillment of the requirements the Degree-of Master of Arts at Acadia University, 1985.

101. Schurter H. The failures of U.S. policy in Afghanistan and the lessons learned. In partial fulfillment of the Requirements for the degree of Master of Arts in International Peace and Conflict Resolution. Washington, 2013.

102. Xon H.A. The Great Game in Kipling's Works. A dissertation submitted to the University of Peshawar, Pakistan in partial fulfillment of the requirements for the degree of Doctor of Philosophy. – University of Peshawar, 2014.

103. Акмалов Ш.И. Проблема афганского урегулирования в современных пакистано-иранских отношениях. Дисс. канд. пол. наук. – Т., 2002.
104. Баутин А.А. Процессы политической фрагментации в Афганистане: проблемы и противоречия (1992-2009 гг.). Автореф. дисс. канд. пол. наук. – Воронеж: 2010.
105. Бўронов С.М. Афғонистонда вазиятни барқарорлаштириш жараёنларида Ўзбекистон иштирокининг геосиёсий жиҳатлари. Сиёс. фан. бўйича фалс. док. дисс. – Тошкент: 2021.
106. Зиёева Н. Роль ООН в налаживании политического диалога между противоборствующими силами в вооруженных конфликтах (на примере Афганистана). Дисс. канд. пол. наук. – Душанбе: 2014.
107. Зоҳидов А.А. Марказий Осиё транспорт тизимини самарали бошқариш механизмини такомиллаштириш. Икт. фан. док. (Doctor of Science) дисс. – Т.: 2018.
108. Ибраимова А.А. Ўзбекистон Республикасини Марказий Осиё давлатлари билан ташқи иқтисодий алоқаларининг географик жиҳатлари. Геог. фан. ном. дисс. – Т.: 2012.
109. Искандаров К. Общественно-политические движения в Афганистане: 1945-2001 гг. Автореф. дисс. док. истор. наук. – Душанбе: 2004.
110. Казанцева Е.В. Геополитические и геостратегические процессы в Центральной Азии и Закавказье на рубеже XX и XXI века. Автореф. дисс. канд. пол. наук. – Ростов-на-Дону: 2012.
111. Князев А.А. Влияние афганского кризиса на безопасность Центральной Азии (1990-е – начало 2000-х гг.) Автореф. дисс. док. истор. наук. – Бишкек: 2004.
112. Кохманд Х. Международные аспекты урегулирования конфликта в Афганистане. Автореф. дисс. канд. пол. наук. – М., 2012.
113. Лалетин Ю.П. Этнополитические процессы в истории Афганистана XVIII – XX веков. Автореф. дисс. канд. ист. наук. – М.: МГИМО, 2000.
114. Масимов А.А. Мустақиллик шароитида Ўзбекистоннинг Марказий Осиё мамлакатлари геосиёсатидаги ўзига хос тутган ўрни. Сиёсий фан. ном.дисс. –Т.: 2007.
115. Муитов Д. Худудий яхлитлик муаммоси: геосиёсий таҳлил тажрибаси (Ўзбекистон мисолида). Сиёсий фан. ном.дисс. –Т.: 2003.
116. Нессар О. История политического развития современного Афганистана (2001-2014 гг.). Автореф. дисс. канд. истор. наук. – М.: 2016.

117. *Подберезкина О.А.* Эволюция значения международных транспортных коридоров в мировой политике на примере России. Дисс. кан. пол. наук. – Москва., 2015.

118. *Рашидов Р.Р.* Афғон давлатчилиги шаклланишига халқаро ва минтақавий жараёнларнинг таъсири. Сиёсий фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Т.: 2018.

119. *Сайдалиев У.* Международная антитеррористическая операция в Афганистане и ее влияние на геополитику Центральной Азии. Автореф. дисс. канд. пол. наук. – Бишкек: 2009.

120. *Спожмей В.* Особенности становления государственности в Исламской Республике Афганистан на современном этапе. Дисс. канд. пол. наук. – М.: 2015.

121. *Туляганова Н.У.* Афганский конфликт и его последствия в контексте становления новой системы безопасности в Центральной Азии. Автореф. дисс. док. пол. наук. – Т., 2006.

122. *Умаров Х.П.* Ўзбекистон Республикаси геосиёсий ҳолатининг геостратегик жиҳатлари. Сиёсий фан. ном.дисс. – Т.: 2004.

123. *Ханеев М.В.* Этнический фактор в политическом строительстве афганской государственности. Автореф. дисс. канд. пол. наук. – М., 2010.

124. *Эхлас Т.* Афганский кризис и проблемы его регулирования (1988-2009 гг.). Автореф. дисс. канд. ист. наук. – М., 2010.

Internet manbalari

125. “Ограниченный контингент” людей долга и чести... к 30-летию вывода советских войск из Афганистана // Минобороны России. <http://mil.ru/files/files/afgan30/>

126. 2020 Military Strength Ranking // Global fire power. <https://www.globalfirepower.com/countries-listing.asp>; 2020 Uzbekistan Military Strength // Globalfirepower. https://www.globalfirepower.com/country-military-strength-detail.asp?country_id=uzbekistan

127. Afghanistan 2019 Presidential Election // Afghanistan Independent Election Commission. <http://www.iec.org.af/results/en/home>

128. Afghanistan, China, Pakistan, Tajikistan issue joint statement on anti-terrorism // Ministry of Foreign Affairs of the People's Republic of China, August 4, 2016. http://eng.mod.gov.cn/DefenseNews/2016-08/04/content_4707451.htm

129. *Chaudhury D.R.* Uzbekistan keen to connect India via Afghanistan & Iran // The Economic Times, 22 December 2019. Available

at: <https://m.economictimes.com/news/politics-and-nation/uzbekistan-keen-to-connect-india-via-afghanistan-iran/articleshow/72923860.cms>

130. First Afghanistan-US-Uzbekistan Trilateral Meeting Held In Istanbul // Ministry of Foreign Affairs of the Islamic Republic of Afghanistan, 09.12.2019. <https://www.mfa.gov.af/news/1502-first-afghanistan-us-uzbekistan-trilateral-meeting-held-in-istanbul.html>

131. FM to represent Pakistan in signing ceremony of US-Afghan Taliban peace agreement // Radio Pakistan. February 29, 2020. <http://www.radio.gov.pk/29-02-2020/fm-to-represent-pakistan-in-signing-ceremony-of-us-afghan-taliban-peace-agreement>

132. General Austin Miller's statement on alleged Russian, Iranian and Pakistani support for the Taliban in Afghanistan (Briefing by Foreign Ministry Spokesperson Maria Zakharova, Samara, June 20, 2018) - Press-Releases - Embassy of the Russian Federation in the Islamic Republic of Afghanistan. <https://afghanistan.mid.ru/-/o-zaavlenii-o-millera-o-akoby-podderzke-rossiej-iranom-i-pakistanom-dvizenia-talibov-v-afganistane-brifing-ocial-nogo-predstavitela-mid-rossii-m-v-z>

133. *Haqqani S.* What We, the Taliban, Want // The New York Times, February 20, 2020. <https://www.nytimes.com/2020/02/20/opinion/taliban-afghanistan-war-haqqani.html>

134. *Jamal A.Sh.* The Fatemiyoun Army: Reintegration into Afghan Society / United States Institute of Peace, Special Report, № 443 March 2019. Available at: <https://www.usip.org/publications/2019/03/fatemiyoun-army-reintegration-afghan-society>

135. Joint Declaration Between The Islamic Republic Of Afghanistan And The United States Of America For Bringing Peace To Afghanistan // State Ministry for Peace of Afghanistan, February 29, 2020. <http://smp.gov.af/en/joint-declaration-between-islamic-republic-afghanistan-and-united-states-america-bringing-peace>

136. Joint Statement on the U.S. - Afghanistan - Uzbekistan Trilateral Meeting // United States Department of State, May 27, 2020. <https://www.state.gov/joint-statement-on-the-u-s-afghanistan-uzbekistan-trilateral-meeting/>

137. Joint Statement: Vision and Principles for India-U.S. Comprehensive Global Strategic Partnership // Official website Prime Minister Narendra Modi, February 25, 2020. <https://www.narendramodi.in/joint-statement-vision-and-principles-for-india-u-s-comprehensive-global-strategic-partnership-548572>

138. *Karimova Z.* Connecting Asia: Uzbekistan Looks to Capitalize on Central Asia's Transport Potential // The Diplomat, April 12, 2018.

<https://thediplomat.com/2018/04/connecting-asia-uzbekistan-looks-to-capitalize-on-central-asias-transport-potential/>

139. Kugelman M. Will Pakistan Continue to Play a Constructive Role in the Afghan Peace Process? // World politics review, March 9, 2020. <https://www.worldpoliticsreview.com/articles/28586/will-pakistan-continue-to-play-a-constructive-role-in-the-afghanistan-peace-talks>

140. Maizland L., Laub Z. The Taliban in Afghanistan // Council on Foreign Relations, March 11, 2020. <https://www.cfr.org/background/taliban-afghanistan>

141. Mashrab F. Uzbekistan Steps up Railway Diplomacy // The Jamestown Foundation: Global Research & Analyse, November 8, 2018. <https://jamestown.org/program/uzbekistan-steps-up-railway-diplomacy/>

142. New transport corridor, new opportunities and large-scale prospects // O'zbekiston temir yo'llari, 12.07.2018. Available at: http://www.railway.uz/en/informatsionnaya_sluzhba/novosti/12643/

143. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Afg'oniston Islom Respublikasi Prezidenti Muhammad Ashraf G'aning Qo'shma bayonoti // O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi, 2017-yil 6-dekabr. <https://mfa.uz/uz/press/news/2017/12/13301/>

144. Spokesman Confirms Taliban Delegation's Visit to Iran // Ministry of Foreign Affairs of Islamic Republic of Iran, 17.09.2019. <https://en.mfa.ir/portal/newsview/539916/spokesman-confirms-taliban-delegation%E2%80%99s-visit-to-iran>

145. Taliban delegation holds talks in China as part of peace push // REUTERS, June 20, 2019. <https://www.reuters.com/article/us-china-afghanistan/taliban-delegation-holds-talks-in-china-as-part-of-peace-push-idUSKCN1TL0V9>

146. Taliban Held Talks with Iranian Officials in Tehran // Ariana News, December 31, 2018. <https://ariananews.af/taliban-held-talks-with-iranian-officials-in-tehran/>

147. The United States and Uzbekistan: Launching a New Era of Strategic Partnership // The White House, May 16, 2018. <https://www.whitehouse.gov/briefings-statements/united-states-uzbekistan-launching-new-era--strategic-partnership/>

148. The World Factbook // Central Intelligence Agency. <https://www.cia.gov/library/publications/the-world-factbook/fields/330rank.html#UZ>

149. Unstoppable: The Hairatan to Mazar-e-Sharif Railway Project // Asian Development Bank, February 2014. [https://www.adb.org/filesPDF/Unstoppable The Hairatan to Mazar-e-Sharif Railway Project](https://www.adb.org/filesPDF/Unstoppable%20The%20Hairatan%20to%20Mazar-e-Sharif%20Railway%20Project.pdf)

150. US offers Blackwater role to Taliban // Afghanistan Times, April 28, 2020. <http://www.afghanistantimes.af/us-offers-blackwater-role-to-taliban/>

151. Uzbekistan Builds Transit Hub At Afghan Border // Tolo News, 01 July 2018. Available at: <https://www.tolonews.com/business/uzbekistan-builds-transit-hub-afghan-border>

152. Whitlock C. At War With The Truth. The Afghanistan Papers: A secret history of the war // Washington Post, December 9, 2019. <https://www.washingtonpost.com/graphics/2019/investigations/afghanistan-papers/afghanistan-war-confidential-documents/>

153. Wolf O.S. Does the US-Taliban deal serve Pakistan's interests in Afghanistan? // South Asia Democratic Forum. 6 March, 2020. <https://www.sadf.eu/comment-171-does-the-us-taliban-deal-serve-pakistans-interests-in-afghanistan/>

154. Бекмухаммад К. В Кабуле ошибаются, когда думают, что талибы станут частью власти // Central Asian Bureau for Analytical Reporting, 22.04.2020. <https://cabar.asia/ru/kosim-bekmuhammad-v-kabule-oshibayutsya-kogda-dumayut-chto-taliby-stanut-chastyu-vlasti/>

155. Внешнеторговый оборот Республике Узбекистан (январь-декабрь 2019 г.) // Государственный комитет Республики Узбекистан по статистике, 22.01.2020. <https://stat.uz/ru/press-tsentr/novosti-komiteta/8315-o-zbekiston-respublikasining-tashqi-savdo-aylanmasi-511>

156. Дубнов А. Почему интересы России и "Талибана" объективно совпали // Carnegie Moscow Center, 14.01.2016. <https://carnegie.ru/commentary/62459>

157. Ежов Г.П. Проекты железных дорог Афганистана: прошлое, настоящее и будущее // Всё об Афганистане, 13.01.2009. <http://afghanistan.ru/doc/13787.html>

158. Князев А. Мифология трансфганских проектов // Независимая газета, 27.01.2019. http://www.ng.ru/dipkurer/2019-01-27/11_7492_mythology.html

159. Махмудов Р. Зачем Трамп перезагружает переговоры с "Талибаном"? // Клуб «Валдай», 10.12.2019. <https://ru.valdaiclub.com/a/highlights/zachem-tramp-perezagruzaet-peregovory-s-talibanom/>

160. Столповский О.В. реализации транспортных проектов Узбекистан ориентируется на южное направление // Ритм Евразии, 01.09.2018. <https://www.ritmeurasia.org/news--2018-09-01--v-realizacii->

transportnyh-proektov-uzbekistan-orientiruetsja-na juzhnoe-napravlenie-38304

161. Ўзбекистон Республикаси Давлат хавфсизлик хизмати тўғрисида // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари миллий базаси. <https://lex.uz/m/acts/3610935>.

162. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси // Ўзбекистон Миллий ахборот агентлиги, 2017 йил 23 декабрь. <http://uza.uz/uz/documents/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyeevning-oliy-22-12-2017>)

Suhrob BO'RONOV

O'ZBEKISTON GEOSIYOSATI

5120700 –Jahon siyosati bakalavriat
ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun
o'quv qo'llanma

Muharrir: Bashorat Azamova

Dizayner: Oygul Foilova

Sahifalovchi: Komil Raxmatov

Nashr. lits. № AA 0016. 19.08.2019 y.

«EFFECT-D» nashriyoti

100000, Toshkent shahri, Abay ko'chasi, 16-A uy.

email: info@effectnashr.uz

01.11.2021 da nashrga ruxsat etildi.

Bichimi 60x84 1/16. Shartli b.t. 14,0. Hisob. b.t. 13,75.

Times New Roman garniturası. 30 nusxa. 61-buyurtma.